



СУРХОНДАРЁ: ИЛМ ВА ТАФАККУР
SURKONDARYO: ILM VA TAFAKKUR
СУРХАНДАРЬЯ: НАУКА И МЫШЛЕНИЕ
SURKHANDARYA: SCIENCE AND CONTEMPLATION



СУРХОНДАРЁ ВИЛОЯТИ ХУДУДИЙ ИННОВАЦИЯ ФАОЛИЯТИ ВА ТЕХНОЛОГИ-
ЯЛАР ТРАНСФЕРИ МАРКАЗИ ҲАМДА СУРХОНДАРЁ ФАН ВА ТЕХНОЛОГИЯЛАР-
НИ РИВОЖЛАНТИРИШ МАРКАЗИ ИЛМИЙ ЖУРНАЛИ

НАУЧНЫЙ ЖУРНАЛ ЦЕНТРА РЕГИОНАЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ И ТРАНС-
ФЕРА ТЕХНОЛОГИЙ СУРХАНДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ И ЦЕНТРА РАЗВИТИЯ
НАУКИ И ТЕХНОЛОГИЙ СУРХАНДАРЬИ

SURKHANDARYA REGIONAL TERRITORIAL INNOVATION ACTIVITY AND TECH-
NOLOGY TRANSFER AND SURKHANDARYO SCIENTIFIC JOURNAL OF SCIENCE AND
TECHNOLOGY DEVELOPMENT CENTER

Илм келажагимиз равнақидир

СУРХОНДАРЁ: ИЛМ ВА ТАФАККУР
SURKHANDARYO: ILM VA TAFAKKUR
СУРХАНДАРЬЯ: НАУКА И МЫШЛЕНИЕ
SURKHANDARYA: SCIENCE AND
CONTEMPLATION

Илмий мақолалар журнали

N-3 2025



ТАЪСИСЧИЛАР;
СУРХОНДАРЁ ВИЛОЯТИ ХУДУДИЙ ИННОВАЦИЯ ФАОЛИЯТИ ВА ТЕХНОЛОГИЯЛАР
ТРАНСФЕРИ МАРКАЗИ ҲАМДА СУРХОНДАРЁ ФАН ВА ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИ
РИВОЖЛАНТИРИШ МАРКАЗИ ИЛМИЙ ЖУРНАЛИ

Ҳар чоракда 1 марта чиқади.

**Jurnal 25-05-2020 yil. №-11-079
raqami bilan ro'yxatga olingan.**

O'zbekiston Respublikasi OAK ning 2021 yil
12 dekabrda № 01-06/25-04 raqamli xati
asosida ro'yxatga olingan.

Ommaviy axborot vositasi davlat
ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risida
GUVONOMA N-11-079.

My.gov.uz. Yagona interaktiv. davlat
xizmatlari portali.
N 8102-325e-cd96-f50a-53b3-3119-7970

Hujjat yaratilgan sana: 2020-05-25.

Ariza raqami: 19051279.

НАШР ИНДЕКСИ 190-111.

ЖУРНАЛ «ADAD PLYUS» МЧЖ
матбаа бўлимида чоп этилди.
Тошкент шаҳри, Чилонзор тумани,
Бунёдкор кўчаси 28-уй.
Босишга рухсат этилди: 19.09.2025.
Қоғоз бичими 60x84 1/8.
Босма табоғи 12,0. Офсет босма.
Офсет қоғози. Адади 100.
Баҳоси келишилган нархда.
Буюртма № 48.

Техник ходимлар:
Эргашева Сайёра
Мамаражабов Ғайрат
Қаршиев Ислон
Рахмонов Махаммади
Саҳифаловчи:
Қўшоқова Мохигул

Таҳририят манзили: Сурхондарё вилояти
Термиз шаҳри "Баркамол авлод" кўчаси 43 уй.
tursunovsafullo12@mail.ru
Тел: 876 223 07 66.
+99 891 577 90 50,
+99 894 200 49 55,
+99 891 229 22 29.

Бош муҳаррир:

Главный редактор:

Chief Editor:

Турсунов Сайпулла Нарзуллаевич
Тарих фанлари доктори, профессор
Термиз давлат университети

Бош муҳаррир ўринбосари:

Заместитель главного редактора:

Deputy Chief Editor:

Пардаев Тошкенбой Раджабович
Тарих фанлари доктори, доцент
Термиз давлат университети

Журналнинг илмий котиби:

Ученый секретарь журнала:

Scientific Secretary of the journal:

Холмўминов Хусан Эшмўминович тарих фанлари
доктори, доцент, Термиз давлат университети

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:

Тошқулов Абдуқодир
Асқаров Аҳмадали
Каримов Соҳибназар
Муртазоева Раҳбархон
Сагдуллаев Анатолий
Ашуров Адҳам
Ражабов Қаҳрамон
Воҳидов Шодмон
Виктор Агаджаниан
Юнусова Хуршида
Абдуллаев Улуғбек
Толипов Файзулла,
Дадамирзаева Гулчехра,
Дониёров Алишер
Шамсиддинов Рустам
Обломуродов Наим
Эшов Баҳодир
Саидов Илҳом
Ҳайитов Шодмон
Ғаффоров Шокир
Мусаев Нуриддин
Бобожонова Дилором
Абдуллаева Яхшибека
Эргашева Юлдуз
Давлатова Саодат
Маткаримова Садоқат
Раҳмонов Фахриддин
Турсунов Нурулло
Тилеукулов Гауҳар
Бўриев Очил
Қурбонова Манзила
Турсунов Жавли
Ҳўшбоқов Панжи

Раҳимов Баҳодир
Акчаев Фаррух
Усмонов Муртоз
Ирискулов Олимжон
Турсунов Анвар
Аҳмедова Гулчехра
Умаров Иқром
Қаршиев Ислон
Туропова Моҳидил

**ЖАМОАТЧИЛИК
КЕНГАШИ:**

Бакиров Поён
Умиркулов Бекпўлат
Норбошева Меҳри
Хуррамов Алишер
Аликулов Рустам
Холиқов Зокир
Абдуқаюмов Асрор
Янгибоев Норкуват
Турдиев Тоштемир
Алланов Қилич
Муртозоев Бобоназар
Шариф Ёқубов

TARIX



ОЛИМ РЎЗИКУЛ МУСТАФОКУЛОВ 80 ЁШДА

“ҚУРУҚ ҚЎЛ БИЛАН КЕЛМАДИМ”

Бекпўлат Умуркулов

Термиз давлат университети профессори, филология фанлари доктори

Шариф Ёқубов

*Термиз давлат университети доценти, филология фанлари номзоди**e-mail: sharif.yoqubov@mail.ru**<https://orcid.org/0009-0002-8677-1325>**UDK 8/81(81,33)*

Ҳаётда шундай инсонлар борки, уларнинг суҳбатида бўлсангиз, минг йиллик дарддан фориг бўлгандек ўзингизни енгил ҳис этасиз. Бундай инсонларнинг оҳанрабои бормикан ёки самимияти, дунёқарашининг кенглиги ва илм-у салоҳияти кишини ўзига тортаверармикан? Мана шундай таърифлар тили, феъли, табиати мулойим, Термиз давлат университети доценти, филология фанлари номзоди Рўзикул Мустафокуловга айнан мос келади. Қаҳрамонимиз билан бир бора суҳбатлашсангиз, нотўғри сўзламаганимизга ишончингиз комил бўлади.

Устоз ўтган йиллар давомида катта ҳаётнинг машаққатли, илмнинг дағал ва анча заҳматли йўларини босиб ўтди. Айримлар аҳвол танг келганда, илмдан

чекинган бўлса, устоз уларнинг акси ўлароқ дилга тугилган мақсад йўлидан бир қадам ҳам чекинмади. Чекиниш қаҳрамонимиз феълига хос эмас. Тўғри, вазият оғир келганда бир паст тўхтагандир, нафас ростлагандир. Рўзикул ака яхши олим бўлишни ҳам, чин инсон бўлишни ҳам эплай олганлардан. Бу олимнинг феъли, табиати дарёдир.

Рўзикул Мустафокулов 1946 йилнинг 15 августида Жарқўрғон туманида таваллуд топди. Вақтнинг тезкорлиги, учқурлигини қарангки, ўшандан бери орадан саксон йилга яқин ўтибди. Ёш Рўзикул ўрта мактабни аъло баҳоларга тугатиб, Самарқанд жисмоний тарбия педагогика билим юртига ўқишга кириб, имтиёзли диплом билан тугатди. Сўнг, Самарқанд давлат университетининг ўзбек ва тожик

филологияси факультетида ўқиди. Университет ректори, академик, филология фанлари доктори Воҳид Абдуллаев, академиклар Нуриддин Шукуров, Ботирхон Валихўжаев, фан докторлари, профессорлар Улуғ Турсунов, Худайберди Дониёров, Ваҳоб Эгамов, Жўра Мухторов, Жўрабой Ҳамдамов, Тоҳир Хўжаев, Раҳматулло Қўнғиров, Сайдулло Мирзаев, Талъант Маҳмудов каби тилшунос ва адабиётшунос устозлардан сабоқ олди.

Бир нарсани эътироф этиш керакки, у университетда “кун ўтарга” ўқимади. Ёки бўлмаса, “амал-тақал” қилиб курсдан-курсга ўтувчилар тоифасидан ҳам эмас эди. У илмга қизиқувчан, ўрганишга ташна, тиниб-тинчимайдиган талабалар сафида бўлди.

Биз дўстимиз Р.Мустафоқуловнинг ўзига хос характерлари ҳақида бир савол билан мурожаат қилдик:

— Мен чиройли уй, чиройли боғ, ширин сўзлар боғи, чиройли ҳаёт, тарбияли, ўқимишли фарзандлар, неваря, чеваралар вояга етказдим, деб ўйлайман. Ҳар бир сўзимни, ҳар бир ҳаракатимни, ҳар бир гапимни, ҳар бир қадамимни ўйлаб ташладим. Ҳеч бир инсоннинг кўнгил шишасини синдирмадим. Силлиққина ҳаракат қилдим. Ўйлайманки, менинг яқин орадаги авлодларим ҳам шу руҳда яшаб ўтишади. Зиёли оиласида тарбия топганлигини ҳеч қачон ва ҳеч вақт қалбидан соқит қилмаслигига ишончим комил. Нафсга қул бўлмасликка ҳаракат қилдим. Адолатли бўлишга ҳам эътибор қилиб яшадим. Шу жумладан сўзларни исроф қилмасликка, унга безак бериб ишлатишга ҳаракат қилдим. Сўзни қадрлаб, шу билан бирга ундан эҳтиёт бўлиб яшашга одатландим. Шеърларимда айтганимдек, ҳеч бир нарсага қизганмадим. Фақат ва фақат вақтдан ютиш ва уни исроф қилмасликка курашдим. Бу ҳақда шеърларимда ҳам қайд этиб ўтганман:

Камол топдим ватан қўйнида
Зориқмасдан ҳеч бир нарсага.
Истаганим бўлди муҳайё
Керак бўлса неки инсонга.

Ва ҳаётда қизғонмадим ҳеч
На мансаб-у, иқбол тахтга.
Билмам нега ҳар эрта-ю кеч,
Фақат кўнгил қизғанди вақтга.

Рўзикул Мустафоқулов иш фаолиятини тоғли Бойсун туманидаги 22-сонли В.Теришкова номли мактабда ўзбек тили ва адабиёти ҳамда жисмоний тарбия фанларидан дарс беришдан бошлади. Ўша йиллари вилоятимизда жисмоний тарбиянинг спорт гимнастикаси фанидан мутахассислар йўқлиги туфайли ёш устозни Термиз жисмоний тарбия техникумига ишга таклиф қилишди. Ўн йилдан ортиқ вақт мобайнида бу даргоҳда талабаларга спорт гимнастикаси ҳамда она тили ва адабиёти фанларидан сабоқ берди.

1980 йилдан эътиборан Термиз давлат университети тақдири боғланган Р.Мустафоқулов ўтган йиллар мобайнида факультет методисти, декан ўринбосари, сиртқи бўлим декани, университет амалиёти бўлими бошлиғи, бошланғич таълим кафедраси мудири вазифаларида фаолият кўрсатди. Қизгин иш фаолияти давомида қаҳрамонимиз мустақил илмий-тадқиқот ишлари билан ҳам шуғулланиб, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган маданият ходими, филология фанлари доктори, ТошДУ профессори Бердиали Имомов раҳбарлигида изланиш олиб борди ва 1990 йили номзодлик диссертациясини муваффақиятли ҳимоя қилди. 1993 йили эса доцентлик унвонига эга бўлди.

Олим салкам 60 йилдирки, талабаларга она тили ва адабиёти, халқ оғзаки ижоди, нутқ ўстириш, нутқ маданияти каби фанларнинг илмий-назарий, услубий жиҳатларидан сабоқ бериб келганлигидан ўзини бахтиёр ҳисоблайди. Ўттиз йилга яқин жисмоний тарбиянинг спорт гимнастикаси фанидан ҳам назарий, ҳам амалий жиҳатдан сабоқ берганлигини эътироф этади.

Ўзининг илмий-ижодий фаолияти даврида республика аҳамиятига тааллуқли илмий-бадний рисоалари, дostonлари,

услугий қўлланмалари ва шеърлари, мақолалари билан кенг жамоатчилик назарига тушди. Адабиётшунослик, фольклоршунослик ва танқидчиликда ўз сўзини айта олди. Шу билан бирга, жисмоний тарбия ва спортда ҳам фаол меҳнат қилиб, ҳурмат, обрў-эътибор қозонди.

Рўзикул Мустафокуловнинг фаолияти кенг қўламли бўлиб, драма, трагедия, комедия каби драматургик жанрларга оид фикрлари битилган таҳлилий публицистик мақолалари ҳам ОАВ орқали ёритилиб, ўз мухлисларини топа олди. М. Бехбудий, Фитрат, Ҳ. Ниёзий, Уйғун, Максуд Шайхзода, Туроб Тўла, Иззат Султон, Абдулла Қаҳҳор пьесаларини кенг илмий нуқтаи назардан таҳлили ҳам маънан пишиқлиги билан ҳамкасбларининг эътирофига сазовор бўлди. Фикримизнинг куруқ бўлмаслиги учун олимнинг айрим асарларига назар ташлаб ўтсак, мақсадга мувофиқ бўлар деб ўйлаймиз.

Адабиётшунос олимнинг “Умрбоқий жанр” (1988), “Яшашга ҳақли жанр” (1991) деб номланган қўлланмалари ўрта мактаб ўқитувчи ва ўқувчиларига мўлжалланган бўлиб, у ўрта мактаб дастурларидан ўрин олган трагедия ва драма жанрларига аниқлик киритди.

“Ҳамза – улкан шоир, драматургия мохир педагог” (1989), “Ифодали ўқиш” (1990), “Нутқ ўстириш методикаси” (1994), “Ёзма нутқ саводхонлиги” (1996) ҳамкорликда ёзилган ўқув-услугий қўлланмаларида ёзма ва оғзаки нутқ саводхонлигининг ўзига хос қонун-қоидалари ҳамда қўлланилиши ҳақида маълумот берилади. “Сурхон адиблари болаларга” (2000) деб номланган қўлланмасида муаллиф сурхондарёлик бир гуруҳ ижодкорларнинг болаларга бағишланган ижодий фаолияти ҳақида мухтасар сўз юритади. Уларнинг ижодий йўналишларини атрофлича таҳлил этади.

“Нутқ одоби” (2000) ҳаммуаллифликда битилган китобида эса қадим аждодларимиз, ота-боболаримизнинг адабиётимизда нутқ одобига оид қарашлари, кишиларнинг феъл-атвори,

хулқи, маънавий дунёси, билими, тарбияси руҳияти билан боғланган қарашлари катта эстетик таъсир қувватига эга.

Изланувчан олим Рўзикул Мустафокуловнинг “Халқ педагогикаси сарчашмаси” (1995) номли тўплами ҳақида ҳам илиқ фикрлар билдириш мумкин. Тўпланда халқ оғзаки ижодининг ўлмас намуналарини тўплаган ва педагогик нуқтаи назардан таҳлил ўрин олган. Инсон ҳаётида фольклор қимматли тарбия воситаси эканлиги эътироф этилади. Шу билан бирга муаллиф “Тошбосар” (1998), “Хурсўна” (1999), “Соқибулбул” (2001), “Қўнғирёт” (2006), “Чўпон кўшиқлари” (2008) каби достонларини нашр эттирди ва улар орқали Шеробод достончилиқ мактабининг анъанавий фаолияти давом этаётганлигини таъкид этади.

Рўзикул Мустафокулов Чоршанби бахши Раҳматуллаевдан (марҳум) “Алпомиш” достонининг Сурхондарё вариантини (саккиз юз саҳифалик) ёзиб олиб, нашрга тайёрлади. Бу билан изланувчан олим халқ оғзаки ижодиёти намуналарининг умрбоқийлигини таъминлашга ўз ҳиссасини қўшди. “Ўзбек халқ миллий ўйинлари” (2019) ўқув-услугий қўлланмасида аждодларимиз томонидан яратилган юз йигирмадан ортиқ халқ миллий ўйинларининг яшаш тарзи ва уларнинг ўзига хос хусусиятлари ёритиб берилган. “Тарбиянинг теран илдизлари” (2018) ҳамкорликда услубий қўлланмасида ҳам халқ оғзаки ижодининг ўлмас намуналарига эътибор қаратган.

“Тоғлардек яшаса одам” (2005) номли ҳамкорликда тайёрланган китобида сурхондарёлик таниқли спортчи-олим, профессор, “Шухрат” медали совриндори Жума Тошпўлатовнинг ҳаёти ва фаолияти, катта спортдаги ўрни орқали миллий курашимиз тарихи ҳақида ёзилган бўлиб, халқ оғзаки ижодининг (олиш) ўзбекона турининг ўзига хосликларини полвонлар мисолида кўрсатиб беради. Вилоятда кураш спорти ривож, таниқли полвонлари, довруқли чемпионлари хусусида атрофлича фикр юритилади.

“Алпомишлар афсона эмас” (2007) (ҳамкорликда) китобида Ал-Ҳаким ат-Термизий хотирасига бағишлаб Президент соврини учун ўтказилган етти халқаро кураш турнирлари кенг ёритиб берилган. Шунингдек, китобдан Сурхон полвонлари ҳақида ҳам қимматли маълумотлар ўрин олган. “Спорт – баркамоллик тимсоли” (2011) номли ҳамкорликда тайёрланган китобида Термиз давлат университети спорти, спортчи-мураббийлари ва уларнинг фаолияти жамланган.

“Фақирнинг йўли” (2012) номли биографик қисса асарида таниқли шоир ва журналист Болта Ёриевнинг ҳаёти ҳамда ижодий фаолияти таҳлил этилади. Олимнинг республика газета ва журналлари, конференция материаллари илмий тўпламларида икки юздан зиёд илмий-услубий ва бадиий асарлари ўрин олган.

Р.Мустафоқуловнинг “Сурхон фольклорининг ҳозирги яшаш ҳолати ва бадиияти” (2022) монографияси, “Болалар фольклорининг айтимлар семантикаси”, “Сурхон воҳаси оғзаки насри”, “Сурхон воҳаси паремиялогик жанрлари”, “Сурхон воҳасининг мавсум-маросим фольклорлари” кенг жабҳада очиб берилган. Шунингдек, муаллифнинг “Шеробод дostonчилик мактаби бахши-шоирлари”, “Эртақлар тўплами”, “Чоршанби бахши Раҳматуллаевнинг юзга яқин термалари тўплами” каби бир қатор қўлёзмалар ҳам нашрга навбат кутиб турибди.

Олимнинг республика телевидениесида “Алпнинг туғилиши” (1999) олти қисмли, “Алпомиш юртга қайтди” (1999) етти қисмли, “Қирққиз қалъаси сирлари” (2010) каби ҳужжатли фильмлари вилоят ва республика телевидениеси орқали тез-тез намойиш этиб турилади.

“Довонлар олдинда” (2008), “Спорт — баркамоллик тимсоли” (ҳамкорликда) (2011), “Халқ ўйинлари” (2012) каби асарлари спорт соҳасини ўз ичига қамраган.

Олим йигирмадан ортиқ турли жанрлардаги илмий-бадиий асарларга сўз боши ва монография, диссертацияларга тақризлар ёзди. Чоршанби бахши Раҳматуллаевдан (марҳум) 5 та дoston, Ўзбекистон халқ бахшиси Абдиназар бахши Поёновдан (марҳум), Хушвақт бахшидан иккита дostonни ёзиб олди.

Рўзиқул Мустафоқулов университетнинг Жисмоний тарбия факультети Жисмоний тарбия назарияси ва методикаси кафедрасида ҳам фаолият юритди. Олим ижодий фаолияти давомида жисмоний тарбия ва спорт соҳасида ҳам қалам тебратиб келади. Спорт гимнастикаси бўйича спорт устаси (собиқ) Рўзиқул Мустафоқулов 2012–2016 йиллар давомида вилоят болалар ва ўсмирлар спорт мактабида спорт гимнастикаси бўйича мураббий сифатида фаолият кўрсатди. Шогирдлари вилоят ва республика мусобақаларида, шу билан бирга “Умид ниҳоллари” мусобақаларининг республика босқичида биринчи ва иккинчи ўринларни олиб, ғолиблик шохсупасига кўтарилди. Қаҳрамонимиз ҳар икки соҳада минглаб эмас, миллионлаб шогирдлар тайёрлаб, катта ҳаётга учирма қилди. Улар ҳозир турли соҳаларда фаолият кўрсатиб, устоз ишончи ва меҳнатини оқлаб келишмоқда.

Устоз айна кунларда Термиз давлат университетининг Ижтимоий фанлар факультети Бошланғич таълим кафедрасида фаолият кўрсатиб келмоқда. Устозликда сермахсул мураббий шогирдларга илм-фаннинг турли соҳаларида сабоқ бериб келмоқда. Ёш шогирдларини бир қанча услубий қўлланмалар, рисоалар, мақолалар ёзишга даъват этиб келмоқда.

Устоз биз билан бир суҳбатида: “Аллоҳга беҳисоб шукрлар бўлсинки, саксон ёшимга куруқ қўл билан келмадим деб ўйлайман”, — дея суҳбатимизга яқун ясалди.

Устознинг қалбини, умрини олтин нишон эмас, илм беабаб турибди.

БУХОРО АМИРЛИГИ ДАВРИДА ШИМОЛИЙ СУРХОН ВОҲАСИ: ТАРИХ ВА ТАҲЛИЛ (XVIII – XX АСР БИРИНЧИ ЧОРАГИ)

Турсунов Сайпулло Нарзуллаевич

*Термиз давлат университети Жаҳон тарихи
кафедраси профессори, тарих фанлари доктори
e-mail: tursunovsafullo12@mail.ru
<https://orcid.org/0009-0005-2553-6164>
UDK: 94(575.1)*

Аннотация: Ушбу мақола Бухоро Амирлиги даврида, хусусан, XVIII аср охири – XX аср бошларида Шимолий Сурхон воҳасининг сиёсий, маъмурий ва ижтимоий тарихини ёритишга қаратилган. Унда Бухоро амирлиги ҳукмдорларининг марказлашган давлатни барпо этиш йўлидаги курашлари, хусусан, Манғитлар сулоласининг илк вакили Муҳаммад Раҳимхон томонидан Ҳисор, Денов ва бошқа бекликларда содир этилган қонли юришлар ва қўзғолонлар батафсил таҳлил қилинган. Шунингдек, Амир Музаффар давридаги исёнлар, хусусан, Абдулкаримбий додхоҳ ва Катта тўра (Абдулмалик) бошчилигидаги ҳаракатлар, уларнинг сабаблари, кечиши ва оқибатлари ҳақида қимматли маълумотлар келтирилган. Мақолада амирликнинг маъмурий бўлиниш тизими – бекликлар ва амлоқдорликлар, уларнинг ўзгарувчан табиаи ҳамда ҳудудий бошқарув тизими, судлов ва маъмурий амалдорлар фаолияти чуқур ўрганилган. Тадқиқотда Н.А. Маев, Д.Н. Логофет, Г. Бонвалот каби сайёҳ ва олимларнинг маълумотлари ҳамда архив ҳужжатларига асосланилган. Ушбу таҳлил Шимолий Сурхон воҳасининг ушбу даврдаги мураккаб сиёсий жараёнлари ва маҳаллий аҳоли ҳаётининг ўзига хос жиҳатларини очиқ беради.

Калит сўзлар: Бухоро амирлиги, манғитлар, Шимолий Сурхон воҳаси, Ҳисор беклиги, Денов қўзғолони, Абдулкаримбий додхоҳ, маъмурий бошқарув, Калла минораси, Муҳаммад Раҳимхон.

Аннотация: Статья посвящена освещению политической,

административной и социальной истории оазиса Северный Сурхан в период Бухарского эмирата, в частности, в конце XVIII - начале XX вв. В ней дается подробный анализ борьбы правителей Бухарского эмирата за создание централизованного государства, в частности, кровавых походов и восстаний, проведенных первым представителем династии Мангидов Мухаммадом Рахимханом в Гиссаре, Денау и других княжествах. В ней также даются ценные сведения о восстаниях во время правления Амира Музаффера, в частности, о действиях под руководством Абдулкаримби Дадха и Катта Тура (Абдулмалика), их причинах, ходе и последствиях. В статье глубоко изучается система административного деления эмирата - княжества и вотчины, их меняющийся характер и система территориального управления, деятельность судебных и административных чиновников. Исследование проведено Н.А. Маевым, Д.Н. Логофетом, Г. Оно основано на информации туристов и учёных, таких как Бонвалот, а также на архивных документах. Анализ раскрывает сложные политические процессы в Северном Сурханском оазисе в этот период и особенности жизни местного населения.

Ключевые слова: Бухарский эмират, мангиты, Северный Сурханский оазис, Хисарбеги, Деновское восстание, Абдулкаримби Додхох, административное управление, башня Калла, Мухаммад Рахимхан.

Abstract: This article is aimed at covering

the political, administrative and social history of the Northern Surkhan oasis during the Bukhara Emirate, in particular, at the end of the 18th - beginning of the 20th centuries. It provides a detailed analysis of the struggle of the rulers of the Bukhara Emirate to establish a centralized state, in particular, the bloody campaigns and uprisings carried out by the first representative of the Mangid dynasty, Muhammad Rahimkhan, in Hissar, Denov and other principalities. It also provides valuable information about the rebellions during the reign of Amir Muzaffar, in particular, the actions led by Abdulkarimbiy Dadkh and Katta Tura (Abdulmalik), their causes, course and consequences. The article deeply studies the administrative division system of the emirate - principalities and estates, their changing nature and the system of territorial administration, the activities of the judiciary and administrative officials. The research was carried out by N.A. Maev, D.N. Logofet, G. It is based on the information of tourists and scientists such as Bonvalot, as well as archival documents. This analysis reveals the complex political processes of the Northern Surkhan oasis during this period and the unique aspects of the life of the local population.

Key words: Emirate of Bukhara, Mangites, North Surkhan Oasis, Hissar Beggi, Denov Rebellion, Abdulkarimbiy Dadkhoh, administrative management, Kalla Tower, Muhammad Rahimkhan.

КИРИШ (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). Марказий Осиё халқлари давлатчилигида ўзига хос ўрин тутган Бухоро амирлиги кўп асрлик бой тарихга эга. Ушбу амирликнинг сиёсий, иқтисодий ва ижтимоий ҳаётини ўрганиш минтақанинг ўтмишини англашда муҳим аҳамият касб этади. Айниқса, амирликнинг чекка ҳудудлари, жумладан, стратегик жихатдан муҳим бўлган Шимолий Сурхон воҳасининг тарихий ўрни ва бу ерда юз берган сиёсий-ижтимоий жараёнлар алоҳида тадқиқот мавзусидир.

Ушбу мақолада Бухоро амирлиги даврида, яъни XVIII асрнинг ўрталаридан XX аср бошларигача бўлган даврда

Шимолий Сурхон воҳасининг тарихи, унинг маъмурий-сиёсий аҳволи ва маҳаллий аҳолининг бу жараёнлардаги иштироки таҳлил қилинади. Тадқиқотда Манғитлар сулоласининг марказлашган давлатни барпо этиш йўлидаги қонли юришлари, уларнинг маҳаллий бекликлар, хусусан, Ҳисор ва Деновдаги қаршиликларни шафқатсизларча бостириши ҳамда Россия империясининг минтақага кириб келиши фонида юз берган сиёсий қўзғолонлар ўрганилади. Мақола бу воқеаларни ўз ичига олган тарихий манбалар, архив ҳужжатлари ва замонавий олимларнинг тадқиқотларига асосланган ҳолда минтақа тарихининг ўзига хос жихатларини очиб беради.

МУҲОКАМА (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). Аштархонийлардан сўнг ҳокимият тепасига манғитлар сулоласи чиқиб келди. Янги сулола асосчиси Муҳаммад Раҳимхон дастлаб давлатни сохта хонлар бўлмиш Абдулмўмин ва Убайдуллахон номидан бошқарди. Ўз ҳокимиятини кучайтириб олгач, 1756 йилнинг 16 декабрида йирик ўзбек уруғлари вакиллари томонидан оқ кигизга ўтказилиб расман тахтга чиқарилди ва давлат бошлиғи сифатида ўз фаолиятини бошлади[1:21-22]. Шу тариқа Мовароуннаҳрда манғитлар сулоласи ҳукмронлиги бошланди ва у то 1920 йилга қадар давом этди.

Карминалик қози Зухайр ўғли қози Муҳаммад Вафо Карминагий берган маълумотга қараганда, XVIII асрнинг ўрталарида Ҳисор ҳудуди Сурхон воҳасининг Миршоди қишлоғидан бошланган. Бойсун ва Шеробод ҳам Ҳисор мулклиги таркибида бўлган[2:196]. XVIII аср бошларидан Термиз Шеробод беклиги таркибида эди[3:507].

Муҳаммад Раҳимхон мамлакатни марказлаштириш учун қаттиқ кураш олиб борди. Сиёсий тарқоқликка чек қўйиш учун Термиздаги қўнғирот, Ҳисордаги юз ва Шаҳрисабздаги кенас уруғларини бўйсундиришга киришди. Давлатни мустаҳкамловчи сиёсий-маъмурий ислохотлар ўтказилиши натижасида

хўжалик ҳаёти тикланиб ривожлана бошлади[4:155].

Муҳаммад Раҳимбий Бухоро ҳукмдори деб эълон қилинган вақтда Ҳисор ўлкаси унинг ҳокимиятини тан олмади. Оқибатда, Раҳимхон бўйсуннишни истамаган Ҳисор, Денов, Душанбе, Бойсун ва Термизга қарши ҳарбий юришлар уюштиришга мажбур бўлди[5:46].

Муҳаммад Вафонинг ёзишича, Муҳаммад Раҳимхоннинг Ҳисор ўлкасига биринчи ҳарбий юриши ҳижрий 1169 (милодий 1756) йилда содир бўлди. Пошхурд қалъаси яқинидаги Тангидевон қалъасида бўлиб ўтган қирғинбарот жангда Раҳимхон ғалаба қозонди. Раҳимхон қўлга тушган бутун эркакларни ўлдирди. Хотин-қизларни асир олиб, Қарши бозорида жар солдириб уларни соттирди. Қўлга тушган ўлжа шу қадар кўп эдики, уларни сипоҳийларга бўлиб бермоқ учун олти кун вақт зарур бўлди[6:95].

Раҳимхоннинг Ҳисор ўлкасига иккинчи юриши ҳижрий 1170 (милодий 1756-57 йй.) йилда бўлиб ўтди. Унда Шеробод қалъаси яқинидаги Кўҳистон қалъаси (ҳозирги Калламосор) да ҳисорликлар билан тўқнашди. Бу жангда Раҳимхоннинг қўли баланд келди, асир тушган эркакларни сўйиб, бошларидан калла минора ясади, хотин-қизларни эса ўз сипоҳилари (аскарлари) га тақсимлаб берди[6:95].

Раҳимхон келтирган қирғин натижасида юзага келган калла минора узоқ вақт мавжуд бўлган. Бу жой халқ хотирасида қолиб, Калламосор қабристони номи билан аталган. Кейинчалик қишлоқ номига асос бўлган. Қалъа вайроналарини кузатган Н.А.Маев қадимий Калламосор, яъни бош суякларидан ташкил топган бу қабристон қадимда Амударё соҳиллари ва бой Бақтриядан унча бой бўлмаган Сўғдиёнага ўтадиган бу дарада шиддатли жанг бўлганлигини кўрсатади, - деб таъкидлайди[10:165, 306].

Бу ғалабадан кейин Ҳисор аҳолиси унга таслим бўлишдан ўзга чоралари қолмади. Аҳолидан моли омони сифатида ўн минг тилла йиғиб олинди. Раҳимхон бу ерга ўз одамини ноиб қилиб тайинлаб, Бухорога

қайтиб кетди. Аммо орадан икки йил ҳам ўтмай Ҳисор аҳолиси амир ва у тайинлаб кетган бекнинг зулмига чидай олмай, исён кўтардилар. 1757 йили Деновда юз берган амир навкарлари ва савдо аҳли ўртасидаги тўқнашув «Тож ут-таворих» асарида қуйидагича тасвирланади: «1757 йил 4 май куни Денов шаҳрида одатдагича вилоятнинг ҳамма томонларидан олди-сотди қилиш учун келган жуда кўп кишилар тўпланган эди.

Улар ҳеч нарсадан хабарсиз, ўзларининг савдо ишлари билан машғул бўлиб фойда чиқариб олиш билан овора эдилар. Аммо кўзғолон кўтарган маҳаллий амир (бухороликлар ағдариб ташлаган Муҳаммад Аминбий юз)нинг йигитлари ҳар қайси дарвозадан битта-битта шаҳар ичига кириб келдилар ва халқ билан лик тўла савдо қизиқ турган бозорга ҳужум қилдилар. Улар ёввойи шерлардек тинч аҳоли устига ёпирилдилар, бозорни тарқатиб юбориб молларни ва қимматли буюмларни босиб олдилар. Арқдан бозорга ўз иши билан келган бухоролик сарбозларни тутиб олиб шу жойнинг ўзидаёқ ўлдирдилар»[8:664-665].

Кўзғолончиларга Омон Боқий деган одам бошчилик қилди. У Денов яқинидаги Чўрзак қалъасини ўзига қароргоҳ қилиб олди. Кўзғолончилар Денов қўрғонини 40 кун камал қилишди. Бу орада камалдагиларга амирнинг Дараи Нихонда турган қўшинлари ёрдамга етиб келишди. Энди кўзғолончилар ҳам қўрғон ичидаги, ҳам шаҳар ташқарисидаги амир қўшинларига қарши жанг қилишга мажбур бўлдилар. 40 кундан кейин Бухоро амири асосий кучлари билан етиб келгач, Денов ишғол этилди.

Шаҳар беаёв таланди ва вайрон этилди. Кўзғолончилар бошлиғи Омон Боқий қатл этилди. Бошқа аҳолини кўйдек сўйдириб, кесилган бошларидан Денов дарвозасининг қаршисидаги тепа устида калла минора барпо этди. Сўнгра Сарижўй, Регар, Душанбе ва бошқа шаҳарларга қирғин солиб, у ерда кесилган бошларни ҳам Деновга юбориб, юқоридаги калла минора устига жойлади. Ҳисор халқининг ёрдамига

борган 400 нафар Хўжанд ва Ўратепа аҳолиси Дараи Нихонда Раҳимхон одамлари томонидан қўлга туширилиб, уларнинг боши ҳам калла минора устига чиқарилди[6:95]. Шу тариқа Денов калламинораси вужудга келтирилди. Унинг ўрни эндиликда *Йилқибозор* деб аталади.

1758 йили Ҳисор ҳокими Муҳаммад Аминбий бошчилигида кўзғолон кўтарилди. Уни бостириш учун Муҳаммад Раҳимбий Ҳисорга катта қўшин тортди. Шаҳарни вайронага айлантириб ўт қўйди, Муҳаммад Аминни қатл қилиб, ўрнига янги ҳоким тайинлади[9:24].

XIX асрнинг 60-йилларида бутун Туркистон ўлкасида сиёсий вазият кескинлашди. Рус қўшинларининг босқинчилик ҳаракатлари туфайли оғир вазият юзага келди. Айниқса, 1865 йилда Тошкентнинг руслар томонидан эгаллаб олиниши Амир Музаффарнинг мавқеига путур етказди. Н.А.Маевнинг ёзишича, Амир Насрулло даврида Денов беги этиб тайинланган асли қоратегинлик Абдулкаримбий додхоҳ амир Музаффарнинг Тошкентни ололмай, муваффақиятсизликка учраганидан фойдаланиб, амирликдан ажралиб чиқишга қарор қилди[10:130].

Француз сайёҳатчиси Бунвалот у ҳақда: «Абдулкарим ўз қўшини орасида катта обрўга эга эди. У ҳарбий куч, шароит ва имкониятларни ҳисобга олмасдан ҳаракат қилишга ва ғалабага эришишга интиларди. У қандай қилиб амирга нисбатан халқнинг норозилигини кучайтиришни биларди. Абдулкарим Денов қалъасида ҳарбий кучга бошлиқ бўлгандан сўнг етарли қурол-аслаҳа тўплади, қалъани таъмирлади, минорани кўтарди ва амирга солиқ тўлашдан бош тортди»-деб ёзади[11:220].

Кўзғолонни Бойсун ва Шеробод бекликлари ҳам қўллаб-қувватладилар. Абдулкаримбийга Кўлоб беги Сарихон қатагон ҳам келиб қўшилди. Сарихон қатагон 1850-1870 йилларда Кўлоб беклигини бошқарган. Абдулкаримбий кўзғолонидан каттиқ ғазабланган амир Музаффар кўзғолонни бостириш мақсадида шахсан ўзи қўшин тортиб келди. Амир

Музаффар Бойсунга келган вақтда шаҳар аҳолиси жангсиз таслим бўлиб, унга ўз содиқликларини билдирдилар. Сўнгра амир қўшинлари Хидирча яқинидаги Аммаксой (Омборсой) деган жойда кўзғолончилар билан жанг қилишди. Кўзғолончилар бу жангда мағлубиятга учраб Денов томон чекинишди. Қалъа бир кун давомида ҳимоя қилинди.

Амир қўшинлари Деновни штурм билан олиб, қалъа ва унинг деворларини вайронага айлантирдилар. Мағлубиятдан сўнг Абдулкарим додхоҳ ва унинг маслакдошлари Кўлоб беги Сарихон ҳузуридан паноҳ топди. Амирнинг Кўлобга ҳарбий юриш қилишидан чўчиган Сарихон исёнкор зодагонларни Абдулкаримбий додхоҳ билан биргаликда Бухоро амирига топширди. Улардан 20 дан ортик киши Дарбандда қатл қилинди[10:176]. Н.Маевнинг ёзишича, бу воқеа Самарқанднинг руслар томонидан эгалланишидан (1868 йил) уч йил олдин (1865 йил) бўлиб ўтган эди[10:130].

Амирликка қарши кўтарилган кўзғолонга деновликлар билан бирга Олатемир ва Ёлти қишлоқлари (ҳозирги Шўрчи тумани) аҳолиси ҳам қатнашишди. Кўзғолон раҳбарларидан бири Ойбарак қишлоғидан Эрназар полвон бўлган. Амир қўшинлари кўзғолонни шафқатсизларча бостирганидан сўнг асирларни қўйдек кўгаллаб, Бухорога ҳайдаб кетишди. Йўлда улар юришдан бош тортишган. Амир кўзғолончиларнинг кўпчилигини Тангимуш дараси оғзида қатл этди. Қолганлари яна ҳайдаб кетилди. Улар Дарбанд қишлоғига етиб, юришни рад этишгач, амирнинг буйруғи билан улар ҳам қатл этилди[12:25-26].

Ўнлаб Денов кўзғолончилари кўганлаб қатл этилган жой тарихда «Кўган ота» деб ном олди ва вақтлар ўтиши билан муқаддас жойга айланди. Шу ном асосида мазор ёнида вужудга келган қишлоқ ҳам аталди. Деновни забт этгач, амир ўз қўшинлари билан Қўрғонтепага келди. Сарихон тоғларга қараб қочди. Аммо қўлга тушиб, амир олдига олиб келинди. Амир уни Бухорога жўнатди. Кўлоб беги этиб унинг

жияни Умархон тайинланди. Бирок Умархон тез орада кўзғолон кўтариши натижасида амир яна Сарихонни Кўлобга бек қилиб тайинлади.

1866-1868 йиллар оралиғида Россия ва Бухоро ўртасидаги уруш амирлик мағлубияти билан якунланди. 1868 йил 23 июндаги сулҳга биноан Бухоро амирлиги Россиянинг вассалига айланди. Амир кўпгина ерларидан ажралиб қолди. 500 минг рубл миқдоридаги тоvon пули тўлашга мажбур бўлди. 1868 йилда Бухоро амирининг тўнғич фарзанди Ғузор беги Абдулмалик (Катта тўра)[13:14,16,18, 14:538] амирнинг таслимчилик сиёсатидан норози бўлиб, ўз отасига қарши кўзғолон кўтарди.

У амирга қарши чиққан руҳонийлар ва йирик зодагонлар-Худоёр тўқсоба қора манғит, Ибодуллабек тўқсоба оқ манғит, Иброҳим тўқсоба тўқ манғит[5:81] ҳамда Шаҳрисабз ҳукмдори Бобобек ва Китоб ҳукмдори Жўрабек, Ҳисор ва Кўлобдаги маслакдоши Содиқ Тўра, қозоқ султони Кенисари Қосимов ўғли мададига таянган ҳолда Шаҳрисабздаги Амир Темур томонидан барпо қилинган Оқсаройда ўзини ҳукмдор деб эълон қилди[15:40]. Амир Музаффар тахтдан туширилганлигини маълум қилди. Амирликнинг шарқий бекликлари тўлиқ Абдулмалик томонига ўтди. Амир Музаффарни чор ҳукумати қўллаганликда айбловчи варақалар тарқатила бошланди[16:28].

Шу тариқа, бутун Бухоро амирлиги ҳудудида ҳарбий ҳаракатлар авж олди. Музаффар яқинлари кўмагида Абдулмалик кўшинини тор-мор қилмоқчи бўлди. Аммо Шаҳрисабз ҳамда Китоб беклари кўзғолончиларни қўллаб-қувватлаши натижасида нияти амалга ошмади. Иложсиз қолган амир Музаффар Зарафшон округи бошлиғи генерал-майор Абрамовга мактуб йўллаб ёрдам сўради[7:59]. Подшо ҳукумати амир Музаффарни қўллаб-қувватлаб, генерал Абрамовга Абдулмалик тўрани тор-мор этишга буйруқ берди.

1868 йил 23 октябрда генерал Абрамов армияси Қарши шаҳрини эгаллади,

маҳаллий аҳолига варақалар тарқатиб, унда Абдулмаликни «Худони, унинг пайғамбари Муҳаммадни унутганликда, тахт учун отасига қарши қўл кўтарганликда айблади»[17:407]. Руслардан енгилган Абдулмалик тўра Шерободга келди. Абдулмалик тўранинг Шерободга келганидан хабар топган Сарихон қатағон ўзининг жангчилари билан Абдулмалик тўрага ёрдамга келди. Аҳолига турли имтиёзлар берилишини ваъда қилиб, кўзғолон кўтаришга чақирди. Шу билан бирга Деновга ўзининг маслакдоши Улуғбекни бек қилиб жўнатди[10:155].

1868 йилда Абдулмалик тўра кўшини тор-мор қилинганидан сўнг амир Музаффар русларнинг ёрдами билан шарқий бекликларни бўйсундиришга киришди. Дастлабки, ҳарбий юришлар Шеробод беклигига қаратилди. Бунинг учун, авваламбор Абдулмўмин тўрани Қаршига, Ёқуббек кушбеги эса Ғузорга бек этиб тайинлаб, уларни кўшин билан Шерободга жўнатди. Шеробод, Даҳпаракентнинг кўнғирот, сарой ва бошқа қабилалари аҳолиси Останақулбий кўнсук атрофида тўпланган эдилар.

Ғузор ҳокими Ёқуббек кушбеги артиллерия билан қуролланган кўшин ёрдамида Дарбандга келди. Бойсун беги Муҳаммад Юсуф девонбеги тортувли амир кўшини томонига ўтиб кетди. Сабаби, Муҳаммад Юсуф тортувли амирнинг энг ишончли бекларидан бири эди[5:109]. Амир кўшинларининг юришидан хабар топган аҳоли ўз бошлиқларининг изидан боришмади. Останақулбий, Шоҳмардонқул қозоёқли, Ёдгорбеклар бола-чақасини олган ҳолда тезликда Амударёдан ўтиб, Афғонистонда бекиндилар. Ҳеч қандай қаршиликсиз Шерободни эгаллаган амир, кўзғолончиларга хайрихоҳ бўлган барча қабилаларга катта миқдорда омонлик пули солиғини солди[5:111].

Кейинги навбат Денов беклигига қаратилди. Бу ерда Ҳисор беги бошчилигида катта халқ лашкари йиғилганди. Ҳисорликларда икки пўлат ва икки чўян тўпи бор эди[10:175]. 1868 йили амир кўшини ҳисорликларни тор-мор

келтириб, Денов ва Ҳисорни кўлга киритди. Исёнкор беклар амир кўшинлари томонидан қаттиқ жазоланди. Денов беги Улуғбек асир олинди ва Қарлук қишлоғида қатл қилинди[10:176]. Мирза Салимбекнинг ёзишича, 1868 йил қишида амир кўшини Деновда кўтарилган йирик кўзғолонни шафқатсизларча бостирди, халқдан Чингизхон даврини эслатадиган даражада ўч олди[15:36].

С.Бонвалотнинг ёзишича: «Амир ўз душманларини қўрқитиш учун минглаб кишиларнинг бошини танасидан жудо қилди ва уларнинг бошларини марказий дарвозага осиб қўйди. Бошлар йиртқич қушларни ўзига жалб этиб, уларнинг емиш учун талашилари, чинқириқлари узоқ-узоқларга эшитилиб турарди»[21:141]. Денов қалъаси қисман вайрон этилди, қалъада аҳоли яшашига рухсат берилмай, шаҳарни сув билан таъминловчи тўғон ҳам бузиб ташланди. Бундай жазодан кейин Абдулмалик тўра изидан ҳеч ким бормади ва Ҳисор воҳаси Бухоро амири кўл остига ўтди.

Шундан кейин Ёқуббек қушбеги Сарихон қатағонга қарши юриш бошлади. Н.А.Маевнинг ёзишича, Сарихон қатағон Ёқуббекка қаршилиқ қилолмай, Кобулга қочиб кетди. Кўлоб жангсиз олинди[10:155]. Бухоро амирлигига қарши халқ ҳаракатлари 1878–1879 йилларда ҳам давом этди. Афғонистондан қайтаётган рус сайёҳи доктор Яворскийнинг ёзишича: «Бухоро амирлигида вазият унчалик тинч эмас, Шеробод беги Қоратоғдаги кўзғолонни бостириш учун жўнаб кетди. Бухоро амири Шаҳрисабзга ўзига қароргоҳ қилиб олиб, Шарқий Бухородаги кўзғолонларни бостириш учун жанговор ҳаракатларга бошчилик қилди ва Бухоро шаҳрига олти-етти ой давомида бормади[18:370].

Афғонистон ҳукмрон доиралари Шарқий Бухоро бекликларидаги халқ ҳаракатларидан ўз манфаати йўлида фойдаланишга ҳаракат қилдилар. Ҳаттоки амирдан Карки, Термиз ва бошқа чегара шаҳарларни Афғонистонга беришни талаб этишди[19:17].

Шарқий Бухоро аҳолиси кайфияти ва қарашларининг ўзгаришига Абдулмаликнинг Ҳиндистондан қайтиб келиши ҳам таъсир кўрсатди, чунки Ҳисор ҳокими Саид Абдулмўмин акаси Катта Тўра билан яқин алоқада эди. Ҳисор ҳокими кўшин, қурол-яроғ йиғди, ўзбек уруғларини кўзғолонга ундади. Маҳаллий аҳоли, қисман зодагонлар ҳамда Музаффарнинг ўғли-Ҳисор ҳокими ҳам амир сиёсатидан норози эди. Негаки, шарқий бекликларда амир ҳокимиятининг ўрнатилиши ўлкани хонавайрон қилган, аҳолининг ҳам турмуш даражаси кескин пасайган эди. Натижада, Шарқий Бухоро бекликларидаги маҳаллий аҳоли Афғонистонга ва Туркистоннинг ички ҳудудлари ҳамда баланд тоғларга кўчиб кетишга мажбур бўлди[27].

Амир ўз ҳокимиятини мустаҳкамлаш ва халқ исёнларини бостириш учун XIX асрнинг 70-йилларида Шерободда 300, Бойсунда 300, Деновда 500 навкар ва 2 тўп, Сариосиёда 500, жами Шарқий Бухоро ерларида 6 минг кишилиқ кўшинни сақлаб туришга мажбур бўлди[20:309-310, 28]. Ҳисор ўлкаси Бухорога тўлиқ бўйсундирилганидан сўнг ҳудуд Бойсун, Шеробод, Денов, Юрчи, Ҳисор, Қобадийн ва Қўрғонтепа бекликларига бўлиб юборилди[10:177]. Ҳисор ўлкасига бек этиб Ёқуббек қушбеги тайинланди [10:309-310]. Унинг ўлиmidан кейин оз фурсат Салим дастурхончи, ундан сўнг амирнинг ўғли Саид Абдулмўмин (1871-1886 йй.) тайинланди. Ҳисор муҳим стратегик ҳудуд бўлганлиги учун амир Музаффар унинг ички бошқарувини тўлиқ назорат қилди[29].

1885 йили амир Музаффар вафот этди. Шу йилнинг 14 ноябрида Бухоро тахтига Абдулаҳадхон ўтирди ва амирликни 26 йил давомида бошқарди [15:82-85]. Унинг тахтга кўтарилиши ака-ука ўртасида низо келиб чиқишига олиб келди. Абдулаҳадхон акаси Абдулмўминнинг Ҳисорда бек сифатида туришини хавфли деб билиб, уни 1886 йил июль ойида Бойсун беги этиб тайинлади ва кейинчалик Бухорога чақириб уй қамоғида сақлади[30]. Абдулмўминдан

кейин Ҳисорга амир Музаффарнинг тутинган акаси Остонақулбек тайинланди. У 1906 йилгача Ҳисорни идора қилди. Охирги бек Авлиёқул парвоначи 1920 йилгача ўлкани бошқарди ва совет истилоси даврида Афғонистонга ўтиб кетди [22:95-96].

Сарижўй беклиги. 1875 йилда Бухоро амирлигининг шарқий ва жанубий қисмларини ўрганган Н.Маев мазкур ҳудудда Бойсун, Денов, Юрчи, Сариосиё, Ҳисор, Балжувон, Кўлоб, Қўрғонтепа, Қабодиён, Шеробод, Калиф ва Карки бекликлари бўлганлигини қайд этади[10:308]. 1886 йилда Туркистон Бош штабининг капитани Покотилонинг маълумотида кўра, Бухоро амирлигининг шарқий ва жанубий қисмлари Китоб, Шаҳрисабз, Яккабоғ, Чироқчи, Ғузор, Шеробод, Пошхурд, Бойсун, Денов, Қабодиён, Қўрғонтепа, Балжувон, Ҳисор, Сарижўй ва Кўлоб бекликларидан иборат бўлган[23:60-61]. Бу рўйхатда Сариосиё ва Юрчи бекликлари тугатиб юборилганлигини кўриш мумкин. Сарижўй амлоқдорлиги бекликка айлантирилган. Унинг таркибига Сариосиё беклиги ерлари киритилган. Юрчи эса Денов беклигига қўшиб юборилган.

Шу даврда ҳозирги Сариосиё ва Узун туманлари ҳудуди Сарижўй, Денов ва Ҳисор бекликлари таркибида бўлган. Денов беклиги Гирдикўрғон, Қарлук, Пўстиндара, Хидирман, Дўрмоншо ва Сина амлоқдорликларига; Сарижўй беклиги Сарижўй, Сариосиё, Дашновот ва Хуфар амлоқдорликларига; Ҳисор беклиги Регар, Қоратоғ, Душамбе, Ҳисор, Шўрам, Ғози Малик, Хонақо, Оби Душамбе, Вазхоб, Файзобод, Ябай, Пушти Боғариқ, Норак, Нонак ва Комид амлоқдорликларига бўлинган.

Сарижўйда 7000 хўжалик ва 20 минг аҳоли яшаган. Улар ўзбек қўнғиротлари ва тожиклардан иборат эди. Денов беклигида тожик, туркман ва ўзбекларнинг жуз уруғидан иборат 16 минг хўжалик ва 50 минг аҳоли яшаган. Ҳисорда 50 минг хўжалик, 160 минг аҳоли яшаган. Аҳолиси ўзбек ва тожиклардан иборат бўлган. Ўзбек

аҳолиси лақай, қарлук ва дўрмонлардан ташкил топган[24:60,61,77,79].

1911 йилда Бухоро амирлигини ўрганган рус олими Д.Логофет амирликда 28 та беклик бўлганлигини қайд қилади. Булар: Чоржўй, Кармана, Зиёвуддин, Нурота, Хатирчи, Китоб, Шаҳрисабз, Чироқчи, Яккабоғ, Ғузор, Бойсун, Қоратегин, Денов, Ҳисор, Дарвоз, Балжувон, Шугнон, Рушон, Кўлоб, Қўрғонтепа, Қабодиён, Шеробод, Калиф, Карки, Будалик, Қабокли, Қарши ва Нарозим[25:247-250].

Гувоҳи бўлганимиздек, рўйхатда Сарижўй беклиги йўқ. Унинг ерлари тўлиғича Ҳисор беклиги таркибига киритилган. Шу боис, Ҳисор беклиги олдингидек 15 эмас 20 та амлоқдорликдан иборат бўлган. Аммо кўп ўтмай бу беклик яна қайта тикланди. 1916 йилги рўйхат вақтида Сарижўй беклиги вилоят сифатида қайд этилади. Унинг таркибига Оққўрғон, Гузарак (Газарак), Дашти Набот, Сариосиё, Сарижўй, Регар, Сарижўйи Газарак, Чортоқ ҳамда Шарғун амлоқдорликлари кирган[26:10-14].

Одатда амлоқдорликлар аҳолининг сонига қараб ташкил этилар эди. Агар бирон-бир бек белгиланган солиқларни ўз вақтида тўлай олмаса, амир ундан муайян амлоқдорликни тортиб олиб бошқа бекликка совға қилиб берган. Камситилган бек солиқни амлоқдорлик тортиб олингунга қадар бўлган ҳажмда тўлашга мажбур бўлган. Солиқларни вақтида тўлай олмаган амлоқдорликлар ҳам кўпинча бошқа беклик ёки амлоқдорликларга қўшиб берилган. Бухоро амирлигида беклик ва амлоқдорликларнинг тез-тез ўзгариб туриш сабаби ҳам шунда.

1875 йилда Ҳисор ўлкасида бўлган рус сайёҳи Н.А.Маев Дашновот ва Сарижўй қишлоқлари ҳақида қизиқарли маълумотлар келтиради. Унинг ёзишича, Дашновот катта ва бой қишлоқ бўлиб, анорларининг жуда ширинлиги билан машҳурдир. Қишлоқ гўёки анорзорлар ичида фарқ бўлаётгандек. Дашновот анорлари бутун Бухоро амирлиги бўйлаб сотилади. Улар билан фақат Шаҳрисабзнинг йирик ва ширин

анорларигина тенглашиши мумкин.

Сарижўйда бўлганида унинг қишлоқдан фарқ қилмайдиган, лекин девори ва дарвозаси ҳамда 2000 аҳолига эга шаҳар бўлганлигини қайд қилади. Сарижўйнинг кекса амлоқдори Н.Маевни самимий кутиб олган. Амлоқдорасли жиззахлик бўлиб, оила аъзолари Жиззахда қолган эди. У ўз вақтида амирнинг ўғли Саид Абдулмўмин қўлида мирохур бўлиб ишлаган ва амирнинг ишончига кирган эди. Амлоқдор уйига кетишни жуда истар, лекин амирнинг қаҳрига йўлиқишдан қўрқиб, бу ҳақда айтишга ботинолмаслигини маълум қилди.

Бундан ташқари, Н.Маев Тўпаланг дарёсининг сўл соҳилида Кармин ва Тортувли, ўнг соҳилида Тегирмон ва Ёрсоти қишлоқларини ҳамда Сариосиё шаҳарчаси билан Шамадиён қишлоғи бўлганлиги қайд этади. Сарижўй ва Дашновот оралиғида Фозил қушли қишлоғи, ундан нарироқда Тоқчиён қишлоғи жойлашган. Охирги икки қишлоқнинг қурилиши Н.Маев учун катта янгилик бўлган. Сабаби, бошқа жойлардаги пастқам лойсувоқ уйлардан фарқли равишда уйлар баланд қилиб кўтарилган ва ташқи кўриниши худди рус уйлари(избушка)га ўхшаб кетар эди. Буларнинг барчаси Н.А.Маевда жуда катта қизиқиш уйғотган[10:184-186].

Сарижўй беклигининг бошқарилиши. Сарижўй вилоятини бек бошқарган. Бек қушбегининг тавсиясига кўра, шахсан амир томонидан тайинланган. Одатда беклик лавозимига ўтирган шахс тўқсоба ёки инок унвонига эга бўлган. Бек ҳузурида қуйидаги амалдорлар фаолият кўрсатишган:

1. *Мирза*-иш юритувчилар, биттадан уч нафаргача киши бўлган, унвони бўлмаган;
2. *Ясовулбоши*-бекнинг ёрдамчиси, мирохурдан то тўқсобагача бўлган даражадаги унвонга эга эди. Олис бекликларда иккита ясовулбоши бўлган;
3. *Ясовуллар*-унинг ёрдамчилари, 1 нафардан 3 нафаргача киши бўлган;
4. *Шогирдпошо* - топшириқларни бажарувчи аъёнлар гуруҳи. 50 нафардан 200 нафаргача киши бўлиб, чухра ёки

мирохур унвонларига эга бўлишган;

5. *Девонбеги*- крим-чиқим билан шуғулланувчи амалдор;

6. *Миришаб*-шаҳар полицмейстери;

7. *Аминоначи* - бозорларда ўлпон (аминона) йиғиш билан шуғулланувчи амалдор, унинг ҳузурида *амалгирлар* - бозорларда солиқ йиғувчилар турган.

8. *Маҳрамлар* - энг яқин шахсий хизматкорлар, хизмат топшириқларини бажарувчи мансабдорлар гуруҳи;

9. *Шарбатдор* - нон ва дастурхонга масъул амалдор;

10. *Дарғабоши* - туяларнинг бошлиғи;

11. *Мирохурбоши* - отхона бошлиғи;

12. *Фаррошбоши* - ошхона бошлиғи;

13. *Тўпчибоши* - Россия истилосидан олдинги ҳарбий унвон, негаки у кўрғон ва тўпларга бошчилик қилган. Кейинроқ, нуфузи пасайиб, беклик қамоқхоналарида сақланаётган маҳбуслар устидан назорат қилган;

14. Рус тили тилмочи. Одатда тилмоч рус қўшинлари ёки чегара қўшинлари жойлашган бекликларда сақланган;

15. Бозор оқсоқоли-от, қўй ва туя бозорларида сотилган ҳайвон учун бож ундирувчи амалдор;

16. Навкарлар-почта ташиш ва қўриқлаш ишлари билан шуғулланганлар. Навкарлар сони турли унвондаги, то қоровулбегига қадар 200 нафардан 300 нафаргача бўлган.

Қуйи хизматкорлар - раислар (отхона хизматчилари), баковуллар (ошпазлар) ва идекшу (қозон-товоқ ювувчи) лар бўлган[25:242-243].

Бундан ташқари, беклар ҳузурида маҳаллий аҳоли орасидан катта нуфузга эга кишилардан оқсоқоллар турган. Уларнинг сони 5-15 нафаргача бўлиб, қоровулбегидан тортиб то бий даражасидаги унвонгача бўлишган. Бундай унвонлар одатга кўра амир томонидан берилган[25:243].

Судлов тизими—Бухоро амирлигида барча қонунлар шариатга асосланар эди. Амирликда чекланмаган судлов ҳуқуқига амирнинг ўзи, беклар ва бошқа амалдорлар эга эдилар. Бекликлардаги қозилик судларини сайлаш умуман бўлмаган.

Ишларни кўриб чиқиш ва ҳукм чиқаришда маслаҳатлашиш, ишни қайта кўриб чиқиш босқичлари бўлмаган.

Д.Н.Логофетнинг ёзишича, беклик марказида яшаган қози барча амлоқдорликларда ўзининг ишончли одамларига эга бўлган. Унинг қошида қуйидаги амалдорлар хизмат қилган:

Муфти-қозининг ёрдамчиси;

Мирзалар- иш юритувчилар. Бир нафардан уч нафаргача киши бўлган;

Мулла азимлар-тергов вақтида иштирок этадиган вакиллар. 10 нафардан 30 нафаргача киши бўлган;

Девонбеги-хўжалик бошқарувчиси;

Мирохурбоши-отхона бошлиғи;

Маҳрамлар-энг яқин хизматчилар;

Қуйи хизматчилар - раислар, идекшу ва баковуллар.

Қози амир томонидан тайинланган. Одатда, у мадрасани тугатган, тажрибали ва шариат қонунларини яхши биладиган киши бўлиши керак эди. Қозиларнинг тавсияси билан қозикалон амлоқдорлик қозилари ва мулла азимларни тайинлаган[25:245-246]. Қози мутаваллини (воёга етмаганларнинг мол-мулкини назорат қилувчи амалдор) тайинлаш ва бошқа ҳуқуқларга эга эди. Бекликдаги қозиларга амлоқдорликлардаги ноиб-қозилар ҳам бўйсунган.

Қозига фуқаролик ишларини ҳал қилганлиги учун тўланадиган ҳақдан ташқари, қишлоқ ёки чек ердан тушадиган даромад ҳам тўланган. Ишни кимнинг фойдасига ҳал қилса, ундан ҳам катта тўлов олган. Бекликда шариат қонунлари бажарилиши, бозорлардаги тош-тарозининг тўғрилигини назорат қилиш билан *раис* шуғулланган. Раислар амир томонидан шариат қонунларини мукамал

билган ва мадрасани тугатган кишилар орасидан тайинланган. Раис умумий назоратдан ташқари, бутун аҳоли ва хизматчилар устидан кузатув олиб борадиган махфий полиция вазифасини ҳам бажарар эди. Раисга барча мачит имомлари ва уларнинг ёрдамчилари (муаззинлар) бўйсунтирилган[25:246-247].

ХУЛОСА (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Хулоса қилиб айтганда, Бухоро амирлиги даврида Шимолий Сурхон воҳасининг тарихи марказий ҳокимиятнинг минтақани марказлаштиришга қаратилган қатъий сиёсати ва маҳаллий халқнинг бу сиёсатга қарши кураши билан чамбарчас боғлиқдир. Манғитлар сулоласининг ҳокимият тепасига келиши билан бошланган бу жараёнлар, айниқса, Муҳаммад Раҳимхон давридаги қонли юришлар ва кейинчалик Амир Музаффарга қарши кўтарилган кўзғолонларда яққол намоён бўлди. Бу тўқнашувлар натижасида қўплаб аҳоли қурбон бўлди, шаҳарлар ва қишлоқлар вайрон этилди, "калла миноралар" барпо этилиб, бу воқеалар халқ хотирасида чуқур из қолдирди. Умуман олганда, XVIII-XX аср бошларида Шимолий Сурхон воҳаси қийин ва зиддиятли даврни бошдан кечирди. Марказий ҳокимиятнинг доимий назорати ва шафқатсиз жазолари бир томондан минтақани нисбий сиёсий бирлаштиришга хизмат қилган бўлса, иккинчи томондан, аҳолининг иқтисодий ва ижтимоий аҳволига салбий таъсир кўрсатди, улар орасида норозилик ва кўчишларга сабаб бўлди. Мақола бу воқеаларни атрофлича ёритиш орқали минтақа тарихига оид муҳим бўшлиқларни тўлдиришга ва ўтмишни чуқурроқ англашга ёрдам беради.

АДАБИЁТ ВА МАНБАЛАР РЎЙХАТИ (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES):

1. Муҳаммад Али Балжувоний. Тарихи Нофеий. – Тошкент, 2001. – Б. 21–22.
2. Муҳаммад Вафо Карминаги. Тухфат ал-хоний. – Б. 196.
3. Бартольд В. В. Термез. Сочинения. Т. III. – С. 507.

4. Батраков В. С. Особенности развития сельского хозяйства Бухарского ханства с половины XVIII до 70-х гг. XIX века. // Труды Ташкентского гос. университета. Вып. 193. – Тошкент, 1962. – С. 155.
5. Мирза Абдалазим Сами. Тарих-и салатин-и мангитийа. – Москва, 1962. – С. 46, 81, 109, 111.
6. Айний Садриддин. Асарлар. 4-жилд. – Тошкент, 1964. – Б. 95.
7. Айний Садриддин. Таърихи амирони мангит. – Бухоро–Тошкент, 1923. – Б. 59.
8. Ўзбекистон ССР тарихи. 1-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон, 1970. – Б. 664–665.
9. Хамраев М. Очерки истории Хисарского бекства конца XIX – начала XX вв. – Сталинабад, 1959. – С. 24.
10. Материалы для статистики Туркестанского края. – С. 130, 155, 165, 175–177, 184–186, 306, 308–310.
11. Bonvalot G. Through the Heart of Asia. Over the Pamir to India. Vol. II. – London, 1889. – P. 220.
12. Сафаров Ш., Умаров И. Айрим топонимлар тарихи. – Қарши: Насаф, 2005. – Б. 25–26.
13. Сын эмира Абдул-Малик, известный под именем Катта-Тюри. // Туркестанские ведомости. – 1877. – № 14, 16, 18.
14. Арандаренко Г. А. Досуги в Туркестане. – СПб., 1889. – С. 538.
15. Мирза Салимбек. Тарих-и Салимий. – Тошкент, 2009. – С. 36, 40, 82–85.
16. Семенов А. Покоритель и устроитель Туркестанского края ген.-адъютант К. П. фон-Кауфман. – Москва, 1910. – С. 28.
17. Бартольд В. В. История культурной жизни Туркестана. – Москва, 1963. – С. 407.
18. Яворский И. Л. Путешествие русского посольства по Афганистану и Бухарскому ханству в 1876–1879 гг. Т. 1. – СПб., 1882. – С. 370.
19. Халфин Н. А. Английская колониальная политика в Среднем Востоке. – Ташкент, 1957. – С. 17.
20. Заметки о гиссарских владениях. // Туркестанский сборник. Т. 83. – С. 309–310.
21. Искандаров Б. И. Восточная Бухара и Памир во второй половине XIX в. Ч. 1. – Душанбе, 1963. – С. 141.
22. Холиков З. Э. Термиз ва Чағониён сўнгги ўрта асрларда. Тарих фан. номз. дисс. – Самарқанд, 2001. – Б. 95–96.
23. Отчет о поездке в пределы Центральной и Восточной Бухары в 1886 году капитана Генерального штаба Покотило. – Ташкент, 1888. – С. 60–61.
24. Покотило. – С. 60, 61, 77, 79.
25. Логофет Д. Н. Бухарское ханство под русским протекторатом. Т. 1. – СПб., 1911. – С. 242–250, 246–247.
26. Населенные пункты Бухарского эмирата (конец XIX – начало XX вв.). – Ташкент, 2001. – С. 10–14.
27. ЎзР МА. I-2-жамғарма, 1-рўйхат, 251-иш, 10-варакнинг орқа томони.
28. ЎзР МА. I-2-жамғарма, 27-рўйхат, 3-иш, 2-варак.
29. ЎзР МА. I-126-жамғарма, 1-рўйхат, 62-иш, 1-варак.
30. ЎзР МА. I-1-жамғарма, 34-рўйхат, 639-иш, 17-варак; 3-жамғарма, 1-рўйхат, 74-иш, 82-варак.

“АВЕСТО”ДА ЖАМИЯТНИНГ ПАЙДО БЎЛИШИ ВА ТАРАҚҚИЁТИ МАСАЛАЛАРИ

Соҳибназар Каримов

Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти

профессори, фалсафа фанлари доктори

<https://orcid.org/0009-0002-2039-4520>

UDK: 94(575.1)

“Яхши аъмалли Зотларнинг энг олий хоҳиши янги дунё қурмоқликдир.

Зардушт

Аннотация: Мазкур мақолада инсоният тарихида буюк маънавий ҳодиса бўлган “Авесто” ўзининг буюк таълимоти билан умуминсоний қадрият ва тамаддуни манбаи бўлиб хизмат қилиб келди. Бу улкан тафаккур бойлигидан баҳраманд бўлиш, уни ўрганиш ва унинг кўпгина ғоялари ҳозирги кунга келиб миллий қадрият даражасига етганлигини тушуниш ва ёш авлодга етказиш долзарб масаладир.

Калит сўзлар: маънавий ҳодиса, буюк таълимот, умуминсоний қадрият, тафаккур, тамаддун, ғоя, миллий қадрият, ғоявий қараш, ижтимоий қараш, илоҳият, жамия, инсон, инсоният, дунёни англаш.

Аннотация: В данной статье рассматривается величайшее духовное явление в истории человечества – Авеста, которая своим великим учением послужила источником общечеловеческих ценностей и цивилизации. Необходимо ощутить это богатство мысли, изучить его, понять, что многие его идеи сегодня достигли уровня национальных ценностей, и передать их молодому поколению.

Ключевые слова: духовный феномен, великое учение, общечеловеческая ценность, мышление, цивилизация, идея, национальная ценность, идеологическое видение, социальное видение, теология, общество, человек, человечество, понимание мира.

Abstract: This article discusses the great spiritual phenomenon in the history of mankind, the Avesta, with its great teachings, which has served as a source of universal human values and civilization. It is an urgent issue to enjoy this great wealth of thought, to

study it, to understand that many of its ideas have reached the level of national values today, and to convey them to the younger generation.

Key words: spiritual phenomenon, great teaching, universal value, thinking, civilization, idea, national value, ideological vision, social vision, theology, society, man, humanity, understanding of the world.

КИРИШ (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). “Авесто” – бутун инсоният цивилизациясининг энг қадимий ёзма манбаларидан бири бўлиб, у нафақат диний-фалсафий таълимотлар мажмуаси, балки қадимий халқларимизнинг дунёқараши, турмуш тарзи ва ижтимоий тузилиши ҳақида бебаҳо маълумот берувчи нодир ёдгорликдир. Ушбу муқаддас китоб ўзида инсониятнинг пайдо бўлиши, яхшилик ва ёмонлик ўртасидаги абадий кураш, дунё ва жамиятнинг келажаги ҳақидаги фалсафий ғояларни мужассам этган.

Ушбу мақола “Авесто”да илгари сурилган жамиятнинг шаклланиши ва ривожланишига оид масалаларни таҳлил қилишга бағишланган. Унда “Авесто”нинг бош қаҳрамони Зардуштнинг шахсий қарашлари, унинг идеал жамият ҳақидаги орзулари ва бу йўлда дуч келган муаммолар ўрганилади. Тадқиқот “Авесто”нинг турли қисмларидан олинган иқтибослар асосида Аҳура Мазданинг эзгу ниятлари ва Аҳриманнинг ёвузликлари ўртасидаги зиддиятни жамият ҳаётининг асосий ҳаракатлантирувчи кучи сифатида кўрсатиб беради. Мақола “Авесто” меросининг жамиятни доимий равишда

эзгулик ва поклик сари бошлашга интилиш ғоясини ёритиб, бу қадимий манбанинг бугунги кун учун ҳам долзарб бўлган фалсафий аҳамиятини очиб беради.

МУҲОКАМА (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). “Авесто”ни ўрганиш жараёнида ҳар бир тадқиқотчи зардушт илоҳий шахс эмас, балки реал шахс эканлигининг гувоҳи бўлади. Демак, Зардушт янги дин тарғиботчиси сифатида ўзининг мақсад ва муддаоларига эга бўлганлигини тасдиқлайди. Фаровон жамият, одил шоҳ, жамиятни тубдан ўзгартириш ғоялари Зардуштнинг эътиқодига айланиб кетган. Демак, янги жамият қуриш ғояси Зардуштга тинчлик бермаган ва бу йўлда ўз маслақдошларини тўплашга ва халқни огоҳ қилишга доим чақирган. Мавжуд жамиятни Зардушт тубанлик олами деб қарайди ва ўз маслақдошларини бу йўлда ҳамкорлик қилса, Ахура Маздага қўшилишнинг энг яқин йўли, деб ташвиқот қилади. Бу фикрларнинг исботи учун “Ясана”нинг Иккинчи қўшиқ 46-Ҳоти 19-бандида ёзилган қўидаги фикрлардан билиб олсак бўлади. “Кимда-ким Ашах-Ҳақиқат сиймосида Зардуштнинг буюк орзуси –янги жаҳон қуриш матлабини чиндан қўлласа ва уни амалга ошириш учун оёққа қалқса, абадий ҳаётга қовушади ва бу мураккаб тубанлик оламида неники истаса ўшунга муяссар бўлади”, дейилади. (“Авесто”, 24-бет).

Зардуштнинг жамият ҳақидаги қарашларини таҳлил қилар эканмиз, бу жаҳон хуррамбахш жаҳон бўлиб, одамзод учун яратилган, бино қилинган. Инсон фарзанди дунёга келиши билан Комил Ақлни замин ва жаҳон ободлигига раҳбар этиб қўйилганлигининг гувоҳи бўлди. Дарҳақиқат, ақл ва адолат раҳбар бўлган жамият обод жамиятдир ва унинг фуқаролари комилдирлар. Шунинг учун ҳам дунёнинг ободлиги, Эзгу Ният, Комил Ақл, Ашах-Ҳақиқат ҳукмрон бўлган жамият қуриш Зардуштнинг ҳаёт ий идеали бўлган. “Ясна”нинг Учинчи қўшиқ 3-бандида шундай сатларни ўқиймиз. “-Эй, Мазда!

Сен Сипандмийнунинг отасисан. Сен бу хуррамбахш жаҳонни одамзод учун яратдинг, бино қилдинг. Қачонки одам фарзанди ҳаётга қадам қўйди ва Эзгу Ниятга юзланди сен Ормаитий –Комил Ақлни икки дунё –замин ва жаҳоннинг ободлигига сафарбар, раҳбар айладинг, дейилади. (“Авесто”, 25-бет).

“Авесто”да янги жамият қуриш ғояси энг солиҳ кишиларнинг орзу армони эканлиги ҳақида гапирилади. Зардушт бундай жамият қуришнинг машаққатини ҳис қилади лекин ундан чекинмайди ва ўзининг ҳаётий идеалига айлантириб Ахура Маздадан мадад сўрайди: “... Шоядки оламини яратган Зот Эзгу Ният хидояти билан солиҳ зотларнинг энг буюк армони –янги дунё қуришни муяссар айла”, дейилади “Ясана”нинг учинчи қўшиқ 50-Ҳотининг 11-бандида. (“Авесто”, 29-бет).

Янги жамият қуриш жараёни машаққатлари дунё янгиликларини истамайдиган ёвуз кучлар билан кескин курашлар майдонида доимий давом этади. Бундай ёвуз кучларни Зардушт обод жаҳонни тубанлик ва расволикка тортувчи, дўзах қаърига ташловчи девпараастлар деб таърифлайди. “Ясна”нинг тўртинчи қўшиқ 51-Ҳотининг 14-бандида бу ҳақда шундай қизиқарли маълумотларни ўқиймиз. “Қараплар - девпараастлар бу дунёни адолат ва ростлик асосида барқарор бўлишини истамайдилар. Улар ўз кирдикорлари ва таълимотлари билан жаҳонни одоб қилгувчиларни тубанлик ва расволик чоғига томон тортадилар. Бироқ, шундай таълимотлар ҳам бордирки, уларни – девпарааст қарапларни дуруж кноми –дўзах қаърига ташлагай”, дейилади. (“Авесто”, 30-бет).

Зардушт ўзи орзу қилган жамиятни солиҳ ашаван тақдири билан мужассам этади ва шундай таърифлайди. “-Эй, оламини яратган Зот!

Эй, Ҳақиқат!

Замини ҳаммадан кўра бахтлироқ бўлган дунёдаги биринчи жой қаер?

Ахура Мазда жавоб берди:

-Эй, Сипийтом Зардушт!

Бундай жой қўлда покиза ўтин, барсам,

хована ва янги соғилган сут тутган, ўз амал-этиқодига дилда ишончи собит, ўктам овоз, кенг яйловлар ишқи билан масрур ва бу яйловларни қўшиққа солган бир ашаван оёқ босган заминдир”. (Авесто”, 112-бет).

Зардуштнинг идеал жамият ғоясининг асосий сифатлар ҳақида “Авсето”нинг кўп саҳифаларида учратамиз. Обод рўзгор, комил фарзандлар соғлом сурув ва сигирлар галаси мавжуд бўлган уй ҳайвонларининг ризқи сероб бўлган. Ҳар бир хонадон бекаси бахтиёр, фарзандлари шодмон бўлган, ҳаммадан кўпроқ буғдой, ёғ ва мевали дарахтлар экиладиган, одамлари меҳнаткаш, куруқ ерларга сув чиқариб уларни шудгор қиладиган ва ҳамиша олов гуруллаб турадиган бахтиёр заминдир.

Оламнинг яратилиши ҳақида “Авесто”да қизиқарли бир фикр киши этиборини тортмасдан қолмайди. Унинг мазмуни дунёни олам худолари Доитиё дарёси соҳилида тўпланиб ва бу йиғинда Ахура Мазда ва яхши сурувлар соҳиби Жамшид (Жам) ҳам иштирок этиб, дунёни яратиш ҳақида келишиб олинган. Бу йиғиндан сўнг Ахура Мазда Жамга одамларнинг яшамоғи учун бинолар, сувлар, сигир ва қўйлар сурувини барпо айлаб қўйлар, туялар, одамлар, итлар, паррандалар ва куйдиргувчи кизил олов уруғларини у ерга олиб бор, деб амр қилади. “Вандидод”нинг иккинчи фаргарди иккинчи бўлимида Ахура Мазда томонидан дунёнинг барпо этилиши ҳақида қизиқарли маълумотлар берилган.

Ахура Мазда томонидан дунёнинг яратилиши ҳақидаги янада қизиқарли фикрларни биз “Вандидод”нинг биринчи фаргардида ўқиймиз. Бу ерда айтилишича Ахура Мазда гарчи роҳатбахш бўлмаса-да, халқлар наздида хуш қилиб яратилган 16 та сарзамин ҳақида маълумотлар беради. Бунинг қизиқарли томони шундаки, “Авесто”нинг ҳар бир саҳифаси ана шу ўн олти сарзаминнинг моҳияти билан боғланган ва шулар орқали ифодаланган. “Авесто”да берилган бу ўн олти замин ҳақидаги маълумотни тўлиқ келтиришни лозим топдик :

“Ахура Мазда Сипийтом Зардуштдан хол сўради-да шундай деди:

Мен ҳар бир сарзаминни, улар гарчи роҳатбахш бўлмаса-да, халқлари наздида хуш қилиб яратдим.

Агар мен ҳар бир сарзаминни, улар гарчи роҳатбахш бўлмаса-да, халқлари наздида хуш қилиб яратганимда, бутун-бутун халқлар Ийрон Вижга томон юз бурардилар.

Мен – Ахура Мазда – яратган илк сарзамин ва бирламчи юрт бу - Доитё дарёси соҳилидаги хушманзара Ийрон Виж эди. Шундан сўнг, бутун борлиғи ажал билан йўғрилган Аҳриман келди-да Дитё дарёси қаърида Аждаҳони яратди. Ва бу зимистон девлирини борлиқ олам устидан ғолиб қилди.

У ерда ўн ой зимистон ва ики ой ёз фасли ҳукмрон бўлади. Бироқ шу икки ойда ҳам ҳаво, сув, тўпроқ ва дарахтлар учун совукдир. Зимистон у ерга даҳшатли фалокатлар келтиради.

Мен –Ахура Мазда –яратган иккинчи сарзамин ва гўзал юрт Сўғд диёри эди.

Шундан сўнг, бутун борлиғи ажал билан йўғрилган Аҳриман келди-да, хиравфстралар жисмига мансуб Скайатяни яратди. У бутун подага ўлим уруғини сочди.

Мен – Ахура Мазда –Яратган учинчи сарзамин ва гўзал юрт қудратли ва пок Марв диёри эди.

Шундан сўнг, бутун борлиғи ажал билан йўғрилган Аҳриман келди-да, хусуматда гуноҳкор хоҳишларни яратди.

Мен - Ахура Мазда- яратган тўртинчи сарзамин ва гўзал юрт зебо ва ораста Балх диёри эди.

Шундан сўнг, бутун борлиғи ажал билан йўғрилган Аҳриман келди-да, Адоватдан Браварани яратди.

Мен - Ахура Мазда- яратган бешинчи сарзамин ва гўзал юрт Балх ва Марв оралиғидаги Нисоядир.

Шундан сўнг, бутун борлиғи ажал билан йўғрилган Аҳриман келди-да, душманликдан умидсизлик ёвузларини яратди.

Мен - Ахура Мазда- яратган олтинчи

сарзамин ва гўзал юрт Хирот ва унинг дарёчасидир.

Шундан сўнг, бутун борлиғи ажал билан йўғрилган Аҳриман келди-да қаҳр ғазабдан кўз ёш ва зардобни яратди.

Мен - Ахура Мазда- яратган еттинчи сарзамин ва гўзал юрт бандсояли Ваиха Гирта эди.

Шундан сўнг, бутун борлиғи ажал билан йўғрилган Аҳриман келди-да хусуматдан пари Хинасатайни яратди. У Гаршаспа қовушди.

Мен - Ахура Мазда- яратган саккизинчи сарзамин ва гўзал юрт кенг яйловли Авравадир.

Шундан сўнг, бутун борлиғи ажал билан йўғрилган Аҳриман келди-да зулмпарвар фармонлар гуноҳини яратди.

Мен -Ахура Мазда- яратган тўккизинчи сарзамин ва гўзал юрт Гўргондаги Хнинтадир.

Шундан сўнг, бутун борлиғи ажал билан йўғрилган Аҳриман келди-да кечирилмас гуноҳ бўлган “баччабозлик”ни яратди.

Мен - Ахура Мазда- яратган ўнинчи сарзамин ва гўзал юрт дилкаш Хараваятадир.

Шундан сўнг, бутун борлиғи ажал билан йўғрилган Аҳриман келди-да “мурдаларни тупрокка топширишдек”, кечирилмас гуноҳни яратди.

Мен - Ахура Мазда- яратган ўн биринчи сарзамин ва гўзал юрт серҳосил Хийрманддир.

Шундан сўнг, бутун борлиғи ажал билан йўғрилган Аҳриман келди-да хусуматдан жодугарларнинг зиёни жодуларини яратди.

Жоду афсункор нигоҳ йўлидан ҳосил бўлади. Ҳар вақт жоду йўлиқар бўлса ва афсун бош кўтарса, жодуни маҳв этгувчи амал бажарилади.

Мен - Ахура Мазда- яратган ўн иккинчи сарзамин ва гўзал юрт уч баҳодир ҳукмрон бўлган Райдир.

Шундан сўнг, бутун борлиғи ажал билан йўғрилган Аҳриман келди-да хусуматдан суст эътиқодлилиқ гуноҳини яратди.

Мен - Ахура Мазда- яратган ўн учинчи сарзамин ва гўзал юрт қудратли ва пок Чахрадир.

Шундан сўнг, бутун борлиғи ажал билан йўғрилган Аҳриман келди-да хусуматдан “Мўрдор ёкгувчилар”нинг кечирилмас гуноҳини яратди.

Мен - Ахура Мазда- яратган ўн тўртинчи сарзамин ва гўзал юрт Аждаҳони мағлуб этган Фаридун дунёга келган тўрт гўшали Варинадир.

Шундан сўнг, бутун борлиғи ажал билан йўғрилган Аҳриман келди-да “бемаҳал хайз кўрган аёллар қонини” ва ёт ҳукмдорлар асоратини яратди.

Мен - Ахура Мазда- яратган ўн бешинчи сарзамин ва гўзал юрт Ҳафтруддир.

Шундан сўнг, бутун борлиғи ажал билан йўғрилган Аҳриман келди-да “бемаҳал хайз кўрган аёллар қонини” ва қаттиқ иссиқликни яратди.

Мен - Ахура Мазда- яратган ўн олтинчи сарзамин ва гўзал юрт Рангҳа дарёси сарчашмаси атрофидаги бессар халқлар яшовчи макондир.

Шундан сўнг, бутун борлиғи ажал билан йўғрилган Аҳриман келди-да хусуматдан девлар яратгувчи зимистонни борлиқ оламга ғолиб қилди.

Жуда кўп гўзал ва роҳатбахш сарзаминлар, юртлар, кишварлар бор. Уларни ҳам мен –Ахура Мазда-бунёд этдим”. (“Авесто”, 107-108-бетлар).

Зардушт ўзи орзу қилган ва қурмоқчи бўлган жамиятни Ашаҳ-Ҳақиқат қонунлари асосига бўйсундирмоқчи бўлади. Бу ҳолатни кўшгина авестошунос олимлар Авестун қонунлари деб ифодалайди. Зурдушт ҳар бир ҳаракатини, ғоя ва қарашларини Ҳақиқат қонунлари асосида исботлашга интилади. Лекин, мавжуд жамиятдаги яхшилик ва ёмонлик, муҳаббат ва нафрат, ишонч ва ишончсизлик, садоқат ва хиёнат, эзгулик ва ёвузлик оламининг мавжудлиги унинг ўз ғояларини ҳаётда амалга оширишга тўсқинлик қилади. Бундай турмуш тарзини эврилишини хоҳлаган ва лекин у амалга оширишга ожиз бўлган Зардушт олий илоҳ Ахура Маздага мурожаат қилади. Ўзи бино қилган оламнинг бенуксон ва кўрам бўлишини истайди. Бу эса бевосита инсон оламининг қай даражадагига боғлиқ. Эзгулик билан

яшайдиган киши эзгулик ҳукмрон бўлган турмуш тарзини йўлга қўяди. Мунофиқлар, хиёнаткорлар, жиноятчилар, диёнатсизлар эса унинг тескариси.

Ҳаёт қарама-қаршиликларидан ожиз қолган буюк немис файласуфи Нитше ўзининг 1883 йилда ёзган “Зардушт таваллоси” асарида ҳам Зардушт орқали инсон, ҳаёт, дунё атрофида фикр юритар экан, руҳий ҳаёлот ва фикратдан ҳаётӣ хулосаларга ўталди реал воқеъликка муносабат билдиради ва шундай дейди: “Мангу зиддиятнинг акси ва нотаом тимсол, мангу нотаом бу дунё –унинг нотаом яратувчиси учун мастона шодиёна,-бир маҳалла дунё менга шундай туюлди”. (Нитше Ф. Зардушт таваллоси, 26-бет). Зардуштда ҳам Нитшеда ҳам бу олам ва одам нуқсонлардан ва зиддиятлардан холи эмас. Шунинг учун ҳам у мангу етук бўла олмайди, инсон эса идеал инсонга айлана олмайди. Демак, заминда яшаётган инсоният жамияти баркамол эмас ва бундан кейин ҳам баркамол бўла олмайди. Зардушт ва Нитше ана шу камёбликдан истироб чекади. “Авесто” тадқиқотчиларидан бўлган Нарзулла Жўраевнинг фикрича, ... “Зардушт саловати, дуолари, таваллоси Нитше қалби орқали нитшеёна муножот бўлиб янграйди. Бу муножот ўта жарангдор, ўта файзли, тароватли чуқур мазмунга ва хулосаларга эга бўлган ғоя. Нитше фалсафаси Зардушт орқали ана шундай мақомга эга. (Нарзулла Жўраев. “Авесто” мўжизаси. 60-бет).

Реал ҳаётӣ шахс бўлган Зардуштнинг мақсади Ахура Мазда таълимотини эгаллаш орқали янги дин ғояларини ўзлаштиришдан иборат бўлган. Бу янги дин ғояларини ўзлаштирган зотлар дунёнинг ташвишларига мардонавор тура оладиган ҳар қандай қийинчиликларга бардош бера оладиган ва фақат жамиятни янгилаш учун курашадиган аъмолли зотлардир. Аъмолли зотлар эса, фақат янгилик учун курашадилар. “Яхши аъмолли зотларнинг энг олий хоҳиши янги дунё курмоқликдир”, дейилади “Вадидод”нинг 65- Ҳоти 14-бандида. (“Авесто” 93-бет).

Бундай жамият куриш учун Зардушт Ахура Маздага мурожаат қилади ва шундай дейди:” Эй, Мазда! Эй, замин, сув ва гиёҳларни яратган Зот!

Бизни ўз жаҳонинга еткаргил; адабият бахш эт, эзгу ният ҳимоятида куч-қудрат пойдорлик насиб қил ва ўз таълимотингдан баҳраманд айлагил!” (“Авесто”, 93-бет).

Кўриниб турибдики, Зардушт назарида янги жамият бу Мазданинг жаҳони, абадийлик, эзгу ният инсонни ҳимоя қилувчи асосий куч-қудрат ва унинг асосида Мазда таълимотидан баҳраманд бўлиш ётади. Бундай жамиятнинг ҳар бир фуқароси осмонни, табиатни жониворларни авайлаб асрайдилар, болаларни, гудакларни оналарни ҳимоя қиладилар. Чунки ҳар бир ашаван аввало Ахура Мазда оламининг фуқароси бўлиши керак ва улар нинг ҳар бир хатти-ҳаракатида ана шу масъулият порлаб туриши керак. “...Ахура Мазда оламини яратди. Мард ашаванни халқ айлади... шу ишоняким ҳар бир ашаваннинг хатти-ҳаракатида зоҳирдир, мен шу ишонч билан маздапарастман”, дейди Зардушт. (“Авесто” , 57-бет). Шу ўринда Зардушт назарида маздапарастлар динининг соҳиблари қудратини отурбон, артштар, деҳқон ва тевапарварлардир.

Зардушт таълимотида ўзи орзу қилган жамиятнинг ҳақиқий ашавани донишманд, гўзал тил соҳиби, хушёр рўх ҳокими, ўлмас ва фаровон ақл эгаси бўлиш керак. Шу ўринда Зардушт ўзида шу сифатларнинг ноёблигини сезади ва олий илоҳ Азура Маздага мурожаат қилади:”...Менга зудлик билан ўзоқ умр; донишмандлик;ашаванлик; гўзал тил; хушёр рух;ўлмас ва фаровон ақл-хират бахш айла”, дейди. (“Авесто”, 90-бет).

ХУЛОСА (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Хулоса ўрнида шуни айтиш мумкинки, “Авесто” жамиятнинг пайдо бўлиши ва ривожланишига оид масалаларни фақат тарихий нуқтаи назардан эмас, балки чуқур фалсафий-маънавий қарашлар асосида ёритади. Зардушт учун жамият идеал инсонлар – “ашаван”лардан ташкил топган, улар эзгу

ният, покиза сўз ва яхши амаллар тамойилларига амал қилган ҳолда дунёни обод қилишга интиладилар. Унинг таълимотидаги Ахура Мазда ва Аҳриман

ўртасидаги мангу қарама-қаршилик, аслида, инсон ва жамият ҳаётидаги доимий яхшилик ва ёмонлик курашининг рамзий ифодасидир.

**АДАБИЁТ ВА МАНБАЛАР РЎЙХАТИ
(ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА /
REFERENCES):**

1. Абдуллаев А. Очерки истории развития медицины в Хорезме. – Тошкент, 1980.
2. Авесто. Тарихий-адабий ёдгорлик. Асқар Маҳкам таржимаси. – Тошкент: Шарқ, 2001.
3. Бартольд В. В. Сочинения. Т. III. – Москва, 1965.
4. Бертельс Е. Э. История персидско-таджикской литературы. – Москва, 1969.
5. Бертельс Е. Э. Отрывки из “Авесты”. // *Восток*. Кн. 4. – Москва–Ленинград, 1924.
6. Беруний А. Р. Танланган асарлар. 1-жилд. – Тошкент: Фан, 1968.
7. Бобоев Ҳ., Дўстжонов Т., Ҳасанов С. “Авесто” – шарқ халқларининг бебаҳо ёдгорлиги. – Тошкент: ТМИ, 2004.
8. Гафуров Б. Г. Таджики. Книга первая. – Душанбе: Ирифон, 1989.
9. Жўраев Н. “Авесто” мўжизаси. – Тошкент: Ғ. Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2013.
10. Толстов С. П. Қадимги Хоразм маданиятини излаб. – Тошкент, 1964.

МИЛЛИЙ МАДАНИЯТИМИЗНИНГ ТАРАҚҚИЁТИ ДАВР ТАЛАБИДИР

Худайбердиев Хурсанд Худайбердиевич
Термиз муҳандислик-технология институти
Ижтимоий-гуманитар фанлар кафедраси
доценти, фалсафа фанлари номзоди
<https://orcid.org/0009-0008-4368-39260>
 UDK: 94(575.1).

Аннотация: Мақолада маданиятнинг шаклланиши, ривожланиши, ижтимоий гуруҳларнинг ўзига хос маданиятининг ўзига хослиги, хусусиятлари инсон ва жамият ҳаёти, турмуш тарзида моддий ва маънавий маданиятнинг ўрни ўзбек миллатининг вужудга келиши билан унинг бошқа халқлар маданияти билан яқинлашуви, кези келганда узоқлашуви, Янги Ўзбекистонни барпо этишда моддий ва маънавиятнинг такомиллашуви ва бу жараёндаги роли ва ўрни таҳлил қилинган.

Калит сўзлар: Инсон, этник бирлик, ҳаёт, жамият, моддий ва маънавий маданият, унинг ривожланиши, маданиятларнинг яқинлашуви ва узоқлашуви, Янги Ўзбекистонда моддий ва маънавий маданиятнинг роли ва ўрни.

Аннотация: В статье анализируются становление и развитие культуры, особенности специфической культуры социальных групп, особенности быта человека и общества, роль материальной и духовной культуры в образе жизни, возникновение узбекской нации, ее сближение с культурами других народов, а порой и отрыв от них, совершенствование материальной и духовной культуры в строительстве Нового Узбекистана, ее роль и место в этом процессе.

Ключевые слова: Человек, этническое единство, жизнь, общество, материальная и духовная культура, ее развитие, сближение и разъединение культур, роль и место материальной и духовной культуры в Новом Узбекистане.

Abstract: The article analyzes the formation and development of culture, the peculiarities of the specific culture of social groups, the features of the life of man and society, the role of material and spiritual

culture in lifestyle, the emergence of the Uzbek nation, its rapprochement with the cultures of other peoples, and its separation from them at times, the improvement of material and spiritual culture in the construction of New Uzbekistan, and its role and place in this process.

Keywords: Man, ethnic unity, life, society, material and spiritual culture, its development, rapprochement and separation of cultures, the role and place of material and spiritual culture in New Uzbekistan.

КИРИШ (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). Маданият арабча – “мадиналик”, “шахарлик”, “таълим тарбия кўрган”, лотинча – “ишлов бериш” деган маънони англатади. Маданият-табиат ва ўзаро муносабатларда акс этадиган инсон фаолиятининг ўзига хос усулидир. Маданият алоҳида индивиднинг ҳаёт фаолияти (шахсий маданият), ижтимоий гуруҳнинг ёки жамиятнинг ҳаёт фаолияти усулини акс эттиради. Дастлаб маданият тушунчаси инсоннинг табиатга мақсадга мувофиқ таъсири (ерни ишлаш ва бошқалар) ҳамда инсоннинг ўзини тарбиялаш ва ўқитиш маъноларини ифодалаган. Уйғониш даврида маданият етуклиги, Кейинчалик маданият тушунчаси орқали цивилизация билан боғлиқ мазмун тушунила бошлаган. Уйғониш даврида маданият етуклиги деганда инсоннинг инсонпарварлик ғоялари, кейинрок, маърифатпарварлик ғояларига мувофиқликни тушуна бошладилар.

Жамиятдан ташқарида маданият мавжуд эмас. Ижтимоий муносабатлардаги ҳар қандай ўзгариш маданиятга таъсир этади ва маданият бу муносабатларнинг қандай натижаларга олиб келишидан хабар беради.

Шу нуктаи назардан маданият нафақат ўтмишга ёки бугунга, шу билан бирга келажакка муносабатдир.

Маданият инсон фаолиятининг ҳам маҳсули, ҳам сифат кўрсаткичи. Инсоният ўзи ҳам пировард натижада маданиятнинг маҳсулидир. Маданий муҳит қандай бўлса, инсон ҳам шундай шаклланади.

МУҲОКАМА (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). Маданиятнинг ижодкори, энг аввало, халқ. Халқ маданиятида авлодлар-аждоқлар яратган моддий ва маънавий бойликлар жамланган. Уларни ўзлаштирмай, билмай туриб, маданиятли киши бўлиб етишиш қийин. Худди шунингдек, маданият ривожига профессионал ижодкорлар ва санъаткорлар ҳам катта ўрин тутадилар. Улар туфайли маданиятда янги оқимлар, ижод турлари, бадиий эстетик қарашлар юзага келади. Маданият ўз моҳиятига кўра моддий ва маънавий маданиятга бўлинади.

Моддий маданият деганда инсон томонидан табиат кучларини ўзлаштиришнинг сифатий даражасига, меҳнат қуролларининг такомиллаштирувига, ишлаб чиқаришнинг техник даражасига, кишиларнинг техникадан фойдаланишдаги иш тажрибалари ва кўникмаларига, уларни илмий асосланишига, меҳнат маданиятига, кишиларни моддий-турмуш эҳтиёжларини қаноатлантиришга ва бошқаларга тушунилади. Моддий маданиятнинг юрагини меҳнат қуроллари ташкил қилади. Улар ҳозирги даврда фан ютуқларини ишлаб чиқаришга жорий қилиб борилаётгани билан характерланади. Маданиятнинг даражаси, шунингдек инсон тажриба, кўникмаларининг, билимларининг моддий ишлаб чиқаришда қўлланиши билан ҳам ифодаланади.

Маънавий маданият деганда эса табиат ва жамиятни чуқурроқ билиш ва унинг даражасининг сифатий ютуқларига, инсон дунёқараши тасаввурларининг кенглиги, ижтимоий ҳаётга бунёдкор, эзгу прогрессив ғояларнинг, ижобий, фойдали билимларнинг жорий қилинишига тушунилади. Бошқачароқ айтганда фан,

фалсафа, таълим, маориф, ахлоқ, адабиёт ва санъат соҳаларидаги сифатий ютуқларнинг йиғиндисига маънавий маданият деб тушунилади.

Маънавий маданият элементлари сиёсий ғояларда, кишиларнинг сиёсий, маънавий ривожланишида, ҳуқуқий муносабатларнинг такомиллашишида ўз аксини топади.

Маънавий ҳаёт ҳодисалари тил, нутқ, тафаккур, ҳулқ нормалари (“ташқи маданият”), шунингдек “ҳиссий маданияти” ҳам маънавий маданиятни ифодалаб беради.

Маданиятнинг муҳим жиҳатини миллий маданият ташкил қилади. Миллий маданият деганда маълум бир миллат, элат, халқ томонидан узоқ тарихий ривожланиш жараёнида яратилган, уларнинг ижтимоий-маданий эҳтиёжларини ифода этган моддий ва маънавий бойликлар йиғиндисига айтилади. Миллий маданиятга тил, турмуш тарзи, менталитет, урф-одатлар, дин, халқ ижодиёти, архитектура, адабиёт, мусиқа, ахлоқий-маънавий қадриятлар ва бошқалар киради.

Одатда маданият ички (ўзак) ва устки қатламдан иборат ижтимоий-тарихий ҳодисадир. Миллийлик маданиятнинг, энг аввало, ўзак қатламида акс этади. Бу қатламга халқнинг узоқ тарихий ривожланиш жараёнида шаклланган ва шу халққагина мансуб бўлган тили, турмуш тарзи, дини, урф-одат ва анъаналари, менталитети, қадриятлари киради. Маданиятнинг ўзак қатламига қараб биз ҳар бир халқнинг ўзига хос хусусиятларини, тарихий-маданий ривожланиш йўлларини, жаҳон маданияти ва цивилизациясига қўшган улушини аниқлаймиз.

Маданиятнинг ўзак қатлами муҳим, турғун хусусиятга эга. Айнан мана шу хусусият миллий маданиятнинг ўзига хос қонунлар асосида ривожланишини таъминлайди. Ҳатто, сиёсий тўнтаришлар, инқилоблар ҳам уни йўқ қила олмайди. Масалан, ўтган асрнинг 20-йилларида ўлкамизда амалга оширилган тўнтаришлар ва зўрлаб киритилган ижтимоий

муносабатлар ўзбек тилини, халқимизнинг тарихий, маданий, маънавий урф-одатлари, анъаналари, кадриятларини, ўзига хос фикрлаш тарзини йўқ қила олмади. Демак, ўзакнинг мавжудлиги миллий маданият ва миллат, элат, халқнинг ўзига хос ижтимоий бирлик сифатида мавжудлигининг асосий шартидир.

Миллий маданият билан умуминсоний маданият ўртасида диалектик боғлиқлик мавжуд. Умуминсоний маданият миллий маданиятлардаги инсонни ва унинг ижодий, ахлоқий “қувватларини” (Форобий) улугловчи кадриятлардан иборатдир.

Миллий маданиятларнинг ранг-баранглиги ўзига хослиги ва бетакрорлиги умуминсоний маданиятнинг ривожланиш шартидир. Шу билан бирга умуминсоний маданият ҳам миллий маданиятларда, ижтимоий тараққиёт талабларига мувофиқ, инновацион ўзгаришлар содир бўлишига имкон яратади.

Маълумки, бугунги дунё бир халқ, мамлакат ўз худуди доирасидагина яшаш билан чекланмайди. Аксинча, дунё халқларини манфаатлар муштараклигини бирлаштирмоқда. Ҳар қандай “хусусий” муаммо барча учун бирдай тегишлилик моҳиятини касб этмоқда. Умумий тақдир ва умумий истиқбол тушунчалари тобора чуқурлашиб бормоқда.

Глобал моҳиятга эга бўлаётган ғоят залварли масалалар кўпайиб бормоқда. У инсоният тарихи ва тақдирига, бугуни ва истиқболига жиддий таъсир этмоқда. Айни ана шу мамлакат табиатини, моҳиятини қанчалик чуқур тушунсак, маънавий оғриқ, руҳий озурдалик шунчалик катта таҳдид солаётганини яна ҳам чуқурроқ ҳис этамиз. Оммавий ахборот воситалари мазкур муаммоларни шу даражада кўп тарғиб этмоқдаки, бу баъзан ғоят фожиали, зиддиятли вазиятни вужудга келтирмоқда.

Хилма-хил далиллар ва рақамлар атрофидаги мулоҳазалар, таҳлиллар, тадқиқотлар йўналишлари тобора кўпайиб бормоқда. Кўнгилларни ғаш қилиб, руҳимизга озурдалик келтирадиган “башорат”лар ва янги технологик

изланишлар шу даражада авж олиб кетдики, бу бевосита Ер шари тақдири ва инсоният истиқболи билан боғлиқлик ҳиссини, даҳлдорлик туйғусини яна ҳам кучайтирмоқда.

Ана шу тиғиз ва шиддатли бир шароитда инсоннинг энг яқин ва ишончли ҳимоячиси-маданият ва маънавиятга эҳтиёж яна ҳам кўпроқ ортмоқда. Биз ташқи олам, атроф муҳит ва ижтимоий ҳаётдаги муаммолар ҳақида қанчалик чуқур ўйласак, унинг асосида инсон моҳияти, кадрияти ётганини шунчалик кўпроқ тушунамиз. Балки глобал муаммолар таҳдиди бизни қайсидир даражада чалғитиб қўяр. Бироқ ҳар қандай муаммо, ҳар қандай таҳдид инсон маънавияти, ички ифодаси, руҳий қуввати орқалигина ўз ечимини топиши мумкин.

Инсон икки олам кесишган нуқтада яшайди. У ташқи дунё, табиат ва ҳаёт сарвари, айни пайтда ўз юки оламининг буткул итоаткоридир. Айни ана шу ички олам, туйғу ва руҳ ташқи олам моҳиятини, мазмунини ва истиқболини белгилайди. Муҳаббат ва нафрат, эзгулик ва ёвузлик, оила, турмуш, кундалик ҳаёт эҳтиёжлари ва муаммолари, атроф-муҳитдаги барча яхшилик ва ёмонликлар кишилик жамияти тараққиётига ўз таъсирини ўтказди. Демак, инсон олами ташқи оламнинг кўзгуси ва айни пайтда инсоннинг жамиятдаги ўрни, ҳаёти ва тақдири билан боғлиқ бўлган ноёб кадрият. Худди ана шу оламда инсоннинг маънавий-руҳий имкониятлари, тасаввурлари, ҳиссиётлари, илҳоми ва ижодкорлик туйғулари яшайдики, бу ташқи оламни ўзлаштиришга, ҳаётни ҳар қандай шароитда ҳам тартибга солишга кодир бўлган қудратли кучдир.

Инсоният яратган бой маданий кадриятлар, жумладан кишилик тарихи шундан далолат берадики, маданиятнинг умри бир инсон умридан анча узун ва, ҳатто, чексиздир. У инсоният ибтидоси ва интиҳосини ўзида мужассам этади. Бугун биз Миср, Рим, Самарқанд, Бухоро, Хива, Термиз деганда ана шу улкан ва ўлмас маданиятнинг нақадар барҳаётлигига, яшовчанлигига, келгуси авлодларга ғоят

кучли маънавий таъсир ўтказишига ишонч ҳосил қиламиз. Чунки айтилишича улар туфайли тарих сақланмоқда, ўтмиш тараккиёт даврларидан, ўзига хос цивилизациясидан хабар бераётгани каби қўлоғимиз остида аждодлар руҳининг кўнғироқлари эшитилиб туради, қалбимизга ҳарорат, жисмимизга қудрат бахш этади, истикболга даъват этади.

Албатта, ҳар қандай шароитда ҳам фан, маданият, санъат фақат озод шароитдагина ривожланади. Ижодий жараён авж олади. Демократия сўз ва фикр эркинлиги орқали намоён бўлади. Ҳозирги замон жаҳон маданияти эса яхлит инсоният озодлигини ноёб мўъжизаси сифатида юзага келмоқда. Зотан, руҳнинг қудрати озодликда!

Кишилиқ жамияти тарихи XX асрдаги сингари фавқулодда ҳолатларга, тўқнашувларга ва зиддиятларга дуч келмаган. Айтилишича ана шу ҳодиса XXI аср тақдирини, моҳиятини белгилайдиган омилга айланди. Сиёсий тафаккур, ижтимоий фалсафа, уруш ва тинчлик ҳақидаги ғоялар ривожлангани сари инсоният тобора таҳдид гирдобига тушмоқда. Халқлар, миллатлар энди бир-биридан қочиб эмас, бир-бирига интилиб яшаш (И.А.Каримов) эҳтиёж эканлигини тушуниб бормоқда. Ана шу англаш жараёнининг ўзи бу қадимий маконда тушунчаларнинг кенгайиб бораётганлигидан далолат беради. Уруш маданиятсизлигидан тинчлик маданиятига ўтиш зарурат эканлиги тобора кўпроқ намоён бўлмоқда. Ана шу жараёнда жамият ҳаётида дахлдорлик туйғуси, яъни халқлар ва миллатларнинг маданиятлар орқали ўзаро яқинлашиши жараёнлари тобора фаоллашмоқда. Жараённинг ижобий томони шундаки, маданиятлараро яқинлашув, маданиятлараро интеграция халқлар ўртасида ўзаро бир-бирини тушуниш даражасининг ошишига олиб келди.

Аслини олганда ҳар бир миллат ёки элат умумсайёравий маданиятга ўзига хос ҳиссасини қўшади. Шу билан бирга ҳар бир миллий маданият ўз тарихий илдизларига таяниб, унинг сарчашмаларидан баҳра

олиб, умумтарихий тажрибалар билан озиқланган ҳолда бойиб боради.

Ҳар қандай маданият ўз миллий хусусиятларига, миллий манбаларига, тарихий тажрибалар ва жараёнлар асосида шаклланган қиёфасига эга. Бироқ ижтимоий-сиёсий, иқтисодий жараёнларнинг тобора шиддат билан умумсайёравий моҳият касб этаётганлиги сабабли гўё умуминсоний маданият дунёга келаётгандай туюлади. Аслида эса миллий маданият ўз моҳиятини йўқотмоқда, “чатиштирилган”, сунъийлаштирилган ҳолатдаги мажруҳ қиёфага кирмоқда. Бундай “бедаво”ликдан қутулишда эса фақат ва фақат миллий тафаккур, миллий онг, миллий руҳ алоҳида аҳамият касб этади. Айтилишича ана шу муҳим учлик устувор бўлган шароитдагина миллий ва маънавий халоскорлик туйғуси, ўз миллий қадриятларини ҳимоя қилиш имунитети кучаяди ва у ҳар қандай шароитда ҳам ўзининг куч-қудратини намоён этмоғини ҳаёт тақозо этмоқда.

Бир қарашда ўз миллий қадриятлари, анъаналари ва маданиятини зўр бериб ҳимоя қилиш кишига худди шовинизм, национализм ва ирқчилик каби салбий ҳолатдай туюлади. Иккинчи томондан эса умуминсоний маданият тушунчасининг тобора кенгайиб бораётгани миллатлар ва элатлар ўзига хослигининг йўқолишига олиб келмоқда.

Бугунги дунёни фақат ўзаро соғлом мулоқот, ўзаро бир-бирини тўғри тушуниш маданияти асраши мумкин. Худди ана шу мулоқот бир-бирини эшитиш ва тушуниш маданиятни асраши мумкин. Худди ана шу мулоқот бир-бирини эшитиш ва тушуниш маданияти инсон ҳаётини уруш маданиятсизлигидан тинчлик маданиятига ўтказадиган ғоятда мураккаб ва айтилишича пайтда эҳтиёжга айланган тарихий ҳодисадир. Ғоятда кучли қурол-яроғлар, ҳарбий аслаҳалар ва ҳарбий қудрат билан зўравонлик қилиш, қолаверса, буюк давлатчилик шовинизми таҳдиди ҳозирги замон цивилизацияси нуқтаи назаридан ибтидоий ҳодисага айланди.

Шу нарсани очиқ, ошкора қайд қилиш

зарурки, уруш ва тинчлик сингари глобал муаммони фақат соғлом ақл, соғлом идрок ва заковат орқали ҳал этишни давр тақозо этмоқда.

Ҳозирги даврда юксак даражадаги маданият, маънавият долзарб муаммога айланди. Бу долзарблик ўз-ўзидан юксак маданиятни тақозо этадики, маданият бой жойда очиқлик, қалбан ва руҳан яқинлик, ўзаро бир-бирини тушуниш туйғулари яшайди.

Демак, тинчлик маданияти бу бевосита маданиятлар мулоқоти, ўзаро ишонч ва бир-бирини тушуниш кўзгусидир. Бир-бирини ҳурмат қилиш, ўзаро яқинлашиш орқали умумсайёравий маданият вужудга келишига олиб келади. Бу, албатта, уруш ва тинчлик йўналишидаги маънавий ҳодиса. Лекин яна бир йўналиш борки, бу бевосита ҳар бир халқ, ҳар бир элатнинг, миллатнинг ўзига хослиги билан, тарихий маданий мероси ва маънавий қадриятлари билан боғлиқ бўлган жараёндир.

Ҳозирги замон талаблари нуқтаи назардан ҳар қандай миллий маданият турли халқлар маданияти билан мулоқот қилишга қодир бўлмоғи лозим. Ана шу мулоқот жараёнида бир маданият иккинчи бир маданиятга ҳам ўз таъсирини ўтказади, ҳам ўзи бойийди. Бошқача қилиб айтганда, ўз маданий қобиғидан чиқмаслик, ҳар қандай маданиятга қарши туриш ожизлик ва нотавонликдир, бугунги цивилизация ютуқларидан орқада қолиш каби қолоқликдир. Бошқа бир маданиятга қўшилиб кетиш эса миллий таназзулдан бошқа нарса эмас. Бу миллатнинг, элатнинг, этник гуруҳнинг инқироzi билан тенг бўлган фожиа. Ана шундай мураккаб, зиддиятли бир шароитда ўзаро таъсир ва эргаштириш туйғуси меъёр доирасида бўлмоғи шарт.

Маданиятлараро интеграция дунёни янгилашга, инсоният тафаккурини бойитишга, унинг маданий савиясини оширишга катта хизмат қиладиган улкан ижтимоий-тарихий ҳодиса. Биз жаҳон цивилизациясидан ортда қолмаслигимиз керак. Ҳеч бўлмаганда у билан баробар юришимиз, унинг ютуқларидан фойдалана

олишимиз зарур ва, ҳатто, ўз ютуқларимиз билан замонавий цивилизация тажрибаларини бойитишга интилоғимиз зарур. Бироқ, бундан миллий хусусиятларимизга, урф-одат, анъаналаримизга, турмуш тарзимизга зид бўлган маданиятни олиб кириш мумкин деган фикрга бормаслигимиз лозим.

Маданиятнинг миллий ўзига хослиги бу маълум бир миллатнинг моҳияти, қиёфаси, унинг асрлар қаъридан етиб келган қадриятидир. Миллий маданият тушунчаси орқали биз асрлар синовидан ўтган, ўтмиш тажрибаларини ўзлаштирган ва айни пайтда ҳозирги замон маданий тажрибалари асосида ўзини бойитиб бораётган, унинг янгидан-янги қирраларини кўрсатаётган жараёни тушунамиз. Бу бевосита миллий онг, миллий тафаккур тарзи билан боғлиқ бўлган кенг миқёсли воқелик. Айни ана шу ҳар бир миллат ва халқнинг миллий онглилик даражаси ўша миллат ёки халқнинг цивилизациялашганлик даражасини кўрсатади.

Маданиятлараро интеграция авж олаётган ҳозирги даврда ижобий ва салбий томонлари кўзга яққол ташланмоқда. Бу ҳақда проф. Н.Жўраев қуйидаги фикрларни қайд этади: “Биринчидан, катта халқлар маданияти цивилизация рамзи сифатида кичик халқлар маданиятининг ривожланишига, уларнинг тараққий топишига, жаҳон цивилизациясига яқинлашишига ёрдам бермоқда. Бу албатта, ҳар қандай миллий маданият ўз эҳтиёжи нуқтаи назаридан жаҳон маданиятига интилиши орқали унинг энг самарали, ижобий жиҳатларини қабул қилиб, салбий томонларини қабул қилмаслик каби ўта нозик, катта миллий маданиятни, маърифатни ва табиий равишда ахлоқни тақозо этади.

Иккинчидан, катта халқлар маданияти кичик халқлар маданиятини ютиб юбормоқда”[15].

АҚШ тадқиқотчиларнинг қайд қилишларича яқин вақтларгача жаҳонда ўн икки мингдан ошиқ катта-кичик этносларнинг тиллари мавжуд бўлган.

Ҳозир эса уларнинг сони жаҳон бўйича етти мингдан ошиқроқни ташкил қилади. “Уларга кучли таъсир ўтказиб, ўзига хослигини, миллий хусусиятларини, қадриятга айланган урф-одатлар ва анъаналарини шафқатсизлик билан поймол этмоқда.

Учинчидан, кичик халқлар, жумладан ривожланиш йўлига чиқаётган мамлакатлар жаҳон тараққиётидан орқада қолмаслик учун унинг ютуқларини ўзлаштириш йўлидан бориши табиий. Ўз-ўзидан бундай халқлар учун жаҳон маданиятига интилиш ҳисси кучли бўлади. У қондириш қийин бўлган эҳтиёжга айланади. Жаҳон цивилизацияси ютуқларига кўр-кўрона ёндашиш оқибатида эса миллий ўзига хослик йўқолиб, маданий-маърифий инқирозга юз тутиши мумкин”[15].

Маълумки, XV-XVI асрлардан бошлаб бозор муносабатлари ва бозор иқтисодиёти бутун дунёни ўз таъсир доирасига тортиб, халқаро муносабатларнинг шакл ва мазмунига ҳал қилувчи таъсир кўрсатиши жаҳон иқтисодий, сиёсий, ижтимоий ва маданий-маънавий ҳаётида ҳукмрон тамойилга айлангандан сўнг миллатлар, мамлакатлар, минтақалар ва қитъаларнинг яқинлашуви жадаллашиб, янги поғонага кўтарилди. Бу яқинлашув шу даражада юксак суръатлар билан ривожландики, XIX аср охири ва XX аср бошида бу жараённинг ҳеч қандай куч тўхтата олмаслиги ва яқин аср давомида миллатларнинг қўшилиб кетишига йирик миллатлар майда миллатларни, уларнинг миллий маданиятларини “ютиб юбориш”ига ҳеч қим шубҳа қилмай қўйди. Ҳатто атоқли назарийчи ва ижтимоий тараққиёт муаммолари соҳасидаги таниқли олим Карл Каутский ҳам “яқин даврлар ичида миллатларнинг қўшила бошлаши шубҳасиз. Масалан, чех миллати яқин ярим аср ичида ўзидан йирик, кучли ва бақувват олмон миллати томон оғиб, у билан қўшилиб кетади. Чехлар учун бошқа йўл йўқ” деб ёзган эди XX аср бошида. Аммо, бу “башорат”дан сўнг ярим аср эмас, бир аср ўтди, чех миллати эса олмонлар билан

қўшилиб кетиш ўрнига ўз мустақил давлатига суяниб, Европанинг ривожланган миллатларидан бирига айланди.

Кейинги тўрт-беш асрда жаҳон бўйлаб нақлиёт воситаларининг ривожланиши натижасида халқлар, қитъалар ва минтақаларнинг яқинлашиши ниҳоятда тезлашди, жадаллашди, серқирра жараёнга айланди. Аммо жаҳон илмий, жўғрофий, демографик, этнографик адабиёти, миллатларнинг, миллий маданиятларнинг оммавий равишда қўшилиб кетиши бошланди, деган хабарларни билдирмаяпти. Албатта, жузъий қўшилишлар, ҳаёт эҳтиёжлари сабабли, бўлмоқда ва келажакда ҳам бўлиши эҳтимоли узоқ эмас.

Кундалик ҳаётда миллатларнинг, миллий маданиятларнинг қўшилишини эмас, балки унинг тескарисини кўриб турибмиз, яъни миллатлар ўсмоқдалар, мустаҳкамланмоқдалар, миллий маданиятлар гуллаб-яшнашга интилмоқдалар. XXI асрга инсоният миллатлар инсонияти сифатида кириб келди. Демак XX аср бошида шу тўғрида фикр юритган жамиятшунослар нотўғри хулоса ясаб, қўпол хатога йўл қўйганлар. Бу ҳатто шундан иборатки, улар миллатларнинг, миллий маданиятларнинг яқинлашишини таҳлил қилишга оддий, содда, механикавий равишда ёндашганлар, улар оддий мантиқ қонунлари асосида мулоҳаза юритиб, “ўзаро яқинлашувчи ҳар икки нарса охир оқибатда қўшилади. Шундайэкан, ўзаро яқинлашувчи миллатлар, миллий маданиятлар ҳам қўшилиб кетиши муқаррар нарса” деган хулоса чиқардилар. Улар ниҳоятда муҳим бир омилни сезмадилар ва инобатга олмадилар. У ҳам бўлса шундан иборатки, ўзаро яқинлашаётган миллатлар жонсиз нарсалар ёки онгсиз махлуқлар эмас, балки онгли инсонлар бирликларидир.

Миллатларнинг ҳар бири ва ҳар бирида эса ҳар бир шахс ўз онги, дунё- қараши, ҳаёт тамойиллари, тарихи ва маънавият дунёсига эга. Шундай экан, бир миллат иккинчи миллат билан яқинлашар экан,

унинг билан қўшилиш ҳақида асло ўйламайди. У иккинчи миллатдан, унинг миллий маданиятидан нимани ўрганиш, нимани қабул қилиш, қай соҳада савдосотиқ қилиш тўғрисида ўйлайди. Ва янгиликни қабул қилиб олса, ўз миллий муҳитига, ўз миллий воқелигига мослаштириш йўллари излайди ва киритади. Бинобарин, миллатларнинг, миллий маданиятларнинг яқинлашуви натижасида қабул қилинаётган, янгилик оддий механикавий ҳаракат бўлмай, миллатнинг онги, анъаналари, мезонлари, тушунчалари, диди ва миллий ақл-фаросати орқали қабул қилиб олинади. Бундай ўзлаштириш миллатни, миллий маданиятни бойитади, унинг ҳаётига янгилик киритади, миллат онгида янги тушунчалар пайдо бўлишига сабабчи бўлади.

Миллатлар, миллий маданиятлар яқинлашиш орқали бир-бирини бойитадилар, яъни бир-бирларига ижтимоий бирлик сифатида янада мустаҳкамланиш учун йўл очадилар. Кўриб турибмизки, яқинлашиш миллатларнинг гўркови эмас, балки тараққиёт ва янада ривожланиш воситасидир. Бунинг мисолини биринчи навбатда ҳозирги замон ижтимоий-сиёсий ва илмий-техникавий тараққиётнинг сардори бўлиб келаётган Ғарбий ва Марказий Европа миллатлари мисолида кўришимиз мумкин. Бундан бир аср муқаддам баъзи назариётчилар бу миллатлар қўшилиб кетишдан ўзларини сақлаб қололмайдилар деб башорат қилган бўлсалар, XX аср давомида Ғарбий ва Марказий Европада бунинг тескарасига дуч келмоқдамиз; бу минтақа миллатлари йил сайин ўз мустақилликларини мустаҳкамлаб, ўзаро манфаатли ҳамкорлик йўлидан бормоқдалар.

Бошқа миллатдан, миллий маданиятдан қабул қилиб олинаётган янгилик миллат учун қўшимча куч бағишлайдиган омилдир. Лекин бу ўзлаштирилаётган нарса ҳаддан ошиқ бўлса, инсонга ва жамиятга ортиқча юк ва қийинчилик келтиради. Шунинг учун ўзлаштирмаларнинг ҳам чегаралари бўлмоғи лозим. Бу борада

биринчи навбатда миллат, миллий маданият ўзининг ички салоҳиятига, бунёдкорлик фаолиятига суяниб, ўз имкониятларини ишга солмоғи мақсадга мувофиқдир.

Демак, бошқа миллатлар, миллий маданиятлар ютуқларини ўзлаштириш ички зиддиятли жараёндир: бир томондан, у миллатларни, миллий маданиятларни яқинлаштиради, ва айни вақтда, ҳар бир ўзлаштирувчи миллатни, маданиятни бойитиб, мустаҳкамлагани сабабли уни “бойитган миллат”дан, маданиятдан узоқлаштиради. Бу эса миллий маданиятларнинг яқинлашуви ва айни вақтда узоқлашуви мавжуд эканлигини тасдиқлайди. Бунинг учун эслайлик, кейинги аср ичида проф. Қ.Хоназаров қайд қилганидек, - “Ўзбек ва рус халқлари жуда кўп жиҳатдан яқинлашдилар. Лекин, улар қўшила бошладилар десак, ҳақиқатдан чекинган бўламиз. Қайтанга уларнинг орасида фарқ ва тафовутлар аниқлашди, бу фарқ ва тафовутлар орасидаги ўзгачаликлар янада тўлароқ кўрина бошлади. Ёки, масалан, бундан юз йил муқаддам қозоқлар билан қирғизларни бир-биридан ажратиш осон иш эмас эди. Уларнинг ўзлари ҳам бу фарқ-тафовутларга ортиқча эътибор бермас эдилар. Ҳозирги даврда бундай қарашларга ўрин қолмади”[14:27].

Миллатлар, миллий маданиятлар ҳар доим яқинлашиб борадилар. Ва, шу билан бирга, шу билан бир вақтда улар ҳеч бир вазиятда қўшила олмайдилар, чунки уларнинг онгининг ўсиши, ўзлигининг мустаҳкамланиши натижасида улар ўзларини ҳеч бир вақт ўлимга маҳкум этмайдилар, йўқ бўлиб кетишга рози бўлмайдилар. Майда ва кам сонли миллатлар, миллий ва этник гуруҳлар, ўзларига турмуш қулайликларини излаб, ўз атрофларидаги йирик миллатларнинг тилини, кўп жиҳатдан маданиятини ҳам қабул қилиб олишлари мумкин. Аммо, шундай вазиятда ҳам уларнинг онги, миллий ўзлиги сақланибгина қолмай, янада мустаҳкамланиб боради.

Маълумки, Ўзбекистонда маданият соҳасида олиб борилаётган давлат сиёсати

тарихий-маданий меросни авайлаб асрашга республикамизда яшаётган 139 та элат, миллат ва этник гуруҳларнинг миллий маданиятларини ривожлантиришга қаратилган.

Мустақиллик йилларида халқимиз “Авесто”нинг 2700 йил аввал юртимизда яратилганини жаҳон аҳлига очиқ айтишга, Имом ал-Бухорий, Имом ат-Термизий, Баҳоуддин Нақшбанд, Аҳмад Яссавий, Нажмиддин Кубро, Бурхониддин Марғиновий, Аҳмад ал-Фарғоний каби кўплаб буюк алломалар қолдирган меросларини қайта тиклашга муваффақ бўлди.

ХУЛОСА (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Барча миллий маданиятлар дин билан уйғун ривожланиб келган. Ўзбек халқи маданиятининг

шаклланиши ва ривожланиши ҳам ушбу қоидадан истисно эмас. Қуръони каримнинг ўзбек тилига ўгирилиши, имом ал-Бухорий, Имом ат-Термизий асарларининг чоп этилиши маданий меросимизни қайта тиклашга қаратилган тадбирлар қаторига киради.

Миллий маданиятнинг ривожланишида халқ ижоди ва санъатининг ўрни катта. Республикамизда 150 мингдан зиёд киши яқка тартибда халқ амалий санъати, 1 млн. 800 мингдан зиёд киши эса ҳаваскорлик уюшмаларида мусиқа, ашула, рақс, рассомлик, театр санъати каби ижод турлари билан шуғулланмоқда. Бу эса мустақиллик даврида миллий маданиятимиз юксак босқичлар сари ривожланиб бораётганлигидан далолат беради.

АДАБИЁТ ВА МАНБАЛАР РЎЙХАТИ (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES):

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. - T.: “O‘zbekiston”, 2023.
2. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q. T.: “Sharq”, 1998.
3. Karimov I.A. Jamiyatimiz mafkurasi xalqni-xalq, millatni-millat qilishga xizmat etsin. –T.: “O‘zbekiston”, 1998.
4. Mirziyoyev Sh.M. Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi. –T.: “O‘zbekiston”, 2019.
5. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. –T.: “O‘zbekiston”, 2022.
6. Bekmurodov M. O‘zbek mentaliteti.-T.: 2011.
7. Ibrohimov A. Biz kim, o‘zbeklar...-T.: “Sharq”, 1999.
8. Ma’naviy yuksalish yo‘lida.-T.: “Ma’naviyat”, 2008.
9. Tulenov J. Falsafiy madaniyat va ma’naviy kamolot. –T.: “Mehnat”, 2000.
10. Xudayberdiyev H. Ma’naviyat, axloqiy qadriyat va islom.-Termiz: 2023.
11. Xudayberdiyev H. O‘zbek milliy mafkurasining taraqqiyot bosqichlari. –Termiz: 2023.
12. Erkayev A. Ma’naviyat-millat nishoni.-T.: 2011.
13. Quronov M. Ezgu g‘oyalar ro‘yobi.-T.: 2011.
14. Хоназаров Қ. Мустақиллик ва миллий муносабатларнинг ривожланиши. –Т.: 2001, 27-бет.
15. Жураев Н. Тарих фалсафасининг назарий асослари. –Т.: “Маънавият”, 2008, 438-бет.

ЖАНУБИЙ ЎЗБЕКИСТОНДА ТЎҚИМАЧИЛИК ХОМАШЁ БАЗАСИ, ИШЛАБ ЧИҚАРИШ ҚУВВАТЛАРИ ВА АҲОЛИ МЕҲНАТ РЕСУРСЛАРИНИНГ ЖОЙЛАШУВИДАГИ ЎРНИ

Хўшбоқов Панжи Шойманович

Тошкент давлат тиббиёт университети Термиз

филиали доценти, тарих фанлари номзоди

<https://orcid.org/0003-0005-2453-4678>

UDK: 94(575.1)

Аннотация: Ушбу мақола Ўзбекистон мустақиллигининг дастлабки йилларида Жанубий Ўзбекистон (Қашқадарё ва Сурхондарё вилоятлари) тўқимачилик саноатининг ривожланишини таҳлил қилади. Мустақилликдан кейин амалга оширилган саноатни модернизация қилиш, диверсификация ва маҳаллийлаштириш сиёсатлари батафсил ёритилган. Мақолада бу ислохотларнинг натижалари, хусусан, пахта толасини қайта ишлаш, тайёр маҳсулот ишлаб чиқариш ва экспорт ҳажмининг ўсиши, шунингдек, аҳоли бандлигини ошириш ва минтақавий иқтисодий барқарорликни таъминлашдаги роли илмий манбаларга асосланган ҳолда асослаб берилган.

Калит сўзлар: тўқимачилик саноати, пахтачилик, Қашқадарё ва Сурхондарё вилоятлари, модернизация, диверсификация, маҳаллийлаштириш, иқтисодий ислохотлар, меҳнат ресурслари.

Аннотация: В статье анализируется развитие текстильной промышленности Южного Узбекистана (Кашкадарьинская и Сурхандарьинская области) в первые годы независимости. Подробно описывается политика модернизации, диверсификации и локализации отрасли, реализованная после обретения независимости. В статье на основе научных источников обосновываются результаты этих реформ, в частности, рост переработки хлопкового волокна, производства готовой продукции и экспорта, а также их роль в повышении занятости и обеспечении региональной экономической стабильности.

Ключевые слова: текстильная промышленность, хлопок, Кашкадарьинская и Сурхандарьинская

области, модернизация, диверсификация, локализация, экономические реформы, трудовые ресурсы.

Abstract: This article analyzes the development of the textile industry in Southern Uzbekistan (Kashkadarya and Surkhandarya regions) in the early years of Uzbekistan's independence. The policies of modernization, diversification, and localization of the industry implemented after independence are described in detail. The article substantiates the results of these reforms, in particular, the growth of cotton fiber processing, finished product production, and exports, as well as their role in increasing employment and ensuring regional economic stability, based on scientific sources.

Keywords: textile industry, cotton, Kashkadarya and Surkhandarya regions, modernization, diversification, localization, economic reforms, labor resources.

КИРИШ (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). Мустақилликнинг дастлабки йилларида Ўзбекистон тўқимачилик саноати чуқур ислохотлар жараёнини бошидан кечирди. Совет давридан мерос қолган ва асосан пахта хомашёсини етказиб беришга ихтисослашган иқтисодий тузилма янги босқич талабларига жавоб бера олмас эди. Айниқса, Қашқадарё ва Сурхондарё вилоятлари каби пахтага бой ҳудудларда ишлаб чиқариш қувватларининг чекланганлиги ва меҳнат ресурсларининг бир тармоққа қарамлиги жиддий муаммо бўлиб қолди. Ушбу мақола Ўзбекистоннинг стратегик аҳамиятга эга бўлган ушбу ҳудудларида тўқимачилик саноатини ривожлантиришда амалга оширилган модернизация, диверсификация ва

маҳаллийлаштириш сиёсатларини таҳлил қилади. Уларнинг мақсади нафақат иқтисодий ўсишни таъминлаш, балки хомашё экспортидан тайёр маҳсулот экспортига ўтиш орқали минтақа иқтисодий салоҳиятини ошириш, аҳоли бандлигини таъминлаш ва миллий саноатнинг халқаро бозордаги ўрнини мустаҳкамлашдан иборат эди.

МУҲОКАМА (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). Мустақилликнинг дастлабки йилларида Ўзбекистонда тўқимачилик саноати хомашё базаси, ишлаб чиқариш қувватлари ва аҳоли меҳнат ресурсларининг жойлашуви кўп жихатдан совет давридан мерос қолган ҳолатни акс эттирар эди. 1990-йилларда Ўзбекистон пахта бўйича дунёда энг йириклардан (ўрта 1990-йилларда 4-йирик ишлаб чиқарувчи, 3-йирик экспортчи) бўлиб қолганини қайд этилади[5:26]. Бу даврда иқтисодий тизимда асосий тармоқ сифатида пахтачилик устуворлигича сақланди. Қашқадарё ва Сурхондарё вилоятлари иқлим, ер ва сув ресурслари жихатидан ингичка толали пахта етиштириш учун қулай шароитга эга бўлгани сабабли, улар ҳануз стратегик хомашё ҳудуди сифатида қаралди. Бу ҳолат нафақат саноат сиёсатида, балки маҳаллий аҳоли турмуш тарзида ҳам ўз аксини топди.

Пахта майдонлари катта ҳудудларни қамраб олгани сабабли, кишлоқ хўжалигининг бошқа тармоқлари етарлича ривожланмади. Ғаллачилик, боғдорчилик ёки чорвачилик каби соҳаларнинг улуши анча паст бўлиб, улар аҳолининг ички эҳтиёжларини тўлиқ таъминлай олмас эди. Мустақилликдан кейин республикада озик-овқат хавфсизлигини таъминлаш мақсадида ер майдонларини диверсификация қилиш зарурати кун тартибига қўйилди, аммо бу жараён аста-секин кечди. Шунинг учун дастлабки йилларда Жанубий Ўзбекистон иқтисодиёти бир йўналишга қарамлигича қолди ва пахтачиликнинг монокультураси ҳудуднинг ижтимоий-иқтисодий қиёфасини белгилаб берди.

Пахта етиштириш ҳали ҳам асосий

меҳнат ресурсларини жалб этувчи йирик соҳа бўлиб, аҳоли ҳаётининг асосий қисми шу тармоқ билан боғлиқ ҳолда кечди. Колхоз ва совхоз тизимининг тугатилишига қарамай, меҳнат тақсимооти қисқа муддат ичида тубдан ўзгармади. Ҳар йили пахта терими мавсумида аҳолининг барча қатламлари бу жараёнга сафарбар этилар, бу эса меҳнат ресурсларининг бошқа соҳаларга йўналишини чеклаб қўярди. Мустақилликнинг дастлабки йилларида Жанубий Ўзбекистонда тўқимачилик саноати учун барқарор хомашё базаси мавжуд бўлган бўлса-да, унинг иқтисодий тизими ҳануз совет давридан қолган бир йўналишли шаклда давом этди. 1998-йилги илмий ҳисоботга кўра, Ўзбекистонда пахта тарихан суғориладиган ерларнинг 70 %ини эгаллагани ва кишлоқ хўжалиги кийиматининг 40 %ини берганини таъкидланади – бу пахтанинг макроиқтисодий устуворлигини кўрсатади[14:297–301]. Бу ҳолат маҳаллий иқтисодиётда мувозанатсизликка олиб келди ва кейинги ислохотларда саноат диверсификацияси ҳамда кишлоқ хўжалигини қайта йўналтириш вазифасини долзарб қилиб қўйди.

Ишлаб чиқариш қувватлари мустақилликнинг дастлабки йилларида анча чекланган ҳолда қолди. Совет давридан қолган пахта тозалаш заводлари иш фаолиятини давом эттирган бўлса-да, улардаги техник жиҳозлар асрнинг иккинчи ярмида ўрнатилган эски ускуналардан иборат бўлиб, уларнинг иш унумдорлиги замонавий талабларга жавоб бермас эди. Мазкур корхоналарда технологик жараёнлар қўл меҳнатига суянган ҳолда олиб борилди, ишлаб чиқаришда энергия сарфи кўп, маҳсулот сифати эса паст даражада бўлди. Шу сабабли заводлар пахтани фақат чигитдан ажратиш, толани тозалаш ва дастлабки ишлов бериш каби ибтидоий босқичдаги вазифаларни бажариш билан чекланиб қолди.

Тайёр мато, трикотаж маҳсулотлари ёки кийим-кечак ишлаб чиқаришга ихтисослашган замонавий фабрика ва

комбинатлар ҳали мавжуд эмас эди. Бунинг натижасида ҳудуд саноати иқтисодий занжирнинг фақат дастлабки бўғинида иштирок этди, яъни хомашё етказиб берувчи ёрдамчи тармоқ сифатида қолди. Хомашёни чуқур қайта ишлаш, юқори қийматли маҳсулот тайёрлаш имкониятлари йўқлиги маҳаллий иқтисодиётда кўшимча қиймат яратиш жараёнини секинлаштирди.

Шунингдек, техник жиҳозларнинг эскилиги ва инвестицияларнинг йўқлиги ишлаб чиқариш қувватларининг замон талабларига мослашишига тўсқинлик қилди. Мустақилликнинг дастлабки йилларида давлат иқтисодиётнинг бошқа устувор соҳалари билан бир қаторда тўқимачилик саноатига ҳам модернизация киритиш зарурлигини англаган бўлса-да, бу жараён аста-секин амалга ошди. Шунинг учун Жанубий Ўзбекистондаги пахта тозалаш заводлари маълум муддат давомида иқтисодий ривожланишда фақат ёрдамчи вазифани бажариш билан чекланди. Шу тариқа, ишлаб чиқариш қувватларининг чекланганлиги Жанубий Ўзбекистонда мустақилликнинг дастлабки йилларида тўқимачилик саноатини юқори босқичга кўтариш имкониятини бермади. Бу эса маҳаллий аҳолининг меҳнат ресурсларини самарали ишлатишга тўсқинлик қилиб, ҳудуднинг иқтисодий қиёфасини хомашё базаси сифатида сақлаб қолишига олиб келди.

Аҳоли меҳнат ресурслари мустақилликнинг дастлабки йилларида ҳам асосан қишлоқ хўжалигига, айниқса пахтачиликка йўналтирилган эди[4:21]. Бу ҳолат Совет давридан мерос қолган меҳнат тақсмотининг давоми сифатида намоён бўлди [16]. Колхоз ва совхоз тизими расман ислохотлар жараёнида бўлганига қарамай, улар муайян муддат амал қилиб турди ва аҳоли меҳнат тақсмотининг асосий қисми шу тизим доирасида шаклланди. Шунинг учун ҳам қишлоқ аҳолисининг кўпчилиги учун пахта майдонларидаги ишлар ҳаёт тарзининг ажралмас қисми бўлиб қолди.

Пахта терими йилнинг энг муҳим ижтимоий-иқтисодий жараёни сифатида

давом этди. Терим мавсуми бошланган пайтда деярли бутун меҳнат ресурслари, жумладан талабалар, ўқитувчилар ва турли ташкилотлар ходимлари ҳам пахта теримига сафарбар этиларди. Бу ҳолат меҳнат ресурсларининг мавсумий равишда максимал даражада йўналтирилишини таъминлаган бўлса-да, бошқа соҳалардаги иш жараёнларининг издан чиқишига ва иқтисодий фаолиятнинг мувозанатсизлигига олиб келди.

Аҳолининг саноат ва хизмат кўрсатиш соҳаларига жалб этилиши сезиларли даражада чекланган бўлиб, ишчи кучининг асосий қисми қишлоқ хўжалигида банд [1:19]. Бу эса ҳудуд иқтисодиётининг диверсификация жараёнини секинлаштирди, саноат тармоқлари ва хизмат кўрсатиш соҳаларида малакали кадрлар етишмовчилигига сабаб бўлди. Натижада Жанубий Ўзбекистонда аҳоли меҳнат ресурсларидан фойдаланиш имкониятлари тўла рўёбга чикмади, ҳудуд иқтисодий ривожланишнинг бир йўналишлилиги билан тавсифланди. Мустақилликнинг дастлабки йилларида меҳнат ресурсларининг асосан пахтачиликка йўналтирилиб қолиши ҳудудда ижтимоий ва иқтисодий мувозанатнинг шаклланишига жиддий таъсир кўрсатди. Бу ҳолат иқтисодий диверсификация жараёнини секинлаштирди ва Жанубий Ўзбекистоннинг саноат ҳамда хизмат кўрсатиш соҳаларида кенг имкониятлардан фойдаланишини чеклаб қўйди. Шу тариқа, мустақилликнинг дастлабки даврларида Жанубий Ўзбекистонда тўқимачилик саноати учун барқарор хомашё базаси мавжуд бўлгани ҳолда, ишлаб чиқариш қувватлари паст ва чекланган ҳолда қолди. Аҳоли меҳнат ресурслари эса асосан пахтачилик билан боғланиб, ҳудуд иқтисодиётининг ривожланиш йўналишлари ҳали ҳам бир тармоққа қарам ҳолатда давом этди. Бу ҳолат кейинги йилларда саноат модернизацияси ва иқтисодий диверсификация заруратини тақозо этди.

Мустақиллик йилларида Ўзбекистонда

иқтисодий тубдан ислоҳ қилиш жараёнида тўқимачилик саноати стратегик аҳамиятга эга соҳалардан бири сифатида белгиланди. Бу тармоқ нафақат иқтисодий ўсишни таъминлаш, балки аҳоли бандлигини ошириш, ташқи савдода рақобатбардошликни кучайтириш ва миллий хомашёдан самарали фойдаланишда муҳим ўрин тутди. Совет давридан мерос қолган хомашё етказиб берувчи бир йўналишли модел мамлакат иқтисодий учун тўлиқ қониқарли эмас эди, чунки у асосан пахтани хом ҳолатда экспорт қилишга қаратилган бўлиб, юқори қийматли тайёр маҳсулот ишлаб чиқариш амалиёти деярли ривожланмаган эди. Шу сабабли мустақилликнинг дастлабки йилларидан бошлаб саноатни модернизация қилиш, диверсификациялаш ва маҳаллийлаштириш сиёсатлари давлат иқтисодий ислохотларининг устувор йўналишига айланди.

Жанубий Ўзбекистонда бу жараён айниқса сезиларли аҳамият касб этди. Чунки Қашқадарё ва Сурхондарё вилоятлари пахта хомашёсига бой ҳудудлар ҳисобланган бўлиб, уларда ишлаб чиқаришнинг асосий қисми фақат толани тайёрлаш билан чекланган эди. Мустақилликдан кейин ҳудудда тўқимачилик корхоналарини қайта жиҳозлаш, янги фабрикалар барпо этиш ва маҳаллий ишчи кучини саноат соҳасига жалб қилиш ишлари бошланди [8:1]. Бу жараён натижасида пахта толасини чуқур қайта ишлаш, мато, трикотаж ва тайёр кийим-кечак ишлаб чиқаришга замин яратилди.

Модернизация жараёни ҳудудда иқтисодий ҳаётнинг мазмунига ҳам таъсир этди. Тўқимачилик саноати мустақиллик йилларида республикаимиз иқтисодийнинг етакчи тармоқларидан бирига айланди. Иқтисодийтимизнинг реал секторини модернизация қилиш, техник ва технологик қайта жиҳозлаш ҳамда ишлаб чиқаришни диверсификация қилиш борасида амалга оширилаётган ишлар натижасида тўқимачилик саноатининг мамлакат ялпи ички маҳсулотидаги

улушининг ўсиш тенденциясини кузатиш мумкин [13]. Асосан, қишлоқ хўжалиги ва пахта теримида боғланган меҳнат ресурслари саноат тармоқларига йўналтирила бошлади. Бу эса ишчи кучининг касбий тайёргарлигини ошириш, янги мутахассисларни тайёрлаш ва саноат соҳасидаги малакали кадрлар захирасини шакллантиришга туртки берди. Шу билан бирга, диверсификация сиёсати ҳудуд иқтисодийидаги бир йўналишлиликни бартараф этишга хизмат қилди. Пахтачилик асосий соҳа сифатида қолган бўлса-да, уни қайта ишлаш ва тайёр маҳсулот тайёрлаш саноатнинг янги қувватлари сифатида намоён бўлди.

Мустақиллик йилларида амалга оширилган модернизация ва диверсификация жараёнлари Жанубий Ўзбекистонда тўқимачилик саноатини янги босқичга кўтарди. Хомашё етказиб берувчи ёрдамчи тармоқдан тайёр маҳсулот ишлаб чиқарувчи саноат соҳасига ўтиш жараёни бошланди [19:77-81]. Бу эса ҳудуд иқтисодийининг барқарор ривожланишига, аҳоли бандлигининг ошишига ва маҳаллий хомашёдан тўлақонли фойдаланиш имкониятларининг кенгайишига хизмат қилди.

Модернизациялашнинг бош мақсади - иқтисодийнинг замонавий моделини шакллантиришдан иборатдир [15]. Унинг йўналишлари: ишлаб чиқаришнинг эскирган материал базасини техник янгиланиш, иқтисодий таркибини қайта шакллантириш (хомашё тармоқлари улушини қисқартириш), иқтисодий ривожланишда катализатор бўла оладиган саноат тармоқлари улушини ошириш (илмталаб, юқори технологик тармоқларни тараққий эттириш орқали инновацион ривожланишни шакллантириш). Бундай модернизациялашда иқтисодийнинг замонавий моделини шакллантириш жараёни, инновацион қайта шаклланиш (модернизация механизми) ҳамда жамиятда сифат ўзгаришлари юз беради [10:23-24]. Модернизация жараёнида авваламбор пахта тозалаш заводлари ва тўқимачилик фабрикалари техник жиҳатдан янгиланди.

Совет давридан қолган эски ускуналар ўрнини янги технологиялар эгаллаб, ишлаб чиқариш жараёнларида самарадорлик ва маҳсулот сифати ошди. Қарши, Термиз ва Денов каби шаҳарларда амалга оширилган реконструкция ишлари нафақат хомашёни қайта ишлаш қувватларини кенгайтди, балки янги маҳсулот турларини ишлаб чиқариш имконини ҳам яратди. Шу тариқа, илгари фақат тола тайёрлаш билан чекланган корхоналарда мато, трикотаж ва тайёр кийим-кечак ишлаб чиқариш жараёнлари йўлга қўйилди.

Бу ўзгариш ҳудуд иқтисодиётида катта аҳамиятга эга бўлди. Аввало, маҳсулот турлари кўпайиши ички бозорни маҳаллий маҳсулотлар билан таъминлашга хизмат қилди. Иккинчидан, экспорт имкониятлари кенгайиб, Жанубий Ўзбекистонда ишлаб чиқарилган тўқимачилик маҳсулотлари ташқи бозорларда рақобатбардошликка эришди. Модернизация натижасида корхоналарда ишчи кучига бўлган талаб ортиб, маҳаллий аҳоли учун кўплаб янги иш ўринлари яратилди. Шу билан бирга, замонавий технологиялардан фойдаланиш ишчиларнинг малакасини ошириш, касбий тайёргарлик тизимини такомиллаштириш заруратини келтириб чиқарди.

Модернизация жараёни ҳудудда иқтисодий фаолликнинг кенгайишига, саноат тармоқларининг диверсификациясига ва қишлоқ хўжалигидан саноатга босқичма-босқич меҳнат ресурсларини йўналтиришга хизмат қилди [9:39-46]. Агар мустақилликнинг дастлабки йилларида Жанубий Ўзбекистон саноати асосан хомашё тайёрлаш билан чекланган бўлса, модернизациядан кейин у қўшимча қиймат яратадиган саноат тармоқларига йўналди. Шу тариқа, тўқимачилик саноати ҳудуднинг иқтисодий ривожланишида стратегик тармоққа айланиб, унинг ички ва ташқи бозорлардаги нуфузи ортиб борди.

Диверсификация мустақиллик йилларида мамлакат иқтисодий сиёсатининг асосий йўналишларидан бирига айланди [6] ва у Жанубий Ўзбекистонда ҳам ўз ифодасини топди.

Илгариги даврларда иқтисодиётнинг деярли бутун тузилиши пахтачиликка боғланган бўлса, янги шароитда бу ҳолатни ўзгартириш ва хомашё етказиб берувчи бир йўналишли моделдан воз кечиш мақсад қилиб қўйилди. Пахта етиштириш хануз етакчи тармоқ сифатида сақланиб қолган бўлса-да, уни чуқур қайта ишлаш орқали тайёр маҳсулот ишлаб чиқаришга йўналиш кучайтирилди. Бу жараён пахтадан фақат тола олиш эмас, балки мато, трикотаж ва кийим-кечак ишлаб чиқаришни йўлга қўйиш имконини берди.

Шу орқали ҳудуд иқтисодиётида монокультурадан аста-секин чиқишга қадам қўйилди. Саноатнинг ички таркиби кенгайиб, янги ишлаб чиқариш қувватлари пайдо бўлди. Қарши ва Термизда қурилган янги фабрикалар ҳамда қайта жиҳозланган корхоналар маҳаллий саноат киёфасини ўзгартирди, меҳнат ресурслари қишлоқ хўжалигидан саноатга йўналтирила бошланди. Бу эса ҳудудда қўшимча қиймат яратиш жараёнини кучайтирар, маҳаллий аҳоли учун доимий иш ўринларини кўпайтириш имконини берди.

Диверсификация сиёсати қишлоқ хўжалиги тармоқларида ҳам ўз аксини топди. Илгариги даврда пахтага қатъий боғланиб қолган ер майдонларининг маълум қисми ғаллачилик ва озиқ-овқат етиштиришга йўналтирилди [12:61-65]. Бу аҳоли озиқ-овқат хавфсизлигини таъминлаш, ички бозорда маҳсулот турларини кўпайтириш ва иқтисодий мувозанатни тиклашга хизмат қилди [2:107-110]. Шу билан бирга, боғдорчилик ва чорвачиликка эътибор ортиб, қишлоқ жойларда иқтисодий турмушнинг кенгайишига тўртки бўлди.

Ушбу иқтисодий ислохотлар Ўзбекистон тўқимачилик саноатини ривожлантириш, тўқимачилик маҳсулотлари ишлаб чиқариш ва экспортини кўпайтириш, маҳсулот сифати ва компанияларнинг рақобатбардошлигини оширишга хизмат қилди. Шунингдек, улар ушбу соҳада кичик ва ўрта бизнесни ривожлантириш учун янги имкониятлар яратиб, янги иш ўринлари яратилишига ҳисса қўшдилар. Ўзбекистон

тўқимачилик саноатини ривожлантиришда ташқи савдо фаолияти муҳим ўрин тутди. Ўзбекистон ташқи савдо ва тўқимачилик маҳсулотлари ўртасидаги муносабатларнинг асосий жиҳатлари қуйидагилар: Биринчидан, тўқимачилик экспорти: Ўзбекистон тўқимачилик маҳсулотлари, жумладан, пахта матолари, ип-калава, каштачилик ва тайёр тўқимачилик маҳсулотларининг йирик экспортчиси ҳисобланади. Ўзбекистон тўқимачилик маҳсулотларининг асосий импортчилари Европа, МДХ, АҚШ ва Хитой мамлакатлари ҳисобланади. Иккинчидан, экспортнинг катта ҳажми: тўқимачилик маҳсулотлари экспорти Ўзбекистон иқтисодиётига сезиларли таъсир кўрсатади ва экспорт даромадининг катта қисмини ташкил этади. Ушбу саноат мамлакат учун валюта тушумининг асосий манбаларидан бирidir. Учинчидан, рақобатбардошлик: ўзбек тўқимачилик маҳсулотлари рақобатбардош нарх ва юқори сифатга эга, бу еса уларни халқаро харидорлар учун жозибатор қилади. Ўзбекистон янги мижозларни жалб қилиш мақсадида халқаро кўргазма ва ярмаркаларда иштирок этиб, экспорт имкониятларини ҳам фаол ривожлантирмоқда. Тўртинчидан, савдо бозорларини диверсификация қилиш: Ўзбекистон жаҳон тўқимачилик бозоридаги иштирокини кенгайтириш ва савдо бозорларини диверсификация қилишга интилоқда. Мамлакат янада барқарор ва хилма-хил экспорт оқимларини яратиш мақсадида янги шериклар, айниқса Осиё, Европа ва бошқа минтақалар билан алоқаларни фаол ривожлантирмоқда. Бешинчидан, тўқимачилик материаллари ва ускуналари импорти: Ўзбекистон ўз саноатини ривожлантириш учун тўқимачилик материаллари, хом ашё ва ускуналарни ҳам импорт қилади [7].

Диверсификация Жанубий Ўзбекистонда тўқимачилик саноати ва қишлоқ хўжалиги йўналишларини қайта кўриб чиқиш имконини берди. Бу ҳудуд иқтисодиётининг тўлиқ бир тармоққа боғланиб қолишидан чиқиш, саноат ва

аграр соҳадаги мувозанатни таъминлаш, аҳоли турмуш даражасини ошириш ва иқтисодий ривожланишнинг барқарор моделини шакллантиришда муҳим омил бўлди.

Маҳаллийлаштириш дастури Жанубий Ўзбекистонда тўқимачилик саноати ривожига катта туртки берди. Бу дастурнинг асосий мақсади ҳудудда етиштирилган пахта хомашёсини ўз ҳудудида қайта ишлаб, тайёр маҳсулот ишлаб чиқаришни йўлга қўйишдан иборат эди. Шу йўл билан мамлакат иқтисодиётида хомашё экспортидан тайёр маҳсулот экспортига ўтиш жараёни амалга оширилди. Жанубий Ўзбекистонда маҳаллий корхоналарнинг фаолияти фақат тола тайёрлаш билан чекланиб қолмай, мато, трикотаж ва тайёр кийим-кечак ишлаб чиқаришга йўналтирилди.

Бу жараённинг ижобий натижалари аввало ички бозорда сезилди. Илгари кўп ҳолларда хориждан олиб келинадиган тайёр мато ва кийим-кечак маҳсулотлари ўрнини маҳаллий фабрикаларда ишлаб чиқарилган маҳсулотлар босди. Бу эса истеъмол бозорини миллий брендлар ва маҳаллий маҳсулотлар билан таъминлаш имконини берди. Шу билан бирга, маҳаллий ишлаб чиқаришни рағбатлантириш иқтисодиётнинг ички барқарорлигига хизмат қилди.

Маҳаллийлаштириш дастури ҳудудда янги ишлаб чиқариш қувватларини яратиш, замонавий технологияларни жорий қилиш ва ишчи кучини саноат соҳасига жалб этишда муҳим аҳамият касб этди [17]. Янги корхоналарда иш ўринлари кўпайди, маҳаллий аҳоли иш билан таъминланди, касбий тайёргарлик тизими ривожланди. Натижада меҳнат ресурслари қишлоқ хўжалиги билан чекланиб қолмасдан, саноат тармоқларига ҳам йўналтирила бошланди.

Дастурнинг яна бир муҳим жиҳати ташқи бозорлар учун имкониятлар очилгани бўлди. Экспорт географияси кенгайди, маҳсулот турлари кўпайди ва маҳаллий ишлаб чиқарувчилар халқаро рақобат муҳитига кириб бориш имконига

эга бўлди. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатида таъкидлаганидек, “Барқарор иқтисодий ўсишнинг энг муҳим гарови – рақобатдош маҳсулотлар ишлаб чиқариш, улар учун янги халқаро бозорлар топиш ва экспортни кўпайтириш, транзит салоҳиятидан тўлиқ фойдаланиш ҳисобланади” [18]. Маҳаллийлаштириш дастури Жанубий Ўзбекистон тўқимачилик саноатида хомашё базасига асосланган ёрдамчи тармоқдан тайёр маҳсулот ишлаб чиқаришга йўналтирилган стратегик соҳани шакллантирди. Бу жараён ҳудуд иқтисодиётининг диверсификациясига, аҳоли турмуш даражасининг ошишига ва миллий саноатнинг халқаро нуфузини кучайишига хизмат қилди. Жанубий Ўзбекистонда ишлаб чиқарилган тўқимачилик маҳсулотлари нафақат ички бозорни таъминлашда, балки ташқи бозорларга чиқишда ҳам муҳим аҳамият касб эта бошлади.

Ўзбекистонда тўқимачилик саноатини ривожлантиришда ижтимоий-маданий жиҳатлар ҳам муҳим ўрин тутди. Шу ўринда, анъанавий ҳунармандчилик ва ҳунармандчилик: Ўзбекистон азалдан тўқимачилик анъаналари ва авлоддан-авлодга ўтиб келаётган ҳунармандчилиги билан машҳур. Тўқимачилик усталари тўқимачиликда чиройли нақш ва дизайнлар яратиш учун ноёб каштадўзлик, йигирув ва тўқув техникасидан фойдаланадилар. Миллий услуб ва дизайн: Ўзбекистон тўқимачилик саноати миллий услуб ва дизайнни фаол ривожлантирмоқда. Ноёб нақшлар, кашталар ва анъанавий нақшлардан фойдаланиш ўзбек тўқимачилигини жаҳон бозорида таниқли ва талабга эга қилади. Навбатдагиси, аёлларнинг роли: аёллар Ўзбекистонда тўқимачилик саноатига сезиларли таъсир кўрсатади. Кўп аёллар анъанавий ҳунармандчиликнинг бир қисми сифатида каштадўзлик, йигирув ва тўқув билан шуғулланадилар. Улар ноёб тўқимачилик техникаси ва дизайнларини сақлаш ва ривожлантиришда муҳим рол ўйнайди. Кейингиси, кичик ва ўрта бизнеснинг

иштироки: кичик ва ўрта бизнес Ўзбекистон тўқимачилик саноатида кенг намоёниш етилади. Тўқимачилик маҳсулотларини ишлаб чиқариш билан кўплаб оилавий корхоналар ва кооперативлар шуғулланади. Бу кичик бизнесни ривожлантириш ва иш ўринларини яратишга ёрдам беради. Шунингдек, ижтимоий аҳамияти: тўқимачилик саноатининг ривожланиши маҳаллий аҳолининг иқтисодий ривожланиши ва турмуш даражасини яхшилашга ёрдам беради. Бу, айниқса, пахта етиштириш муҳим даромад манбаи бўлган кишлоқ жойларда бандлик ва тадбиркорлик имкониятларини тақдим этади. Сўнгиси эса, маданий меросни сақлаш: тўқимачилик саноатининг ривожланиши ўзбек маданияти ва меросини сақлаш ва тарғиб қилишга ёрдам беради. Каштачилик ва бошқа ноёб тўқимачилик анъаналари каби тўқимачилик маҳсулотлари ғурур объектига айланади ва миллий ва маданий мероснинг бир қисми сифатида тарғиб қилинади [7].

Мустақиллик йилларида амалга оширилган энг муҳим йўналишлардан бири тола экспортидан товар экспортига ўтиш сиёсати бўлди. Илгари пахта толаси асосан хомашё ҳолатида четга чиқарилар, унинг қиймат занжиридан асосий даромад эса бошқа давлатларда қолар эди. Шу ўринда дунёдаги соҳа тарихига оид бир ҳолатни эслаш зарур. Иккинчи жаҳон уруши даврида Япониянинг тўқимачилик тармоғи деярли йўқ бўлиб кетган эди. Урушдан кейин бу соҳанинг тикланиши асосан АҚШ кўмаги билан амалга оширилди. Америка ўз маҳсулотлари учун янги бозор излар экан, Японияга хомашё ва ускуналар етказиб бериш, молиявий ресурслар ажратиш йўли билан қўллаб-қувватлади. Шу иқтисодий ёрдам натижасида Япония 1951 йилга келиб жаҳон бозорида ўз мавқеини қайта тиклади ва пахта толасидан тайёрланган текстиль маҳсулотлари экспорти бўйича етакчи давлатга айланди. Бу устунлик 1967 йилгача сақланиб қолди[3]. Япония тўқимачилик саноати

урушдан кейинги йилларда мамлакат тараққиёти учун стратегик аҳамиятга эга бўлиб, қисқа вақт ичида ишчи кучини сафарбар этди, ишлаб чиқариш қувватларини тиклади ва ички бозорни истеъмол товарлари билан таъминлай бошлади. Бу жараён АҚШ миллий бозорига жиддий рақобат туғдирди. Натижада, 1955 йилда Америка босими билан Япония ўз маҳсулотларига нисбатан ихтиёрий экспорт чекловларини жорий этишга мажбур бўлди. Шу билан бирга, АҚШ тўқимачилик соҳасига фақат Япония эмас, балки бошқа мамлакатлар ҳам рақобат қила бошлади. Хусусан, 1950-йиллар ўрталарида Гонконг, Юнонистон, Ҳиндистон, Португалия ва Жанубий Корея каби янги ишлаб чиқарувчилар жаҳон бозорида кучли иштирокини намоён этди. Масалан, Гонконгда тўқимачилик маҳсулотлари импорти 1956 йилда бор-йўғи 0,07 млн доллар бўлган бўлса, 1960 йилга келиб 63,5 млн долларгача ўсди[11].

Янги иқтисодий сиёсат эса пахтани маҳаллий корхоналарда чуқур қайта ишлаш, мато, трикотаж ва тайёр кийим-кечак ишлаб чиқариш орқали экспортга чиқишни мақсад қилди. Бу жараён тўқимачилик саноатида сифат жиҳатидан янги босқични бошлаб берди. Сиёсатнинг амалга оширилиши Жанубий Ўзбекистон учун иқтисодий жиҳатдан икки йўналишда самара берди. Бир томондан, пахтани тайёр маҳсулот сифатида сотиш орқали экспортдан тушадиган валюталар миқдори сезиларли даражада кўпайди. Хомашёни арзон нархда сотиш ўрнига уни қайта ишлаб қўшимча қиймат яратиш орқали давлат бюджети ва ҳудудий иқтисодиёт даромадлари ўсди. Иккинчи томондан, маҳаллий ишчи кучининг саноатга жалб этилиши орқали янги иш ўринлари яратилди. Пахтачилик билан чегараланиб қолган меҳнат ресурслари саноат ва қайта ишлаш соҳаларига ўта бошлади, бу эса аҳоли бандлиги ва ижтимоий барқарорликни таъминлашга хизмат қилди.

Шу билан бирга, экспортга йўналтирилган маҳсулот турлари кенгайиши маҳаллий корхоналарнинг

ҳалқаро бозорга чиқишига йўл очди. Жанубий Ўзбекистонда ишлаб чиқарилган мато ва тайёр маҳсулотлар хорижий бозорларда рақобатбардошликка эга бўлиб, ҳудуднинг иқтисодий нуфузини оширди. Бу жараён ҳудуднинг стратегик аҳамиятини кучайтириб, уни нафақат хомашё етказиб берувчи, балки тайёр товар ишлаб чиқарувчи ва экспорт қилувчи саноат марказига айлантирди. Тола экспортидан товар экспортига ўтиш сиёсати Жанубий Ўзбекистонда тўқимачилик саноати ривожини янги босқичга кўтарди. У нафақат иқтисодий даромад манбаи, балки меҳнат ресурсларини самарали йўналтириш, саноат тармоқларини кенгайтириш ва ҳудуднинг ижтимоий-иқтисодий ривожланишига тurtки бўлди.

ХУЛОСА (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Шу тариқа, мустақиллик йилларида амалга оширилган саноат модернизацияси, диверсификацияси ва маҳаллийлаштириш дастури Жанубий Ўзбекистонда тўқимачилик саноати ривожига туб бурилиш яратиб берди. Илгариги даврда асосан пахта толаси тайёрлаб, уни бошқа ҳудудларга етказиб берувчи қишлоқ хўжалигига йўналтирилган минтақадан саноат салоҳиятига эга, тайёр маҳсулот ишлаб чиқаришга ихтисослашган ва экспорт бозорига йўналтирилган ҳудуд шакллана бошлади. Бу жараён иқтисодиётнинг бир йўналишга боғланиб қолиш хавфини пасайтирди, чунки қўшимча қиймат яратадиган корхоналарнинг пайдо бўлиши ҳудудда иқтисодий барқарорликни таъминлади.

Шу билан бирга, аҳоли меҳнат ресурсларидан самарали фойдаланиш имкониятлари кенгайди. Аввал мавсумий тарзда пахта етиштириш ва теримига йўналтирилган меҳнат кучлари энди саноатнинг доимий иш ўринларига жалб этилди. Бу нафақат ишсизликнинг олдини олиш, балки аҳоли турмуш даражасини оширишга ҳам хизмат қилди. Саноат ва қишлоқ хўжалиги ўртасида мувозанат пайдо бўлиб, ҳудуднинг ижтимоий-

иктисодий ривожланиши кўп қиррали йўналишда амалга ошди.

Жанубий Ўзбекистонда тўқимачилик саноатининг янги босқичи минтақанинг иқтисодий салоҳиятини очиш билан бирга, мамлакатнинг ташқи иқтисодий муносабатларида ҳам муҳим ўринни эгаллашга замин яратди. Бу ҳудуд нафақат ички бозорни маҳаллий маҳсулотлар билан таъминлаш, балки халқаро бозорларда рақобатбардош товарларни таклиф қилиш

имкониятига эга бўлди.

Шунингдек, саноат ва қишлоқ хўжалиги ўртасидаги уйғунлик ҳудуднинг барқарор тараққиётига тurtки бўлиб, иқтисодий диверсификация ва ижтимоий барқарорликни таъминловчи омил сифатида намоён бўлди. Натижада Жанубий Ўзбекистон янги даврда хомашё етказиб берувчи ҳудуддан саноат марказига айланиш йўлида барқарор қадам ташлади.

АДАБИЁТ ВА МАНБАЛАР РЎЙХАТИ (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES):

1. Abdunazarov H.M., Umarova M.H., Esanov N.A. Surxondaryo viloyati geografiyasi. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya. 2-qism. O'quv qo'llanma. – Toshkent: "Lesson Press" nashriyoti, 2024. – 19 b.
2. Бегалов Б.А. Основные тенденции развития инновационной экономики // Экономический вестник Узбекистана. – 2013. – № 3-4. – С. 107-110.
3. Conlon M. (2010). The History of U.S. Cotton in Japan. "Global Agricultural Information Network". April.
4. Country Profile: Uzbekistan. (2007). February, -Pp. 21.
5. Country Profile – Uzbekistan. Food and Agriculture Organization of the United Nations (FAO). Rome, Italy. 2012, -Pp. 26.
6. Xodiyev B.Y., Mahmudov N.M., Fayzullayev Yo.Sh., Yusupov M.S., Xomidov S.O. Milliy iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini barqaror rivojlantirish omillari va tendensiyalari (Monografiya). – T.: «Iqtisodiyot», 2018. – 15 b.
7. Xo'shboqov P.Sh. O'zbekiston to'qimachilik sanoatining rivojlanishidagi iqtisodiy va ijtimoiy-madaniy omillar. "Экономика и социум." ilmiy elektron jurnali. №6(121)-1, 2024.
8. Jo'rayev M. Yangilangan korxonada samaradorlik. "Qashqadaryo", 2016 yil 27 fevral. – B. 1.
9. Коврыжко В.В. Экономическая модернизация трансформирующихся экономик // Journal of economic regulation (Вопросы регулирования экономики). – 2010. – Том 1, № 1. – С. 39-46.
10. Макарова И.В. Потенциал модернизации машиностроительного комплекса региона: Монография / Отв. ред. О.А. Романова. – Екатеринбург, 2010. – С. 23-24.
11. Matt S. (2006). The Evolution and Demise of the Multi-Fibre Arrangement: Examining the Path of Institutional Change in the Textile and Apparel Quota Regime. Economics Senior Thesis, University of Puget Sound. May 12.
12. Муминов Т.К. Методические вопросы оценки уровня экономической активности территорий // Иктисод ва молия (Экономика и финансы). – 2012. – № 7. – С. 61-65.
13. Nazarova R.R., Xasanova D.S. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida to'qimachilik sanoatini rivojlantirishning marketing taxlili va uning istiqbollari. "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 5, sentyabr-oktyabr, 2015. – 2 b.
14. O., Herndon, C.W., Cleveland, O.A. (1998). Cotton Industry in Uzbekistan: Structure and Current Developments. "Proceedings of the Beltwide Cotton Conferences", Vol. 1, -Pp. 297–301.
15. Попова Е.В. Основные направления модернизации российской экономики [Электрон ресурс]. URL: <http://bujet.ru/article/98452>.

16. Umurzoqov O‘.P. Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti va menejment. Oquv qo‘llanma. T.: «Iqtisod-Moliya», 2008. – 268 b.
17. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2009-yilda sanoat kooperatsiyasi asosida tayyor mahsulotlar, butlovchi buyumlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish Dasturi to‘g‘risida” 2009 yil 27 yanvardagi qarori.
18. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi 28-yanvar 2020-yil. URL: <https://review.uz/oz/post/uzbekiston-respublikasiprezidenti-savkat-mirzieevning-olij-mazlisga-murozaatnomasi>.
19. Юсупов С.Ш. Методологические вопросы стратегии обеспечения развития текстильных предприятий // Журнал «Экономика и образование». – 2011. – №3. – С. 77-81.

XX АСР БОШЛАРИДА СУРХОНДАРЁ ВИЛОЯТИДА КЎНГИЛ ОЧАР МУАССАЛАРИНИНГ ТАШКИЛ ЭТИЛИШ ВА РАҲБАР КАДРЛАР ФАОЛИЯТИ

Исаев Ойбек Ахмед ўғли

Термиз давлат Педагогика институти Тарих кафедраси мудири,

тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)

<https://orcid.org/0009-0002-0033-0609>

UDK: 94(575.1)

Аннотация: Ушбу мақола XX аср бошларида Сурхондарё вилоятида кўнгилочар муассасалардан бири — Термиз ҳайвонот боғининг ташкил топиш тарихи, ривожланиш босқичлари ва раҳбар кадрлар фаолиятини архив ҳужжатлари асосида ёритишга бағишланган. Тадқиқотда 1934 йилда Ўлкашунослик музейи қошида "тирик бурчак" сифатида бошланган зоология бўлимининг 1939 йилга келиб мустақил Сурхондарё округ зооботаника боғига айланиши жараёни, ушбу йўлдаги дастлабки саъй-ҳаракатлар, молиявий масалалар ва унинг Иккинчи жаҳон уруши давридаги тақдири таҳлил қилинган. Шунингдек, Термиз ҳайвонот боғи фаолиятига 1934 йилдан ҳозирги кунгача ҳисса қўшган раҳбар кадрларнинг рўйхати ва уларнинг боғ ривожига хизматлари кўрсатиб ўтилган.

Калит сўзлар: Сурхондарё вилояти, Термиз зооботаника боғи, XX аср бошлари, Ўлкашунослик музейи, раҳбар кадрлар, ҳайвонот боғи тарихи, архив ҳужжатлари.

Аннотация: Статья посвящена истории создания одного из увеселительных учреждений Сурхандарьинской области – Термезского зоопарка, этапам развития и деятельности руководящего состава на основе архивных документов. В исследовании рассматривается процесс преобразования зоологического отдела, начинавшегося как «живой уголок» при историко-краеведческом музее в 1934 году, в самостоятельный Сурхандарьинский окружной зооботанический парк к 1939 году, анализируются первые усилия в этом направлении, финансовые вопросы и его судьба в годы Великой Отечественной войны. Также представлен список руководящих работников, внесших вклад в

деятельность Термезского зоопарка с 1934 года по настоящее время, и их заслуги в развитии зоопарка.

Ключевые слова: Сурхандарьинская область, Термезский зооботанический парк, начало XX века, историко-краеведческий музей, руководящий состав, история зоопарка, архивные документы.

Abstract: This article is dedicated to the history of establishment of one of the entertainment institutions in Surkhondarya region - Termiz zoo, stages of development and activities of management personnel based on archival documents. In the study, the process of the transformation of the zoology department, which began as a "living corner" under the Museum of Local History in 1934, into an independent Surkhondarya District Zoobotanical Park by 1939, the initial efforts in this direction, financial issues, and its fate during the Second World War were analyzed. Also, the list of leading personnel who contributed to the activity of Termiz Zoo from 1934 to the present day and their services in the development of the zoo is shown.

Key words: Surkhondarya region, Termiz zoobotanical park, early 20th century, Museum of Local History, management staff, history of the zoo, archival documents.

КИРИШ (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). XX асрнинг 20-йилларида мамлакатимиз ҳаётида янги ўзгаришлар содир бўлдики, бир қатор европача корхона ва ташкилотлар тузила бошланди. Худди шундай ташкилотлар қаторида маданий ва кўнгилочар муассасалардан бири зоопарк (ҳайвонот боғлари) пайдо бўла бошлади.

1921 йилнинг март ойида Туркистон генерал-губернаторлиги боғи ўрнида

Ботаника боғи ташкил этилиб, тажриба ва илмий-тадқиқот ишларини олиб бориш учун Ўрта Осиё давлат университети тасарруфига берилди. Университет олимлари томонидан Ботаника боғи ҳудудида ҳайвонлар кўргазмаси ташкил этилиб, унинг негизида Тошкент ҳайвонот боғи вужудга келди. Тошкент ҳайвонот боғини ташкил этишда университетнинг зоолог олимлари Н. А. Кайзер, Н. Н. Кузнецова, В. Б. Тризна сингари мутахассисларнинг хизмати катта бўлган. Тошкент ҳайвонот боғи мустақил муассаса сифатида 1938 йилда тўлиқ шакллланган. Ана шундай маданий муассасалар қаторида Сурхон воҳасида ҳам зооботаника боғи ташкил этиш ишлари олиб борилган.

МУҲОКАМА (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). 1933 йилнинг 17 сентябрида вилоят Ўлкашунослик музейи ташкил топган бўлса, 1934 йилнинг май ойида музей ходимлари ва мактаб ўқувчиларининг иштирокида музей ҳовлисида ноёб ҳайвон турларидан иборат тирик бурчак ташкил қилинди. 1934 йилнинг 7 июнига келиб, музейнинг тирик бурчагидаги ҳайвонлар сони 41 тага етди.

Жорий йилнинг 2 июлига қадар музейга келган томошабинлар учун кириш bepул эди. Аммо музейнинг тирик бурчагидаги ҳайвонларнинг кунлик емиши учун харажат талаб этилиши туфайли, 2 июль ҳолатига кўра, музейга ташриф буюрган томошабинларга пуллик хизмати йўлга қўйилди. 1935 йил 20 июлда округ кенгашининг қарори билан Сурхондарё вилоят туманлараро музейи округ музейига айлантирилди. Худди шу йилдан бошлаб, музей ходимлари Эски Термизни доимий равишда илмий жихатдан ўрганиш ишларини йўлга қўйдилар. Шунингдек, округ музейи қошида зоология бўлимини очиш ва зоология бўлими ҳисобида турган ҳайвонларни сақлаш билан боғлиқ харажатлар учун 10.000 рубль маблағ ажратиш тўғрисида қарор қабул қилди.

Музей директори Г. В. Парфёнов музейдаги зоология бўлимининг фаолиятини кучайтириш мақсадида Тошкент шаҳрида хизмат сафарида бўлиб,

Тошкент ҳайвонот боғи билан яқиндан танишиб, улар фаолиятини ўрганиб қайтди. Шундан сўнг зоология бўлими фаолияти учун ажратилган маблағ ҳисобидан Г. В. Парфёнов Тошкент ҳайвонот боғидан 2 та айиқ, 3 та бўри, 3 та сиртлон ва бошқа ҳайвонларни сотиб олиб, Сурхондарё округ музейи зоология бўлими бошлиғи Д. Е. Аралов ва Шеробод тумани ўлкашунослик музейи директори Г. А. Журавлёвлар Термизга олиб келишди. Ушбу юборилган дастлабки ҳайвонлар кейинчалик Термиз шаҳар ҳайвонот боғининг энг биринчи экспонатлари бўлиб хизмат қилди.

1936 йилда округ музейнинг зоология бўлими муваффақиятли фаолият юритди. Мазкур йилларда зоология бўлими музейнинг ажралмас бўлаги сифатида расмий равишда тан олинди. Музей директори Г. В. Парфёнов, зоология бўлими бошлиғи Г. Н. Максимов, илмий ходимлар бўлими бошлиғи Г. А. Журавлёв ва Д. Е. Араловларни жалб этган ҳолда зоология бўлимини зооботаника боғига айлантириш режасини тузди ва уни амалга ошириш мақсадида Ўрта Осиё ботаника боғи директори Ф. В. Русанов, Москва ва Тошкент ҳайвонот боғлари раҳбарлари профессор П. А. Матафли ва доцент В. Курбатовларга мурожаат этиб, улардан амалий ёрдам сўради. Термиз шаҳрида зооботаника боғини яратиш ғояси ниҳоятда қизиқарли эди, чунки Термизнинг бошқа ерларда учрамайдиган ўзига хос табиати ва ҳайвонот дунёси ана шундай боғни яратиш учун асос бўлиб ҳисобланар эди.

1936 йилда музейнинг зоология бўлими бошлиғи Г. Н. Максимов зооботаника боғи учун мос жой сифатида Термиз шаҳридаги Нариманов кўчасидаги гўшт комбинатига яқин жойни таклиф этади. У жой Термиз тумани "Жданов" колхози ҳудуди ҳисобланар эди. Шу йилдан эътиборан Термиз ҳайвонот боғи шу ерда ўз фаолиятини давом эттириши қарорда кўрсатилган. 1937 йилга келиб округ давлат музейи фаолиятида зоопарк учун ажратилган 20 гектар ер ва 15 гектар тўқайзорни обод қилиш учун қарор қабул қилинди. 1937 йил 21 январдаги Термиз

шаҳар кенгашининг қарорига асосан гўшт комбинати билан шаҳар қамокхонаси ўртасидаги 20 гектар ер зоопарк учун ажратилди. Ажратилган майдонда йирик ҳайвонлар учун тегишли шарт-шароит яратиш учун Г. Н. Максимов катта жонбозлик кўрсатди. Боғ яратиш ва ободончилик ишларини амалга ошириш мақсадида Тошкент шаҳридан 2 та сув чиқарадиган двигатель олиб келинди.

1938 йилда яна бир муҳим воқеа рўй беради, яъни Ўзбекистон Халқ Комиссарлиги фармойишига кўра, музейнинг зоология бўлими мустақил юридик мақомга эга бўлган Зооботаника боғи сифатида ажралиб чиқади. Шунга қарамай, 1938 йил мобайнида у барибир музей тасарруфида қолди.

1939 йилнинг 16 февралига келиб музейнинг зоология бўлими мустақил ташкилот сифатида музейдан ажралиб чиқди ва Сурхондарё округ зооботаника боғи деб номланди. Ҳайвонларнинг яхши яшаши ҳамда уларнинг иқлимга қараб мослашиши учун кўриқхона, ҳайвон ва парранда сақлаш учун атрофи ўралган майдончалар қурилди.

Иккинчи жаҳон уруши йиллари арафасида, яъни 1942–1946 йилларда, Термиз ҳайвонот боғи вақтинча Тошкент ҳайвонот боғига кўчирилиб, 1947 йилнинг 1 май куни 35 та ҳайвон қайтариб олиб келинди ва Термиз ҳайвонот боғи тўлиқ ишга туширилди.

Термиз ҳайвонот боғининг дастлабки йилларидан токи мустақиллик йилларигача ҳам боғнинг ривожини учун ўзининг бекиёс, беминнат хизмати билан ҳисса қўшиб келган кишилар бу масканни бугунги кунга келиб ажойиб ва бежирим ҳолатга келишида ўзларининг улкан ишларини олиб бордилар. 1934 йилдан ака-ука Максимовлар Термиз ҳайвонот боғининг қурилишида ўзларининг билим ва меҳнатини аямадилар. Улар Термиз ҳайвонот боғининг турли-туман жониворлар бўлимини ривожлантиришда Иттифокда иккинчи ўринга чиқишида катта жонбозлик кўрсатганлар.

Термиз ҳайвонот боғида қуйидаги раҳбар кадрлар иш олиб бордилар:

1. В. Н. Максимов: 1934 йилдан 1964 йилгача.
2. Тангиров: вақтинча 1964 йилда.
3. В. Т. Тюрин: 1964 йилдан 1967 йилгача.
4. Гарбунов: вақтинча 1967 йилда.
5. Б. С. Худойбердиев: 1967 йилдан 1970 йилгача.
6. Н. Дехқонов: 1970 йилдан 1971 йилгача.
7. С. Ақобиров: 1971 йилдан 1973 йилгача.
8. А. Мусаев: 1973 йилдан 1978 йилгача.
9. Х. Махмудов: 1978 йилдан 2000 йилгача.
10. Ч. Сатторов: 2000 йилдан 2006 йилгача.
11. Б. Х. Тошбоев: 2006 йилдан 2014 йилгача.
12. Ч. Сатторов: 2014 йилдан 2017 йилгача.
13. Қ. М. Набиев: 2017–2018 йилларда.
14. К. Н. Туропов: 2018–2019 йилларда.
15. Ш. С. Улашев: 2020–2022 йилларда.
16. Ч. Қ. Сатторов: 2022 йилдан ҳозирги кунгача.

Мазкур раҳбар кадрлар Термиз ҳайвонот боғининг эртаси ва бугуни учун тинмай меҳнат қилдилар. Мустақиллигимизнинг дастлабки ўтиш йилларида Термиз ҳайвонот боғи ҳам иқтисодий қийинчилик кунларини бошидан кечирди. Лекин бу ҳолат узоқ вақт давом этмади. Мамлакатимиз ҳамда вилоят раҳбарияти бу масканга бўлган эътиборини янада кўпроқ қаратиб, уни янги кўринишга олиб келди.

Ҳадемай Сурхондарё вилояти Термиз ҳайвонот боғи ташкил этилганига 86 йил тўлади. Юқорида таъкидланганидек, Термиз ҳайвонот боғининг босиб ўтган шонли йўли ҳар жихатдан ибратли ва бой тарихга эга. Биз қарийб 86 йиллик тарихга эга бўлган бу мўътабар даргоҳ ҳақида, унинг босиб ўтган йўли ҳақида баҳолиқудрат ёритиб беришни ўз олдимизга мақсад қилиб қўйдик.

ЎзССР Халқ комиссарлари Кенгаши қарори билан 1938 йил 1 ноябрда Термиз ҳайвонот боғи очилиб, Ўзбекистон ССР Халқ комиссарлари совети ҳузуридаги кўриқхоналар, ҳайвонот боғлари ва шаҳарлар бошқармаси тасарруфига ўтказилди. 1942 йил ЎзССР Халқ Комиссариати қарори билан Термиз ҳайвонот боғи тугатилган эди. Ўзбекистон ССР Вазирлар Советининг 1947 йил 30 сентябрдаги қарори билан ҳайвонот боғи қайта очилди. Ўзбекистон ССР Вазирлар Кенгашининг 1951 йил 12 октябрдаги 2103-сонли қарори билан Тошкент ва Термиз ҳайвонот боғи Ўзбекистон ССР Вазирлар Кенгаши ҳузуридаги Маданий-маърифий муассасалар қўмитасига ўтказилди.

Ўзбекистон ССР Маданият вазирлигининг 1957 йил 23 майдаги 211-сонли қарори билан Термиз ҳайвонот боғи Ўзбекистон ССР Маданият вазирлиги тизимидан Ўзбекистон ССР Фанлар академияси тизимига ўтказилди. Ўзбекистон ССР Вазирлар Кенгашининг 1963 йил 4 июндаги 911-сон буйруғига асосан Термиз ҳайвонот боғи Ўзбекистон ССР Фанлар академияси юрисдикциясидан Ўзбекистон ССР Маданият вазирлиги тасарруфига қайтарилди. Ҳайвонот боғи ўзининг барча ишларида ҳайвонлар коллекциялари асосида илмий ва таълим муассасасидир.

1963 йилда Термиз ҳайвонот боғи 5 та бўлимдан иборат эди:

1. Сут эмизувчилар бўлими
2. Қушлар бўлими
3. Балиқлар ва судралувчилар бўлими
4. Маданият бўлими
5. Ботаника бўлими (хўжалик ва ёрдамчи деҳқончилик мавжуд).

Ҳужжатларни биринчи марта қайта ишлаш 1962 йилда амалга оширилган. Инвентар 1948–1958 йиллардаги доимий сақлаш ҳужжатларини ўз ичига олган. Термиз ҳайвонот боғига тегишли барча ҳужжатлар Сурхондарё вилояти давлат архивига топширилиб келинган. Ушбу инвентар Сурхондарё вилояти давлат архивининг 459-фонд, 1-сонли инвентаризациясининг давоми

ҳисобланади. Унга 1939–1980 йиллардаги ҳужжатлар киради.

Ҳайвонот боғи ташкил этиш вақтига оид ҳужжатлар қайта ишлаш учун қабул қилинмади. Термиз ҳайвонот боғи ҳайвонларнинг индивидлари ва турлари бўйича Ўрта Осиёда энг йирик ҳисобланади ва у маҳаллий, иттифоқдош ва хорижий фаунанинг катта ҳайвонлар тўпламини ўз ичига олади.

Термиз ҳайвонот боғи 1979 йилда бешта бўлимдан иборат бўлган:

1. Сут эмизувчилар бўлими
2. Қушлар бўлими
3. Балиқлар ва судралувчилар бўлими
4. Маданий-оммавий ишлар бўлими
5. Ботаника боғи бўлими.

Ҳайвонот боғида хўжалик бўлими ва ёрдамчи хўжалик бўлими мавжуд бўлиб, ҳайвонот боғи ўзининг барча ишларида ҳайвонларнинг коллекцияси асосида илмий-тадқиқот ва таълим муассасаси ҳисобланади.

Асосий вазибалари ҳисобланади:

а) оддий ва ёввойи ҳайвонларда илмий-тадқиқот ишларини олиб бориш ва боғда мавжуд табиий дарахтларни иқлимлаштириш; б) ҳайвонларнинг яшаш жойлари учун табиий шароитларга имкон қадар яқинроқ муҳитга жойлаштириш; в) аҳоли ўртасида биология фани тўпламларини тақсимлаш, халқ хўжалиги амалиётида уларни қўллаш ва илмий дунёқарашни шакллантириш; г) Совет ижодий дарвинизми иттифоқини оммалаштириш; д) Мактаблар орқали болалар билан кундалик тарбия ва таълим ишлари, зоология ва биологияни ўрганиш; е) тирик ҳайвонларни экспозиция қилишнинг энг катта қамровли аниқ шакл ва усуллари ўрганиш бўйича илмий-тадқиқот ишларини олиб бориш; ф) зоологик билимларни тарғиб қилиш ва ҳайвонлар биологиясини ўрганиш, экологик ҳолатини яхшилаш ва парваришлаш; г) ҳайвонларни озиклантириш масалалари бўйича илмий-тадқиқот ва ишлаб чиқариш ишларини олиб бориш, ҳайвонларда учрайдиган юқумли касалликларни олдини олишга

қаратилган профилактик-лаборатория тадбирларини ўтказиш;

Хужжатларни биринчи марта қайта ишлаш 1962 йилда амалга оширилган. Рўйхатга олиш ишлари 1948–1958 йиллардаги доимий сақлаш хужжатларини ўз ичига олади. Хужжатлар архивга топширилган. Ушбу хужжатлар 459-фонднинг 1-сонли инвентаризациясининг давоми бўлиб, унда илгари қайта ишланмаган хужжатлар ва 1939–1980 йиллардаги хужжатлар бундан мустасно.

Хайвонот боғи ташкил этилган пайтдан бошлаб, хужжатлар қайта ишлаш учун қабул қилинмаган. Хайвонот боғининг ходими Луговецнинг сўзларига кўра, хужжатлар хайвонот боғининг биринчи директори Г. Н. Максимовнинг шахсий архивида сақланади.

Рўйхат хронологик тартибда жойлаштирилган. Ҳамма хужжатлар қайта ишлашга юборилган. Хужжат фондиди қайта ишлашнинг ўзига хос жиҳати шундан иборатки, хужжатлар қайта ишлаш учун узоқ вақт давомида қабул қилинган. Бу 1962 йилда амалга оширилган. Шунинг учун 1939–1958 йиллардаги хужжатларни ушбу инвентарга киритиш мақсадга мувофиқдир. Бундай хужжатларнинг камлиги туфайли бир неча йил давомида хужжатлар (47 бирлик) сақланади.

Иш юритиш мавжуд қоидаларга жавоб бермайди ва "Ишлар номенклатураси"га амал қилмайди. Йўл-йўриқ материаллар, ишлаб чиқариш ва молиявий ҳисоботлар, иш фаолияти дастурий таъминотининг бош ҳисоботлари, штат жадваллари, шакллар бўйича ҳисоботлар ва бошқалар доимий сақлаш учун қолдирилди. Илмий ва

тарихий аҳамиятга эга бўлмаган ва амалий аҳамиятини йўқотган хужжатлар 1097 та ҳолатда йўқ қилиш учун танлаб олиниб, улар юзасидан далолатнома тузилди. Вақтинчалик сақлаш хужжатлари (ҳодимлар бўйича материаллар) сақлаш учун хайвонот боғи архивига топширилган.

Хужжатли фондларни қайта ишлашда "Хужжатли материалларнинг намунавий рўйхати"дан (М, 1969 й.) фойдаланилган.

ХУЛОСА (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Демак, хулоса ўрнида шунини таъкидлаш жоизки, 1934 йилнинг май ойи охирига келиб музей ҳовлисида ноёб хайвон турларидан иборат тирик бурчак ташкил этилди. 1934 йилнинг 7 июнь кунига келиб музейнинг тирик бурчагига 41 та хайвон тури сақланадиган бўлди. 1934 йил 2 июлига қадар музейга кириш томошабинлар учун бепул бўлган бўлса, аммо хайвонларнинг озикланиши учун харажат талаб этилиши туфайли томошабинларни музейга киритишни пуллик қилиш масаласи қўйилди.

1934 йилда музей қошида ташкил этилган зоология бурчаги 1939 йил 16 февралга келиб алоҳида мустақил ташкилот сифатида ўз иш фаолиятини олиб бора бошлади. Қисқа вақт ичида фидойи табиатшуносларнинг меҳнати туфайли Сурхондарё вилояти зооботаника боғи ўз ўрнини топа билди ва ўлка ёввойи ҳамда жаҳон хайвонот олами билан бойитилиб, оламшумул ютуқларга эришди. Бугунги кунга келиб, Термиз хайвонот боғи ташкил этилганига 85 йил тўлди. Юқорида таъкидланганидек, Термиз хайвонот боғининг босиб ўтган шонли йўли ҳар жиҳатдан ибратли ва бой тарихга эга.

АДАБИЁТ ВА МАНБАЛАР РЎЙХАТИ (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES):

1. Сурхон тонги. – 2011. – 26 май.
2. Ботиров И. Т. Сурхондарё вилояти ўлкашунослик музейи тарихи. – Тошкент: Фан, 2011. – 22 б.
3. Сурхондарё вилояти давлат архиви, 459-фонд, 1-рўйхат, 170-иш, 3,7,10 - varaқлар.
4. Термиз йилномаси. – Тошкент: Шарқ, 2001. – 26 б.
5. Сурхондарё вилояти давлат архиви 459- фонд, 1-рўйхат, 170-иш, 5-варақ.
6. Сурхондарё вилояти давлат архиви 459- фонд, 1-рўйхат, 170-иш, 1-варақ.

ЧОР РОССИЯСИ ВА СОВЕТ ҲОКИМИЯТИ ДАВРИДА СУРХОНДАРЁ ВИЛОЯТИДА ТРАНСПОРТ ТИЗИМИ: ТАРИХИЙ-ИҚТИСОДИЙ ТАҲЛИЛ

Хидиров Холмамат Жўраевич

*Термиз давлат педагогика институти, Педагогика ва
ижтимоий фанлар факультети, Тарих кафедраси профессори
в.б., тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)*

<https://orcid.org/0009-0007-7891-0023>

UDK: 94(575.1)

Аннотация: Ушбу мақола чор Россияси ва Совет ҳокимияти даврида Сурхондарё вилояти транспорт тизимининг шаклланиши ва ривожланиш босқичларини тарихий-иқтисодий жиҳатдан таҳлил қилади. Унда XIX аср охири ва XX аср бошларида қурилган Самарқанд-Термиз почта йўлининг стратегик аҳамияти, савдо-сотиқ ва ҳарбий мақсадлардаги ўрни ёритилади. Совет давридаги йўл қурилишига алоҳида эътибор қаратилиб, 1920-1960-йиллардаги ташкилий ўзгаришлар, "Катта Ўзбек тракти" лойиҳаси, маҳаллий хомашё, хусусан, Жарқўрғон нефтидан фойдаланиш тажрибалари ҳамда мавжуд муаммолар (маблағ ва техника етишмаслиги) архив ҳужжатлари асосида баён этилган.

Калит сўзлар: Сурхондарё, транспорт тарихи, йўл қурилиши, Чор Россияси, Совет ҳокимияти, Самарқанд-Термиз йўли, Катта Ўзбек тракти, Жарқўрғон нефти, иқтисодий таҳлил.

Аннотация: В статье анализируются этапы становления и развития транспортной системы Сурхандарьинской области в период правления царской России и Советского Союза с историко-экономической точки зрения. Подчеркивается стратегическое значение почтового тракта Самарканд-Термез, построенного в конце XIX – начале XX веков, его роль в торговле и военных целях. Особое внимание уделяется дорожному строительству в советский период, организационным изменениям в 1920–1960-х годах, проекту «Великий Узбекский тракт», опыту использования местного сырья, в частности жаркурганской нефти, и существовавшим проблемам (нехватка средств и оборудования) на основе архивных документов.

Ключевые слова: Сурхандарья, история транспорта, дорожное строительство, царская Россия, советская власть, дорога Самарканд-Термез, Большой Узбекский тракт, жаркурганская нефть, экономический анализ.

Abstract: This article analyzes the stages of formation and development of the transport system of the Surkhandarya region during the reign of Tsarist Russia and the Soviet Union from a historical and economic perspective. It highlights the strategic importance of the Samarkand-Termez postal route, built in the late 19th and early 20th centuries, its role in trade and military purposes. Particular attention is paid to road construction during the Soviet period, and organizational changes in the 1920s-1960s, the "Great Uzbek Tract" project, experiences in using local raw materials, in particular, Zharkurgan oil, and existing problems (lack of funds and equipment) are described based on archival documents.

Keywords: Surkhandarya, transport history, road construction, Tsarist Russia, Soviet power, Samarkand-Termez road, Great Uzbek Tract, Zharkurgan oil, economic analysis.

КИРИШ (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). Транспорт тизими ҳар қандай ҳудуднинг ижтимоий-иқтисодий тараққиёти ва стратегик аҳамиятини белгиловчи асосий омиллардан биридир. Айниқса, тарихан муҳим геосиёсий макон ҳисобланган Сурхондарё воҳасида транспорт инфратузилмасининг шаклланиши ва ривожланиш босқичларини ўрганиш нафақат тарихий, балки ҳудудий иқтисодиётни тушуниш жиҳатидан ҳам катта аҳамиятга эга. Транспорт тизими маъмурий-ҳудудий бирликнинг ички алоқаларини мустаҳкамлаш, хомашё ва

махсулотларни ташиш ҳамда ҳарбий-сиёсий назоратни таъминлашда ҳал қилувчи рол ўйнаган. Сурхондарёда йўл қурилиши тарихи ниҳоятда қадим даврга бориб тақалади. Ушбу ҳудуддан ўтувчи Буюк ипак йўли қадимдан серкатнов бўлган, савдо-сотиқ ривожланган бўлиб, йўллар мунтазам равишда кўп тармоқларга бўлиниб турган.

АДАБИЁТЛАР ТАҲЛИЛИ ВА МЕТОДЛАРИ (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОДОЛОГИЯ / METHODS). М. Азимовнинг “Термиз тарихи” ва С. Турсунов бошчилигидаги “Термиз тарихи” каби фундаментал асарлар воҳанинг XIX аср охири ва XX аср бошларидаги умумий ижтимоий-сиёсий ва иқтисодий ҳолатини, хусусан, Самарқанд–Термиз почта йўлининг қурилишини тарихий контекстда тушуниш учун асос бўлиб хизмат қилди. Совет даврига оид “Народное хозяйство Узбекской ССР” (1975) ва “Советский Узбекистан за 40 лет” (1964) каби статистик тўпламлар ўрганилди. Бу манбалар 1940–1970 йилларда Ўзбекистон (жумладан, Сурхондарё) бўйича йўл тармоқларининг умумий узунлиги, транспортдаги юк ва йўловчи ташиш ҳажмларига оид аниқ рақамли маълумотларни олиш имконини берди. Тадқиқотнинг энг муҳим қисми Ўзбекистон Миллий архиви ва Сурхондарё вилояти давлат архиви фондларидаги (Ф. 76, Ф. 95, Ф. 425 каби) бевосита материаллар ҳисобланади. Ушбу ҳужжатлар орасида йўл қурилишига оид қарорлар, ҳисоботлар, маблағ ажратилиши ҳақидаги маълумотлар ва техник лойиҳалар мавжуд.

МУҲОКАМА (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). XIX аср охири – XX аср бошларида савдо-сотиқнинг ривожланиши янги йўлларни қуришни талаб қилди. Негаки, шаҳарлар ва қишлоқлар орасида фақатгина карвон йўллари мавжуд бўлиб, тоғли жойларда йўллар хавфли эди [1:183]. Буни ҳисобга олган чор ҳукумати Шарқий Бухородаги рус гарнизонлари билан алоқани яхшилаш ва савдо-сотиқ алоқаларини йўлга қўйиш мақсадида Самарқанд–Термиз почта йўлини қуришга

қарор қилди.

Самарқанд–Термиз почта йўли лойиҳаси Россия ҳарбий вазири Куропаткин топшириғи асосида французларнинг Жазоирдаги қурилиши асосида амалга оширилган. Рус ҳарбий зобити, подполковник Мельников Самарқанд–Термиз почта йўлидаги энг оғир участкаларнинг оралиқ масофаси ва улардан ўтадиган вақтни ҳам ҳисоблаб чиқиб, ахборот берган. Унинг ахборотида қуйидаги маълумотлар келтирилади:

Лайлагон – Чилонзор, 11,5 верст, 43 минут.

Сайроб – Дарбанд, 16 верст, 2 соат 50 минут.

Дарбанд – Оқработ, 21 верст, 2 соат 55 минут [2:218].

1900 йили Бухоро амири Абдулахад ва чор ҳукумати амирлик аҳолиси кучи билан рус ҳарбий инженерлари ва Туркистон сапёр батальони бошлиқлари раҳбарлигида 376 верстли Самарқанд–Термиз алоқа йўли ва 14 та мустақамланган станциялар қуриш ҳақида махсус шартномага имзо чекдилар. Алоқа йўли 1902 йили ишга туширилди. Рус мутахассислари раҳбарлигида Бухоро амирлиги маблағи ҳисобидан Шерободни Термиз билан боғлайдиган почта-телеграф идораси қурилди. Почта-телеграф йўлининг барпо этилиши рус-бухоро савдосини яхшилаш билан бирга маданий жиҳатдан ҳам катта аҳамиятга эга бўлди [3:281].

Самарқанд ва Термиз ўртасида Ғузор–Шеробод орқали ўтадиган почта йўли арава сиғадиган қилиб қурилган бўлиб, савдо ва ҳарбий аҳамиятга эга эди. Почта йўли ёзда чанг, қишда юриб бўлмайдиган даражада лой бўлар эди. Бунақа қийинчиликларни фақатгина шағал-қум йўли қуриш билангина бартараф қилиш мумкин эди, лекин бунга аҳолининг ҳам, ҳукуматнинг ҳам қурби етмас эди. Баъзи йилларда йўлнинг ёмонлиги сабабли, пахтани тайёрлов манзилларига кузда ташиб бера олмас ва бу иш баҳорга қолдирилар эди. Маблағ ва йўл қурилиш материаллари етишмаслигидан айрим сувоқар ариқлар устида кўприкларни жуда энсиз ва калта

қилиб қуришар эди. Шу сабабли сувли ариқлардан ўтиш жуда мушкул иш эди. Кўприклар ва қайиқларнинг йўқлиги боис тез оқар дарёлардан оқимга қараб саёз жойлардан ўтилар эди. Асосий йўллар карвон йўллар ва йўлакчалар эди. Транспорт эса отга қўшиладиган ёғоч аравалардан иборат эди.

Ўзбекистон транспорт тизимини ривожланиш босқичлари ва тараққиётига эътибор берилганда, XX асрда ушбу соҳада янги йўл қурилишлари амалга оширила боришга гувоҳ бўлиш мумкин. 1913 йилда Ўзбекистон ҳудудида жами 1,1 минг км йўллар мавжуд бўлиб, бунинг 0,03 кми тош ётқизилган йўллардан иборат эди.

Сурхондарёда автомобиль йўллари қурилиши 1920 йилларга бориб тақалади. 1920 йилда давлат иншоотларининг Туркистон Бош қўмитаси ташкил этилди. Ушбу ташкилот 1922 йилгача фаолият кўрсатган бўлса-да, амалда йўл хўжалиги бўйича ҳеч қандай иш бажармади. 1922 йил ноябрда Туркистон маҳаллий транспорт ташкилоти ташкил этилди, бироқ, давлат томонидан маблағ ажратилмаганлиги туфайли воҳада ҳеч қандай амалий ишлар қилинмади. XX аср бошида Ўзбекистонда 27 минг км йўл бўлиб, асосан от арава, карвон ва йўловчиларга мўлжалланган, шундан фақат 2 минг кмга шағал ётқизилган эди. 1920 йилга қадар йўл ишлари билан мунтазам шуғулланадиган давлат ташкилоти бўлмаган. 1922 йил ноябрда Туркистон маҳаллий транспорт бошқармаси, 1925 йил июнда Сурхондарё вилоят йўл бошқармалари ташкил этилди.

XX асрнинг 30-йилларида Сурхондарёда автомобиль корхонаси пайдо бўлди. Автомобилда юк ташиш йўлга қўйилиши туфайли, аравада юк ташиш ишлари камайди [1:183]. 1931 йилдан вилоят автотранспорт ва тош йўллар бошқармаси ташкил этилди. Қайд қилиш керакки, 1933 йилгача вилоятда юқорида айтилган йўл бошқармаларининг бирор бир бўлими йўқ эди [8:9].

Бу даврда йўл хўжаликларининг аҳволи фожиали ҳолатда эди. Янги йўллар қурилмас, эскилари эса таъмирланмас эди.

Шу сабабли аҳоли яшаш марказлари орасида транспорт алоқалари тупроқли йўллар ва сўқмоқлар орқали, араваларда бажарилар эди. Бундай аҳвол 1932 йилгача давом этди. Пахта етиштириш ва бошқа қишлоқ хўжалик маҳсулотларини етиштириш йилдан-йилга кўпайиб бориши натижасида йўл қурилиши ва йўлларни таъмирлаш ишларига ҳам эътибор берилди. 1930 йилда Тўпаланг дарёси устида узунлиги 150 м бўлган кўприк қурилди. Йўл қурилиши 1930-йилларда сезиларли ўсиб, Сариосиё, Денов, Шўрчи, Жарқўрғон туманларини бирлаштирадиган шоҳ йўл қуриб битказилди. 1935–1936 йиллари шу йўлдан от аравалар, туяларда Душанбе шаҳрини қуриш учун ғишт ташилди.

Транспорт соҳасида амалга оширилган ишлар, йўл қурилиши, йўловчиларга хизмат кўрсатиш, юкларни ўз вақтида манзилларига олиб бориш соҳасида Ўзбекистонда ўзига хос ишлар амалга оширилди. Ўзбекистонда 1940 йилда жами йўл тармоқларининг узунлиги 1,9 минг километрни ташкил этган. Шундан тош-бетон қопланган автомобиль йўлларининг узунлиги 31,6 км, унинг 4,3 кми қаттиқ бетон қопламалардан иборат эди.

Ҳашар орқали сув иншоотларини қуриш тажрибасига асосланиб, ўша йили автомобиль йўлларини қуриш ишлари давом эттирилди. 1940 йилда узунлиги 708 километр бўлган Катта Ўзбек тракти, яъни Тошкент–Самарқанд–Термиз йўлини қуриш учун алоҳида қарор қабул қилинди. Бу йўлни қуриш давомида Сурхондарё вилоятида узунлиги 145 километрлик йўл тармоқлари ишга туширилди. Шунингдек, 87 километрлик Оқработ–Шўроб ва Дарбанддаги тоғли довондан йўл ўтказилди. Қолган 58 км масофада кумли ва барханли жойларда шағал-қум тўкилиб, йўл қурилди.

Сурхон воҳасининг лойиҳа асосида йўл қурилиши ва сунъий иншоотлари учун маҳаллий қурилиш материалларидан имкони борича кўпроқ фойдаланиш назарда тутилиб, йўл қурилиш бошқармаси вилоятга, туманга, колхозга ва бригадаларга бўлинди. Қурилиш ишларига

рахбарлик қилиш учун “Штаб” ташкил қилинди ва ҳар бир ҳудуд телефонлаштирилди. Қурувчилар учун чойхона, маданий ва тиббий хизмат учун дўконлар, ошхоналар ташкил этилди. Колхозчиларнинг ҳамкорлиги оммавий тус олди. Йўл устидаги қоплама учун шағал-қумлар йўл яқинида жойлашган карьерлардан қазиб олинди, фойдаланилди.

Майда оқар сувларни ўтказиш иншоотлари учун тошлардан ва маҳаллий хом ашёлардан фойдаланилди. Шу иншоотларнинг кўпчилиги ҳозирги кунда ҳам (Оқработ–Сайроб йўли) сақланиб турибди. Кўприк қурилишида биринчи марта метан конденциясиз қувурлардан фойдаланиб, Шўроб, Қорасув каби дарёлар устидан катта кўприклар қурилди. Тезкор халқ ҳашари йўли билан қурилган кўприклар йўл хўжалигини яхшилаб, йўлсизлик муаммоларини бартараф қилди.

1940 йилда Сурхондарёда Катта Ўзбек тракти қурилиши ва шу йўлдан фойдаланиш ишларини бажарадиган биринчи ташкилот пайдо бўлди. Уруш олди йилларида йўллар ётқизишда кўпгина ишлар бажарилган, йўлсизликни тугатиш бошланган бўлса ҳам, маблағ ва қурилиш материалларининг етишмаслигидан бу соҳадаги ишлар тўла рўёбга чиқмади. Темир йўл жуда кам, тош йўллар эса халқ хўжалигининг ҳамма тармоқларига юкларни ташиб етказиш имконига эга эмас эди. Йўлларнинг носозлиги халқ хўжалиги учун бошқа қийинчиликларни ҳам келтириб чиқарди. Чунончи бу ҳол пахта экиш учун ерларни ўзлаштиришга, кишлоқ хўжалигининг бошқа экинларини кўпайтириш, ишлаб чиқариш кучларини ҳудудий ташкиллаштиришга имкон бермас ва аҳолининг транспортга бўлган эҳтиёжини қондирмас эди.

1945–1949 йилларда автотранспортда юк ва йўловчилар ташиш ҳажми ўсди. Шу йилларда республикага 9548 та янги юк автомобили келтирилди. Ўзбекистонда автомобиль хизматидан фойдаланиш йилдан-йилга ошиб бориши натижасида янги йўл қурилишлари амалга оширилди, йўлларнинг сифат ва самарадорлиги анча

яхшиланди. Ўзбекистонда шағал ётқизиш, асфальт қилинган йўллар 1940 йилда 31,6 минг км, 1965 йилда 27,5 минг км, 1970 йилда 28,3 минг км, 1973 йилда 29,4 минг км, 1975 йилда 30,5 минг километрни ташкил этди [5:233].

1955 йил бошларида Сурхондарё вилоятидаги йўл тармоқларининг ҳолати бир мунча яхшиланди. Лекин бу ерда йўл қурилиши ишлари континентал, тез ўзгарувчан об-ҳаво шароитида бажарилганлиги боис йўл хўжалиги қолоқлигича қолар ва бу соҳа халқ хўжалигининг бошқа тармоқларидан ортда қолаётган эди. Шунинг учун вилоятда қисқа муддат ичида йўлсизликни тугатиш муаммоси пайдо бўлди. Йўлсизликда хом ашё, техника ва маблағ ресурсларини топиш, йўллар қурилиши ва уларни қайта таъмирлашни механизациялаш, йўл устларини капитал типдаги қопламалар билан қуриш, қурилишни тезлаштира оладиган технологияни ўзлаштириш талаб қилинарди.

Вилоятда шағал-қум аралашмасига Жарқўрғон нефтини аралаштириб йўлга ётқизиш жорий этилди. Бу эса ҳудудда йўл қурилиш суръатини тезлаштиришга ёрдам берди. 1952–1954 йилларда Катта Ўзбек трактининг Термиз шаҳрининг шимолий дарвозаси бўлимида, Эски Термиз–Каптархона, Ангор йўналишларида шу усул қўлланилди. Бу биринчи тажриба сифатида амалга оширилди. 1953–1955 йилларда Сурхон трактидаги Навшаҳар–Қорақир–Жарқўрғон йўлларига ҳам шу усул қўлланилди [9:72-73].

Совет ҳукумати Иккинчи жаҳон урушидан кейинги йилларда автомобиль йўл қурилишига жиддий эътибор берди. Хом ашё манбалари жойлашган ҳудудларни Марказ билан боғлаш мақсадида катта йўл трассаларини қуришга киришиб, Ўзбекистон ҳудудида ҳам йирик йўл трассаларини бирлаштириш билан боғлиқ лойиҳаларни амалга оширди. Пахта ва кишлоқ хўжалик маҳсулотларини белгиланган манзилларга етказиш бўйича махсус таянч йўллари ишга туширилди. Ўзбекистонда 1953 йили 6,5 минг километр

тош йўллар, 0,9 километр асфальт-бетон йўллар топширилган бўлса, 1958 йилда 8,1 минг километр тош йўллар, 3,3 минг километр асфальт-бетон йўллар куриб фойдаланишга топширилди [6:237].

Фойдаланишга топширилган автомобиль йўллар асосан янги ўзлаштирилган кўрик ва бўз ерлар, янги барпо этилган шаҳарлар, давлат хўжаликлари, маъмурий марказлар ҳисобида бўлиб, аҳоли кўп истиқомат қиладиган аҳоли пунктлари, тоғ, тоғолди қишлоқлари бундан истисно эди. Бундай жараёни амалга оширишдан мақсад марказ манфаатлари асосида, белгиланган режа бўйича пахта хом ашёсини ташиб кетишга мўлжалланган эди.

Республикада янги йўлларни куриш мақсадида 1957 йили автомобиль йўллари тармоқлари рўйхати ўтказилди [4:5]. Натижада 1960-йилларда йўл курилишига эътибор жиддий тус олди. Автотранспорт воситаларининг таркиби 1960–1980 йилларда янада кўпайди. Йўлсизликни тугатиш даврида жуда кўплаб кўприклар, уларга борадиган йўллар, дарёларга тўғонлар катта ҳажмда курилиб, ишга туширилди. Бу курилишларга 1954–1960 йилларда Денов шаҳрида Сурхондарё устида курилган кўприк, 1960–1962 йил Шўрчи шаҳрида, 1955 йилда Жарқўрғонда, 1955–1956 йилларда Сурхон тракти бўйига Қизил сув дарёси устидан, 1957 йилда Юрчи шаҳарчасида курилган кўприклар шулар жумласига киради.

Катта Ўзбек тракти, Сурхон тракти ва бошқа бир қанча республика ва вилоят аҳамиятидаги катта йўллар шағал йўлдан қорамойли шағал йўлига айлантирилди. Олтинсой дарёси устидан 1960–1962 йилда кўприк курилиб, бу кўприкнинг таянчлари реконструкция металл қувурларидан, балкалари иккитаврли балкалардан, ўтиш жойи ёғочдан курилди. Денов ва Шўрчида йўл курилишига янгидан-янги маблағларнинг ажратилиши давлат ҳисобидан кўприклар, йўллар курилиши ҳамда қайта таъмирлаш ишлари такомиллашиб боришига олиб келди.

Совет ҳокимияти йилларида йўл

курилиши учун ажратилган маблағларнинг 20 фоизи давлат ҳисобига, 21 фоизи Ўзбекистон ССР Олий Совети Президиумининг фармони бўйича ажратилган маблағ ҳисобига, автотранспортни ишлатишдан келадиган фойданинг 2 фоизи чегириб қолиш ҳисобига, колхозларнинг бўлинмас фондидан 29 фоиз, йўл курилишига алоқадор бўлган вазирликлар ва бошқармалар ҳисобидан 30 фоизи тўғри келди. Йўл курилишида ички имкониятлардан унумли фойдаланиш натижасида Сурхондарё вилоятида йўлсизликни тугатиш ишлари анча яхшиланди.

Сурхон трактини қора-шағал йўлига айлантириш ишлари 1956 йилда бошланиб, 1966 йилда тугалланди. Термиз–Шеробод йўли 1960 йилда, Қашқадарё чегарасига бўлган йўллар 1964 йилда қора-шағал йўлига айлантирилди. Шу тариқа, Ўзбекистон халқ хўжалигида автотранспорт тармоқларининг ўрни ва аҳамияти ошиб борди. Транспортга хизмат кўрсатиш тармоқлари эса янги имкониятларга эга бўлди.

Автомобиль транспорти билан халқ хўжалиги юklarини ташиш кескин кўпайди. Сурхондарё вилоятида автомобиль транспорти билан юк ташиш 1953 йилда 2,1, 1958 йилда 8,1, 1960 йилда 16,0, 1963 йилда 23,5 миллион тоннани ташкил этди [6:237].

1966 йилга келиб, вилоятда автомобиль йўллариининг узунлиги 1565 кмни ташкил этиб, шундан: 145 км Катта Ўзбек тракти ҳисобланган. Шунингдек, 482 километри республика аҳамиятидаги йўллар бўлиб, унинг таркибига Сурхон тракти 180 км, Термиз – Аэропорт 12 км, Навшаҳар–Болдир 50 км, Шеробод–Сурхон 40 км, Сурхон трактининг чет қисми 150 км ҳамда узунлиги 938 километр бўлган вилоят йўллари ташкил этган. 1966 йилда Термиз–Намуна, Термиз–Саловат, Мангузар, Янгиариқ, Мангузар, Хотинработ, Сурхон тракти, Жарқўрғон–Хаудак, Жарқўрғон–Қорағурсак, Жарқўрғон – Коммуна колхоз, Шўрчи–Қорлик, Денов–Сина,

Денов–Файзова, Денов–Холчаён, Тўпаланг–Подахона, Узун–Қоратоғ, Дарбанд – Бойсун – Шўрчи, Эгарчи – Хатак, Болдир – Пошхурт, Болдир–Музработ ва бошқа автомобиль йўллари ҳам қайта таъмирланди ва янгидан қурилди.

Шуни таъкидлаш керакки, Совет ҳукумати Ўзбекистонда, жумладан, жанубий ҳудудларга йўл қурилиши учун зарур маблағларни ўз вақтида етказиб бермаганлиги туфайли 1966 йилда йўлсизликни тугатиш ниҳоясига етмади. Тоғолди ҳамда тоғли жойларда йўл қурилиши талаб даражасида бўлмади. Янги ўзлаштирилган ерларда пайдо бўлган аҳоли манзилгоҳларини йўл билан таъминлаш масаласига жиддий эътибор берилмади.

Сурхон воҳасида йўлсизликни тугатиш ҳамда тоғли ҳудудлардаги аҳоли манзилгоҳларини қора-шағал қопламали бўлган автомобиль йўллари билан таъминлаш, йўловчи ва юк ташийдиган транспорт воситалари учун мустаҳкам таянчли йўл тармоқларини ҳосил қилиш масаласида жиддий лойиҳалар ишлаб чиқилмади.

ХУЛОСА (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Умуман олганда, Сурхондарё вилоятидаги транспорт тизими сиёсий-иқтисодий мажбурият сифатида ривожланган бўлиб, бу жараён ҳудуднинг ички, мутаносиб тараққиётига эмас, балки марказнинг хомашё ресурсларини ўзлаштириш эҳтиёжларига хизмат қилган.

АДАБИЁТ ВА МАНБАЛАР РЎЙХАТИ (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES):

1. Азимов М. Термиз тарихи (энг қадимги даврлардан XXI аср бошигача). – Қарши: Насаф, 2001. – Б. 183.
2. Турсунов С. ва бошқалар. Термиз тарихи. – Б. 218.
3. Умаров И., Раҳмонов Х., Худойбердиев Э. Сурхон воҳасида этник тарих ва этномаданий жараёнлар (хатакилар уруғи мисолида). – Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси, 2014. – Б. 281.
4. Зайнутдинов Ш. "Некоторые теоретические вопросы экономических реформ." // Общественные науки в Узбекистане. – 1997. – № 5. – С. 5.
5. Народное хозяйство Узбекской ССР 1975. – Тошкент: Ўзбекистон, 1976. – С. 233.
6. Советский Узбекистан за 40 лет. Статистический сборник. – Тошкент: Ўзбекистон, 1964. – С. 237.
7. Ўзбекистон Миллий архиви, I-303-фонд, 2-рўйхат, 135-иш, 54-варақ.
8. Сурхондарё давлат архиви Денов филиали, 425-фонд, 1-рўйхат, 21-иш, 9-варақ; 29-иш, 31-варақ; 31-иш, 15-варақ; 31-иш, 23-варақ.
9. Сурхондарё вилояти давлат архиви, 76-фонд, 1-рўйхат, 21-иш, 30-варақ; 34-иш, 27-варақ; 36-иш, 42-варақ; 39-иш, 28-варақ; 54-иш, 35-варақ; 754-иш, 72-73-варақлари.
10. Сурхондарё вилояти давлат архиви, 76-фонд, 6-рўйхат, 51-иш, 33-варақ.
11. Сурхондарё вилояти давлат архиви, 95-фонд, 1-рўйхат, 15-иш, 28-варақ; 189-иш, 14-варақ.
12. Сурхондарё вилояти давлат архиви, 454-фонд, 3-рўйхат, 464-иш, 63-варақ.

TARIXIY MADANIY OBYEKTЛАRNI DIDAKTIK FUNKSIYALARI

Abdullayeva Nasibaxon Arabovna

*Andijon davlat pedagogika instituti Ijtimoiy fanlar kafedrası
professori v.b., tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),**<https://orcid.org/0009-0008-4513-879X>**УЎК 391.4:746(575.121)*

Annotatsiya: Mazkur maqolada tarixiy-madaniy obyektlarning ta'lim jarayonidagi didaktik (o'qitish) funksiyalari har tomonlama tahlil qilinadi. Tarixiy yodgorliklar, me'moriy ansambllar, ziyoratgohlar va muzeylar orqali o'quvchilarning madaniy ongini shakllantirish, tarixiy tafakkurni rivojlantirish va Vatanga muhabbat tuyg'usini uyg'otishdagi roli yoritilgan. Tadqiqot natijasida tarixiy-madaniy obyektlardan foydalanishning samarali metodik yo'llari aniqlangan.

Kalit so'zlar: tarixiy-madaniy obyekt, didaktika, vizual ta'lim, madaniy meros, milliy ong, tarixiy tafakkur, muqaddas maskanlar.

Аннотация: В статье комплексно анализируются дидактические (обучающие) функции историко-культурных объектов в образовательном процессе. Подчеркивается роль исторических памятников, архитектурных ансамблей, святынь и музеев в формировании культурного сознания учащихся, развитии исторического мышления и пробуждении чувства любви к Родине. В результате исследования выявлены эффективные методические приемы использования историко-культурных объектов.

Ключевые слова: историко-культурный объект, дидактика, наглядное образование, культурное наследие, национальное сознание, историческое мышление, сакральные места.

Abstract: This article comprehensively analyzes the didactic (teaching) functions of historical and cultural objects in the educational process. The role of historical monuments, architectural ensembles, shrines and museums in the formation of students' cultural consciousness, the development of historical thinking and the awakening of a sense of love for the Motherland is highlighted.

As a result of the research, effective methodological ways of using historical and cultural objects have been identified.

Keywords: historical and cultural object, didactics, visual education, cultural heritage, national consciousness, historical thinking, sacred places.

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). Tarixiy-madaniy obyektlar — har qanday xalqning tarixiy taraqqiyotini, madaniy rivojlanish bosqichlarini va estetik qarashlarini o'zida mujassam etgan moddiy va ma'naviy meros shaklidir. Ular xalq xotirasining real ifodasi bo'lib, jamiyatning sivilizatsion yutuqlaridan dalolat beradi. Bunday obyektlar qatoriga qadimiy me'moriy inshootlar, arxeologik yodgorliklar, ziyoratgohlar, tarixiy shaxslar bilan bog'liq maskanlar, muzeylar va arxivlar kiradi. Bu obyektlar o'z mazmuni, shakli va tarixiy konteksti orqali ta'lim jarayonida keng ko'lamli didaktik funksiyalarni bajarishi mumkin.

Zamonaviy ta'lim konsepsiyalarida — xususan, kompetensiyaviy yondashuv, interaktiv va integratsiyalashgan o'qitish tamoyillari asosida — o'quvchilarni faqat bilim egallovchi emas, balki faol ijtimoiy subyekt sifatida shakllantirish ustuvor vazifa hisoblanadi. Bu jarayonda tarixiy-madaniy obyektlardan vosita sifatida foydalanish o'quvchining tarixiy tafakkurini chuqurlashtiradi, milliy identifikatsiyani mustahkamlaydi, madaniy ongini uyg'otadi va estetik didini rivojlantiradi[1:72–76].

Misol uchun, Registon maydoni yoki Ichan qal'a kabi yodgorliklar oddiy ko'rgazma obyekti emas, balki o'quvchiga tarixiy davrni his qilish, me'moriy uslubni tahlil qilish, shaxslar faoliyatini anglash imkonini beradi. Bunday obyektlar orqali "joyida o'qitish"

prinsipi amalga oshadi: o'quvchi dars materialini real fazoda idrok qiladi, vizual va hissiy jihatdan mazmunni chuqurroq anglaydi[7:90-95].

Biroq amaliyot shuni ko'rsatmoqdaki, aksariyat hollarda tarixiy-madaniy obyektlar ta'lim jarayonida yetarlicha didaktik vosita sifatida qo'llanilmaydi. Darslikda qisqacha ma'lumot berish yoki rasmlar bilan cheklanish orqali bu obyektlarning to'laonli o'quv resursi sifatidagi salohiyatidan foydalanilmay qolmoqda. Shu sababli, bu maqola tarixiy-madaniy obyektlarning didaktik funksiyalarini aniqlash, ularning ta'limdagi metodik qo'llanilish imkoniyatlarini tahlil qilish va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga qaratilgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLARI (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОДОЛОГИЯ / METHODS). Tadqiqot

quyidagi metodlar asosida olib borildi:

- **Tahlil va sintez:** Tarixiy-madaniy obyektlar haqidagi ilmiy adabiyotlar, ta'limiy materiallar, darsliklar o'rganildi[4:53-57].

- **Empirik kuzatuv:** Samarqand, Buxoro va Toshkentdagi maktablarda o'tkazilgan tarixiy joylarga ekskursiyalar, muzey mashg'ulotlari kuzatildi va tahlil qilindi.

- **So'rovnoma va suhbat:** 35 nafar o'qituvchi va 60 nafar o'quvchi ishtirokida maxsus so'rovnoma tashkil etildi.

- **Fanlararo integratsion yondashuv:** Tarixiy obyektlarning adabiyot, san'at, geografiya fanlari bilan bog'liqligi tahlil qilindi[5:40-43].

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). Tadqiqotda quyidagi didaktik funksiyalar aniqlandi:

Tarixiy-madaniy obyektlarning didaktik funksiyalari

Funksiya turi	Mazmuni
Ko'rgazmali (vizual)	Real yodgorliklar orqali mavzuni ko'z bilan ko'rib idrok etish.
Tarbiyaviy	Vatanga muhabbat, ajdodlarga hurmat, tarixiy xotiraga sadoqatni shakllantirish.
Emotsional-ta'sirchan	Talabalarda taassurot, zavq, hayrat uyg'otish orqali darsga jalb qilish.
Fanlararo	Tarixiy obyektlar san'at, adabiyot, geografiya kabi fanlarda ham qo'llanadi.
Kontekstual	Yodgorliklar orqali tarixiy davrni va shaxslarni aniq kontekstda anglash.

Talabalar uchun ijobiy ta'sirlar

- **Tarixiy xotirani shakllantirish**
- **Estetik did va madaniy ongni rivojlantirish**

- **Tarixiy mavzularni real kontekstda anglash**

- **Muzey madaniyatini egallash**
- **Ijodiy va loyihaviy ishlarga tayyorlanish** (fotoreportaj, video, maketlar)

Tahlil shuni ko'rsatdiki, tarixiy-madaniy obyektlar nafaqat ma'naviy boylik, balki talabalarining **mustaqil o'rganish faoliyatini rivojlantiruvchi metodik vositadir**. Darslikdagi mavzularni tarixiy yodgorliklar orqali bog'lash talabalarining tarixiy tafakkurini chuqurlashtiradi. Misol uchun, Amir Temur haqidagi mavzuni Registon ansambli asosida o'rganish, Shohizinda orqali

Temuriylar davridagi me'moriy estetikani anglash imkonini beradi[7:90-95].

Talabalarni bu jarayonda **ekskursiyalar, foto-mashg'ulotlar, virtual tur va loyiha asosida o'qitish** metodlarini keng qo'llasa, natija yanada kuchli bo'ladi.

Biroq ayrim muammolar ham mavjud:

- Ba'zi o'qituvchilar tarixiy obyektlar haqida yetarli ma'lumotga ega emas.

- OTMlarda ekskursiya tashkil qilish uchun zarur resurslar (transport, ruxsatnoma) yo'q.

- Virtual vositalardan foydalanish bo'yicha talabalarni malakasi past.

Shuning uchun, bu yo'nalishda talabalarining **malakasini oshirish, metodik qo'llanma va dars ishlanmalari** ishlab chiqish zarur[6:25-29].

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION).

Tarixiy-madaniy obyektlarning ta'limdagi o'rni haqida olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ular nafaqat madaniy yoki estetik qadriyat sifatida, balki samarali didaktik vosita sifatida ham xizmat qilishi mumkin. Ushbu obyektlar o'zining tarixiy, ijtimoiy, arxitektura va madaniy kontekstlari bilan o'quvchilarda bilimni chuqurlashtirish, mustaqil fikrlash, tarixiy tafakkur va madaniy ongni shakllantirishga xizmat qiladi.

Birinchidan, tarixiy-madaniy obyektlar orqali dars jarayoni ko'rgazmali va emotsional tus oladi. O'quvchilarning diqqat-e'tibori faollashadi, mavzuni shunchaki eslab qolish emas, balki tushunish, his qilish orqali o'zlashtirishga erishiladi. Bu esa zamonaviy ta'limda talab etilayotgan kontekstual o'qitish, kompleks yondashuv va loyiha asosida o'qitish tamoyillariga mos keladi.

Ikkinchidan, tarixiy yodgorliklar va me'moriy ansambllar o'quvchilarda milliy g'urur va vatanparvarlik tuyg'usini shakllantiradi. Shu tariqa, bu obyektlar faqatgina bilim vositasi emas, balki tarbiyaviy manba sifatida ham faol ishlaydi. Ajdodlarimiz yaratgan me'moriy inshootlar, ular bilan bog'liq afsonalar, tarixiy shaxslar faoliyati haqidagi bilimlar yosh avlodda milliy identifikatsiyani mustahkamlashga xizmat qiladi.

Uchinchidan, tarixiy-madaniy obyektlardan foydalanish fanlararo integratsiyani rivojlantiradi. Tarix, adabiyot, geografiya, san'at, texnologiya kabi fanlar o'rtasidagi uzviylikni ta'minlaydi. Masalan, Shohizinda majmuasini o'rganish chog'ida tarixiy shaxslar faoliyati (tarix), bezak san'ati (san'at), joylashuvi (geografiya), to'qimachilik va hunarmandchilik (texnologiya) birgalikda ko'rib chiqilishi mumkin.

To'rtinchidan, tarixiy obyektlar asosida tashkil etilgan ekskursiyalar, muzey darslari, mini-loyihalar, maketlar tayyorlash, dramatik sahna ko'rinishlari kabi faoliyatlar o'quvchilarning ijodiy fikrlashi, jamoa bilan ishlashi, tanqidiy fikrlashi kabi ko'nikmalarini shakllantiradi. Bu esa zamonaviy kompetensiyaviy ta'lim modelining asosiy talablaridandir.

Biroq, tadqiqot davomida ba'zi kamchilik va cheklovlar ham aniqlangani sababli quyidagi amaliy tavsiyalar ilgari suriladi:

1. Tarixiy-madaniy obyektlar asosida tematik dars ishlanmalari va metodik qo'llanmalar ishlab chiqilishi zarur.

2. Har bir hududdagi mahalliy yodgorliklar asosida "Meros darslari", "Mahalliy tarix" loyihalari tashkil etilishi kerak.

3. O'qituvchilar uchun muzey pedagogikasi, ekskursiya metodikasi, virtual ta'lim vositalaridan foydalanish bo'yicha malaka oshirish kurslari yo'lga qo'yilishi lozim.

4. Ta'lim tashkilotlari muzeylar, madaniyat bo'limlari, tarixiy obidalarni muhofaza qilish idoralari bilan hamkorlik memorandumlari imzolashi kerak.

5. O'quvchilarning darsda o'z hududidagi tarixiy obyektlarni o'rganishga qaratilgan ijodiy loyiha va izlanish faoliyati tizimlashtirilishi kerak.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, tarixiy-madaniy obyektlar ta'limning mustahkam poydevori bo'lib xizmat qiladigan bebaho resursdir. Ularning to'g'ri didaktik yondashuvlar orqali o'quv jarayoniga integratsiya qilinishi, nafaqat o'quvchiga bilim berish, balki uni xalq tarixining ma'naviy davomchisi sifatida shakllantirishga xizmat qiladi.

**ADABIYOT VA MANBALAR RO'YXATI
(ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА /
REFERENCES):**

1. Saidov A. Madaniyat va ta'lim integratsiyasi. – Buxoro: Zarafshon, 2022. – B. 72–76.
2. UNESCO. World Heritage in Young Hands: Education Kit. – Paris: UNESCO Publishing, 2018. – Pp. 15–22.

3. Mamatqulova G. “Tarixiy obyektlar asosida darslar tashkil etish” // Pedagogika va amaliyot, 2021, №2. – B. 18–21.
4. Karimov M. Innovatsion ta’lim texnologiyalari. – Samarqand: Registon, 2020. – B. 53–57.
5. Jalolov N. “Vizual ta’limda tarixiy yodgorliklar roli” // Zamonaviy ta’lim muammolari, 2022, №4. – B. 40–43.
6. Qodirova D. “Tarixiy meros va ta’limdagi metodik yondashuvlar” // Tarix va jamiyat, 2023, №1. – B. 25–29.
7. Turaqulov O. O‘zbekiston tarixi va muzey pedagogikasi. – Toshkent: Fan, 2019. – B. 90–95.

СУВ РЕСУРСЛАРИДАН ОҚИЛОНА ФОЙДАЛАНИШ – ДАВР ТАЛАБИ

Бўриев Соатмўмин Донаевич

*Андижон давлат педагогика институти Ижтимоий фанлар**кафедраси доценти, тарих фанлари номзоди*<https://orcid.org/0009-0007-6614-4589>

UDK: 94(575.1).

Аннотация: Қишлоқ хўжалиги ривож, экинлардан мўл ҳосил олиш, бозорларимиз тўқинлиги, умуман мавжудотнинг тириклиги сувга боғлиқ. Марказий Осиёда сув азалдан азиз неъмат ва ҳаёт манбаи, минтақада истиқомат қилувчи барча халқлар учун ривожланиш ва фаровонлик асоси бўлиб келган. Шу боис асосий манбаларимиз ҳисобланган Амударё ва Сирдарё сув ресурсларини бошқариш тизимини такомиллаштириш, юртимиз аҳолисининг сувга бўлган эҳтиёжини қондириш давлат сиёсати даражасида қараб келинмоқда. Юртимизда мавжуд сув захираларидан унумли фойдаланишни ҳаётнинг ўзи долзарб вазифа қилиб олдимизга қўймоқда. Замон талабларига мос сув тежовчи технологиялардан фойдаланиш, сувни исроф қилишнинг олдини олиш мақсадида ариқларни бетонлаш, эскидан ишлаб келаётган канал ва зовурларни тозалаш ва янги сув қувурларини ишга тушириш каби долзарб вазифаларни кечиктирмасдан бажариб бориш ва сув таъминоти билан боғлиқ масалага янада оқилона ёндашув ҳозирги даврнинг асосий талабларидан бири бўлиб турибди.

Калит сўзлар: ер ости сувлари, кориз, сардоба, чигир, канализация, лоток, сув қувурлари, труба, бетон ариқлар, канал, сув коллекторлари, коллектор-дренаж тармоқлари, зовур, реконструкция, “яшил” энергия, “яшил” иқтисод.

Аннотация: Развитие сельского хозяйства, обилие урожая, изобилие наших рынков и выживание всего живого зависят от воды. В Центральной Азии вода всегда была ценным ресурсом и источником жизни, основой развития и благополучия всех народов, проживающих в регионе. Поэтому совершенствование системы

управления водными ресурсами рек Амударья и Сырдарья, являющихся нашими основными источниками, и удовлетворение потребностей населения нашей страны в воде рассматриваются на уровне государственной политики. Эффективное использование имеющихся водных ресурсов нашей страны – актуальная задача, поставленная самой жизнью. Применение водосберегающих технологий, отвечающих требованиям времени, реализация таких неотложных задач, как бетонирование траншей, очистка старых каналов и арыков, ввод в эксплуатацию новых водопроводов для предотвращения потерь воды, а также более рациональный подход к вопросу водоснабжения – вот основные требования современности.

Ключевые слова: подземные воды, выгребная яма, цистерна, дренаж, канализация, лоток, водопроводные трубы, труба, бетонные канавы, канал, водосборники, коллекторно-дренажные сети, канава, реконструкция, «зеленая» энергетика, «зеленая» экономика.

Abstract: The development of agriculture, the abundance of crops, the abundance of our markets, and the survival of all living things depend on water. In Central Asia, water has always been a precious resource and a source of life, the basis for development and well-being for all peoples living in the region. Therefore, improving the water resource management system of the Amu Darya and Syrdarya rivers, which are our main sources, and satisfying the water needs of our country's population are being considered at the level of state policy. The productive use of existing water resources in our country is an urgent task set by life itself. The use of water-saving technologies that meet the requirements of the

time, the implementation of urgent tasks such as concreting ditches, cleaning old canals and ditches, and commissioning new water pipelines in order to prevent water waste, and a more rational approach to the issue of water supply are among the main requirements of the present era.

Key words: underground water, cesspool, cistern, drain, sewer, tray, water pipes, pipe, concrete ditches, channel, water collectors, collector-drainage networks, ditch, reconstruction, "green" energy, "green" economy.

КИРИШ (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). Маълумки, асрлар давомида бутун ер юзида сув ҳаётнинг асоси ва инсоният ривожланишининг бош омилларидан бири сифатида қадрланган. Инсоният авлоди кўп асрлик суғорма деҳқончилик фаолияти давомида сув манбалари, булоқларнинг аҳволи, серсувлиги, экин далаларидан узоқлиги, сув оқимининг ҳажми ва тезлиги, табиий-иқлим шароитларидан келиб чиққан ҳолда суғориш тармоқлари ва улардаги гидротехник иншоотларни қуришган ва такомиллаштириб боришган.

Марказий Осиёда ҳам узоқ даврлар давомида Амударё, Сирдарё, Зарафшон, Қашқадарё ва Чирчиқ дарёлари сувлари ўзани бўйлаб сув оқими ва ресурсларини бошқаришни тартибга солиш ишлари мунтазам олиб борилган. Уста деҳқонларимиз табиий сув ресурсларидан оқилона фойдаланиш тизими ва услубларини ишлаб чиқишган. Уларни асрлар давомида муттасил сайқаллаб, такомиллаштириб борган. Хусусан Ўзбекистон ҳудудида энг қадим замонлардан бугунги кунгача инсон ҳаёти учун зарур бўлган барча соҳа сув билан боғлиқ ҳолда шаклланган ва ривожлангани маълум.

Аждодларимиз деҳқончиликни ариқлар қазиб, тўғонлар қуриш йўли билан олиб борган, чиғирлар, ерости сувларидан фойдаланиш учун коризлар, маҳаллий оқим сувларини йиғиш ва улардан фойдаланиш учун сардобалар қуриш йўллари билан сув

ресурслари тақсимотини таъминлаганлар. Содда ирригация иншоотларини қуриб, суғорма деҳқончиликини аста-секин ривожлантира бориб боғ-роғлар яратишган, полиз экинлари етиштирган.

Шу билан бир қаторда, боболаримиз қадимдан ерларни суғориш ва экологик соғлом муҳитни яратиш имкониятларидан фойдаланмаслик салбий оқибатларга олиб келишини ҳам жуда яхши англаб етишган. Бу эса, ўз навбатида, ақл-заковат соҳибларининг бундай ҳодисаларни чуқур ўрганишлари, уларга қарши курашиб, бартараф этиш усулларини қидириб топишга ҳаракат қилишига сабаб бўлган.

МУҲОКАМА (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). Ўзбекистон ирригацияси тарихида нафақат гидротехник иншоотлар алоҳида ўринни эгаллайди, балки сув манбаларидан оқилона фойдаланиш ҳамда йўқотишларни камайтириш чоратадбирлари ҳам ниҳоятда муҳим аҳамиятга эга эканлигига халқимизнинг олис ўтмишидан бугунги кунгача бўлган ҳаёти гувоҳ.

Хуллас, жуда қадим даврлардан бошлаб ҳозирги Ўзбекистон ҳудудида суғорма деҳқончилик ривожланди, сув иншоотларини қуриш, бу бебаҳо бойликни асраб-авайлаш ва тежаб сарфлаш анъаналари шаклланди. Асрлар давомида бугун ҳам ўз аҳамиятини йўқотмаган бой ва диққатга сазовор тажриба пайдо бўлди. [1] (Сув масаласи – барқарорлик масаласи. Халқ сўзи газетаси, 2024 й, 15 ноябрь, №235, 3-бет)

Лекин минг афсус ва надоматлар билан айтиш мумкинки, бугун дунёда экологик муаммолар, табиий офатлар кўпайиб бормоқда. Таҳлилчиларнинг фикрича, дунё аҳолисининг чорак қисми истиқомат қилувчи 25 давлатда ҳар йили сув танқислиги кузатилади. 2050 йилга бориб, жаҳонда сувга талаб 20-25 фоиз ошади. Бу инсониятнинг қарийб 60 фоизи йилига камида бир ой ўта оғир сув танқислигини бошдан кечиради, дегани. Яна жаҳон ялпи ички маҳсулотининг 31 фоизи (қиймати 70 триллион АҚШ доллари) жиддий сув танқислигига дуч келади. Сув

танқислигининг бундай даражада ортиши, табиийки одамлар ҳаёти, озиқ-овқат ва энергия хавфсизлигига жиддий таҳдид солади. Бинобарин, деҳқончилик, чорвачилик, электр энергияси ишлаб чиқариш, умуман турмуш тарзимизда сувнинг ўрнини ҳеч нарса боса олмайди. Шу боис, бугун оби-ҳаётни асраб-авайлаш ва бошқаришда самарадорликни ошириш долзарб масалага айланиб улгурди. Халқаро учрашувлар, форумлар ва анжуманларнинг асосий мавзуси шунга қаратилиб, қуруқ гапдан кўра, амалий ҳаракатга киришиш вақти аллақачон келгани ботма-бот айтиляпти.

Жорий йилнинг 20 июнь куни Сув хўжалиги вазирлиги ҳузуридаги Ирригация ва сув муаммолари илмий-тадқиқот институтининг 100 йиллигига бағишланган “Марказий Осиёнинг глобал экологик ва сув муаммоларини ҳал қилишда илмий ёндашувлар” мавзусида халқаро илмий-амалий конференция ўтказилди. Унда 20 дан зиёд мамлакатлардан 300 дан ортиқ номзодлар, элчилар, вазирлар, олимлар, халқаро ташкилотлар вакиллари қатнашиб, Ўзбекистон Президенти Шавкат Мирзиёевнинг иқлим ва сув муаммолари бўйича амалга ошираётган ишларини юксак баҳолашди. [2] (Иқлим ва сув муаммоси унга панжа ортидан қарашга ҳаққимиз йўқ. Халқ сўзи газетаси, 2025 й, 25 июнь, №128, 4-бет).

Олинган маълумотларга қараганда, мамлакатимизда 183,7 минг километрдан ортиқ суғориш тармоғи мавжуд бўлиб, уларнинг 13,1 фоизи бетон қопламали, 76,3 фоизи тупроқ ўзанли ва 10,6 фоизи бетон ариқлар (лоток)дан иборат. Ҳозирги кунда кластер ва фермер хўжаликлари тасарруфидаги суғориш тизимлари асосий воситаларининг 25-30 фоизи таъмирталаб ҳолга келган. Ўртача гидрологик сув таъминотида суғориш тизимининг бир гектар майдондаги экинга сув етказиб беришнинг ишончлилиқ ҳолати 30-35 фоизни ташкил этади.

Юртимиздаги аксарият сув хўжалиги инфратузилмаси объектларининг хизмат кўрсатиш муддати 40-45 йилдан ортиб,

техник ҳолати ёмонлашмоқда. Хусусан, ирригация тизими каналларининг тупроқ ўзанли қисми сувнинг филтрацияси ҳисобига емирилиш хавфи остида. Бундан ташқари, 77 фоиз канал таъмирлаш ва тиклашга, 20 фоизи эса реконструкция муҳтож. [3] (Композит материалли суғориш ариқлари сув тақчиллиги ортиб бораётган ҳозирги шароитда жуда зарур маҳсулот. Янги Ўзбекистон газетаси, 2025 й, 14 март, №52, 4-бет)

Олий Мажлис Сенатининг Аграр ва сув хўжалиги масалалари қўмитаси томонидан Сув хўжалиги вазирлиги билан ҳамкорликда “Сув хўжалигида инновацион технологияларни жорий қилиш: муаммолар ва ечимлар” мавзусида ўтказилган конференцияда мамлакатимизда кейинги йилларда сув хўжалиги соҳасида илмий тадқиқот фаолияти самарадорлигини ошириш, инновацион технологиялар ва илм-фан ютуқларини қўллаш, аграр соҳага инновацияларни жорий қилиш билан боғлиқ хизматларни ташкил этиш борасида муайян чора-тадбирлар амалга ошаётганлиги уқтириб ўтилди. Ҳисоб-китобларга кўра, 2050 йилгача Сирдарё ҳавзасида сув ресурси 5 фоизга, Амударё ҳавзасида 15 фоизгача камайиши эҳтимоли бор. Ўзбекистонда 2015 йилгача бўлган даврда сув умумий тақчиллиги 3 миллиард метр кубдан ортиқни ташкил қилган бўлса, 2030 йилга бориб 15 миллиард метр куб бўлиши кутилмоқда.

Минтақада сўнги йилларда глобал иқлим ўзгариши, қор ва ёмғирлар кам ёғиши, музликлар ва йирик дарёлар ҳавзаларида, кичик дарё ва сойларда сув миқдорининг камайиб бораётганлиги, шунингдек трансчегаравий сувдан фойдаланиш муаммолари туфайли республикада ўртача йиллик 51-53 миллиард метр куб сув ресурсларидан фойдаланилмоқда. Кўрсаткич ажратилган сув лимитига нисбатан 20 фоизга қисқарган. Тадбир иштирокчилари Президентимизнинг сув хўжалигини ривожлантиришга оид Фармон ва қарорларида белгиланган вазифалар ижросини таъкидлаш мақсадида ўтган йилда соҳада бир қатор ишлар рўёбга

чиқарилганлиги ва бу борада муайян натижалар қўлга киритилганлигини алоҳида таъкидладилар. Масалан, ирригация йўналишида 393 километр канал, 58 километр лоток, 19 та гидротехника иншооти, 4,3 метр куб секунд насос станцияси, 4,6 босимли кувурлар, 2 та кўприк ва 60 та суғориш қудуғи қурилган ва реконструкция қилинган, 9,1 километр қирғоқда ҳимоя ишлари бажарилганлигини маълумот учун келтирдилар.

Бундан ташқари мелиорация йўналишида 230 километр очик, 156 километр ёпиқ коллектор-дренаж тармоқлари, 6 та вертикал дренаж қудуғи, 59 та гидротехник иншоот, 58 та кузатув қудуғини қуриш ва реконструкция қилиш ишлари бажарилганлиги ва бу ишларни амалга ошириш натижасида ирригация ва мелиорация объектларининг техник ҳолати яхшиланиб, лойиҳалар ҳудудидаги 208 минг гектар майдонларнинг сув таъминоти ва 106 минг гектар суғориладиган ер майдонларининг мелиоратив ҳолати яхшиланганлигига замин яратилганини алоҳида тилга олиб ўтишдилар. [4] (Сув хўжалигида инновацион технологиялар етарлича жорий қилиняптими?. Халқ сўзи газетаси, 2024 й, 16 март, №56, 2-бет)

2024 йилнинг 18-24 май кунлари Индонезиянинг Бали оролида “Сув - умумий фаровонлик учун” шиори остида 10-жаҳон сув форуми ўтказилди. Бу форумни 1997 йили Жаҳон сув кенгаши таъсис этган. Шундан буён ҳар уч йилда бир марта кенгашга аъзо мамлакатлардан бирида мазкур форум ўтказиб келинмоқда. Форум давлат ва ҳукумат раҳбарлари, нодавлат нотижорат ташкилотлар, илмий доиралар, давлат идоралари, халқаро ташкилот ва фуқаролик жамияти вакиллари сув ресурсларини бошқаришга бағишланган тадбирларда иштирок этиш учун бирлаштирган энг йирик платформадир. Ушбу нуфузли анжуманда Ўзбекистон делегацияси ҳам фаол иштирок этади. Мазкур форумда сўзга чиққанлар томонидан келтирилган факт ва рақамлар, билдирилган фикр ва мулоҳазалар форум иштирокчилари диққат

этиборини тортгани билан аҳамиятли ҳисобланади.

Хусусан, Жаҳон сув кенгаши президенти Лоик Фашонинг сув ресурсларини ҳимоя қилиш учун кураш бошланганини эълон қилиши ва ушбу гап бир неча бор қайд этилгани диққатга сазовордир. Чунки бугун шундай қилинмаса, эртага кеч бўлиши мумкин. Бунинг учун сув ҳимоячилари олдида 7 та мажбурият қўйилди. Дунё бўйлаб сув хавфсизлиги сиёсатини барча даражада илгари суриш, сувдан фойдаланиш ҳуқуқини конституцияларда мустаҳкамлаб қўйиш, табиатга асосланган ечимларни кенгроқ қабул қилиш, сув дипломатиясини кучайтириш шулар жумласидандир.

Шуни алоҳида қайд этиш зарурки, Ўзбекистонда сув ресурсларидан оқилона фойдаланиш, инновацион ечимлар ва тежамкор технологияларни кенг қўллаш, каналларни бетонлаштиришга катта этибор қаратилаётгани, шунингдек минтақада трансчегаравий сув ресурсларидан фойдаланиш ҳамда уларни бошқаришдаги ўзаро ҳамкорлик конструктив руҳда амалга оширилаётгани қайд этилди. Бу борада юритилаётган сиёсат нафақат миллий, балки Марказий Осий минтақасидаги барча давлат манфаатларини ҳисобга олган ҳолда сув ресурсларини барқарор бошқаришга эришишга ёрдам берадиган мувозанатли ва барқарор ечимларни топишга, дўстона, яхши кўшничилик муносабатларини сақлашга қаратилгани билан ҳам диққатга сазовордир.

Сув ресурсларини бошқариш халқаро институти директори Марк Смитнинг қайд этишича, Ўзбекистон сув хўжалигида жуда катта ижобий ўзгаришлар кузатилмоқда. Чунки ушбу йўналишда бажарилаётган ишлар қаторида 2024 йил “Каналларни бетонлаш бўйича зарбдор йили”, деб эълон қилинган, шу мақсадда жорий йилда 5 минг километр суғориш тармоғини бетонлаш вазифаси қўйилгани, мамлакатимизда сув тежовчи технологиялар билан қамраб олинган майдон 1,3 миллион гектарга

етказилганидан бугун кўпчиликнинг, хусусан, халқаро ташкилотлар вакилларининг ҳам хабари бор, албатта. [5] (Сув дипломатияси – у конституциявий тус олиши мумкин. Янги Ўзбекистон газетаси, 2024 й, 27 май, №102, 4-бет)

Шуни алоҳида қайд этиш керакки, 2024 йилнинг 7 ноябрь куни Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев раислигида қишлоқ хўжалигида сув ва энергия манбаларидан оқилона фойдаланиш юзасидан ўтказилган видеоселектор йиғилишида мамлакатимизда 550 километр канал ва ариқлар бетонлангани эвазига 200 минг гектар ерда сув таъминоти яхшиланиб, 450 миллион куб метр сув иқтисод қилингани қайд этилди. [6] (Сув хўжалиги соҳасида кескин ўзгариш қилишнинг бирдан-бир йўли – рақамлаштириш. Янги Ўзбекистон газетаси, 2024 й, 8 ноябрь, № 227, 1-бет)

Бундан ташқари жойларда ҳали бетонлаш зарур бўлган 18 минг километр магистрал ва 94 минг километр ички каналлар мавжудлиги тилга олиниб ўтилди. Бундан ташқари 2024 йилнинг 20 ноябрида Президентимиз Олий Мажлис Қонунчилик палатасининг йиғилишида яна бир бор сув тежамкорлигига тўхталгани ушбу масала Ўзбекистонда доимий назоратда ва эътиборда эканини англатади. Давлатимиз раҳбари келгуси йилда сув тежайдиган технологиялар билан қамраб олинган ер майдонини 2 карра кенгайтириш, бунинг учун 5 триллион сўм, каналларни бетонлаш учун 800 миллиард сўм йўналтирилишини айтди. [7] (Ўзгараётган шароит зиммамизга катта вазифа ва масъулият юкламоқда. Янги Ўзбекистон газетаси, 2024 й, 12 декабрь, №252, 3-бет)

“Ўзбекистон-2030” стратегиясида 2024 йилда каналларни реконструкция қилиш доирасида камида 1,5 минг километр узунликдаги йирик каналлар ни бетонлаштириш ишларини якунлаш белгиланган. Бу каби ишлар ҳаётий зарурат ва чора. Чунки сўнги йилларда юртимизда сув тақчиллиги тез-тез сезилмоқда. 2000 йилга қадар ҳар 6-8 йилда сув тақчиллиги кузатилган бўлса, охириги вақтларда бу

ҳолат ҳар 3-4 йилга тўғри келяпти. Сув ресурслари тежалмаса, оқар сув оқилона бошқарилмаса, яна 10-15 йилдан кейин бизда сув тақчиллиги янада ўткир муаммога айланади. Бундан, айниқса қишлоқ хўжалиги жиддий зарар кўради. Чунки юртимизда сув энг кўп талаб қилинадиган соҳа шу. Жами ишлатиладиган сувнинг 90 фоизи қишлоқ хўжалиги ҳиссасига тўғри келади.

Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев раҳбарлигида 2023 йилнинг 29 ноябрь куни бўлиб ўтган йиғилишда ҳам бу борада фавқулудда иш услубига ўтилиши таъкидланиб, бунда канал ва ариқларни бетонлаш биринчи муҳим вазифа этиб белгиланган эди. Ҳисоб-китобларга кўра, бетонланмаган ирригация тармоқларида йилига ўртача 14 миллиард куб метр ёки 36 фоиз сув ҳеч қандай иқтисодий самарасиз исроф бўлади. Умуман сув йўқотишлари оқибатида иқтисодиётимизда йилига 5 миллиард доллар даромад бой берилмапти. Шу боис, 2025 йилдан бошлаб камида 2 минг километрдан каналларни бетонлашга ўтилади.

Ўзбекистон Республикаси Сув хўжалиги вазирлиги томонидан берилган маълумотларга кўра, 2024 йилда қилинган ишлар туфайли бетонланган каналларда сувнинг фильтрацияси кескин камайиб, бошқариш тизими такомиллашди, 300 минг гектар майдоннинг сув таъминоти яхшиланди ҳамда каналларда йилига ўртача 450 миллион куб метр сув йўқотилиши камайишига эришилди.

Шуни алоҳида таъкидлаш лозимки, бетонланган каналларда сув оқимининг тезлашиши кичик ГЭСлар қуриб, ўз вақтида электр энергияси ишлаб чиқариш имконини беради. Умуман мамлакатимизда 2 мингта микро ГЭС қуриб, йилига қўшимча 600 миллион киловатт электр олиш мумкин. Бу эса ўз вақтида “яшил” иқтисодиётнинг муҳим бўғини “яшил” энергиядан фойдаланиб, сифатли ва табиий маҳсулотлар етиштиришда айна муддао бўлади. Бундан ташқари, ушбу энергияни аҳолига сотиш имконияти ҳам пайдо

бўлади. [8] (Сув сарфи рақамлашмас экан, муаммо кўпайиб бораверади. Янги Ўзбекистон газетаси, 2024 й, 15 ноябрь, №232, 4-бет)

Қувонарлиси шундаки, кейинги йилларда мамлакатмизда сув хўжалигини ислоҳ, сувдан оқилона фойдаланиш, бу борада тежамкор технологияларни жорий этиш фаол қўлланмоқда. Хусусан, 2024-2026 йилларда 2998 километр канал, 627 километр лоток тармоқлари, умумий сув чиқариш қобилияти 86,7 куб метр секунд бўлган насос станциялар, 206 та суғориш қудуғи, 286,7 миллион куб метр ҳажмдаги сув омборлари ҳамда бошқа сув хўжалиги объектлари қурилиб, реконструкция қилиниши белгиланган. Натижада ирригация тармоқларининг техник ҳолати яхшиланиб, каналлар ва суғориш тармоқларининг фойдали иш коэффициенти 0,64 дан 0,69 гача етказилади, 795,9 минг гектар суғориладиган майдоннинг сув таъминоти яхшиланади.

Шуни алоҳида қайд қилиш керакки, Бугунги кунга келиб, Ўзбекистон сув тежовчи технологияларни жорий қилиш бўйича марказий Осиёда биринчи, МДХ давлатлари орасида иккинчи, Осиёда тўртинчи ва дунёда 13-ўринда эътироф этилмоқда. Бу тизим фаолиятини янада ислоҳ қилишга қаратилган чоратадбирларнинг самарали ижроси натижаси

дейиш мумкин. [9] (Тежалган сув – боқий ҳаёт гарови. Янги Ўзбекистон газетаси, 2025 й, 18 январь, №13, 1-бет)

ХУЛОСА (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Хулоса ўрнида айтиш мумкинки, дунёда, хусусан, минтақамизда сув муаммоси тобора кескинлашиб бораётган ҳозирги бир шароитда ўйланмай ташланган ҳар бир қадам жуда қимматга тушиши мумкинлиги кўриниб турган ҳақиқатдир. Буни ҳисобга олмаслик, вазиятга ҳолисона баҳо бермаслик миллионлаб одамларнинг тақдирига беписанд қараш демакдир.

Зеро, сув - тириклик рамзи, бебаҳо неъмат ва беназир тухфа ҳисобланади. Сувнинг обиҳаётлиги, уни исроф қилмаслик ҳақида ота-боболаримиздан бизгача кўплаб ўғитлар етиб келган. Ўйлаб кўрилса, аجدодларимиз даврида сув муаммоси ҳозиргидек глобал даражада муҳокама қилинмаган бўлса ҳам уларнинг фикрлари ҳозирги кунда ҳам долзарблигини йўқотмаган. “Бирники - мингга, мингники - туманга”, дейди доно халқимиз. Шундай экан сувни асраб-авайлашни ҳар биримиз ўзимиздан бошлайлик. Обиҳаёт масаласи нафақат миллий ва минтақавий, шу билан бир қаторда глобал муаммога айланиб бораётганини доим ёдда тутмоғимиз керак.

АДАБИЁТ ВА МАНБАЛАР РЎЙХАТИ (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES):

1. Сув масаласи – барқарорлик масаласи. “Халқ сўзи” газетаси, 2024 йил 15 ноябрь, №235-сон, 3-бет.
2. Иқлим ва сув муаммоси: унга панжа ортидан қарашга ҳаққимиз йўқ. “Халқ сўзи” газетаси, 2025 йил 25 июнь, №128-сон, 4-бет.
3. Композит материалли суғориш ариқлари сув тақчиллиги ортиб бораётган ҳозирги шароитда жуда зарур маҳсулот. “Янги Ўзбекистон” газетаси, 2025 йил 14 март, №52-сон, 4-бет.
4. Сув хўжалигида инновацион технологиялар етарлича жорий қилиняптими? “Халқ сўзи” газетаси, 2024 йил 16 март, №56-сон, 2-бет.
5. Сув дипломатияси – у конституциявий тус олиши мумкин. “Янги Ўзбекистон” газетаси, 2024 йил 27 май, №102-сон, 4-бет.
6. Сув хўжалиги соҳасида кескин ўзгариш қилишнинг бирдан-бир йўли – рақамлаштириш. “Янги Ўзбекистон” газетаси, 2024 йил 8 ноябрь, №227-сон, 1-бет.

7. Ўзгараётган шароит зиммамизга катта вазифа ва масъулият юкламоқда. “Янги Ўзбекистон” газетаси, 2024 йил 12 декабрь, №252-сон, 3-бет.
8. Сув сарфи рақамлашмас экан, муаммо кўпайиб бораверади. “Янги Ўзбекистон” газетаси, 2024 йил 15 ноябрь, №232-сон, 4-бет.
9. Тежалган сув – боқий ҳаёт гарови. “Янги Ўзбекистон” газетаси, 2025 йил 18 январь, №13-сон, 1-бет.

СУРХОНДАРЁ ВИЛОЯТИ ЕР УСТИ СУВ РЕСУРСЛАРИ ВА УЛАРДАН САМАРАЛИ ФОЙДАЛАНИШ (ТЎПАЛАНГ СУВ ОМБОРИ МИСОЛИДА)

Алланов Қилич Аллакулович

*Термиз давлат университети География кафедраси доценти,
география фанлари номзоди.*

e-mail: allanov52@mail.ru

<https://orcid.org/0000-0002-9394-8743>

Чориев Абдиқайим Қодирович

Термиз давлат университети География кафедраси катта ўқитувчиси.

<https://orcid.org/0009-0005-4860-0106>

УДК 330.15

Аннотация: Ушбу мақолада Ўзбекистон Республикасининг энг жанубида жойлашган Сурхондарё вилояти иқтисодий-ижтимоий тараққиётида сув ресурсларининг тутган ўрни ёритилиб, асосий эътибор вилоятнинг шимоли-шарқий ҳудудида барпо қилинган Тўпаланг сув омбори ва унинг вилоят ишлаб чиқариш кучларини жойлаштириш ва ривожлантиришдаги, электроэнергетика соҳаларидаги, ҳамда тўғоннинг хавфсизлиги борасида амалга оширилган ишлар, шунингдек, аҳолини тоза ичимлик суви билан таъминлашдаги аҳамиятлари илмий нуқтаи назардан таърифланган.

Калит сўзлар. Жанубий ҳудуд, сув ресурслари, ишлаб чиқариш кучлари, гидротехник иншоотлар, чучук сув, иқтисодий-ижтимоий тараққиёт, рекреация, электроэнергетика, Тўпаланг сув омбори, қишлоқ хўжалиги, аҳоли манзилгоҳлари.

Аннотация: В данной статье освещена роль водных ресурсов в экономическом и социальном развитии Сурхандарьинской области, расположенной в засушливом климатическом регионе, а главное внимание уделено построенному в северо-восточном районе области Тупалангскому водохранилищу. Изложены точки зрения о размещении и развитии производительных сил региона, проводимых работах в области электроэнергетики и безопасности плотин, а также их значение в обеспечении населения чистой питьевой водой определено с научной точки зрения.

Ключевые слова: Южный регион, водные ресурсы, производительные силы, гидротехнические сооружения, пресная вода, экономическое и социальное развитие, рекреация, электроэнергия, Тупалангское водохранилище, сельское хозяйство, населённые пункты.

Abstract: This article highlights the role of water resources in the economic and social development of the Surkhondaryo region, located in an arid climate region, and focuses on the Tupalang reservoir built in the north-eastern region of the region. It presents views on the placement and development of productive forces in the region, ongoing work in the field of electric power, dam safety, and its importance in providing the population with clean drinking water is determined from a scientific point of view.

Key words. Southern region, water resources, productive forces, hydraulic structures, fresh water, economic and social development, recreation, electricity, Tupalang Reservoir, agriculture, settlements.

КИРИШ (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). XXI асрга келиб сув ресурсларининг кескин камайиши сабабли Ўзбекистонда сув ресурсларидан унумли фойдаланиш мамлакат иқтисодий-ижтимоий тараққиётида муҳим роль ўйнайди. Айниқса, аҳолининг озиқ-овқат маҳсулотларида, қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари етиштириш ва уни қайта ишловчи саноатнинг хом ашёга бўлган эҳтиёжини қондириш, ишлаб чиқарувчи

кучларни ҳудудий жиҳатдан тўғри жойлаштириш ва ривожлантириш бевосита сув ресурслари билан боғлиқдир. Бу айниқса арид иқлими минтақа бўлиб ҳисобланган Сурхондарё вилоятида яққол кўзга ташланади. Сурхондарё вилоятининг мамлакат бошқа минтақаларидан фарқ қиладиган табиий ва иқтисодий-географик шароити ва омиллари, зироатчилик учун ўта зарур бўлган агроиқлим ресурсларининг экстремал характери, хўжалик тармоқлари, айниқса агросаноат мажмуини ривожлантириш имкониятларининг ўзига хос жиҳатлари сув ресурсларидан унумли фойдаланишни тақозо қилади [8]. Мавжуд сув ресурсларидан унумли фойдаланиш мақсадида ҳар хил кўринишдаги гидротехник иншоотларни (сув омборлари, ирригация-мелиорация иншоотлари ва бошқалар) бунёд этишни долзарб масала қилиб қўйган. Шу сабабли ҳам вилоятнинг шимоли-шарқда Тўпаланг сув омбори барпо қилиниб, ушбу муаммони ижобий ҳал қилишда бу гидротехник иншоот муҳим аҳамиятга эга.

МУҲОКАМА (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). Сурхондарё вилояти экстремал иқлимий шароитга эга бўлиб, Ўзбекистоннинг энг жанубий қисмида жойлашганлиги туфайли бу ҳудуднинг ер сиртига қуёш энергиясининг нисбатан кўп тушиши, ёгин-сочининг эса кам тушиши қишлоқ хўжалигининг етакчи соҳаси бўлиб ҳисобланган деҳқончиликни тамоман суғориб амалга оширишни тақозо қилади.

Вилоят гидрография тармоқларига камбағал. Мавжуд дарёларнинг эса камсувлиги ҳамда дарёлар оқимидаги кескин мавсумий ўзгаришлар, шунингдек, ҳудуднинг учдан икки қисмини тоғли ҳудудлар эгаллагани учун баҳор ойларида селнинг кўп бўлиши табиий равишда минтақанинг йирик дарё (ва сой) лари сувидан йил давомида унумли фойдаланиш мақсадида жиловлаш (тартибга солиш) ни кун тартибига қўйган. Айниқса, чўл ва тоғ ён бағирларининг ўзлаштирилиши аввало муҳандислик ишларини ривожлантиришни, яъни сув омборлари ва

ирригация тармоқларини яна қўшимча барпо қилишни тақозо қилган [4].

Жанубий Сурхон сув омбори вилоятнинг марказий, жанубий ва жануби-ғарбий ҳудудларининг сувга бўлган эҳтиёжини қондиради, холос. Вилоятнинг шимолий гуруҳ туманларида сувга эҳтиёж яхши қондирилмасдан қолмоқда эди. Айниқса, шимолий туманларда тоғ ёнбағирларининг ўзлаштирилиши, суғориладиган деҳқончилик доирасининг кенгайтирилиши табиий равишда бу ҳудудда мавжуд бўлган сув ресурсларини тартибга солишни тақозо қилар эди. Шу объектив сабабларга кўра вилоятда катталиги жиҳатидан иккинчи бўлган Тўпаланг сув омбори қурилиши 1982-йилда бошланиб, 1986-йилда ишга туширилди ва унинг лойиҳа қуввати 500 миллион куб метр, фойдали сув сифими эса 450 миллион куб метрни ташкил қилади [5]. Тўпаланг сув омбори Ўзбекистоннинг тоғли ҳудудларида қад кўтарган йирик сув омборларидан бири. У Сурхондарё вилояти ҳудудининг шимол, шимол-ғарб томонидан кесиб ўтган Ҳисор тоғларининг шарқий ён бағрида Тўпаланг дарёси ўзанида бунёд қилинган. Унинг денгиз сатҳидан баландлиги 880 метр, сув омбори тўғонининг баландлиги 165 метр, яна 22 метр ер ости пойдевори қилинган, жами бўлиб 187 метрни ташкил қилади. Бу гидротехник иншоот стратегик аҳамиятга эга [4].

Тўпаланг сув омбори ишга тушиши билан вилоят сув хўжалигида, унинг суғориладиган зонасида катта ўзгаришлар юз берди. Жумладан, вилоятнинг шимолий қисмида жойлашган Дашнобод ва Газарак массивида 9,6 минг гектар ер, Шеробод, Бандихон, Қизирик, Олтинсой туманларида 40 минг гектар ер сув билан таъминланди. Сариосиё, Узун, Денов туманларида 60 минг гектар ернинг сув таъминоти яхшиланди, шунингдек, сув омбори таъсирида бўлган хўжаликларда боғ ва узумзорлар географияси кенгайди. Шунингдек, вилоятнинг шимолий ва марказий қисмида кўпгина ирригация-мелиорация иншоотлари барпо қилинди, мавжуд каналлар, яъни Ҳазарбоғ,

Оққапчиғай, Хайробод, Тўпаланг, Қоратоғ, Чилмироб, Қораариқ, Айборак, Тангимуш, Ҳасанхон ва шу каби бошқа айрим каналлар қайта таъмирланди, уларнинг сув ўтказиш қуввати оширилди.

Вилоятда учта: Тўпаланг-Қоратоғ, Сурхон-Шеробод, Аму-Занг ирригация тизимлари мавжуд. Ҳар учала ирригация тизимини бир-бирига боғлайдиган манба водийнинг қоқ марказида жойлашган Жанубий Сурхон сув омбори ҳисобланади. Жанубий Сурхон сув омбори ва у орқали бутун вилоят ирригация тизимларини ҳар томонлама қўллаб-қувватлай оладиган бош манба эса — бу Тўпаланг сув омборидир, яъни:

Жанубий Сурхон сув омбори бундан 60 йил илгари қурилган. Фойдали сув сиғими лойқа ўтириши ҳисобига йил сайин камайиб бормоқда, шу сабабли қўшимча сувни фақат Тўпаланг сув омборидан олиш имкониятига эга;

Жанубий Сурхон сув омбори доимо қўшимча сувни Амударёдан катта сарф-харажатлар ҳисобига Аму-Занг ирригация тизими орқали олар эди. Тўпаланг сув омборининг ишга тушиши билан Аму-Занг сарфлаётган сарф-харажат камайди, Аму-Занг канали сувини ўз ҳудуди учун ишлатади;

Сурхон-Шеробод ирригация тизими Жанубий Сурхон сув омборидан насослар ёрдамида олаётган сувини энди Тўпаланг сув омборидан табиий йўл билан олиш имконияти яратилди;

Тўпаланг дарёсининг сувидан оқиб келаётган лойқа чўкмалар энди Тўпаланг сув омборида қолиб кетиши натижасида сув анча тиниб келаётганлиги сабабли Жанубий Сурхон сув омборининг умри узаяди, ҳамда энг арзон йўл билан қўллаб-қувватлай оладиган сув манбаси эса Тўпаланг сув омбори бўлиб ҳисобланади.

Тўпаланг сув омборининг аҳамияти яна шундаки, Сурхондарё ирригация тизимида насосларнинг роли ҳозирча жуда катта бўлиб қолмоқда. Бу эса электр энергияси сарфи туфайли қишлоқ хўжалиги экинлари таннархини ошириб юбориб, даромадга оқибатда соф фойдага салбий таъсир

қилади. Энг йирик насос станциялари водийнинг жанубини, яъни 244,6 минг гектар майдонини сув билан таъминлайди. Вилоятнинг ўзлаштирилиб фойдаланилаётган суғориладиган майдонлари эса жами бўлиб 325,6 минг гектарни ташкил этади. Демак, экин майдонларига сарфланаётган сувнинг ҳар қатраси "олмосга" баробар тураётганлиги аён бўлади. Тўпаланг сув омборида лойиҳадаги 500 миллион куб метр сув йиғилгач, Ҳазорбоғ каналидаги сув ҳажмини қўпайтириш орқали қўшимча секундига 40-50 куб метр ҳажмдаги сув Бандихон массивига олиб борилиб, Шеробод каналининг устидан қуйилади. Шу тариқа Шеробод-машина магистрал каналига ўзи оқиб бориладиган сув билан мадад берилади. Ана шунда бу канал орқали бир кунда 4 миллион 320 минг куб метр сув насоссиз ўзи оқиб Шеробод магистрал каналига бориб қуйилади. Бу рақам ўн кунда 400 миллион куб метрни ташкил қилади, ёки бу миқдор катта бир сув омборида йиғиладиган сув ҳажмига баробар келади дегани. Бу эса "Шеробод" насос станциясида бир неча миллиард сўмлик электр энергиясининг тежалишига олиб келади. Тўпаланг сув омборининг суви насосларсиз ўзи оқиб 200 километр узокликдаги Музробод тумани экинзорларига ҳам етиб боради.

Тўпаланг сув омборининг вилоят ижтимоий-иқтисодий тараққиётида тутган ўрни кўп қирралidir. Уни барпо қилишдан мақсад нафақат қишлоқ хўжалигида, балки энг арзон ва экологик тоза ҳисобланган гидроэнергетика ишлаб чиқариш ҳам режалаштирилган ва ҳозирги пайтда 2 та агрегат фаолият юритиб турибди. Ўзбекистон Республикаси Президентининг "2017-2021 йилларда гидроэнергетикани янада ривожлантириш чора-тадбирлари дастури" тўғрисидаги қарорига асосан Тўпаланг ГЭСнинг биринчи ва иккинчи блоклари ишга туширилди ва ГЭСнинг биринчи ва иккинчи блоклари жами 145-175 мегаватт электр энергия ишлаб чиқариш қувватига эга [2].

Бугунги кунда Сурхондарё вилояти

аҳолисининг 46 фоизи марказлашган тоза ичимлик суви билан таъминланмаган ва 218 та сув иншооти ва 3 минг километрдан зиёд сув таъминоти тармоқлари таъмирга мухтож, шунингдек, вилоятнинг жанубий туманлари ва Термиз шаҳрида сув минерализацияси миқдори анча ошган. Шу боис, Республика Президенти Шавкат Мирзиёев 2021-йил 2-июнь куни Сурхондарё вилоятига ташрифи чоғида Тўпаланг сув омборидан ичимлик суви тармоғи тортиш бўйича кўрсатма берган эди. Шунга мувофиқ бу борада лойиҳа ишлаб чиқилди. Лойиҳага кўра Тўпаланг сув омборининг қуйи қисмида босимни сўндириш, сувни тозалаш ва тарқатиш иншоотлари қурилиши режалаштирилди. У ердан туманлардаги сув тақсимлаш узелларигача жами 361 километр қувур тортилиши ва бу тизим самарасида Сариосиё, Денов, Шўрчи, Қумқўрғон, Жарқўрғон, Бандихон, Қизирик, Шеробод, Ангор, Музрабод, Термиз туманлари ва Термиз шаҳридаги жами 1,7 миллион аҳолининг экологик тоза ичимлик сув таъминоти яхшиланади. Ушбу лойиҳанинг умумий қиймати 138 миллион АҚШ долларини ташкил қилади [3].

Тўпаланг сув омбори хавфсизлиги қай даражада таъминланганлигига тўхталадиган бўлсак, сув омбори тўғонининг баландлиги 165 метр, яна 22 метр ер ости пойдевори қилинган, иккаласи биргаликда 187 метрни ташкил қилади. Айрим йиллари сув омборига кўп сув келиш ҳолатлари ҳам кузатилади. Тўғонни қуришда бу каби ҳолатлар ҳам ҳисобга олинган ва тўғон остидан сув ўтказгичлар ўтказилган, канал ҳам мавжуд. Ортиқча сув келган тақдирда сув улар орқали чиқариб юборилади. Франциядан таклиф қилинган соҳа мутахассислари тўғоннинг сифати бўйича текширишлар олиб бориб, тўғоннинг мустаҳкамлигига ижобий баҳо беришган. Ҳозирги пайтда тўғон бошқаруви автоматлаштирилган бўлиб, хориждан келтирилган назорат, ўлчов, кузатиш мосламалари тўғон билан боғлиқ жараённи мунтазам назорат қилиб боради. Бундан ташқари, тўғон ўртасига ҳам маҳсус

датчиклар ўрнатилган ва улар барча маълумотларни қайд қилиб боради.

Ҳозирда тўғонга яқин жойлашган 10 та маҳаллага биттадан маълумотларни етказиб турувчи овоз кучайтиргич аппаратлари ўрнатилган. Мавжуд сейсмостанция зилзиланинг тўғонга таъсирини кузатиб боради. Шунингдек, тўғон пастдаги ҳудудларни сел ва тошқин хавфидан асраш вазифасини ҳам бажариши кўзда тутилган.

ХУЛОСА (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Ўзбекистоннинг жанубий минтақаси ҳисобланган ва иқлимий жиҳатдан ўта қурғоқчил бўлган Сурхондарё вилоятида ишлаб чиқариш кучларини жойлаштириш ва ривожлантириш фақат сув ресурслари ҳолати ва ундан унумли фойдаланиш даражасига боғлиқдир. Вилоятнинг шимолий қисмида катталиги жиҳатидан Ўзбекистонда биринчи ўнликка кирадиган Тўпаланг сув омборининг қурилиши ва ишга туширилиши вилоят иқтисодий ва ижтимоий тараққиётида катта ўзгаришларнинг юз беришига олиб келди, жумладан:

- Тўпаланг сув омборининг қурилиши ва ишга туширилиши Шеробод чўлларининг тўла сув таъминотининг яхшиланишига, вилоятнинг шимолий, марказий ва жанубий туманларидаги хўжаликларнинг сув балансининг яхшиланишига олиб келди;

- Қишлоқ хўжалигининг тармоқ тузилиши ўзгарди, ҳамда маҳсулот ишлаб чиқариш географияси кенгайди, ҳажми ошди;

- Сув омборининг ишга туширилиши билан бир қанча янги каналлар қурилди, эскиларининг сув ўтказиш қуввати оширилди;

- Сув омбори тўғонида электростанция қурилиб ишга туширилиши билан вилоятнинг шимолий туманларининг электроэнергияга бўлган эҳтиёжи тўла қондирилди;

- Сув омбори баланд тоғли ҳудудда жойлашганлиги туфайли унинг атрофида

кўплаб рекреацион объектлар барпо этиш имкониятлари пайдо бўлди;

- Тўпаланг сув омбори қурилиши билан суғориладиган ерларнинг сув таъминоти яхшиланиб, тоғ ёнбағирларида кўплаб янги ерлар ўзлаштирилиши натижасида янги-янги аҳоли манзилгоҳлари пайдо бўлди;

- Ушбу сув омбори ишга тушиши билан вилоят агросаноат мажмуи ривожланиб, унинг янги-янги формалари вужудга келиб, ўзгача ҳудудий ишлаб чиқариш тизимларига эга бўлди;

- Қишлоқ хўжалигида сув таъминотининг яхшиланиши сабабли янги қишлоқ хўжалиги корхоналари ҳамда қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини қайта

ишлайдиган саноат корхоналари барпо қилинди;

- Тўпаланг сув омборидаги экологик тоза сув билан келажакда вилоят аҳолисини ичимлик суви билан таъминлаш борасида ҳам ундан самарали фойдаланиш имконияти вужудга келди;

- Қишлоқ хўжалигида сув таъминотининг яхшиланиши сабабли ғалла етиштиришда ялпи ҳосил ошди ва аҳолининг ун ва ун маҳсулотларига бўлган эҳтиёжини тўлиқ таъминлаш имконияти яратилди;

- Ушбу тўғон Тўпаланг дарёси ҳавзасида содир бўладиган сел ва тошқин хавфидан аҳолини асраш вазифасини ҳам бажаради.

АДАБИЁТЛАР ВА МАНБАЛАР РЎЙХАТИ (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES):

1. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. Тошкент: “Ўзбекистон”, 2016. – Б. 24.
2. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг "2017-2021 йилларда гидроэнергетикани янада ривожлантириш чора-тадбирлари дастури тўғрисида"ги қарори.
3. "Сурхон тонги" газетаси. 2021 йил 5-июнь сони.
4. Худойбердиев Қ., Одинаев А. Тўпаланг сув омбори бунёдкорлари. Тошкент: “Шарк”, 2006. – Б. 55.
5. Рўзиев А., Мирзаев Ш., Бароталиев У. Сурхондарё сув омборлари ва агросаноат мажмуини ривожлантириш масалалари. Тошкент, 1997. – Б. 73.
6. Рўзиев А. Территориальная система агропромышленного комплекса. Ташкент: “Мехнат”, 1986. – С. 62.
7. Содиқов А.М. Илмий раҳбарлигида. Сурхондарё вилоятини ижтимоий-иқтисодий ривожлантириш стратегияси. Тошкент, 2013. – Б. 124.

KOLXOZLAR ISHLAB CHIQARISHIDA MTSLARNING ROLI (1954–1956 YY.)

Rizayev Baxtiyor Nazarboyevich

*Buxoro davlat universiteti Arxeologiya va Buxoro tarixi kafedrası dotsenti, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).**e-mail: 84rizayev@mail.ru**<https://orcid.org/0000-0002-1074-8149>**UDK: 94(575.1)*

Annotatsiya: Ushbu maqolada 1954–1956 yillarda O'zbekiston SSRdagi mashina-traktor stansiyalarining (MTS) kolxoz ishlab chiqarishidagi o'рни va ahamiyati tahlil qilingan. Maqolada paxtachilikda yangi agrotexnika usullarini joriy etish, mehnat unumdorligini oshirish, qishloq xo'jaligini mexanizatsiya qilish, chorvachilikdagi islohotlar va MTSlar faoliyatidagi muammolar yoritilgan. Tadqiqot MTSlarning qishloq xo'jaligidagi ilmiy-amaliy ahamiyatini ko'rsatib beradi.

Kalit so'zlar: mashina-traktor stansiyalari, kolxoz, qishloq xo'jaligi, paxtachilik, mexanizatsiya, agrotexnika, chorvachilik, O'zbekiston SSR.

Аннотация: В данной статье анализируется роль и значение машинно-тракторных станций (МТС) в колхозном производстве Узбекской ССР в 1954–1956 гг. Рассмотрены вопросы внедрения новых агротехнических методов в хлопководстве, повышения производительности труда, механизации сельского хозяйства, реформ в животноводстве и проблемы в деятельности МТС. Исследование показывает научно-практическое значение МТС в развитии сельского хозяйства.

Ключевые слова: машинно-тракторные станции, колхоз, сельское хозяйство, хлопководство, механизация, агротехника, животноводство, Узбекская ССР.

Abstract: This article analyzes the role and significance of Machine and Tractor Stations (MTS) in the collective farm production of the Uzbek SSR during 1954–1956. The study examines the introduction of new agrotechnical methods in cotton growing, the increase of labor productivity, the mechanization of agriculture, reforms in animal husbandry, and challenges in the

activities of MTS. The research highlights the scientific and practical importance of MTS in the development of agriculture.

Keywords: Machine and Tractor Stations, collective farm, agriculture, cotton growing, mechanization, agrotechnics, animal husbandry, Uzbek SSR.

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). XX asrning ikkinchi yarmida qishloq xo'jaligini rivojlantirishda mexanizatsiya jarayonlari markaziy o'rinni egalladi. O'zbekiston SSRda 1950-yillarda qishloq xo'jaligi, ayniqsa paxtachilik tarmog'ini isloh qilish va mehnat unumdorligini oshirish maqsadida mashina-traktor stansiyalarining (MTS) roli keskin oshdi. Davlat tomonidan tashkil etilgan MTSlar kolxozlar ishlab chiqarishini tashkil etish va unga rahbarlik qilish, texnik xizmat ko'rsatish, agrotexnika va chorvachilikdagi ish jarayonlarini mexanizatsiyalash orqali qishloq xo'jaligida sifat jihatidan yangi bosqichga o'tish imkoniyatini yaratdi.

1954–1956 yillarda MTSlar faoliyatida yangi agrotexnika usullarini joriy etish, yer maydonlaridan samarali foydalanish, chorvachilikda mehnattalab jarayonlarni yengillashtirish kabi vazifalar ilmiy va amaliy ahamiyatga ega bo'ldi. Shu bilan birga, ayrim MTSlarda topshiriqlarni bajarishda kamchiliklar kuzatilib, qishloq xo'jaligi samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatgan holatlar ham mavjud bo'ldi.

Maqolaning maqsadi — 1954–1956 yillarda O'zbekiston SSRdagi MTSlarning kolxoz ishlab chiqarishidagi o'рни va ahamiyatini tahlil qilish, ularning qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalashdagi yutuq va muammolarini ochib berishdan iborat.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA

METODLARI (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОДОЛОГИЯ / METHODS).

Asoslangan manbalar: arxiv hujjatlari, partiya qarorlari, statistik ma'lumotlar.

Tahlil usuli: qiyosiy tahlil, tarixiy manba tahlili, misollar orqali tadqiq.

Qamrab olingan vaqt va hudud: 1954–1956-yillar, O'zbekiston SSR.

МУНОКАМА (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). Mashina-traktor stansiyalari (MTS) tizimi Sovet qishloq xo'jaligi siyosatining eng muhim unsurlaridan biri bo'lib, uning paydo bo'lishi 1930-yillardagi majburiy kollektivlashtirish jarayonlari bilan chambarchas bog'liqdir. O'sha davrda kolxoz va sovxozlarning moddiy-texnik bazasi juda zaif bo'lganligi sababli, markazlashgan tarzda tashkil etilgan MTSlar orqali dehqon xo'jaliklariga traktor va qishloq xo'jalik mashinalaridan foydalanish imkoniyati yaratildi. MTSlarning vazifasi nafaqat texnikani yetkazib berish, balki uni ta'mirlash, mutaxassislar tayyorlash va kolxozlarda agrotexnik tadbirlarni nazorat qilishdan iborat edi.

1930–40-yillardagi tajribalar shuni ko'rsatdiki, MTSlar kolxozlar faoliyatining ajralmas qismiga aylandi. Ikkinchi jahon urushi yillarida texnika va malakali kadrlarning kamayib ketishi tufayli MTSlarning ahamiyati yanada oshdi. Shu sababdan, urushdan keyingi yillarda davlat ularni qayta tiklash, texnika parkini kengaytirish va yangi mashina turlarini joriy etishga alohida e'tibor qaratdi. 1950-yillarga kelib, ayniqsa O'zbekiston SSRda paxtachilikning strategik ahamiyati sababli, MTSlar davlat rejasini bajarishda asosiy tayanch bo'ldi.

O'zbekiston sharoitida MTSlarning faoliyati o'ziga xos jihatlarga ega edi. Masalan, sug'oriladigan dehqonchilik hududlarida traktorlar nafaqat yer haydash, balki kanallar qazish, suv chiqarish inshootlarini qurishda ham keng qo'llanildi. Shu bilan birga, paxtachilikda torqatorlab ekish, g'o'zani uyalab ekish, qator oralarini mexanizatsiyalash kabi agrotexnika usullari MTSlar orqali joriy etildi. Bu esa mehnat unumdorligini oshirish va qo'l mehnatiga

bo'lgan ehtiyojni qisqartirish imkonini berdi.

MTSlarning tarixiy rivojlanishini o'rganishda boshqa ittifoq respublikalari tajribasi bilan taqqoslash muhimdir. Masalan, Rossiya va Ukraina hududlarida MTSlar asosan g'alla yetishtirishda muhim o'rin tutgan bo'lsa, Qozog'iston va O'zbekiston kabi mintaqalarda ular paxtachilik va chorvachilikda yetakchi rol o'ynadi. Qozog'istonda MTSlar asosan keng dala yerlari uchun mo'ljallangan yirik traktorlardan foydalangan bo'lsa, O'zbekistonda sug'oriladigan maydonlarga moslashgan texnika turlariga ehtiyoj yuqori edi. Bu farqlar MTSlarning hududiy sharoitlarga moslashuvchanligini va ixtisoslashuvini ko'rsatib beradi.

MTS tizimi nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy jihatdan ham ahamiyatli bo'lgan. Texnikaning keng qo'llanilishi natijasida kolxozchilar mehnati ancha yengillashdi, yoshlar orasida texnik bilimlarni o'zlashtirishga qiziqish ortdi. Ko'plab mexanizatorlar, traktorchi ayollar va yosh mutaxassislar paydo bo'lib, ular qishloq xo'jaligini yangilashning faol ishtirokchisiga aylandilar. Shuningdek, MTSlar qishloqlarda madaniy-ma'rifiy markaz sifatida ham faoliyat yuritib, klub va kutubxona kabi ijtimoiy infratuzilmalarni rivojlantirishga hissa qo'shdi.

Biroq MTSlarning faoliyatida bir qator kamchiliklar ham mavjud edi. Ba'zi hollarda texnika o'z vaqtida ta'mirlanmagan, shartnomalarga amal qilinmagan va natijada hosildorlik rejalari bajarilmagan. Shuningdek, markazlashgan boshqaruvning haddan tashqari yuqoriligi kolxozlarning mustaqil qaror qabul qilish imkoniyatini cheklab qo'ydi. Bu esa ayrim hollarda xo'jalik manfaatlari va davlat rejasini o'rtasida ziddiyatlarga olib keldi.

1954–1956-yillarda MTSlarning faoliyati ayniqsa paxtachilikda keng qamrovli bo'ldi. Natijalar ijobiy bo'lsa-da, ayrim MTSlarning rejani bajara olmaganligi, mehnat unumdorligidagi tafovutlar va moddiy-texnik bazaning notekisligi tizimni takomillashtirish zarurligini ko'rsatdi. Shu bois 1958-yilda MTSlar tugatilib, texnika bevosita kolxozlarga berildi. Ammo 1950-yillarda orttirilgan tajriba keyinchalik qishloq xo'jaligini

mexanizatsiyalash jarayonida muhim poydevor bo'lib xizmat qildi.

Mashina-traktor stansiyalari (MTS) kolxoz ishlab chiqarishini tashkil etish va unga rahbarlik qilishda muhim o'rin tutdi. Davlat ular zimmasiga qishloq xo'jaligini rivojlantirish va davlat rejalarini bajarish vazifasini yuklatgan edi. MTSlar nafaqat kolxoz xo'jaligining barcha tarmoqlariga rahbarlik qildi, balki kolxozlar iqtisodiy o'sishi va samaradorligini ta'minlashda ham mas'ul hisoblandi. Ular makkajo'xori, em-xashak va oziq-ovqat ekinlaridan yuqori hosil olish, chorvachilikda mehnattalab jarayonlarni mexanizatsiya qilish, chorva soni va mahsuldorligini oshirish ishlarini ham amalga oshirishlari lozim edi.

1954 yilda O'zbekiston SSR MTSlari paxtachilikda yangi agrotexnika usullarini joriy etishda katta ishlar qildilar. Barcha paxta maydonlari torqatorlab ekildi, maydonlarning taxminan 40 % qismida esa g'o'za uyalab joylashtirildi [1]. 1955 yil boshida bir qator MTSlar chigit ekish va g'o'za parvarishini keng mexanizatsiya qilishga tayyorgarlik ko'rdilar. Kolxozlar bilan tuzilgan shartnomalarda texnikalardan samarali foydalanish va mehnat resurslarini oqilona taqsimlashga e'tibor qaratildi. Aksariyat MTSlar bu vazifani yuqori agrotexnika darajasida bajardilar.

Masalan, 2-Izboskan MTSi paxta maydonlarining 3/2 qismida g'o'za uyalab ekdi, 2400 gektarda esa qator oralari bir necha marta kultivatsiya qilindi. Bu choralar yuqori hosil olishga va terimda samaradorlikka erishishga xizmat qildi. Shuningdek, 1-O'rtasaroy MTSi paxta maydonlarining 78 % qismida g'o'zani uyalab ekishni ta'minladi va parvarish ishlarini mashinada olib bordi. Natijada, 1955 yilda kolxozlar har gektardan 30 % ko'p hosil olib, davlat rejasini 108,3 % bajardilar. Qoloq hisoblangan bir qator kolxozlar ham rejani bajarishga muvaffaq bo'ldi.

Shu bilan birga, ayrim MTSlar belgilangan vazifalarni bajara olmadilar. Masalan, Xorazm viloyatidagi 1-Gurlan MTSi 2570 gektarda g'o'za uyalab ekishi lozim bo'lsa-da, faqat 238 gektarda amalga oshirdi. 1-G'ijduvon MTSida

esa topshiriqlar texnik va kadrlar yetarli bo'lishiga qaramasdan to'liq bajarilmadi [2], natijada paxta hosili 5 % ga kamaydi.

Paxtachilikda mehnat unumdorligini oshirish va mehnat sarfini kamaytirish uchun ishlarni kompleks mexanizatsiya qilish zarur edi. G'o'zani parvarish qilish va paxtani yig'ib-terib olish mehnatning 80 % qismini talab qilardi. Shu bois, ularni mexanizatsiyalashtirish muhim vazifa sanaldi. 1955 yildagi tajribalar kelgusi yillarda bu jarayonni kengroq yo'lga qo'yish uchun asos bo'ldi. 1956 yilda g'o'za maydonlarining 80 % qismida uyalab ekish va qator oralarini parvarish qilish rejalashtirildi. Shuningdek, yangi 50x50 santimetrlik [3] sxema ham qo'llanila boshlandi.

Biroq ayrim MTSlarda sifatsiz ishlar, shartnomalarga rioya qilmaslik, kechiktirilgan va past sifatli ishlarni bajarish holatlari uchradi. Bu kolxozlar rejalarining bajarilmay qolishiga, daromadning kamayishiga va mehnat qiymatining pasayishiga olib keldi. Masalan, Buxoro viloyatidagi 2-G'ijduvon va 2-Qorao'zak MTSlari traktor ishlari rejasini bajargan bo'lsa-da, paxta topshirish rejasi to'liq bajarilmadi [4].

1950-yillarda MTSlardagi agronom va zootexniklar kolxozlar ixtiyoriga o'tkazildi. Bu tadbir kolxozlarda agrotexnika va zootexnika ishlarini yaxshilash, mutaxassislarning mas'uliyatini oshirishga qaratilgan edi. KPSS Markaziy Komitetining yanvar Plenumi MTSlarni chorvachilikda ham yetakchi o'rin egallashga chaqirdi [5]. 2-Yangiyo'l MTSi bu yo'nalishda chorvachilik fermalarida mehnattalab ishlar va em-xashak tayyorlash jarayonlarini mexanizatsiya qildi. Natijada, har bir sigirdan olinadigan sut miqdori 1500 litrga yetdi [6].

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). 1956 yilda yuqori hosilga erishish avvalo ko'klamga tayyorgarlik ishlarini o'z vaqtida va sifatli bajarishga bog'liq edi. MTSlarning asosiy vazifasi yerlarni shudgorlashni qish boshidayoq amalga oshirish, barcha texnikani tayyor holga keltirish va kvadrat qilib ekish uchun agregatlarni joyiga qo'yishdan iborat bo'ldi. Xulosa qilib aytganda, MTSlar O'zbekiston

SSR qishloq xo'jaligi tarixida o'ta muhim o'rin tutadi. Ularning faoliyati nafaqat ishlab chiqarish samaradorligini oshirdi, balki qishloq aholisi turmush tarziga ham sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Shu bois, 1954–1956-yillarda

MTSlarning o'rni va ahamiyatini o'rganish nafaqat tarixiy tajribani yoritadi, balki bugungi kunda ham qishloq xo'jaligida mexanizatsiya jarayonlarining tarixiy ildizlarini chuqur anglash imkonini beradi.

ADABIYOT VA MANBALAR RO'YXATI
(ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА /
REFERENCES):

1. Народное хозяйство Узбекской ССР. Стат. Сбор. – Ташкент, Госстатиздат, 1957. – 197 с.
2. Френкин В.М. Кохозлар ишлаб чиқаришини юксалтириш соҳасидаги ишларни янада яхшилайдик.// Пахта учун кураш. – Ташкент, 1956 й. №1. – Б. 15-17.
3. Коммунистическая партия Узбекистана в резолюциях и решениях съездов и пленов ЦК (1925-1986). В 4-х т./ Т.2. 1938-1959. [Сос.: Р.Я.Ражалова, П.Г. Ким, С.А.Дмитриева и др] Т.: Узбекистан, 1988 — 912 с.
4. Вухоро viloyat davlat arxivi 1184-fond, 1-ro'yxat, 258-yig'ma jild, 65-varaq.
5. Совет иттифоқи коммунистик партиясининг XX съезди. 1957 йил 14-15 февраль. Стенографик ҳисобот. 1. Т.: Ўзбекистон ССР давлат нашриёти, 1957. – 604 б.
6. О'zbekiston Milliy Arxivi, 90-fond, 9-ro'yxat, 2258-yig'ma jild, 25-varaq.

ДАВРЛАШТИРИШНИНГ ЦИВИЛИЗАЦИОН ЁНДАШУВИ ШАКЛЛАНИШИ МАСАЛАСИГА ДОИР

Абдуқаюмов Асрор Раимович

*Термиз давлат университети Археология
кафедраси доценти, тарих фанлари номзоди
abduqayumov1980@yandex.ru
<https://orcid.org/0003-0015-2453-1134>
UDK: 94(575.1)*

Аннотация: Мақолада инсоният тарихини даврлаштириш тизимида кенг эътироф этилаётган цивилизацион ёндашувнинг моҳияти ҳамда шаклланиши тарихшунослик жиҳатидан тадқиқ этилган.

Калит сўзлар: Даврлаштириш, жамият, шаҳар маданияти, ёзув, формацион таълимот, ижтимоий-иқтисодий тузум, цивилизация.

Аннотация: В статье исследуется историография, а также, сущность и становление цивилизационного подхода в системе периодизации истории человечества.

Ключевые слова: Периодизация, общество, городская культура, письмо, формационная доктрина, социально-экономический строй, цивилизация.

Summary: The article issues historiography, as well as the essence and formation of the civilizational approach in the system of periodization of human history.

Key words: periodization, society, urban culture, letter, formation doctrine, socio-economic system, civilization.

КИРИШ (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). Одамзод тарихини илмий даврлаштиришнинг янги ёндашувини ишлаб чиқиш бугунги кунда нафақат назарий жиҳатдан, балки, амалий жиҳатдан ҳам ижтимоий-гуманитар соҳа олимлари олдидаги энг муҳим муаммолардан бирига айланмоқда. Чунки, қарийб уч ярим миллион йиллик тарихий тараққиёт даврида одамзод биоижтимоий мавжудот сифатида ҳам табиий-биологик ҳам ижтимоий жиҳатдан жуда катта ривожланиш йўлини босиб ўтди (ижтимоий ривожланиш жараёни ҳали ҳамон давом

этномоқда) [1; с. 25]. Ушбу ривожланиш йўлининг ўзига хос хусусиятлари, энг муҳим омилларга таянган тарихий босқичлари қонуниятларини тадқиқ ва таҳлил этиш энг аввало инсониятнинг ўз-ўзини англаб етишига имкон беради. Қолаверса, жамият юксалишининг бугунги даражасида юзага келаётган ўзаро ижтимоий муносабатлар, иқтисодиёт, сиёсат, маданият ва маънавият жабҳаларидаги ўта нозик ҳамда зиддиятли муаммоларнинг туб моҳиятини тушуниб етиш, уларни бартараф этишнинг энг мақбул йўллари топиш ва ижтимоий ҳаётга самарали татбиқ этиш жараёнида ҳам ҳал қилувчи аҳамият касб этади. Шуни ҳам таъкидлаш керакки, даврлаштиришнинг янги концепциясини ишлаб чиқиш жараёни энг аввало шу кунга қадар ушбу йўналишда мавжуд бўлган ёндашув, концепция ва таълимотларни ҳар томонлама таҳлил этиш асосида юзага келади.

МУҲОКАМА (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). Маълумки, сўнгги йилларда тарих фанининг турли соҳаларида олиб борилаётган тадқиқотларда даврлаштиришнинг цивилизацион ёндашувига катта эътибор қаратилмоқда. Айниқса, даврлаштиришнинг формацион таълимоти ҳар томонлама одамзод ва жамият тараққиётининг замон талабларига мутлақо жавоб бера олмаётган бугунги кунда муқобил назария сифатида цивилизацион ёндашув аксарият тадқиқотчилар изланишларида муҳим ўрин тутмоқда. Бундай ҳолат нафақат маҳаллий тарихчилар [2], балки бир қатор хорижлик турли соҳа олимларининг илмий тадқиқотларида ҳам яққол кўзга

ташланмоқда [3]. Тадқиқотларнинг бундай кенг географияси ва ижтимоий-гуманитар фанларнинг турли соҳа вакиллари қамраб олганлиги юқорида таъкидлаганимиздек, тарихни илмий даврлаштириш бугунги кунда қанчалик принципиал аҳамиятга эга эканлигини яна бир бор исботлайди. Ўз навбатида, ёндашувнинг назарий жиҳатдан вужудга келиши ва ривожланиш жиҳатларини илмий тадқиқ ва таҳлил этишни кун тартибига қўяди.

Илмий таҳлиллار шуни кўрсатмоқдаки, бугунги кунга қадар одамзод тарихини даврлаштиришнинг тарихшунослиги юзасидан алоҳида тадқиқот амалга оширилмаган, ҳатто даврлаштириш бўйича ёндашув, концепция ва таълимотларнинг илмий-назарий масалалари юзасидан алоҳида, умумлашма таҳлиллار эълон қилинмаган. Аксарият ҳолларда бу масалага доир фикрлар ва муносабатни кўпгина тадқиқотларда тарқоқ, якуний ва тугал ечимга эга бўлмаган ҳолатда учратамиз. Ваҳоланки, даврлаштиришнинг назарий ва амалий жиҳатлари жамият ва инсоният тараққиётининг нафақат тарих, балки бугунги даражаси учун ҳам нечоғли аҳамият касб этишини юқорида таъкидлаб ўтдик. Шу сабабли цивилизациявий ёндашувнинг назарий масалаларини таҳлил этиш ушбу кичик тадқиқотнинг бош муаммоси ҳисобланади. Шу ўринда ҳақли савол туғилади: даврлаштиришга цивилизацион ёндашувнинг назарий асослари нималардан иборат ёки ушбу ёндашув бир неча миллион йиллик инсоният тарихининг энг муҳим даврларини белгилашда қандай омилларга таянади? Бизга яхши маълум, даврлаштиришнинг формацион таълимоти қуйидаги назарий асосларга таянган: биринчидан, кишилик жамияти ўз тарихида кетма-кет келувчи машҳур бешта ижтимоий-иқтисодий тузум – формациялар шароитида яшаб келган; иккинчидан, жамият доимо бир-бирига қарама-қарши бўлган асосий икки - эзувчи ва эзилувчи синфлардан ташкил топган. Кишилик тарихи шу икки синф ўртасидаги доимий

ўзаро курашлар ҳосиласи ҳисобланади; учинчидан, қарама-қарши синфларнинг ўзаро курашида давлат ҳокимияти юқори синфнинг қуйи синф устидан ҳукмронлик куроли ҳисобланади. Шу сабабли жамиятда синфлар ўртасидаги тенгликни таъминлаш учун қуйи синф албатта ҳокимиятни эгаллаши ва давлат бошқарувини ўз қўлига олмоғи лозим бўлади. Ушбу жараёнда курулли инқилоб ҳал қилувчи аҳамиятга эга ҳисобланади [4; с. 24, 5; с. 87]. Даврлаштиришнинг цивилизациявий ёндашувини эътироф этувчи тадқиқотчиларнинг асарларини ўрганиш ва таҳлил этиш давомида афсуски, ушбу ёндашувда бу каби муайян тизимга солинган (гарчи жамиятнинг замон талабларига мос кемаса-да) ва аниқ белгилаб қўйилган назарий-методологик асослар ёритилмаганлиги маълум бўлди.

Маълумки, цивилизация атамаси тарих фанида одамзод тарихининг алоҳида босқичи сифатида дастлаб 1776 йилда А. Фергюссон томонидан эътироф этилди [6; р.2]. 1877 йилда АҚШлик этнограф олим Л.Г. Морган ўзининг “Қадимги жамият” асарини эълон қилди [7]. Тадқиқотчи узок йиллик этнографик кузатувлари натижасида цивилизацияни инсоният ривожига алоҳида босқич эканлигини таъкидлаб, унинг асосий етти та белгисини қайд этди. Жумладан, ишлаб чиқарувчи хўжаликнинг мавжудлиги, (касбий) бошқарув, сўзлашув тили, оила, дин, меъморчилик ҳамда хусусий мулкчилик цивилизация босқичининг асосий белгилари, мезонлари сифатида баҳоланди [7; с. 3]. А. Фергюссон ҳамда Л.Г. Морган томонидан цивилизация атамасининг алоҳида давр ҳамда тарихий жараён сифатида илмий муомалага киритилиши даврлаштириш борасидаги кенг қамровли тадқиқотларга замин яратди. Тадқиқотчиларнинг фикрига кўра, XVIII-XIX асрларда цивилизация атамасининг инсоният тарихидаги ёввойилик ва варварлик босқичларига нисбатан алоҳида, тараққий этган давр маъносида қўлланилиши нафақат тарих балки, ўша даврда олиб борилган деярли барча

фалсафий ва социологик изланишларга хос эди [8; с. 339]. Жумладан, инсоният тарихий тараққиётининг фалсафий масалаларига доир дастлабки кенг қамровли изланишларни амалга оширган А.Л. Метлинский ўз тадқиқоти[9]да цивилизациянинг асосий белгиларига тўхталиб ўтади. Тадқиқотчининг фикрича, монархия тузумидаги давлатчилик, мафкура вазифасини ўтаган дин, ягона сўзлашув тили, ишлаб чиқариш, илм-фан ҳамда санъат ва анъаналарнинг тараққий этиши цивилизациянинг асосий мезонлари ҳисобланади [9; с. 64]. Тадқиқотчи ўз қарашларини фалсафа тарихининг Д. Вико, Н. Макиавелли, Ш.Л. Монтескье, Р. Бэкон, И. Кант каби мумтоз намояндлари ёндашувлари билан бойитган. Шу тариқа XIX асрда цивилизация атамаси инсоният тараққиётидаги маълум бир тарихий жараён ва даврга муносабат, ёндашув сифатида кенг илмий жамоатчилик орасида ёйилди. Шуни алоҳида қайд этиш керакки, бу ёндашувнинг тадқиқот объекти ҳамда назарий асослари маълум ҳудудни ишғол этган ва табақаларга бўлинган жамият, профессионал бошқарув, яъни давлатчилик, аниқ тизимга солинган ёзув ва шаҳар маданиятининг пайдо бўлиши ва ривожланиши каби белги-мезонларни қамраб олган эди. Бундан ташқари, барча тарихий, фалсафий ва социологик тадқиқотларда Қадимги Шарқнинг тараққиёт ўчоқлари – Месопотамия, Нил, Ҳинд, Ганг, Янцзи ва Хуанхе водийларида вужудга келган илк шаҳар ва давлатлар, ёзув, илм-фан ва санъат цивилизациян ёндашувнинг дастлабки маконлари сифатида эътироф этилди. Ҳатто XIX асрнинг сўнгги чорагида тадқиқотчи Л.И.Мечников томонидан цивилизациянинг географик шарт-шароитларга боғлиқ равишда “дарё цивилизациялари” (Месопотамия, Миср, Ҳиндистон, Хитой), “денгиз цивилизациялари” (Ўрта Ер денгизи ҳавзасидаги Финикия, Карфаген, Греция, Рим) ва “океан цивилизациялари” (Буюк Британия мисолида) каби босқичларда ривожланганлиги ҳақидаги қарашлар

илгари сурилди [10; с. 337-339].

XX асрнинг 20-30-йиллари археологик тадқиқотларнинг ривожланиши билан боғлиқ равишда цивилизациян ёндашувнинг шаклланиши жараёнида муҳим давр ҳисобланади. Айнан шу даврда А.Тойнби ва Г.Чайльд каби тадқиқотчилар томонидан амалга оширилган кенг қамровли изланишлар даврлаштиришнинг цивилизациян ёндашуви ривожига катта аҳамиятга эга бўлди. Жумладан, Г. Чайльд ўзининг бир қатор асарларида [11] одамзоднинг бир неча миллион йиллик ўтмиш тарихига атрофлича тўхталиб ўтди. Тадқиқотчи археологик тадқиқотларнинг кенг қамровли таҳлилларига таянган ҳолда ибтидоий давр одамларининг турмуш тарзини таҳлил этиб, одамзод тарихини куйидаги уч даврга ажратди:

Биринчи босқич – қарийб икки млн. йил илгари *Номо* туридаги одамзод тарихининг бошланиши. Одамзоднинг ҳайвонот алоҳида тури сифатида пайдо бўлиши ҳамда бошқа йиртқич ҳайвонлар сингари овчилик ва термачилик асосида табиатга тўлиқ тобе ҳолда ёввойи ҳаёт кечириши босқичи. Л.Г.Морган томонидан илгари сурилган фикрга тўлиқ қўшилган тадқиқотчи айнан термачилик ва ов хўжалиги асосидагина мавжуд бўлган одамзоднинг ушбу энг қадимги даври инсониятнинг Ер сайёрасидаги ҳаётининг қарийб 98 фоизини ташкил этганлигига тўхталиб ўтди. Замонавий этнографик кузатувларга кўра, XXI асрнинг бошларига келиб Амазонка дарёсининг ички ҳавзаси, Африканинг марказий қисми ҳамда Австралиянинг айрим ҳудудларида шундай шароитда яшаётган одамлар жамоаси сақланиб қолган;

- иккинчи босқич тахминан 10-12 минг йил илгари бошланган бўлиб, дастлаб Яқин Шарқда одамлар томонидан ўсимликларни етиштириш (табиий шароитдаги деҳқончилик) ҳамда ёввойи ҳайвонларни хонакилаштириш (уй чорвачилиги) орқали озуқа маҳсулотлари захирасини кўпайтириши билан боғлиқдир. Л.Г.Морган томонидан одамзод тарихининг варварлик сифатида

баҳоланган, хўжаликнинг янги, оддий ишлаб чиқариш турига асосланган ушбу босқичи археологлар томонидан мезолит, яъни ўрта тош даври деб белгиланган;

- учинчи босқич тахминан олти минг йил илгари Нил, Фрот ва Дажла, Ҳинд дарёлари водийларида шаклланган қишлоқларнинг шаҳарлар даражасига ўсиб чиқиши билан бошланган. Шу босқичда шаклланган жамиятнинг янги вакиллари – шаҳар аҳолиси: хунармандлар, савдогарлар, руҳонийлар, мансабдор ва бошқарувчиларни озуқа билан таъминлаш зарурати деҳқонларнинг ўз эҳтиёжларидан бир неча баробар кўп миқдорда маҳсулот етиштиришига сабаб бўлган. Цивилизацияни етаклаб келган шаҳар инқилобининг зарурий ва энг муҳим маҳсули ёзувнинг кашф этилиши ҳисобланади [12; с. 14].

ХУЛОСА (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Ушбу хулосалардан кўриниб турибдики, Г.Чайльд фикрича ҳам цивилизация тарихий жараён сифатида инсоният ўтмишининг маълум бир босқичи, яъни шаҳарлар ва давлатларнинг ташкил топиши ҳамда ижтимоий табақалар ва ёзувнинг шаклланиши билан чамбарчас боғлиқдир. Шунинг алоҳида қайд этиш керакки, айнан шу даврга қадар цивилизация муаммосига доир изчил изланишларни амалга оширган

тадқиқотчилар асарларида цивилизация тарихий жараён ҳамда инсоният тарихидаги ривожланишнинг алоҳида, юқори босқичи эканлиги эътироф этилди. Шу сабабли ушбу даврни цивилизация ёндашувнинг шаклланиши босқичи, деб атасак муболаға бўлмайди. Шу билан бирга цивилизация ёндашувни инсоният тарихини даврлаштириш тизимида баъзи чекланганлик хусусиятига ҳам эга эканлигини таъкидлаш лозим. Бу хусусият қуйидагиларда намоён бўлади:

Биринчидан, ёндашув тарихий жараён сифатида цивилизацияни қадимги жамоаларнинг жамиятлашув жараёнининг якуний босқичи эканлигини асослайди;

Иккинчидан, ҳам тарихий жараён ҳам ёндашув сифатида цивилизациянинг тадқиқот объекти шаҳар маданияти, мулкӣ табақалашув, профессионал бошқарув ҳамда ёзув тугал шаклланган жамиятлар ҳисобланади. Бу каби мезонлар ҳали шаклланмаган ибтидоий жамоалар ўз навбатида тадқиқот доирасига тортилмайди.

Учинчидан, цивилизация шаклланишига давом этган энг қадимги жамоалар тарихи алоҳида тадқиқот манбаи ҳисобланади. Бу каби хусусиятлар цивилизация ёндашув мезонларини тарихшунослик жиҳатидан тадқиқ этиш долзарблигини белгилаб беради.

АДАБИЁТ ВА МАНБАЛАР РЎЙХАТИ (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES):

1. Абдукаюмов А.Р. К новому подходу периодизации древнейшей истории человечества // European Journal of Humanities and Social Sciences. – Vienna, 2020. Vol. 1. – С. 24–32. <https://doi.org/10.29013/EJHSS-20-1-24-32>.
2. Боқиев А.А. Окс цивилизациясининг ижтимоий характери. Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Термиз, 2021.
3. Гринин Л.В. Формации и цивилизации; Хаттингтон С. Столкновение цивилизаций; Голубев С.А., Миронов В.Б. Битвы цивилизаций; Миронов В.Б. Древние цивилизации.
4. Карл Маркс, Фридрих Энгельс. Манифест Коммунистической партии. – Москва: Издательство политической литературы, 1980. – С. 24.
5. Алаев Л.Б. Смутная теория и спорная практика: о новейших цивилизационных подходах к Востоку и к России // Историческая психология и социология истории. № 2, 2008. – С. 87–112.
6. Фергюссон А. Очерк истории гражданского общества. Глазго, 1767.

7. Морган Л.Г. Древнее общество.
8. Алалыкин-Извеков В.Н. Цивилизационная теория в России – прошлое, настоящее и будущее // *Biocosmology – neo-Aristotelizm*. Vol. 4. No. 3, Summer 2014.
9. Метлинский А.Л. О сущности цивилизации и значении её элементов. Издательство Харьковского университета, 1839.
10. Мечников Л.И. Цивилизация и великие исторические реки. Москва: Прогресс, 1995.
11. V. Gordon Childe. *Man makes himself*. – New York, The New American library of the world literature, 1951.
12. Гордон Чайлд. Рассвет и падение древних цивилизаций. Далекое прошлое человечества. – Москва: Центрполиграф, 2012.

BUYUK IPAK YO'LIDAGI OT SAVDOSIDA XALQARO TASHKILOTLARNING ROLI (CHOY VA OT SAVDOSI AGENTLIGI MISOLIDA)

Ikromov Nozim Muzrapovich

*Termiz davlat universiteti Tarix fakulteti
O'zbekiston tarixi va manbashunoslik kafedrası dotsenti v.b.,
tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).*

e-mail: nikromov@tersu.uz

<https://orcid.org/0009-0003-3464-9991>

Fayziyev Abdusamad Abduxoliq o'g'li

*Termiz davlat universiteti Tarix fakulteti
O'zbekiston tarixi va manbashunoslik kafedrası o'qituvchisi,
Termiz davlat universiteti tayanch doktoranti.*

e-mail: fayziyevabdusamad40@gmail.com

<https://orcid.org/0009-0002-9298-8492>

Annotatsiya: Mazkur maqolada Buyuk ipak yo'li bo'ylab amalga oshirilgan ot va choy savdosi jarayonlarida xalqaro tashkilotlarning, xususan, Choy va ot savdosi agentligining o'rni va funksional faoliyati tarixiy va iqtisodiy nuqtai nazardan tahlil etiladi. Tadqiqotda qadimgi davrlarda Xitoy va O'rta Osiyo o'rtasidagi savdo almashuvining muhim yo'nalishlaridan biri bo'lgan ot savdosi hamda mazkur agentlikning savdo xavfsizligini ta'minlash, boj tizimini muvofiqlashtirish va almashinuv narxlarini standartlashtirish kabi funksiyalari choy va ot savdosining rivojiga ko'rsatgan ta'siri yoritiladi. Maqola tarixiy manbalar va terminologik atamalar asosida tahliliy yondashuv orqali yozilgan bo'lib, xalqaro savdo aloqalari jarayonida shakllangan qadimiy institutsional tuzilmalarning ahamiyatiga e'tibor qaratadi.

Kalit so'zlar: Buyuk ipak yo'li, ot savdosi, choy savdosi, xalqaro savdo agentligi, samoviy ot, Cha Ma Si (茶马司), Shibosi (市舶司), Tijusi, Mazheng, Yinshui, Tianma, Maichachang, Maimachang, Chakesi.

Аннотация: В данной статье с исторической и экономической точки зрения анализируется роль и функциональная деятельность международных организаций, в частности, Агентства по торговле чаем и лошадьми, в процессах торговли лошадьми и чаем вдоль Великого шелкового пути. В исследовании

освещается влияние торговли лошадьми, которая в древности была одним из важных направлений торгового обмена между Китаем и Средней Азией, а также таких функций этого агентства, как обеспечение безопасности торговли, координация таможенной системы и стандартизация обменных цен, на развитие торговли чаем и лошадьми. Статья написана с применением аналитического подхода на основе исторических источников и терминологических понятий, и акцентирует внимание на значимости древних институциональных структур, сформировавшихся в процессе международных торговых отношений.

Ключевые слова: Великий шёлковый путь, торговля лошадьми, торговля чаем, международное торговое агентство, небесная лошадь, Ча Ма Си, Шибоси, Тижуси, Мазхенг, Йиншуи, Тианма, Маичачанг, Маимачанг, Чакеси.

Abstract: This article analyzes the role and functional activities of international organizations, particularly the Tea and Horse Trade Agency, in the processes of horse and tea trade along the Great Silk Road from historical and economic perspectives. The study highlights the impact of horse trade, which was one of the significant areas of trade exchange between China and Central Asia in ancient times, and examines the agency's functions, such as ensuring trade security,

coordinating the customs system, and standardizing exchange rates, on the development of tea and horse trade. The article employs an analytical approach based on historical sources and terminological concepts, focusing on the importance of ancient institutional structures that emerged in the process of international trade relations.

Keywords: Great Silk Road, horse trade, tea trade, international trade agency, heavenly horse, Cha Ma Si (茶马司), Shibosi (市舶司), Tijusi, Mazheng, Yinshui, Tianma, Maichachang, Maimachang, Chakesi.

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). Buyuk ipak yo‘li — bu faqatgina qadimiy savdo yo‘li emas, balki dunyo sivilizatsiyalari o‘rtasidagi ko‘p asrlik iqtisodiy, madaniy va diplomatik aloqalarning muhim yo‘nalishi hisoblanadi[9:242-247]. U Osiyo va Yevropaning yirik imperiyalari o‘rtasida nafaqat tovarlar, balki g‘oyalar, dinlar, texnologiyalar va san‘at asarlarini almashishga xizmat qilgan[6:8-13]. Ushbu yo‘l orqali bo‘lgan savdo-sotiq jarayoni insoniyat tarixida ilk globalizatsiya jarayonlarining poydevorini yaratgan hamda mamlakatlar o‘rtasida iqtisodiy integratsion jarayonlarni boshlab bergan.

Bu yo‘l Chang‘an (hozirgi Sian shahri) — Tan imperiyasining poytaxtidan boshlanib Gansu vodiysi orqali Dunxuan shahriga, so‘ngra Taklamakan cho‘li atrofidagi ikkita asosiy yo‘lga ya‘ni Shimoliy hamda Janubiy yo‘lga ajralgan. Shimoliy yo‘l Taklamakan cho‘lining shimoliy cheti bo‘lib, Dunxuan shahridan Hami — Turfon — Ko‘cha — Oqsuv shaharlari orqali Qashg‘arga borgan. Janubiy yo‘l esa Dunxuandan — Miran — Cherchen — Xo‘tan — Yorkent — Qashg‘arga olib borgan. Ikkala yo‘l ham oxirida Qashg‘arda birlashadi va Markaziy Osiyo savdo yo‘li orqali o‘tadi. Yuqorida keltirilgan ma‘lumotlarga ko‘ra, Qashg‘ar hamda Dunxuan shaharlari Ipak yo‘lining boshlang‘ich tranzit savdo markazlari hisoblangan. Xususan, harbiy va iqtisodiy ikki tomonlama ahamiyati tufayli Dunxuan Xitoy va Ichki Osiyo o‘rtasidagi Ipak yo‘lining eng muhim markaziga aylandi.

Yo‘nalish ikki tarmoqqa bo‘lindi. Bular: Janubiy yo‘l — ichki hududlar bo‘ylab, Shimoliy yo‘l — Shule (Qashg‘ar) orqali Dovon (hozirgi Farg‘ona), Sug‘d va undan Hindiston hamda G‘arbiy Osiyo tomonga boradigan yo‘ldir[4:28-33, 5:137-140].

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). Tan imperiyasida tashqi savdo yuksak darajada rivojlandi. Poytaxt **Chang‘andan** Markaziy Osiyo, Afg‘oniston, Nepal va Hindistongacha bo‘lgan karvon yo‘llari savdo tizimi vujudga keldi[10:839-841]. Bu davrda Xitoyning asosiy eksport mahsulotlari ipak, **chinni buyum mahsulotlari, qog‘oz, bronza, temir va choy** edi. Savdo hajmining kengayishi hamda xalqaro aloqalarning rivojlanishi natijasida Buyuk ipak yo‘li **savdo aloqalarida ma‘lum savdo birlashmalari yoki tashkilotlari shaklidagi uyushgan yoki davlat nazorati ostida tashkil etilgan iqtisodiy munosabatlarni tartibga solib turadigan ma‘lum iqtisodiy kompaniyalar ham vujudga kela boshladi. Masalan, 714-yilda** hukumat tomonidan **Shibosi (Tashqi kemalar boshqarmasi)** — bojxona sifatida xizmat qiluvchi idora tashkil etib[1:32-34], dengiz savdosini tartibga soldi. Bu tuzilma Song, Yuan, Min sulolalari davrigacha saqlanib qoldi.

Song sulolasi davrida **kompasning** kashf etilishi dengiz savdosini yanada rivojlantirdi, xususan, Xitoy 50 dan ziyod mamlakat bilan savdo aloqalarini o‘rnatdi. Dengiz orqali eng katta savdo hamkori Arab xalifaligi edi. O‘sha davrlarda dengiz orqali savdo qilish imkoniyati cheklanganligini inobatga olsak, Xitoyning asosiy savdo hamkorlari, asosan, quruqlik orqali iqtisodiy munosabatlarga kirishgan degan xulosaga kelishimiz mumkin.

Quruqlik orqali amalga oshiriladigan savdo munosabatlarini ham tartibga solib turadigan davlat tashkilotlari ham mavjud edi. **Shunday tashkilotlar sirasiga Chamasi (xitoycha: 茶 (cha) — choy, 马 (ma) — ot, 司 (si) — boshqarma yoki agentlik — ya‘ni, “Choy-Ot Agentligi” yoki “Choy-Ot savdosini boshqaruvchi davlat idorasi” degan ma‘noni bildiradi.)** tashkilotini keltirishimiz

mumkin[8:136-168]. Bu agentlik choyni eksport qilish orqali xorijdan ot xarid qilishni markazlashtirgan. Chunki choy Xitoyning noyob va qimmatli mahsuloti bo'lib, otlar evaziga barter shaklida taklif etilgan[11].

Dastlab bu tashkilot ikkita alohida tuzilmadan iborat edi. Choy ishlab chiqarishni nazorat qiluvchi tashkilot – *tijusi* hamda otchilik boshqarmasi – *mazheng*, vaqt o'tib 1074 yilda Chengdu shahrida, Xitoyning Song sulolasi hukmdori “**Chamasi**” (Choy va Ot idorasi) ni tashkil etdi va bu tashkilot shimoli-g'arbiy chegaralardagi bozorlarda choy mahsulotlarini otlarga almashinuvini nazorat qildi. Bu bilan Xitoy va qo'shni hududlar o'rtasidagi choy va ot savdo aloqalari XI asrdan boshlandi degan noto'g'ri xulosaga kelmasligimiz kerak. Bu davrgacha ham savdo aloqalari mavjud bo'lib Xitoy ipak mahsulotlari g'arbiy mintaqa mamlakatlari bilan savdo qilgan, ammo XI asrga kelib ipak mahsulotlari g'arbiy mamlakatlarida ham tayyorlana boshladi. Masalan, IV asr oxirlaridan boshlab Sug'dda, VI asrda Eron va Vizantiyada mustaqil ipak ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi[2:422]. Bu holatni biz Turk xoqonligining Eron va Vizantiyaga yuborilgan elchisi, sug'd savdogari Maniakh bilan bo'lgan holatdan ham bilib olishimiz mumkin. Natijada, Xitoyning g'arbiy mamlakatlarga ipak mahsulotini sotish borgan sari qiyinlashdi. Ammo Xitoyning O'rta Osiyoning samoviy otlari – “*tianma*”larga bo'lgan ehtiyoji kuchaliligicha qoldi.

Keyinchalik, Xitoy uchun ipak asosiy eksport mahsuloti maqomini yo'qotdi, natijada Song hukumati savdoni tartibga solish hamda muhim strategik va iqtisodiy tovar otlarga bo'lgan ehtiyojni qondirish maqsadida Choy savdosini nazorat qila boshladi hamda chetdan keladigan savdo karvonlariga boj tizimi joriy etdi, shuningdek, savdo aloqalarini davlat to'liq nazoratiga olib savdo aloqalari faqatgina Choy va Ot savdosi agentligi orqali amalga oshirila boshlandi. Bu agentlik ruxsatisiz choy yoki ot sotish hamda sotib olish mumkin emas edi[7].

Bu tashkilot faoliyatiga nazar tashlasak, Cha Ma Si (茶马司) — qadimiy Xitoyda choy

va ot almashinuvi savdosini boshqaruvchi davlat idorasi bo'lib, davlatga qarashli choy fabrikalarida ishlab chiqarilgan choy yig'ib olinib, chegara hududlariga yetkazish ishini nazorat qilgan. Choy chegaradagi bozorlar (asosan Tibet, O'rta Osiyo, Yunnan va boshqa chegaradosh hududlar) orqali otlarga almashtirilgan[12:29-33]. Xususiyl savdogarlar ham choyni fabrikalardan sotib olib, soliqlarni to'lab, chegara bozorlariga olib borishlari va otlar bilan almashtirishlari mumkin edi. Ushbu savdo orqali olingan daromad davlatning chegara mudofaasini moliyalashtirishga sarflangan. Idora chegaradagi bozorlarni va savdo jarayonini qat'iy nazorat qilgan, choy va ot savdosining tartibli va adolatli bo'lishini ta'minlagan[3:91]. Ayrim tarixchilarning fikricha, bu tizim Sharq va G'arb o'rtasidagi resurslar almashinuvining dastlabki institutsional shakli hisoblanadi.

1128 yilda Xitoyda ichki savdo uchun choyni to'g'ridan-to'g'ri sotib olish tizimi bekor qilindi va, dastlab, Sichuanda, keyinchalik, butun mamlakatda choy savdosi bilan shug'ullanish uchun sertifikatlash usulini joriy etildi. Natijada, choy savdosi bilan shug'ullanish uchun alohida savdo ruxsatnoma tizimi yo'lga qo'yildi. Unga ko'ra savdogar mahsulot tannarxining o'n foizi miqdorida ruxsatnoma solig'ini (*vinshui*) to'lashi zarur edi, bunday ruxsatnomaga ega savdogarlar savdo aloqalarini amalga oshira olar va choyni chegara bozorlariga yetkazib, u yerda choyni sotar va ot sotib olar edi. Chamasi tashkiloti ikki qismdan iborat edi: “*maichachang*” — choy sotish rastalari ya'ni bu qismda faqat choy mahsulotlari sotilgan, “*maimachang*” — “ot sotish maydoni”da esa ot savdosi amalga oshirilgan. Ushbu tizim davlatning iqtisodiy va harbiy salohiyatini kuchayishiga xizmat qildi. Xususan, davlat xazinasiga tushadigan daromadlar miqdori oshdi va qo'shindagi harbiylar uchun otlar sotib olishning tizimli mexanizmi yaratildi.

Bu tashkilot o'z faoliyatida har yili Tibet qabilalari hamda O'rta Osiyolik savdogarlarga otlarni **Yunnan va Sichuandan** olingan choy mahsulotlari evaziga olib kelgan. Bir tadqiqotga ko'ra, **Shimoliy Song** davrida har yili **20,000 dan ortiq ot** choy evaziga olib

kelingan. Sichuan viloyatida ishlab chiqarilgan choyning umumiy miqdori **30 million szin** (ya'ni **15 million kg**) ni tashkil etgan bo'lsa, uning **kamida yarmi Tibetga** sotilgan.

Keyingi sulolalar davrida ham bu tashkilot faoliyati davom etgan. Yuan sulolasi ham choy savdosiga katta e'tibor bergan va **“Xifanchatijusi”** deb nomlangan choy savdosini boshqaruvchi idora tashkil etgan[12:30]. Dastlab savdo davlat nazorati ostida bo'lgan, keyinchalik esa asta-sekin xususiy savdogarlar qo'lga o'tgan.

Ming sulolasi davrida esa choy va ot savdosi eng gullagan davrni boshidan kechirgan. Ming saroyi **“Chakesi”** (Choy va Ot savdosi idorasi)ni tuzdi.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Buyuk ipak yo'li doirasida amalga oshirilgan ot va choy savdosi nafaqat iqtisodiy, balki harbiy va siyosiy jihatdan ham ulkan ahamiyatga ega bo'lgan. Xususan, Cha Ma Si (Choy va ot savdosi agentligi) singari davlat tomonidan nazorat qilingan

institutsional tuzilmalar Xitoyning strategik ehtiyojlarini — otlar orqali harbiy salohiyatni ta'minlash va choy savdosi orqali ichki bozorni muvozanatlashtirish kabi maqsadlarda faoliyat yuritgan.

Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, xalqaro savdoda ishtirok etuvchi tashkilotlar — xoh ular bojxona idoralari (Shibosi), xoh ular almashinuv agentliklari (Chamasi) bo'lsin — o'z davri uchun innovatsion iqtisodiy mexanizmlar bo'lib xizmat qilgan. Bu tuzilmalar orqali savdo xavfsizligi ta'minlangan, narxlar nazorat ostida bo'lgan, hamda iqtisodiy aloqalar huquqiy va rasmiy asosda yo'lga qo'yilgan.

Xitoyning ot savdosiga bo'lgan ehtiyoji, ayniqsa, "samoviy otlar" deb tanilgan O'rta Osiyo otlariga bo'lgan talab orqali, O'rta Osiyo va Xitoy o'rtasidagi savdo aloqalarining chuqurlashishiga turtki bo'lgan. Choy mahsuloti esa o'z navbatida almashuvda muhim tovar sifatida Xitoy uchun iqtisodiy ekvivalent valyuta rolini o'ynagan.

ADABIYOT VA MANBALAR RO'YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES):

1. Alimov I.A. The 13th century Southern China in Ping Zhou Ke Tan. Manuscripta Orientalia. International Journal for Oriental Manuscript Research. Vol. 16, № 2, 2010. – P. 32-34. https://www.kunstkamera.ru/files/lib/978-5-88431-292-0/978-5-88431-292-0_08.pdf
2. Ataxodjayev A.M., Zamonov A.T. va boshq. O'zbekiston tarixi. I qism: Eng qadimgi davrlardan — IX asrgacha. Darslik. – T.: “BAYOZ”, 2024. – B 422.
3. Forbes A., Henley D. China's Ancient Tea Horse Road. – Chiang Mai: Cognoscenti Books, 2011. – 91 p.
4. Mahmudov A.M. Chig'atoy ulusi davrida Xitoy bilan bog'lagan savdo aloqalari tarixidan. Fan, ta'lim va madaniyat jurnali, 1(1), 2023. – B. 28-33.
5. Nurmuhamedova M. Buyuk ipak yo'li tarixi va madaniy almashuvlar. Problems and solutions of scientific and innovative research, 1(6), 2024. – P. 137-140.
6. Obixonov A.A. Buyuk ipak yo'li va uning ahamiyati. Modern Science and Research, № 3(10), 2024. – P. 8-13.
7. Paul J. Smith. Taxing Heaven's Storehouse: Horses, Bureaucrats, and the Destruction of the Sichuan Tea Industry, 1074-1224. – London: Council on East Asian Studies, Harvard University, 1991. – 489 p.
8. Rossabi M. The tea and horse trade with Inner Asia during the Ming. Journal of Asian History, 4(2), 1970. – P. 136–168. <http://www.jstor.org/stable/41929764>
9. Sultanova E.F. Buyuk ipak yo'li – sivilizatsiyalar chorrahasi. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 5 (1), 2025. – P. 242-247.
10. Tasheva Sh.J. The Great Silk Road. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal. № 10(1), 2022. – P. 839-841.
11. Victor H. Mair., Erling Hoh. The true history of tea. – London: Thames & Hudson, 2009. – 280 p.

12. Yang Fuquan. The “Ancient Tea and Horse Caravan Road,” the “Silk Road” of Southwest China. *Silk Road Journal*, Vol. 2. № 1. 2004. – P. 29-33.

TARIX FANLARI BO'YICHA ILMIY DARAJALAR BERUVCHI ILMIY KENGASHLAR FAOLIYATINING INFOMETRIK VA STATISTIK TAHLILI

Bokiyev Anvar Axmedovich

*Termiz davlat universiteti O'zbekiston tarixi va
manbashunoslik kafedrası kafedrası dotsent v.b.,
tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
e-mail: anvar.bakiev.uz@gmail.com
<https://orcid.org/0009-0005-5553-2031>
UDK: 94(575.1)*

Annotatsiya: Maqolada O'zbekistonda mustaqillikdan so'ng ta'lim va ilm-fan sohasida amalga oshirilgan islohotlar doirasida tarix fanlari bo'yicha ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengashlar (IK) faoliyatining rivojlanishi tahlil etiladi. Tadqiqot 2017–2025 yillarni qamrab olib, PhD va DSc dissertatsiyalarining infometrik hamda statistik ko'rsatkichlari, ularning hududiy taqsimoti va ilmiy muassasalar kesimidagi samaradorligi o'rganilgan. Natijalar ilmiy kengashlar faoliyatining dinamikasi va istiqbollarini baholash imkonini beradi.

Kalit so'zlar: Infometriya, ilmiy kengash, tarix fanlari, ilmiy daraja, PhD, DSc, dissertatsiya, statistika, ilmiy faoliyat, O'zbekiston.

Аннотация: В статье рассматривается развитие деятельности научных советов (НС), присуждающих ученые степени по историческим наукам в Узбекистане после обретения независимости. Исследование охватывает 2017–2025 годы и анализирует инфометрические и статистические показатели диссертаций PhD и DSc, их региональное распределение и эффективность работы научных учреждений. Полученные результаты позволяют оценить динамику и перспективы процесса присуждения ученых степеней.

Ключевые слова: Инфометрия, научный совет, исторические науки, ученая степень, PhD, DSc, диссертация, статистика, научная деятельность, Узбекистан.

Abstract: The article examines the development of the activities of academic councils awarding scientific degrees in history

in Uzbekistan after independence. The study covers the years 2017–2025 and analyzes the infometric and statistical indicators of PhD and DSc dissertations, their regional distribution, and the effectiveness of academic institutions. The findings provide insights into the dynamics and prospects of the degree-awarding process in the field of history.

Keywords: Infometrics, academic council, history sciences, academic degree, PhD, DSc, dissertation, statistics, scientific activity, Uzbekistan.

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). Mustaqillik yillarida O'zbekistonda uzluksiz ta'limning noyob tizimi yaratildi, ilmiy-tadqiqot faoliyati, oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlash va attestatsiyadan o'tkazish samaradorligini oshirishga, mamlakatning ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyotida ilm-fanning rolini kuchaytirishga yo'naltirilgan salmoqli ishlar amalga oshirildi[1].

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 16 fevraldagi PF–4958-son “Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida”gi Farmoni[1] asosida 2017 yilning 1 iyulidan boshlab oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim ikki pog'onali tizimning joriy qilinishi tarixiy ahamiyat kasb etdi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi PF–5847-son “O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi[2] va 2020 yil 29 oktyabrdagi PF-6097-son “Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash

to'g'risida"gi[3] Farmonlari va qarorlari ta'lim va fan sohalarini sifat jihatdan yangi pog'onaga ko'tarishga, ilmiy-tadqiqot faoliyatida iqtidorli yoshlarni keng jalb qilish va ularning intellektual salohiyatini har tomonlama namoyon etish imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qilmoqda.

Mazkur maqola 07.00.00 – shifri bo'yicha ilmiy darajalar beruvchi IKlar faoliyatiga oid infometrik va statistik ma'lumotlarning ayrim aspektlariga bag'ishlanadi hamda xronologik jihatdan 2017-2025 yillarni qamrab oladi.

IKlar faoliyati haqida so'z yuritishdan avval, infometriya atamasiga to'xtalib o'tsak,

foydadan xoli bo'lmaydi.

Infometriya — bu ilmiy-statistik fan bo'lib, uning predmeti axborotning miqdoriy xususiyatlarini o'lchashdir. Infometriya (fransuzcha Infométrie) atamasi 1979-yilda fransuz tadqiqotchisi O.Nake tomonidan taklif qilingan. Infometriya, kelib chiqishidan qat'iy nazar, axborotning barcha shakllarini ishlab chiqarish, uzatish va ulardan foydalanishni qamrab oladi[4].

IKlarda 2017-2025 yillar mobaynida 07.00.00 – shifri bo'yicha 738 ta PhD va 113 ta DSc, jami 851 ta dissertatsiya himoyalari bo'lib o'tgan.

1-jadval. IKlarda himoya qilingan PhD va DSc dissertatsiyalarining statistikasi

	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024	2025	jami
PhD	6	39	48	58	97	176	132	135	47	738
DSc	7	8	8	7	14	19	26	17	7	113
jami	13	47	56	65	111	195	158	152	54	851

2017-2019 yillarda IKlarda, jumladan, 2017 yilda 6 ta, 2018 yilda 39 ta, 2019 yilda 48 ta jami 93 ta PhD dissertatsiyalari himoyalari bo'lgan. Bu davrda faoliyat ko'rsatgan 9 ta

IKlarning 6 tasi Toshkent shahridagi, 2 tasi Samarqand, 1 tasi Andijon viloyatidagi OTM va ITMLar huzurida tashkil etilgan.

2-jadval. IKlarda himoya qilingan PhD dissertatsiyalarining statistik tahlili (2017-2019 yillar)

№	Ijtimoiy-gumanitar fanlar yo'nalishi bo'yicha ILMIY KENGASHLAR	2017	2018	2019	jami	%
1	O'zbekiston milliy universiteti Qoraqalpoq ijtimoiy fanlar ilmiy-tadqiqot instituti DSc.27.06.2017.Tar.01.04		13	18	31	33,33
2	Arxeologik tadqiqotlar instituti DSc.27.06.2017.Tar.45.01	2	2	4	8	8,6
3	O'zbekiston Milliy universiteti, O'zbekistonning eng yangi tarixi masalalari bo'yicha muvofiqlashtiruvchi-metodik markaz, Tarix instituti, Qoraqalpoq ijtimoiy fanlar ilmiy-tadqiqot instituti DSc.27.06.2017.Tar.01.04	2			2	2,15
4	O'zR FA Sharqshunoslik instituti DSc.27.06.2017.Tar.44.01		6	2	8	8,6
5	Toshkent islom universiteti DSc.27.06.2017.Tar/F/Fil.14.01	2			2	2,15
6	O'zR FA Tarix instituti DSc.06.01.2018.Tar.56.01		18	17	35	37,63
7	O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi DSc.26.04.2018.Isl/Tar/F.57.01			1	1	1,07

8	Andijon davlat universiteti PhD.31.01.2019.Tar.60.01			4	4	4,3
9	Samarqand davlat universiteti PhD.03/30.12.2019.Tar.02.10			2	2	2,15
	Soni	6	39	48	93	
	%	6,4 5	41, 9	51,6	100	

2020-2022 yillarda IKlarda, jumladan, 2020 yilda 58 ta, 2021 yilda 97 ta, 2022 yilda 176 ta jami 331 ta PhD dissertatsiyalari himoyalari bo'lgan. Bu davrda faoliyat ko'rsatgan 19 ta IKlarning 10 tasi Toshkent shahridagi, 2 tasi Andijon viloyatidagi OTM va ITMLar huzurida

tashkil etilgan. Qolgan 7 ta IKlar Qoraqalpog'iston Respublikasi, Samarqand, Surxondaryo, Buxoro, Qashqadaryo, Farg'ona va Xorazm viloyatlaridagi yetakchi OTMLar huzurida o'z faoliyatlarini olib borgan.

3-jadval. IKlarda himoya qilingan PhD dissertatsiyalarining statistik tahlili (2020-2022 yillar)

№	Ijtimoiy-gumanitar fanlar yo'nalishi bo'yicha ILMIY KENGASHLAR	2020	2021	2022	jami
1	Andijon davlat universiteti PhD.31.01.2019.Tar.60.01	3			3
2	O'zR FA Tarix instituti DSc.02/30.12.2019.Tar.56.01	10	15	14	39
3	O'zbekiston milliy universiteti DSc.03/30.12.2019.Tar.01.04	20	23	19	62
4	O'zR FA Milliy arxeologiya markazi DSc.02/02.30.12.2019.Tar.45.01	3	2	8	13
5	O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi DSc.35/30.12.2019.Isl/Tar/F.57.01	3	1	2	6
6	O'zR FA Sharqshunoslik instituti DSc.02/30.12.2019.Tar.44.01	1	1	3	5
7	Samarqand davlat universiteti PhD.03/30.12.2019.Tar.02.10	5	3	9	17
8	Termiz davlat universiteti PhD.03/30.12.2019.Tar.78.02	2	12	21	35
9	Qoraqalpog' davlat universiteti PhD.03/30.12.2019.Tar.20.05	6	12	9	27
10	Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti DSc.03/30.12.2019.Fil/Tar.21.01	1		2	3
11	Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti DSc.11/30.12.2019.Tar/Yu/I/S/24.01	3	1		4
12	Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti DSc/03/30.12.2019/Ss/Tar.21.02		1		1
13	Buxoro davlat universiteti PhD.03/27.02.2020.Tar.72.07	1	6	18	25
14	Andijon davlat universiteti DSc.03/31.12.2020.Tar.60.01		5	5	10
15	Qarshi davlat universiteti PhD.03/27.02.2021.Tar.70.05		11	26	37
16	Farg'ona davlat universiteti PhD.03/31.03.2021.Tar.05.05		3	18	21
17	Urganch davlat universiteti PhD.03/30.06.2021.Tar.55.05		1	11	12
18	Toshkent davlat pedagogika universiteti DSc.03/30.12.2021.Tar.26.03			8	8
19	Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti PhD/03/30.12.2021/Ss/Tar.21.02			3	3
	Soni	58	97	17 6	331

2023-2025 yillarda IKlarda, jumladan, 2023 yilda 132 ta, 2024 yilda 135 ta PhD dissertatsiyalari himoyalari bo'lib o'tgan bo'lsa, joriy yilning 19-maygacha bo'lgan davr mobaynida 47 ta PhD dissertatsiyasi himoyasi uchun OAK e'loni chiqqan. Bu ko'rsatgich uch yil ichida jami 314 tani tashkil etadi. Bu davrda

mavjud bo'lgan 23 ta IKlarning 11 tasi Toshkent shahridagi, 3 tasi Samarqand, 2 tadan 4 tasi Qoraqalpog'iston Respublikasi va Buxoro viloyatlarida, 1 tadan 5 tasi Andijon, Surxondaryo, Qashqadaryo, Farg'ona va Xorazm viloyatlaridagi yetakchi OTMLar huzurida o'z faoliyatlarini olib borgan.

4-jadval. IKlarda himoya qilingan PhD dissertatsiyalarining statistik tahlili (2023-2025 yillar (19.05.2025))

№	Ijtimoiy-gumanitar fanlar yo'nalishi bo'yicha ILMIY KENGASHLAR	2023	2024	2025	jami
1	O'zR FA Tarix instituti DSc.02/30.12.2019.Tar.56.01	7	15	4	26
2	O'zbekiston milliy universiteti DSc.03/30.12.2019.Tar.01.04	12	10	2	24
3	O'zR FA Milliy arxeologiya markazi DSc.02/02.30.12.2019.Tar.45.01	4	8		12
4	O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi DSc.35/30.12.2019.Isl/Tar/F.57.01	5	1		6
5	O'zR FA Sharqshunoslik instituti DSc.02/30.12.2019.Tar.44.01	1	1	2	4
6	Samarqand davlat universiteti PhD.03/30.12.2019.Tar.02.10	4			4
7	Termiz davlat universiteti PhD.03/30.12.2019.Tar.78.02	36	1		37
8	Qoraqalpoq davlat universiteti PhD.03/30.12.2019.Tar.20.05	3	3		6
9	Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti DSc.03/30.12.2019.Fil/Tar.21.01	2			2
10	Buxoro davlat universiteti PhD.03/27.02.2020.Tar.72.07	14	5		19
11	O'zbekiston tarixi davlat muzeyi PhD.02/09.07.2020.Tar.120.01	1			1
12	O'zbekiston tarixi davlat muzeyi PhD.02/09.07.2020.Tar.70.03		1	1	2
13	Andijon davlat universiteti DSc.03/31.12.2020.Tar.60.01	5	6	6	17
14	Qarshi davlat universiteti PhD.03/27.02.2021.Tar.70.05	19	22	13	54
15	Farg'ona davlat universiteti PhD.03/31.03.2021.Tar.05.05	9	10	2	21
16	Urganch davlat universiteti PhD.03/30.06.2021.Tar.55.05	2	16	4	22
17	Toshkent davlat pedagogika universiteti DSc.03/30.12.2021.Tar.26.03	5	5	2	12
18	Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti DSc.03/29.12.2022/Ss/Tar.21.02	3			3
19	Samarqand arxeologiya instituti DSc.01/10.01.2024.Tar.169.01		2	3	5
20	Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti DSc.03/31/01/2024/Tar.21.03		9	2	11
21	Samarqand davlat universiteti DSc.03/06.04.2024.Tar.20.05		4	1	5

22	Qoraqalpoq davlat universiteti DSc.03/06.04.2024.Tar.20.05		10	1	11
23	Buxoro davlat universiteti DSc.03/27.09.2024.Tar.72.07		6	4	10
	Soni	132	135	47	314

2017-2025 yillar mobaynida PhD himoyalari uchun 34 ta va DSc himoyalari uchun 23 ta IKlar faoliyat ko'rsatgan bo'lib, ularning turli yillardagi himoya samaradorligi har xil bo'lgan. Bu holatni **5-jadval** misolida yaqqol ko'rishimiz mumkin.

	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024	2025	jami
PhD	6	39	48	58	97	176	132	135	47	738
IK soni	3	4	7	12	15	16	17	19	14	34
DSc	7	8	8	7	14	19	26	17	7	113
IK soni	4	3	4	5	8	9	9	8	5	23
jami	13	47	56	65	111	195	158	152	54	851

Endi, DSc dissertatsiyalari misolida IKlar faoliyatini tahlil qilsak. 2017-2025 yillarda IKlarda, jumladan, 2017 yilda 7 ta, 2018 yilda 8 ta, 2019 yilda 8 ta, 2020 yilda 7 ta, 2021 yilda 14 ta, 2022 yilda 19 ta, 2023 yilda 26 ta, 2024 yilda 17 ta DSc dissertatsiyalari himoyalari bo'lib o'tgan bo'lsa, joriy yilning 19-mayigacha bo'lgan davr mobaynida 7 ta DSc dissertatsiyalari himoyasi uchun OAK e'loni chiqqan. Bu ko'rsatgich 2017-2025 yillarda jami 113 tani tashkil etadi. Bu davrda mavjud bo'lgan 23 ta IKlarning 11 tasi Toshkent shahridagi, 3 tasi Samarqand, 2 tadan 4 tasi Qoraqalpog'iston Respublikasi va Buxoro viloyatlarida, 1 tadan 5 tasi Andijon, Surxondaryo, Qashqadaryo, Farg'ona va Xorazm viloyatlaridagi yetakchi OTM huzurida o'z faoliyatlarini olib borgan.

6-jadval. IKlarda himoya qilingan DSc dissertatsiyalarining statistik tahlili (2017-2025 yillar (19.05.2025))

№	Ijtimoiy-gumanitar fanlar yo'nalishi bo'yicha ILMIY KENGASHLAR	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024	2025	jami
1	O'zbekiston milliy universiteti Qoraqalpoq ijtimoiy fanlar ilmiy- tadqiqot instituti DSc.27.06.2017.Tar.01.04	2	4	3							9
2	Arxeologik tadqiqotlar instituti DSc.27.06.2017.Tar.45.01	1	1	1							3
3	O'zbekiston Milliy universiteti, O'zbekistonning eng yangi tarixi masalalari bo'yicha muvofiqlashtiruvchi-metodik markaz, Tarix instituti, Qoraqalpoq ijtimoiy fanlar ilmiy- tadqiqot instituti DSc.27.06.2017.Tar.01.04	3									3
4	O'zR FA Sharqshunoslik instituti DSc.27.06.2017.Tar.44.01			1	1						2

5	Toshkent islom universiteti DSc.27.06.2017.Tar/F/Fil.14.01	1									1
6	OʻzR FA Tarix instituti DSc.06.01.2018.Tar.56.01		3	3							6
7	OʻzR FA Tarix instituti DSc.02/30.12.2019.Tar.56.01				1	1	1	1	2		6
8	Oʻzbekiston milliy universiteti DSc.03/30.12.2019.Tar.01.04				3	6	6	9	6	2	32
9	OʻzR FA Milliy arxeologiya markazi DSc.02/02.30.12.2019.Tar.45.01					1	1				2
10	Oʻzbekiston xalqaro islom akademiyasi DSc.35/30.12.2019.Isl/Tar/F.57.01							1			1
11	OʻzR FA Sharqshunoslik instituti DSc.02/30.12.2019.Tar.44.01					1	1		2		4
12	Termiz davlat universiteti PhD.03/30.12.2019.Tar.78.02					2		2			4
13	Qoraqalpoq davlat universiteti PhD.03/30.12.2019.Tar.20.05					1	3	1			5
14	Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti DSc.11/30.12.2019.Tar/Yu/I/S/24.01				1						1
15	Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti DSc/03/30.12.2019/Ss/Tar.21.02				1						1
16	Buxoro davlat universiteti PhD.03/27.02.2020.Tar.72.07						1	1	1		3
17	Oʻzbekiston tarixi davlat muzeyi PhD.02/09.07.2020.Tar.120.01							1			1
18	Andijon davlat universiteti DSc.03/31.12.2020.Tar.60.01						1			1	2
19	Qarshi davlat universiteti PhD.03/27.02.2021.Tar.70.05					1	3	2	1	1	8
20	Urganch davlat universiteti PhD.03/30.06.2021.Tar.55.05					1				1	2
21	Toshkent davlat pedagogika universiteti DSc.03/30.12.2021.Tar.26.03						2	8	3		13
22	Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti DSc. 11/25.08.2022. S.24.02								1		1
23	Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti DSc.03/31/01/2024/Tar.21.03								1	2	3
		7	8	8	7	14	19	26	17	7	113

Endi, mavzuni IKlar joylashgan hududlar kesimida tahlil qilsak.

**7-jadval. IKlar joylashgan hududlar
(2017-2024 yillar misolida)**

№	hudud	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024	jami	%
1	Toshkent shahri	10	44	45	48	53	70	60	65	395	49,56
2	Andijon viloyati			4	3	5	6	5	6	29	3,63
3	Buxoro viloyati				1	6	19	15	12	53	6,65
4	Farg'ona viloyati					3	18	9	10	40	5,02
5	Qashqadaryo viloyati					12	29	21	23	85	10,66
6	Qoraqalpog'iston Respublikasi				6	13	12	4	13	48	6,02
7	Samarqand viloyati	3	3	7	5	3	9	4	6	40	5,02
8	Surxondaryo viloyati				2	14	21	38	1	76	9,53
9	Xorazm viloyati					2	11	2	16	31	3,89
		13	47	56	65	111	195	158	152	797	
		1,63	5,89	7,02	8,15	13,93	24,46	19,82	19,07	100%	

7-jadvaldan ko'rinib turibdiki, 2017-2024 yillarda himoya qilingan 797 ta dissertatsiyalardan 395 tasining himoyasi Toshkent shahrida faoliyat ko'rsatgan IKlarda bo'lib o'tgan. Bu barcha himoya qilingan dissertatsiyalarning 49,65 % ini tashkil etadi.

Qolgan 402 ta dissertatsiyalar himoyasi esa (51,35%) 8 hududda faoliyat olib borgan IKlarda bo'lib o'tgan.

Mavzuni tadqiq etishda IKlar faoliyat ko'rsatgan OTM va ITMlar statistikasining ham o'ziga xos o'rni bor.

**8-jadval. Ilmiy Kengashlar faoliyat ko'rsatgan OTM va ITMlar
(2017-2024 yillar misolida)**

№	Muassasalar	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024	jami	%
1	Andijon davlat universiteti			4	3	5	6	5	6	29	3,63
2	Arxeologik tadqiqotlar instituti	3	3	5						11	1,38
3	Buxoro davlat universiteti				1	6	19	15	12	53	6,64
4	Farg'ona davlat universiteti					3	18	9	10	40	5,02
5	Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti				4	1			1	6	0,75
6	O'zbekiston milliy universiteti	7	17	21	23	29	25	21	16	159	19,95
7	O'zbekiston tarixi davlat muzeyi							2	1	3	0,37
8	O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi			1	3	1	2	6	1	14	1,75

9	O'zR FA Milliy arxeologiya markazi				3	3	9	4	8	27	3,38
10	O'zR FA Sharqshunoslik instituti		6	3	2	2	4	1	3	21	2,63
11	O'zR FA Tarix instituti		21	20	11	16	15	8	17	108	13,55
12	Qarshi davlat universiteti					12	29	21	23	85	10,66
13	Qoraqalpoq davlat universiteti				6	13	12	4	13	48	6,02
14	Samarqand arxeologiya instituti								2	2	0,25
15	Samarqand davlat universiteti			2	5	3	9	4	4	27	3,38
16	Termiz davlat universiteti				2	14	21	38	1	76	9,53
17	Toshkent davlat pedagogika universiteti						10	13	8	31	3,89
18	Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti				2	1	5	5	10	23	2,88
19	Toshkent islom universiteti	3								3	0,37
20	Urganch davlat universiteti					2	11	2	16	31	3,89
		13	47	56	65	111	195	158	152	797	
		1,63	5,89	7,02	8,15	13,92	24,46	19,82	19,07	100%	

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). IKlar faoliyatini tizimli tahlil qilish doirasiga dissertatsiyalarning tarix fanlari ixtisosliklari bo'yicha, hududlar, OTM va ITMLar, yetakchi tashkilotlar, dissertatsiya bajarilgan muassasalar, talabgorlarning jinsiy

mansubligi ko'rsatkichlari kabi hamda boshqa masalalar ham kiradi. IKlar faoliyatining barcha aspektlarini bitta maqola doirasida tadqiq etishning imkoniyati yo'q. Shu sababli bu masala ko'plab ilmiy tadqiqotlar olib borishni taqozo etadi.

ADABIYOT VA MANBALAR RO'YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES):

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 16-fevraldagi PF-4958-son "Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi Farmoni [elektron resurs]. <https://lex.uz/docs/3119699>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 16-fevraldagi PF-4958-son "Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi Farmoni [elektron resurs]. <https://lex.uz/docs/3119699>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni [elektron resurs]. <https://lex.uz/docs/4545884>
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 29 oktyabrdagi PF-6097-son "Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni [elektron resurs]. <https://lex.uz/docs/5073447>
5. Комлев Н. Г. Словарь иностранных слов. — М: Эксмо, 2001. — 672 с.
6. <https://oak.uz/>
7. <https://ziyonet.uz/>

8. <https://uza.uz/uz>

QASHQADARYO VILOYATIDA MADANIY MEROS OBYEKTLARINI ASRASH VA ULARDA TURIZM SOHASINI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI

Allayev Murod

Ichki ishlar vazirligi Qashqadaryo akademik litseyi

“Huquqiy va ijtimoiy-gumanitar

fanlar” kafedrasi mudiri, dotsent v.b.

allayevmurod093@gmail.com

<https://orcid.org/0009-0004-1983-2025>

UDK: 94(575.1)

Annotatsiya. Ushbu maqolada mamlakatimizning madaniy meros obyektlarini asrash va ularda turizm sohasini rivojlantirish imkoniyatlari tarixiy manbalar asosida bayon etilgan.

Kalit soʻzlar: Madaniy meros obyektlari, yodgorlik, arxitektura va shaharsozlik, tarixiy obidalar, maʼnaviy meros, restavratsiya, meʼmorchilikka oid ashyolar, muzey-qoʻriqxonalar, Ichan qalʼa, sayyohlik tashkiloti, ziyorat turizmi, turizm salohiyati, Isoq Ota majmuasi, Musofir Ota ziyoratgohi, Xoʻja Imkonagi ziyoratgohi, replikatsiya.

Аннотация. В данной статье на основе исторических источников изложены возможности сохранения объектов культурного наследия страны и развития сферы туризма в них.

Ключевые слова: Объекты культурного наследия, памятник, архитектура и градостроительство, исторические памятники, духовное наследие, реставрация, архитектурные объекты, музей-заповедник, Ичан-Кала, туристическая организация, паломнический туризм, туристический потенциал, комплекс Исаак Ота, место паломничества Мусофир Ота, место паломничества Ходжа Имконагий, репликация.

Abstract. This article, based on historical sources, outlines the opportunities for preserving cultural heritage sites in our country and developing the tourism sector within them.

Keywords: Cultural heritage sites, monument, architecture and urban planning, historical monuments, intangible heritage,

restoration, architectural artifacts, museum-reserve, Ichan-Kala, tourism organization, pilgrimage tourism, tourism potential, Isoq Ota complex, Musofir Ota pilgrimage site, Khoja Imkonagi pilgrimage site, replication.

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION).

Mustaqillikning dastlabki yillarida Oʻzbekistonning tarixiy shaharlarida buyuk davlat va jamoat arboblari, ulugʻ allomalar, qadimiy shaharlar yubileylari bilan hamohang ravishda tarixiy-meʼmoriy obidalarni taʼmirlash, qayta tiklash sohasida ham ulkan ishlar amalga oshirildi.

Oʻtgan asrning oʻrtalariga kelib, jahon jamoatchiligi nodir va betakror yodgorliklarni asrab-avaylash, ularni umumbashariyat mulki sifatida kelajak avlodga yetkazish masalasiga eʼtibor qarata boshladi. YUNESKO tashkiloti 1972-yili Parijda boʻlib oʻtgan simpoziumda madaniy va tabiiy meros yodgorliklarini muhofazaga olish haqida rezolyutsiya qabul qildi. 1983-yilda BMT tomonidan 18-aprel – Yodgorliklarni va tarixiy joylarni asrash xalqaro kuni, deb belgilandi[5].

1992-yil 27-iyulda Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti “Oʻzbekturizm” milliy kompaniyasini tashkil qilish toʻgʻrisida”gi farmonga imzo chekdi va aynan shu yilning 20-oktyabrida Vazirlar Mahkamasining 424-sonli qarori asosida Dastur qabul qilindi. Bu milliy turizmni tashkil qilish uchun asos boʻldi[24]. 1993-yil Oʻzbekiston 120 dan ortiq davlatni birlashtirgan Jahon turistik tashkiloti (VTO)ga aʼzo boʻldi[4:19-21].

Madaniyat ishlari vazirligi qoshidagi

Yodgorliklarni saqlash bosh boshqarmasi tomonidan 1992-yilda Madaniy merosni asrash to'g'ridagi qonun ishlab chiqildi[22] va O'zNIPI instituti va "Me'mor" ta'mirlash uyushmasiga ta'mirlash va tiklash ishlari yuklatildi[21].

Tarixiy va madaniy yodgorliklar O'zbekiston Respublikasining "Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to'g'risida"gi qonuni bilan huquqiy muhofazaga olingan. Qolaversa, bir qator huquqiy hujjatlar ham qabul qilinmoqdaki, ular obidalarining tiklanishiga, qayta chiroy ochishiga sabab bo'ldi[7].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLARI (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОДОЛОГИЯ / METHODS).

O'zbekiston tarixiy-madaniy meros bo'yicha xalqaro qonunlar, konvensiyalarni o'rganish va qabul qilishga alohida e'tibor qaratdi. Hozirgi kunda O'zbekiston bo'yicha to'rtta madaniy-tarixiy obyekt – Xiva shahridagi Ichan qal'a 1991-yilda, Buxoro shahrining tarixiy markazi 1993-yilda, Shahrisabz shahridagi Amir Temur va temuriylar davri me'moriy yodgorliklari 2000-yilda, Samarqand shahrining tarixiy yodgorliklari 2001-yilda YUNESKOning "Butunjahon tarixiy-madaniy merosi" ro'yxatiga kiritildi[36:21-22]. Samarqand shahri "The Huffigton Post" internet nashri tomonidan inson o'z umri davomida hech bo'lmasa bir marta borib ko'rishi shart bo'lgan dunyodagi 50 shahardan biri sifatida e'tirof etilgan[19].

1992-yili O'zbekiston va Turkiya davlatlari hukumatlari tuzgan o'zaro shartnomaga muvofiq madaniy aloqalarni yanada kuchaytirish maqsadida Turkiyadan bir guruh kishilar respublikamizga tashrif buyurishdi. Ulardan Turkiya Respublikasi Madaniyat vazirining o'rinbosari Yahyo Oqsuybey, vazirlik bosh boshqarmasi boshlig'i Ilxon Shamshekbey, vazirlikning mas'ul xodimlari Dug'on Chevekbey, Murdjella Kaxverknlar Qashqadaryo viloyatida ham mehmon bo'lishdi. Ular viloyat madaniyat boshqarmasi boshlig'i Mamatqul Rajabov hamrohligida viloyat musiqali drama teatriga tashrif buyurishdi, xalq og'zaki ijodining ravnaq topishiga munosib hissa qo'shib kelayotgan

ayrim baxshilarning chiqishlarini tingladi, amaliy san'atimiz namunalari, tarixiy va madaniy yodgorliklarimiz bilan yaqindan tanishdilar. Shuningdek, ikki mamlakat vakillari o'rtasida tarixiy yodgorliklarni ta'mirlash sohasida hamkorlik aloqalarini o'rnatishga kelishib olindi[17].

O'zbekistonda sohani rivojlantirishning huquqiy asoslari ishlab chiqilib, amaliyotga tatbiq etib borildi. 1995-yili "Arxitektura va shaharsozlik" bo'yicha qonun qabul qilindi. Ushbu yangi qonunga muvofiq tarixni, madaniy boyliklarni, iqlimni, hududimizga xos bo'lgan holatlarni e'tiborga olgan holda 148 ta milliy-davlat "Qurilish me'yorlari va qoidalari" ishlab chiqildi va hayotga tatbiq etib borildi. Tarixiy va madaniy yodgorliklar O'zbekiston Respublikasining "Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to'g'risida"gi hamda "Arxeologiya merosi obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to'g'risida"gi qonunlari bilan huquqiy muhofazaga olingan[27].

1996-yil 14-martda Vazirlar Mahkamasining "Toshkentda O'zbekiston Fanlar akademiyasi huzurida Temuriylar tarixi davlat muzeyini tashkil qilish bo'yicha tadbirlarni amalga oshirish to'g'risida"gi hamda "Xalqaro Amir Temur jamg'armasini qo'llab-quvvatlash to'g'risida"gi qarori qabul qilindi. 1996-yilning aprel oyida Parijda, YUNESKO qarorgohida Amir Temur tavalludining 660 yilligi keng nishonlandi. Eng quvonarlisi shundaki, 1996-yilning 26-aprelida "Amir Temur" ordenini ta'sis etish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni qabul qilindi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1996-yilning 28-avgustidagi farmoniga asosan Samarqand va Shahrisabz shaharlari Amir Temur ordeni bilan mukofotlandi. 1996-yilning 18-oktyabrida Toshkent shahrida Temuriylar tarixi davlat muzeyi ochildi. Shu kuni Samarqand va Shahrisabzda ham Amir Temur haykallarining tantanali ochilish marosimi xalqaro miqyosda keng jamoatchilik o'rtasida tashkil etildi[31].

MUHOAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). Mustaqillik yillarida Qarshi shahrining yoshini aniqlash maqsadida qator sa'y-harakatlar olib borildi. 1999-yil aprel

oyida “Qadimiy Qarshi, Oʻrta Osiyo shaharsozligi va madaniyati tarixi” mavzusida ilmiy anjuman boʻlib, unda Qarshi shahrining yoshini aniqlash yuzasidan koʻplab munozarali bahslar boʻlib oʻtdi[12]. Shahar yoshini aniqlash boʻyicha Yerqoʻrgʻon shahar xarobasida taniqli olim Rustam Sulaymonov rahbarligida arxeologik ekspeditsiya ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borilib, “Qarshi-Navqat” jamgʻarmasi tuzildi[12].

2001-yil 30-avgustda “Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish toʻgʻrisida”gi yangi qonun qabul qilindi. Milliy qonunchilik tizimidagi ushbu ijobiy oʻzgarish sohada jadal surʼatlar bilan ish yuritish va respublikada mavjud madaniy meros obyektlarini hisobga olish, ularning texnik holatidan kelib chiqqan holda barcha imkoniyatlarni ishga solib, qurilish-taʼmirlash va bunyodkorlik ishlarini amalga oshirish uchun keng imkoniyatlar yaratdi[1:16].

2002-yil 29-iyul kuni Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi 269-sonli qarori qabul qilindi[25].

Respublikada yetti mingdan ortiq yodgorliklar boʻlib, ularning 2500 tasini arxitektura yodgorliklari tashkil etadi, 2700 dan ziyodi arxeologiya va 1000 dan ortiq mahobatli sanʼat yodgorliklari davlat himoyasiga olingan.

1991–2009-yillar mobaynida turli mavzularda xalqaro miqyosda 25 ta tadbir oʻtkazildi. Bu tadbirlar respublikadagi shaharlar, tarixiy shaxslar hamda bevosita yoki bilvosita tarixiy-madaniy yodgorliklar bilan bogʻliq[8:89-90].

Oʻzbekistonning har bir hududi tarixiy jarayonlarda ishtirok etgan boʻlsa ham, bugungi kunda Qashqadaryo viloyatida jami 1321 ta moddiy-madaniy meros obyektlari mavjud boʻlib, shundan 1043 ta arxeologiya, 210 ta arxitektura, 43 ta monumental, 35 ta diqqatga sazovor joylar mavjud[23].

Maʼlumki, Oʻzbekistonda mavjud tarixiy obidalarining 411 tasi YUNESKO roʻyxatiga

kiritilgan. Islom madaniyati obidalarini asrab-avaylash va tarixiy obidalariga boy davlat sifatida Oʻzbekiston 9-oʻrinni egallab turibdi[35:99-102]. Madaniy tarixiy ahamiyatga ega boʻlgan obyektlardan 545 tasi arxitektura, 575 tasi tarixiy, 1457 tasi sanʼat va 5500 dan ortigʻini arxeologik obyektlar tashkil etadi[3:4].

Jahon sayyohlik tashkiloti (YUNVTO)ning 2011-yil oktyabr oyida Janubiy Koreyada oʻtgan Bosh assambleyasida Oʻzbekiston Respublikasi ikkinchi marta BMT Jahon sayyohlik tashkiloti Ijroiya kengashi aʼzosi etib saylandi. Bu maqomga dunyoning kam sonli davlatlari sazovor boʻlgan. Mamlakatimizning ushbu tashkilotga aʼzoligi doirasida va xalqaro maydonda tarixiy-madaniy merosimizni ommalashtirish, shuningdek, turizm industriasini rivojlantirish maqsadida 2014-yilning iyun oyida Ispaniyaning Santyago-de-Kompostela shahrida boʻlib oʻtgan BMT Jahon sayyohlik tashkiloti Ijroiya kengashining 98-sessiyasida Ijroiya kengashning navbatdagi 99-sessiyasini Samarqandda oʻtkazish toʻgʻrisidagi qaror qabul qilindi[28]. Bu xalqaro maydonda Oʻzbekiston obroʻsining tobora oshib borayotganidan va mamlakatimizning ulkan sayyohlik salohiyati jahon hamjamiyati tomonidan yuksak eʼtirof etilayotganidan yorqin dalolatdir[40].

2011–2013-yillarda mamlakatimizga kelgan xorijlik sayyohlar soni 129,5 foizga oshdi. Sayyohlik xizmatlari hajmi 175,8 foiz, shunday xizmatlar eksporti 180,2 foiz oʻsdi. Mingdan ortiq sayyohlik tashkiloti, jumladan, 550 turoperator va agentlik, 500 dan ziyod mehmonxona ularga jahon andozalari darajasida xizmat koʻrsatdi[28].

Istiqlol yillarida sayyohlik sohasini rivojlantirish, yurtimizga kelayotgan xorijlik sayyohlar oqimini yanada koʻpaytirish yuzasidan ulkan ishlar amalga oshirildi. Uning infratuzilmasini rivojlantirish, xizmat koʻrsatish sifatini yanada yuksaltirish, malakali kadrlar tayyorlashga alohida eʼtibor qaratildi. Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan 2013-yil 1-noyabrda tasdiqlangan 2013–2015-yillar davrida Qashqadaryo viloyatida turizm sohasini rivojlantirish dasturi bu ishlarining uzviyligini

ta'minlaydi[6].

Mazkur dasturga kiritilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish asosida viloyatning 43 ta tarixiy-madaniy obyektlari qayta tiklandi va holati yaxshilandi. 24 ta yangi mehmonxona qurish va 5 ta mavjudlarini qayta ta'mirlash orqali mehmonxona xizmatlari ko'rsatish hajmi keskin ortdi. Turistik xizmatlar hajmi 1,5 barobarga oshdi va 2015-yilga borib bu 4,5 milliard so'mni tashkil etdi. Viloyatning eksport hajmi 2012-yilning ko'rsatkichiga nisbatan 1,4 martaga ortdi. Viloyatdagi tarixiy obidalar hamda mintaqaning turistik imkoniyatlari haqida ma'lumot beruvchi reklama bukletlari, broshyuralari hamda o'zbek, rus va ingliz tillarida reklama roliklari tayyorlandi. Shuningdek, dastur doirasida 2013-yilda bajarilishi rejalashtirilgan loyihalar to'liq amalga oshirildi. Jumladan 1,2 million dollar mablag' evaziga 3 ta loyiha (2 ta restoran va 1 ta ko'ngilochar markaz) ishga tushirildi. 2014-yilda 51,3 million dollar mablag' hisobiga 44 ta tadbir va loyihalar amalga oshirildi[10].

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013-yil 1-noyabrda qarori viloyatda bu boradagi ishlarni yanada jadallashtirishga xizmat qildi. Mazkur dastur doirasida 167 ta tadbir va loyihani amalga oshirish uchun 109 million AQSh dollariga yaqin investitsiya o'zlashtirilishi ko'zda tutilgan. Shundan 48,7 million dollari korxona va tashkilotlarning o'z mablag'lari, 6 million dollari xorijiy investitsiyalar, 2 million dollari grant va 15 million dollarlik qismi davlat byudjeti hissasiga to'g'ri keldi. Bundan tashqari, tijorat banklari tomonidan 37,1 million dollar miqdorida kredit mablag'lari ajratildi. Belgilangan chora-tadbirlar asosida viloyat hududidagi 43 ta tarixiy-madaniy obyektlar qayta tiklandi, 24 ta mehmonxona yangidan qurilib, 5 tasi qayta ta'mirlandi[43].

2015-yil davomida viloyatdagi obidalarda 11,5 milliard so'mlikdan ortiq restavratsiya va konservatsiya ishlari amalga oshirildi. Buning natijasida Shahrisabzdagi Oqsaroy, Doruttilovat, Dorus-saodat, Chorsu majmualari, Chubin, Abdushukur Og'olik madrasalari, Malik Ajdar, Qunduzak masjidilari, o'rta asr hammomi, qadimiy qal'a devori, Samarqand

darvozasi, Qarshi tumanidagi Imom Mu'in an-Nasafiy, Xalvoniy, Kasbi tumanidagi Sulton Mir Haydar ziyoratgohlari qayta chiroy ochdi. Shuningdek, 2016–2017-yillarda ham bu ishlar izchil davom ettirilishi va buning uchun 5 milliard so'mdan ortiq mablag' sarflanishi ko'zda tutildi[5].

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2016-yil O'zbekiston Respublikasiga 2,027 mln kishi tashrif buyurgan bo'lsa, 2017-yil O'zbekistonda ziyorat turizmini tashkil etish va rivojlantirish uchun dastlab Malayziya, Indoneziya va Singapur mamlakatlaridan respublikamiz muqaddas qadamjolariga ziyorat turizmi yo'nalishida sayyohlarni jalb qilish bo'yicha ishlar faollashtirilib, vizasiz rejim joriy qilindi va qo'shimcha charter reyslar tashkil etildi[38].

Aytish mumkinki, 2016–2018-yillar davomida, bu sohada qabul qilingan qonunlarning ijrosini Qashqadaryo viloyati raqamlarida kuzatsak, hududda 1043 ta arxeologik, 208 ta me'moriy, 27 ta diqqatga sazovor joy, 43 ta monumental jami 1321 ta moddiy-madaniy meros obyektlari sifatida 50 ta joylashtirish vositalari (2646 o'rin), 100 tadan ortiq milliy va yevropa taomlari tayyorlaydigan restoran hamda milliy uslubdagi choyxonalar, 18 ta turoperatorlik subyektlari faoliyati tashkil etildi. Shu bilan birga, 17 ta turistik sinfga mansub avtotransport vositalari, 43 nafar tarjimon sayyohlarga xizmat ko'rsatdi. 2018-yilning yanvar-noyabr oylarida viloyatga jami 1,4 mln turistlar tashrif buyurgan bo'lib, shundan 62,7 ming nafari xorijiy sayyohlarni tashkil etdi. Xorijlik sayyohlar soni ikki barobarga oshgan. Sayyohlarning asosiy qismini Yevropa (46,4% – Italiya, Fransiya, Germaniya, Ispaniya, Buyuk Britaniya), qo'shni mamlakatlar (27,4%), Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari (12,6%) fuqarolari tashkil etdi[11].

O'zbekistondagi 180 dan ortiq xalqaro sayyohlik yo'nalishlarining 140 dan ziyodi aynan tarixiy-madaniy meros obyektlari bilan bog'liq. Shuning uchun keyingi yillarda madaniy meros obyektlarini ta'mirlash va restavratsiya qilish ishlariga ajratilayotgan mablag'lar sezilarli darajada oshirildi. Respublika byudjeti hisobidan 2016-yili 67 ta

madaniy meros obyektlarida 22831,062 mln so'mlik, 2017-yili 45 ta madaniy meros obyektlarida 28848,1 mln so'mlik, 2018-yili 72 ta madaniy meros obyektlarida 47569,5 mln so'mlik ta'mirlash-tiklash ishlari bajarildi. 2019-yilda esa bu ishlarga 67 mlrd so'm mablag' ajratildi[33:18].

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev tomonidan yoshlar tafakkurini ma'rifat asosida shakllantirish va tarbiyalash yuzasidan, "dinimiz tarixi, buyuk allomalar va aziz-avliyolarimiz merosini o'rganish va targ'ib etish, yurtimizni, uning o'ziga xos tarixi, madaniyati, ulug' olim-u ulamolarini, bebaho ma'naviy merosimizni to'liq o'rganish" vazifasining kun tartibiga qo'yilishi tadqiqotchilar oldiga yangi ilmiy izlanishlarni boshlab berdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 7-fevraldagi "Ichki turizmni jadal rivojlantirishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3514-sonli qarori hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 13-14-dekabr kunlari Qashqadaryo viloyatiga tashriflari vaqtida, Shahrisabz shahrini festivallar shahriga aylantirish bo'yicha berilgan topshiriqlari ijrosini ta'minlash maqsadida Shahrisabz shahri va unga yaqin hududlarda bo'lib o'tadigan festivallar ro'yxati shakllantirildi va yil mobaynida turli festival, seminar, konferensiyalar tashkil etildi[23].

Qashqadaryo viloyati hududlarida turizmni rivojlantirish uchun ulkan imkoniyatlar mavjud. Shularni hisobga olgan holda, 2017-2018-yillarda Qashqadaryo viloyatida turizm sohasini kompleks rivojlantirish dasturi ishlab chiqildi. Hududning yirik turizm salohiyatidan samarali foydalanish maqsadida 2017-yilda 12 ta tarixiy-madaniy obyektlarni qayta tiklash va ta'mirlash, turizm infratuzilmasini rivojlantirish, mehmonxona, restoranlar tashkil etish, xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilash, madaniy meros obyektlarini restavratsiya qilish amalga oshirildi[34].

Qashqadaryo viloyati va Shahrisabz shahrining turistik xaritalari, turistik buklet, flayer va kitobchalar nashr etilib, axborot markazlari orqali bepul tarqatilishi yo'lga qo'yildi. Sayyohlarni jalb qilish va ularning

bo'sh vaqtlarini maroqli o'tkazish maqsadida 2018-yilning o'zida Amir Temur tavalludini har yili an'anaviy shaklda nishonlab borish ta'minlandi[44:229].

2018-yil 6-10-sentyabr kunlari Shahrisabz shahrida "Xalqaro maqom san'ati anjumani" tashkil etildi. Anjuman doirasida hunarmandlar festivali, folklor guruhlari konkursdagi yuqori darajada o'tkazildi[11]. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 13-14-dekabr kunlari Qashqadaryo viloyatiga tashrifi davomida, Qashqadaryo viloyati Turizmni rivojlantirish hududiy boshqarmasi tomonidan 8-9-fevral kunlari yetakchi tur operatorlar, ommaviy axborot vositalari va blogerlarni Qashqadaryo viloyatining turizm salohiyati bilan tanishtirish maqsadida "Info-Tour" tashkil etildi [42].

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-martdagi "O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi huzuridagi Madaniy meros departamenti faoliyatini tashkil etish hamda moddiy-madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanishga oid ayrim normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi 265-sonli qarorining 33-bandida "YUNESKOning Umumjahon merosi ro'yxatiga kiritilgan hududlarning (obyektlarning) shaharsozlik normalari va qoidalari talablari maxsus vakolatli organ bilan kelishishi belgilab qo'yildi. Shu jihatdan, "O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi huzuridagi madaniy meros departamenti faoliyatini tashkil etish hamda moddiy-madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanishga oid ayrim normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi qaror qabul qilindi [26].

2019-yilning 1-fevralidan 76 ta mamlakat fuqarolari 30 kunlik muddat bilan O'zbekistonga vizasiz kirishi mumkin bo'ldi [37:368-374]. 2019-yilda Qashqadaryo viloyatida turizm sohasini rivojlantirish bo'yicha ustuvor vazifalar sifatida Shahrisabz shahrida respublika bo'ylab faoliyat olib borayotgan san'at vakillari orasida "Maqom anjumani" hamda turli yangi zamonaviy ko'rinishdagi festivallarni tashkil etgan holda Shahrisabz shahrini Festivallar shahriga

aylantirish, Kitob tumanidagi Xo'ja Imkonagi ziyoratgohi, Mirishkor tumani Jenov qishlog'idagi Isoq Ota majmuasi, G'uzor tumani G'uzor shahridagi Musofir Ota ziyoratgohi va boshqa turizm obyektlariga olib boruvchi jami 83 km yo'l va yo'lbo'yi infratuzilma Investitsiya dasturiga kiritildi.

Samarqandda o'tkazilayotgan "Sharq taronalari", Shahrisabzda "Maqom", Marg'ilonda xalqaro folklor, turli yillarda tashkil etilgan "Asrlar sadosi" kabi festivallar orqali nafaqat musiqa san'ati, balki O'zbekistondagi tarixiy-madaniy meros durdonalari ham xalqaro miqyosda keng targ'ib qilinmoqda. Xuddi shunday tadbirlardan yana biri – "Xalqaro hunarmandchilik" festivali O'zbekiston Respublikasi Prezidentining maxsus qaroriga binoan[14], 2019-yilning 10–15-sentyabrda Qo'qon shahrida o'tkazildi. Festivalda 80 ga yaqin mamlakatdan mohir hunarmandlar ishtirok etdilar[41]. Ana shunday madaniy-ma'rifiy tadbirlar respublikamizning tarixiy-madaniy yodgorliklarini xalqaro miqyosda targ'ib etilishining eng samarali vositalardan biri hisoblanadi.

Turizm salohiyati va infratuzilmasini yanada rivojlantirish maqsadida 2019–2020-yillarda qiymati 299,3 mlrd. so'm bo'lgan 72 ta loyihalar amalga oshirilib, 944 ta yangi ish o'rinlari yaratildi. Jumladan, 15 ta mehmonxona, 40 ta mehmon uylari, o'tov uylar va dam olish uylarini tashkil etish loyihalari, 4 ta aholi dam olish maskanlarini barpo etish loyihalari; transport infratuzilma sohasini rivojlantirish bo'yicha 7 ta turizm toifasidagi transport vositalarini xarid qilish; yo'l bo'yi infratuzilma obyektlarini barpo etish loyihalari bo'yicha mehmonxona, avtoturargoh, savdo rastalari barpo etish loyihalari amalga oshirildi[10].

Ma'lumki, Prezidentimizning 2018-yil 19-dekabrda "Moddiy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori asosida Madaniyat vazirligi huzurida Madaniy meros departamenti va hududlarda uning boshqarmalari tashkil etilgan. Shuningdek,

2019–2021-yillarda moddiy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish, asrash, ilmiy tadqiq etish, targ'ib qilish va ulardan oqilona foydalanishni tubdan takomillashtirish bo'yicha "yo'l xaritasi" ham tasdiqlangan[2].

Prezident farmoni asosida 2019–2025-yillarda O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirish Konsepsiyasi tasdiqlandi. Uning ijrosi orqali O'zbekistonga tashrif buyuradigan xorijiy turistlar sonini 4,8 milliondan 9 milliongacha, turizm xizmatlari eksportini 951 million AQSh dollaridan 2,2 milliard AQSh dollarigacha, mehmonxonalar va shu kabi joylashtirish vositalari sonini 910 tadan 2994 taga, turoperatorlar sonini 957 nafardan 1676 nafarga oshirish belgilangan [39].

Prezident qarori bilan tasdiqlangan 2022–2023-yillarda davlat muzeylarida tashkil etiladigan qo'shimcha xizmatlarning manzilli rejasiga muvofiq, "Shahrisabz" davlat muzey-qo'riqxonasida 2023-yilda me'morchilikka oid ashyolarni tiklashga ixtisoslashtirilgan restavratsiya laboratoriyasi ham ochiladi. Qaror bilan tasdiqlangan maqsadli ko'rsatkichlarga muvofiq, 2022–2026-yillar davomida muzey-qo'riqxonamizda har yili 10 tadan, jami 50 ta noyob muzey ashyolari va kolleksiyalarining replikasi nusxalarini tayyorlash va ularni realizatsiya qilish mo'ljallangan [20].

Xullas, Sovet davrida madaniy meros obidalarini muhofaza qilish va ta'mirlash ishlari olib borilsa-da, ularning aksariyati qarovsiz holatga tushib qolgan edi. Mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab tarixiy-madaniy merosni asrash, saqlash va targ'ib qilish ishlari izchil olib borilib, bu ishlarning huquqiy asosi mustahkamlandi. Tarixiy yodgorliklarni ta'mirlash va saqlash ishlari davlat tomonidan qo'llab-quvvatlandi. Bunda mahalliy va xorijiy tajribalardan foydalanildi. Bundan tashqari tarixiy-madaniy yodgorliklarda turizm sohasini rivojlantirish bo'yicha ham salmoqli ishlar olib borildi.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Ma'lumki, har bir xalqning o'z tarixi va o'ziga xos madaniyati bor. Shular qatorida ham o'tgan asrlar mobaynida o'zidan ulkan tarixiy meros qoldirgan o'zbek xalqi

ham bor. O'rta asrlar davrida Markaziy Osiyoda ilm-fanning yuqori darajada rivojlanishi moddiy madaniyat taraqqiyotiga o'zining ta'sirini ko'rsatdi. Jumladan, bu davrda ko'plab madrasa, masjid, xonaqoh, maqbara va shu kabi boshqa ko'plab obidalar bunyod etilgan. Keyingi davrda mustamlakachilik asoratiga tushilishi natijasida bu merosga bo'lgan munosabat o'zgardi.

Mustaqillikning dastlabki yillaridan

boshlab tarixiy merosni tiklash, o'rganish va targ'ib qilish bo'yicha amaliy ishlar olib borildi. Bunda dastlab sohani rivojlantirishning huquqiy asoslari yaratildi. Buxoro, Samarqand, Xiva, Shahrisabz, Qarshi shaharlarining yubiley tantanalari munosabati bilan ularning hududida joylashgan tarixiy-madaniy yodgorliklar ta'mirlandi. Shu bilan bir qatorda ushbu boy madaniy yodgorliklar respublika hududida turizm sohasini rivojlantirishda muhim omil bo'ldi.

ADABIYOT VA MANBALAR RO'YXATI

(ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА /

REFERENCES):

1. Abriyev R. Mustaqillik yillari O'zbekistonda tarixiy-me'moriy obidalarni ta'mirlash va qayta tiklash tarixi (Zarafshon vohasi misolida). Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – T., 2018. – B. 16.
2. Bozorova Sh. Ta'mirga muhtoj sardoba. // Qashqadaryo, 2020-yil 25-fevral.
3. Жалилов О.З. Проблемы и перспективы развития историко-культурного туризма в Узбекистане (1991–2010 гг.). Автореф. дисс...канд. ист. наук. – Ташкент, 2011. – Б. 4.
4. Жаҳон Туризм Ташкилоти Бош Ассамблеясининг Бали шаҳрида (Индонезия) бўлиб ўтган мажлиси, 1993-йил, X сессия. Манба: Основополагающие документы ЮНВТО. Том 1. Февраль, 2016. – С. 19-21.
5. Joniimov B. Buyuk xalqimizning bebaho mulki. // Qashqadaryo, 2016-yil 16-aprel.
6. Joniimov B. Turizmni rivojlantirish dasturi: ishlar qizg'in davom etmoqda. // Qashqadaryo, 2014-yil 6-may.
7. Joniimov B. Xalqimizning bebaho mulki. // Qashqadaryo, 2015-yil 18-aprel.
8. Karimov I.A. "Tarixiy xotira va inson omili – buyuk kelajagimizning garovidir" risolasini o'rganish bo'yicha o'quv qo'llanma. – Toshkent, 2012. – B. 89-90.
9. Qadimgi Kesh-Shahrisabz tarixidan lavhalar. – Toshkent: Sharq, 1998.
10. Qashqadaryo viloyati Madaniy meros boshqarmasi tomonidan bajarilgan ishlar yuzasidan ma'lumotlar. // Qashqadaryo viloyati madaniy meros boshqarmasi ma'lumoti, 2022-yil.
11. Qashqadaryo viloyatining mavjud turistik salohiyati va sohani rivojlantirishning ustuvor vazifalari to'g'risida tezislari. // Qashqadaryo viloyati madaniy meros boshqarmasi ma'lumoti, 2022-yil.
12. Qashqadaryo, 1999-yil 7-avgust.
13. Qodirova T.F., Mamatmusayev T.Sh. Temuriylar davridagi shaharlarning arxitekturaviy-rejaviy tuzilishi. // Arxitektura, qurilish, dizayn. – Toshkent, 2009. – №3-4.
14. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 28.11.2018-yil, 09/18/960/2236-son.
15. Латипов Д.В. Проблемы развития градостроительства Республики Узбекистан в условиях формирования рыночных отношений. // Архитектура и строительство Узбекистана, 2000. – № 2-3.
16. Lex.uz.
17. Madaniy merosga boy o'lka. // Qashqadaryo haqiqati, 1992-yil 13-oktyabr.
18. Mamatmusayev T.Sh. Ta'mirlash mashg'ulotlarida kompyuterdan foydalanish: Darslik. Arxitektura yodgorliklarini ta'mirlash. – Toshkent, 2009.
19. Manzurova N. O'zbekistonning sayyohlik salohiyati Yaponiyada namoyish etilmoqda. // Qashqadaryo, 2015-yil 29-sentyabr.

20. Nizomov T. Shahrisabzda restavratsiya laboratoriyasi ochiladi. // Qashqadaryo, 2022-yil 9-iyun.
21. O'z MA, M-1-fond, 1-ro'yxat, 9-ish, 14-varaq.
22. O'z MA, M-7-fond, 1-ro'yxat, 61-ish, 162-varaq.
23. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti hamda Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlangan qaror va farmonlar ijrosi yuzasidan Qashqadaryo viloyatining turizm sohasida erishilgan natijalar to'g'risida ma'lumot. // Qashqadaryo viloyati madaniy meros boshqarmasi ma'lumoti, 2022-yil 14-mart.
24. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekturizm" MKni tashkil etish to'g'risida"gi PF-447-sonli farmoni. // Xalq so'zi, 1992-yil 27-iyul.
25. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2002-y., 14-son, 113-modda.
26. O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi huzuridagi madaniy meros departamenti faoliyatini tashkil etish hamda moddiy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanishga oid ayrim normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida qarori. <https://ex.uz/docs/4262171>.
27. O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari milliy bazasi ma'lumoti.
28. O'zA. Samarqandda jahon sayyohlik forumi. // Qashqadaryo, 2014-yil 4-oktyabr.
29. Подъяпольский С.С., Бессонов Г.Б., Беляев Л.А., Постникова Т.М. Реставрация памятников архитектуры. – Москва: Стройиздат, 1988.
30. Po'latov X., O'ralov A. Arxitektura yodgorliklarini ta'mirlash va qayta qurish. – Toshkent: TAQI, 2002.
31. Primova Z. Yillar o'tsa-da unutilmaydi. // Kesh, 2014-yil 14-oktyabr.
32. Пугаченкова Г.А. Шедевры Средней Азии. – Ташкент: Издательство литературы и искусства имени Гафура Гуляма, 1986.
33. Rasulov M. O'zbekistonda tarixiy va madaniy yodgorliklarning ahvoli hamda ularga bo'lgan munosabatning transformatsiyasi (1980–2019 yy.). Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – T., 2020. – B. 18.
34. Ro'ziyev Z. Qashqadaryo: Istiqloq nuridan yashnagan voha. // Qashqadaryo, 2017-yil 10-avgust.
35. Ruziyeva D.I. Ways of development and promoting of cultural tourism in Uzbekistan. // Economics and management: theory and practice: Collection of scientific articles. Vol. 2. — VerlagSWGimexGmbH, Nürnberg, Deutschland, 2014. — Pp. 99-102.
36. Savriyev J. Navoiy viloyati tarixiy yodgorliklari ta'mirlanishining asosiy yo'nalishlari (1991–2020-yillar). Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – Buxoro, 2020. – B. 21-22.
37. Sayfutdinov Sh.S. O'zbekistonda ziyorat turizmini rivojlantirishning ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmlari. // Elektron manba: www.tsue.uz. – S. 368-374.
38. Sayfutdinov Sh.S. Xalqaro turizm: tajriba va amaliyot. – Toshkent: TDIU, 2017. – B. 39-50.
39. Shoimardonov B. Turist o'zida ijobiy taassurot qoldirmagan joyga qayta keladimi? // Qashqadaryo, 2019-yil 30-aprel.
40. Umarova I. Samarqand nufuzli anjuman mezboni. // Qashqadaryo, 2014-yil 6-sentyabr.
41. uzbektourism.uz.
42. Xalq so'zi gazetasi, 2019-yil 31-avgust.
43. Xo'jayorov O'. Karvon qaytdi Ipak yo'liga. // Qashqadaryo, 2015-yil 21-mart.
44. Жўраева С. Ўзбекистоннинг жанубий худудларидаги зиёратгоҳлар тарихи ва уларнинг маҳаллий аҳоли ҳаётида тутган ўрни. Монография. –Тошкент: “Ўзкитоб савдо наشريёт-матбаа ижодий уйи”, 2021. – Б. 229.

БОЗОР ИҚТИСОДИЁТИНИНГ ШАКЛЛАНИШИ ВА УНИНГ ЎЗБЕКИСТОНДА РИВОЖЛАНИШ ТАРИХИ ХУСУСИДА АЙРИМ МУЛОҲАЗАЛАР

Ҳамроев Шухрат Шарофович

Мактабгача таълим таъкилотлари директор ва мутахассисларини

қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш институти

“Ижтимоий фанлар” кафедраси катта ўқитувчиси

<https://orcid.org/0009-0008-9999-203X>

UDK: 94(575.1)

Аннотация: мақолада дунёда бозор иқтисодиётининг шаклланиш тарихи, унинг ривожланиши ва моҳиятига туртки бўлган омиллар, бозор муносабатлари хусусидаги илмий-назарий ёндашувларнинг айрим жиҳатлари ва ушбу тараққиёт йўлининг Ўзбекистонда ривожланиш тарихи баён қилинган. Мақолада Ўзбекистонда бозор иқтисодиётининг “ўзбек модели” нинг шаклланиши ва унинг ўзига хос хусусиятлари, бозор муносабатларига асосланган демократик жамият қуришнинг асосий тамойиллари, иқтисодий ислохотлар стратегияси ва мазмун моҳияти ёритилган.

Калит сўзлар: бозор иқтисодиёти, жаҳон тарихи, ривожланиш, тарихий тараққиёт, Ўзбекистон, тамойил, ўзбек модели, ишлаб чиқариш, тадбиркорлик, хусусий мулк, ер, уй-жой.

Аннотация: в статье описана история становления рыночной экономики в мире, факторы, обуславливающие ее развитие и сущность, некоторые аспекты научно-теоретических подходов к рыночным отношениям, а также история развития этого пути в Узбекистане. В статье описано формирование «узбекской модели» рыночной экономики в Узбекистане и ее специфические особенности, основные принципы построения демократического общества, основанного на рыночных отношениях и стратегия экономических реформ.

Ключевые слова: рыночная экономика, всемирная история, развитие, историческое развитие, Узбекистан, принцип, узбекская модель, производство, предпринимательство, частная

собственность, земля, жилье.

Abstract: the article describes the history of the formation of a market economy in the world, the factors determining its development and essence, some aspects of scientific and theoretical approaches to market relations, as well as the history of the development of this path in Uzbekistan. The article describes the formation of the “Uzbek model” of a market economy in Uzbekistan and its specific features, the basic principles of building a democratic society based on market relations and the strategy of economic reforms.

Key words: market economy, world history, development, historical development, Uzbekistan, principle, Uzbek model, production, entrepreneurship, private property, land, housing.

КИРИШ (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). Агар инсоният тарихига назар ташланса, хусусий мулкнинг ривожланиши билан илк бозор муносабатлари ҳам шакллана бошлаганлигини кўриш мумкин. У узок тарихий тараққиёт жараёнида шаклланди ва ўзининг маълум тарихий эволюциясини бошдан кечирди. Айниқса бозор муносабатларига хос хусусий мулк ва бозор ишлаб чиқариши капитализм даврида юқори даражага етди. Аслида хусусий мулк объектлари хилма-хилдир. Улар шахсий фаолият, уй хўжалигини юритиш, даромад, кредит олиш, инвестициялар, маблағлар ҳисобидан, акциялар ва бошқа занжирли қимматли қўғозлар асосида тадбиркорлик фаолияти юзага келади [1. Vol.1].

АДАБИЁТЛАР ТАҲЛИЛИ ВА МЕТОДЛАРИ (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОДОЛОГИЯ / METHODS). Бозор

муносабатларининг шаклланиши Шарк ва Ғарбда анчагина эртароқ шаклланган бўлсада, замонавий бозор шакллари Европада унга хос бўлган дастлабки элементлар сифатида XVI аср охири – XVII бошларида вужудга кела бошлаганлиги таъкидланади. Бу борада америкалик иқтисодчи олим Йезеф Шумпетер (1883-1950) асарлари анчагина эътиборга моликдир. У ўзининг “Иқтисодий ривожланиш назарияси” китобида бозор иқтисодиётининг асосий ричаги бўлган хусусий мулкнинг моҳияти, тадбиркорлик ва уни бошқарувчи тадбиркор хусусида талай илмий-назарий қарашларни илгари сурган [2. С. 21]. Унинг фикрича, бозор иқтисодиёти шароитида “тадбиркорнинг вазифаси янги кашфиётларни амалга татбиқ қилиш орқали ишлаб чиқариш услубини реформа қилиш (янгилаш) дан иборат. Кенг маънода кўриб чиқилганда тадбиркорнинг вазифаси бозор ёки хом ашё базаси асосида янги товар ишлаб чиқариш ёки эскирганини модернизация қилиш учун янги технологиялар ишлатишдан иборат”, дея қайд этади. Муаллифнинг таърифига кўра, тадбиркор ишлаб чиқаришни ташкил этувчи, унинг янгилаш йўллари кидирувчи, белгиловчи ва янги комбинацияларини ишга солувчи шахсдир.

Австриялик олимлар Л.Мизес ва Ф.Хайек ўз тадқиқотларида бозор муносабатларининг хусусиятлари, унинг ўзгарувчан шакллари, иқтисодиётни мувозанатлаштиришдаги ва тартибга солишдаги ролини таҳлил қилишга жиддий эътибор қаратганлар. Америкалик иқтисодчи олимлар Р.Хизрич ва М.Питерслар бозор шароитидаги тадбиркорликни қийматга эга бўлган бирон бир янги нарса, ашёни яратиш жараёни, тадбиркорни эса бунинг учун зарурий куч ва вақт сарфлаб, ўз зиммасига молиявий, психологик ва социал рискларни олувчи ҳамда буларнинг эвазига мукофот сифатида пул ва ютуқлардан қониқиш олувчи шахс, деб таърифлаганлар [3. 10]. Р.Макконнел ва С.Брюлар бозор иқтисодиёти шароитида тадбиркорни ишлаб чиқариш омилларини

бирлаштирувчи, катализатор вазифасини бажарувчи, бизнес юритишда қарорлар қабул қилувчи, янги технологияларни жорий этувчи, янги маҳсулотлар ишлаб чиқаришга интилувчи, таваккал (риск) қилишга мойил шахс сифатида изоҳлайдилар [4. С. 38].

МУҲОКАМА (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). Бозор иқтисодиёти - иқтисодий муносабатларнинг кенг миқёсли тизими, авваламбор, хусусий мулкчиликка асосланган ишлаб чиқариш ва хўжалик механизмлари орқали бошқариладиган жамиятдир. Бундай муносабатларнинг субъекти турли хусусий мулк эгалари, жумладан, турли уюшмалар, давлат ва хусусий сектор эгалари, юридик ва жисмоний шахслар ҳисобланади [5. Vol.1]. Мутахассисларнинг таъкидлашларича, бозор муносабатлари субъектларининг таснифи қуйидаги тўрт гуруҳга бўлинади: 1) фирмалар; 2) банклар; 3) сўғурта ва траст компаниялари; 4) инновация ва инвестиция (сармоя) тузилмалари. Буларнинг барчаси ички бозорда ва ташқи бозорда амал қилади [6. 195].

Бозор иқтисодиёти – инсонлар учун муносиб турмуш тарзини шакллантирувчи, жамият тараққиётини тезлаштирувчи иқтисодий алоқалар мажмуидир. Халқаро тажрибада бозор иқтисодиётига ўтишнинг бир қанча моделлари мавжуд бўлиб, уларни умумлаштирган ҳолда бозор иқтисодиётига ўтишнинг уч турига ёки моделига бўлиш мумкин:

1. Ғарбий Европа мамлакатлари ва бошқа ривожланган мамлакатлар йўли.

2. Мустамлакачиликдан озод бўлиб, мустақил тараққиёт йўлига кириб ривожланаётган Осиё, Африка, Лотин Америкаси мамлакатларининг йўли.

3. Мустақил Давлатлар Ҳамдўстлиги мамлакатлари, бошқача айтганда, «социалистик» ривожланиш йўлидан борган ва ҳозирда бозор иқтисодиёти йўлини танлаган мамлакатлар йўли [7. 87].

XX асрнинг 80-йиллари охири-90-йиллари бошига келиб СССР таркибидаги барча иттифокдош республикаларда бўлгани каби Ўзбекистонда ҳам бозор

муносабатларининг ташкил топиши учун қулай шарт-шароит етилди. Давлат мулки ўрнида хусусий мулк таркиб топиб, инсон мулкнинг ҳақиқий эгасига айлана бошлади. Муҳими мулкчиликнинг турли шакллари, хусусан хусусий мулк, кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликнинг ҳуқуқий асоси яратила бошланди [8. 87].

Маъмурий-буйруқбозлик иқтисодиётдан бозор иқтисодиётига ўтиш кўплаб мамлакатларда умумий тенденцияга эга. Бу жараён иқтисодиётни эркинлаштириш, чуқур институционал (энг аввало, мулкчилик муносабатларида) ўзгаришларни ўз ичига олади, бироқ, бир вақтнинг ўзида молиявий барқарорлаштириш чора-тадбирларини амалга оширилишини тақозо этади. Мазкур тизимни ўзгартириш мазкур тизим асосининг ўзгаришини ҳамда уни сифат жиҳатидан фарқ қилувчи бозор тизимига алмаштирилишини англатар экан, бундай турдаги ўзгаришларни тизимий ислохотлар, деб аташ мақсадга мувофиқ бўлади.

Ўзбекистонда бозор муносабатларига ўтиш шароитида давлат мулки монополиясининг тугатилиши, соҳада маълум муддат турғунлик ҳолатининг сақланиб қолгани, кичик бизнес ва тадбиркорликни тангликдан либераллаштириш томон йўналтирилгани, кишилар онгида илк тадбиркорлик кўникмаларининг тадрижий равишда вужудга келгани ва унинг хусусийлаштиришга таъсири (“кичик хусусийлаштириш даври” 1991-1993 йй., “оммавий хусусийлаштириш даври” 1994 йилдан сўнг) [9. 22].

Ўзбекистонда бозор ислохотларини татбиқ этиш, давлат мулки ва объектларини босқичма-босқич хусусийлаштириш, уларни тадбиркорларга бўлиб бериш ҳамда сотиш ишлари амалга оширилди. Жумладан, биргина 1990 йилда қишлоқ хўжалиги ва чорвачилик тасарруфидаги мол-мулклар, хусусан, 61,5 минг қорамол, 384 минг бош қўй, 34 минг эчки ва чўчқа, 7,8 млн товуқ етиштирувчи субъектлар хусусийлаштириш шарти билан шахсий

хўжаликлар (тадбиркорлар)га сотилган. Аграр соҳада амалга оширилган ислохотлар натижасида, 1989-1990 йилларда 1,5 миллиондан кўпроқ оилага қўшимча ер ажратилиб, 700 минг оилага янги томорқа ерлари берилган [10. 12].

Яъни, энг муҳим масалаларидан бири аҳолига ер ва уй-жой ажратиб бериш масаласи турар эди. Шундай шароитда 1989 йил 15 августда «Колхозчилар, совхоз ишчилари, фуқаролар, шахсий томорқа хўжаликлари ва индивидуал уй-жой қурилишини янада ривожлантириш тўғрисида» махсус қарор қабул қилинди. Натижада, ўша йилнинг 4 ойида аҳоли қўшимча 90,7 минг гектар ер олди. Ўзбекистон ССР Министрлар Совети ҳузурида хом ашё ва енгил саноат маҳсулотлари таъминоти ҳамда уларни сотиш бош бошқармаси ҳамда Ташқи савдо ва хорижий мамлакатлар билан алоқа давлат комитети ташкил этилди [11. 12]. Республикани иқтисодий мустақиллик йўлига олиб чиқиш, уни инқироз гирдобидан чиқариш вазифаларини ҳал этишда, Ўзбекистон ресурслари ва имкониятларига баҳо беришга мутлақо янгича ёндашиш зарурлиги, мавжуд имкониятларни Иттифоқ ва жаҳон бозори учун қанчалик жозибали экани нуқтаи назаридан кўриб чиқиш кераклиги таъкидланди. Бунда қуйидаги омилларга эътибор қаратиш муҳим эди:

Биринчидан, республиканинг қулай табиий иқлим шароитларидан самарали фойдаланиш, етиштирилиши лозим бўлган энг фойдали ва даромадли экинларни аниқлаб олиш;

Иккинчидан, мавжуд 500 минг гектар жуда шўрхок ва ўртача шўрхок ерларнинг ирригацион ва мелиоратив ҳолатини яхшилаш масалаларига эътиборни кучайтириш;

Учинчидан, Ўзбекистоннинг газ кондецати, кўмирга бўлган талаб-эҳтиёжини тўла-тўқис таъминлаш, яқин вақт ичида нефть қазиб олишни 3-4 баробар кўпайтириш, Қизилқумда фосфоритларнинг жуда катта қонини ўзлаштириш, рангли ва қимматбаҳо

металларнинг жуда катта ресурсларидан республика манфаатлари йўлида самарали фойдаланиш;

Тўртинчидан, республиканинг энг катта бойлиги бўлган меҳнатсевар халқи учун кенг имкониятлар яратиш сингари бу борадаги муҳим вазифаларга алоҳида эътибор қаратилиб, уларни амалга ошириш йўллари кўрсатиб берилди. Шунингдек, мамлакатимиз раҳбари халқимиз ҳаётини муносиб даражага кўтариш учун мавжуд ресурс ва бойликлардан фойдаланиш йўллари алоҳида эътибор қаратди.

Муҳими, бозор иқтисодиётига ўтиш жараёнида миллий, тарихий турмуш тарзимиз, халқимиз урф-одатларини, анъаналаримизни, кишиларнинг фикрлаш тарзини ҳисобга олиш муҳим. Ўзбек халқи азалдан жамоа туйғусига мойил халқ. Бу биринчи омил бўлиб, бозор иқтисодиётига ўтиш шароитида ўзбек халқининг миллий ўзига хослиги, унинг бой тарихий анъаналари, ўзига хос фикрлаш тарзига хос қадимги даврлардан бошлаб жамоа тарзида аҳил яшаб келиши каби миллий менталитетимизга хос хусусиятлар муҳим роль ўйнади [12. 64-66].

Ўзбекистон бозор иқтисодиёти ва тараққиётнинг “ўзбек модели” ни танлади. Мамлакат ўз мустақиллигига эришгандан сўнг бозор муносабатларига ўтиш учун қулай шароит ва кенг имкониятлар яратилди. Ўзимизга хос ва мос бозор муносабатларига асосланган демократик жамият қуришнинг асосий тамойиллари ишлаб чиқилиб, дунёдаги ривожланган мамлакатлар томонидан эътироф этилди. Янги иқтисодий муносабатларга ўтиш асосида иқтисодий ислохотлар стратегияси ишлаб чиқилди. Бозор ислохотларини амалга ошириш шароитида иқтисодиётни барқарорлаштириш ва бозор муносабатларининг негизини шакллантириш зарурати пайдо бўлди. Булар иқтисодий ислохотларнинг ғоят муҳим йўналишлари сифатида белгилаб берилди. Бозор муносабатларига ўтишнинг асосий шартларидан бири мулкни давлат тасарруфидан чиқариш ва хусусийлаштиришни амалга оширишдир.

Бу билан давлат монополиясига хос хўжалик тизими тугатилиб, маъмурий буйруқбозлик бошқаруви ўрнига бозор иқтисодиётига асосланган жамият қуриш йўли белгилаб олинди [13. 57-59].

Бунда Ўзбекистоннинг бозор иқтисодиётига ўтишдаги ўз тараққиёт йўли қуйидаги бешта тамойилларда ўз ифодасини топди:

Биринчи тамойил, иқтисодиётнинг сиёсатдан устунлиги ва мафкурадан ҳолилиги - ўзбек моделининг тамойили сифатида иқтисодиётни мафкурадан ҳоли этиш иқтисодий муносабатларни, моддий неъматлар яратишни барча нарсадан устун қўйиш ва ишлаб чиқаришни оқилона ташкил қилишнинг омилидир. У объектив иқтисодий қонунларни тан олишга, мулкчилик шакллари, тақсимотга нисбатан субъектив муносабатдан қутулишга маънавий шарт-шароит яратади. Мафкуравий ақидаларни бартараф этиш хўжалик юритишнинг турли ижтимоий шакллари, нисбатан хайрихоҳ бўлган ижтимоий фикрнинг, бозор муносабатларига мос бўлган психологиянинг ва шунга хос иқтисодий тафаккурнинг идрок этилишига кўмаклашади [14. 70-72]. Мазкур тамойил иқтисодий ривожланишда маънавиятнинг аҳамияти нечоғлиқ муҳим эканини, унинг нозик қирраларини очиб беради.

Иккинчи тамойил. Давлат – бош ислохотчи бўлиши. Бунда давлат ислохотларнинг устувор йўналишларини белгилаб бериши, янгилаш ва ўзгаришлар сиёсатини ишлаб чиқиши ва уни изчиллик билан амалга ошириши лозим. Эски тузумдан халос бўлгандан сўнг ўзини ўзи тартибга соладиган иқтисодий механизм бирданига вужудга келмайди. Бунда давлат асосий йўлбошчига айланмоғи керак. Шу боисдан Биринчи Президент Ислом Каримов, ўзбек моделининг мазкур тамойилини илмий асослар экан, қуйидагиларни таъкидлайди: «Ўтиш даврида давлат халқ хўжалигининг, айниқса, унинг асосини, тизимини белгилайдиган тармоқларнинг фаолиятини қўллаб-қувватлаши, нарх-наволарни

тартибга солиб туриши, шунингдек, бевосита ёрдам беришда имтиёзлар яратиши, бевосита ёрдам кўрсатиш йўли билан ана шу тармоқларга мадад бериши лозим».

Бу давлатнинг бош ислохотчи сифатидаги вазифаси нимадан иборат эканини асослаб беради. Айтилган турли ижтимоий гуруҳларнинг, нодавлат ва ношароит, жамоатчилик ташкилотларининг, шахсларнинг ташаббуслари ва фаолиятлари чекланмаслигини, аксинча, давлат уларга ёрдам беришини аниқлатади.

Учинчи тамойил. Жамият ҳаётининг барча соҳаларида қонуннинг устуворлиги. Демократик йўл билан қабул қилинган Конституция ва қонунларни ҳеч истисносиз ҳамма ҳурмат қилиши ва уларга оғишмай риоя қилиши лозим.

Мазкур тамойил турли мулк шаклларидаги тенг ҳуқуқий асосда ривожланишини таъминлайди. Мулкчилик шакллари ва ҳўжалик юритувчи субъектлар ўртасидаги муносабатлар, рақобат қатъий ҳуқуқий меъёрлар ёрдамида тартибга солинади. Иқтисодий бошқаришда ўзбошимчилик ва субъективизмга, турли иқтисодий зўравонликларга йўл қўймаслик учун зарур ҳуқуқий шарт-шароит вужудга келади. Иккинчидан, давлатда демократик жамият қуриш тизими шаклланади, ривожланади, аҳолининг сиёсий маданияти ва фаоллиги ошади. Фикрлар хилма-хиллиги ва қарашлар ранг-баранглиги ривожланади, мафкуравий плюрализм қарор топиши учун ҳуқуқий қафолат пайдо бўлади. Инсон ҳуқуқлари таъминланади. Давлат органларининг ишлаб чиқаришга ноқонуний аралашушига ёки мулк эгаларининг камситилишларга чек қўйилади, иқтисодий либерализм шаклланади. Учинчидан, шахсининг, барча ижтимоий гуруҳ ва қатламларнинг манфаатлари тўлиқ ҳисобга олинади ва уларнинг яратувчилик имкониятлари, ижодий салоҳияти самаралироқ рўёбга чиқади.

Тўртинчи тамойил. Кучли ижтимоий сиёсат юритиш. Бозор муносабатларини жорий этиш билан бир вақтда, аҳолини,

айниқса, ногиронлар, боқувчисини йўқотганлар, кам таъминланган оилаларни, болалар ва кексаларни ижтимоий ҳимоялаш юзасидан олдиндан таъсирчан чоралар кўрилиши лозим.

Кучли ижтимоий сиёсатнинг таркибий қисмлари ва йўналишлари кўп. Улар ижтимоий таъминот, янги иш ўринлари яратиш, соғлиқни сақлаш, халқ таълими, маданият, спорт ва жисмоний тарбия соҳалари фаолиятини маблағ билан таъминлаш ва ислоҳ қилишдан тортиб, жиноятчиликка қарши курашиш, ҳуқуқ-тартиботни таъминлашгача бўлган масалаларни қамраб олади. Кучли ижтимоий сиёсат олиб бориш ва аҳолининг турли қатламларини ижтимоий муҳофаза қилиш ўзбек моделининг инсонпарварлик моҳиятини белгиловчи тамойиллардан биридир.

Бешинчи тамойил. Бозор иқтисодиётига объектив иқтисодий қонунларнинг талабларини ҳисобга олган ҳолда, тадрижий асосда, пухта ўйлаб, босқичма-босқич ўтиш. Бу ислохотларнинг ҳуқуқий асослари ва қафолатларини вужудга келтириш, аҳолини ижтимоий ҳимоялаш ва унинг янгича иқтисодий тафаккурини шакллантириш билан бирга олиб борилиши лозим. Ўзбекистонда айнан шундай йўл тутилди. Бундай сиёсат юритиш маблағлардан самарали фойдаланиш имконини бериш баробарида, одамларнинг сафарбарлигини оширишда, ижтимоий ларзаларнинг олдини олмоқда, мулкчилик шакллари босқичма-босқич ривожлантиришда [14. 70-72].

ХУЛОСА (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Хулоса қилиб айтганда, бозор муносабатларига асосланган жамият қуриш шакллари узок тарихий тараққиёт жараёнида вужудга келганлигини тасдиқлади ва ўзининг маълум тарихий эволюциясини бошдан кечирганлигини кўрсатди. Ўзбекистон ҳам ўз мустақиллигига эришгандан сўнг бозор муносабатларига ўтиш учун қулай шароит ва кенг имкониятлар яратилди. Ўзимизга хос ва мос бозор муносабатларига асосланган демократик жамият қуришнинг асосий тамойиллари ишлаб чиқилиб,

дунёдаги ривожланган мамлакатлар томонидан эътироф этилди. Янги иқтисодий муносабатларга ўтиш асосида иқтисодий ислохотлар стратегияси ишлаб чиқилди. Бозор ислохотларини амалга ошириш шароитида иқтисодиётни барқарорлаштириш ва бозор муносабатларининг негизини

шакллантириш зарурати пайдо бўлди. Булар иқтисодий ислохотларнинг ғоят муҳим йўналишлари сифатида белгилаб берилди. Мулкни давлат тасарруфидан чиқариш ва хусусийлаштиришни амалга оширишда амалий қадамлар қўйилиб, бугун ушбу йўл давлатнинг муҳим тараққиёт йўли эканлиги тасдиқланди.

АДАБИЁТ ВА МАНБАЛАР РЎЙХАТИ (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES):

1. Семина Л., Житников И. Сущность рынка и условие его возникновения // Journal of Economy and Business, vol. 1.
2. Шумпетер Й. Теория экономического развития. – М., 1982. – С. 21.
3. Хизрич Р., Питерс М. Предпринимательство, или как завести собственное дело и добиться успеха [Текст]: перевод с английского; общ. ред. В.С. Загашвили. – М.: Прогресс-университет, 1991. – С. 10.
4. Макконелл К., Брю С. Экономикс: принципы, проблемы и политика. – М.: Инфра. 1999. – С. 38.
5. Семина Л., Житников И. Сущность рынка и условие его возникновения // Journal of Economy and Business, vol. 1.
6. Исломов З.М. Ўзбекистон модернизациялаш ва демократик тараққиёт сари. – Тошкент: Ўзбекистон. 2005. – Б. 195.
7. Ўзбекистоннинг энг янги тарихи (Фан доктори илмий даражасига талабгорлар учун ўқув қўлланма). Т., 2013. – Б. 87.
8. Ўзбекистоннинг энг янги тарихи (Фан доктори илмий даражасига талабгорлар учун ўқув қўлланма). Т., 2013. – Б. 87.
9. Толипов Ф. Ўзбекистонда кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликнинг ривожланиш тарихи (1991-2022-йй). Тарих фанлари доктори (DSc) илмий даражасини олиш учун ёзилган дисс. Т., 2022. – Б. 22.
10. Каримов И.А. Ўзбекистон мустақилликка эришиш оstonасида. – Тошкент: “Ўзбекистон”. 2011. – Б. 12.
11. Каримов И.А. Ўзбекистон мустақилликка эришиш оstonасида. – Тошкент: “Ўзбекистон”. 2011. – Б. 12.
12. Обломуродов Н., Толипов Ф. Ўзбекистоннинг энг янги тарихи. Т., 2022. – Б. 64-66.
13. Абдуллаев С. “Узбекская модель” перехода к рыночной экономике в условиях глобализации // Инновации и инвестиции. 2017. №1. – С. 57-59.
14. Обломуродов Н., Толипов Ф. Ўзбекистоннинг энг янги тарихи. Т., 2022. – Б. 70-72.

О ФОРМИРОВАНИИ ПРОМЫШЛЕННОЙ ДОБЫЧИ СОЛИ В СУРХАНДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ

Абдукаюмова Наргиза Раимовна

Соискатель Термезского государственного университета

nargiza_ra@mail.ru

<https://orcid.org/0009-0009-0138-3470>

UDK: 94(575.1)

Аннотация: В статье на основе архивных документов впервые проанализировано налаживания промышленного производства поваренной соли на промышленном предприятии Ходжаиканского солерудника в горы Кухитанг.

Ключевые слова: Ходжаикон, соляной рудник, история соляного промысла, Сурхандарьинская область, промышленность Узбекистана, Шерабадский район, советское время, экономическое развитие, древняя промышленность.

Abstract: The article analyzes for the first time, based on archival documents, the establishment of industrial production of mining and table salt at the Khojaikon salt mine industrial enterprise in the Kokhitang Mountains.

Keywords: Khojaikon, salt mine, history of the salt industry, Surkhondarya region, industry of Uzbekistan, Sherabad district, Soviet era, economic development, ancient industry.

Annotatsiya: Maqolada arxiv hujjatlari asosida Ko'hitang tog'i hududidagi Xo'jaikon tuz koni sanoat korxonasida kon va osh tuzini sanoat usulida ishlab chiqarishning yo'lga qo'yilishi ilk bor tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: Xo'jaykon, tuz koni, tuz sanoati tarixi, Surxondaryo viloyati, O'zbekiston sanoati, Sherobod tumani, Sovet davri, iqtisodiy rivojlanish, qadimiy sanoat.

ВВЕДЕНИЕ (INTRODUCTION / KIRISH). Продукты питания являются источником первостепенного спроса в повседневном образе жизни человека. За свою многомиллионную историю пища прошла долгий процесс от стадии

непосредственного использования человеком природных благ, лежащих в основе охотничьих и собирательских хозяйств, до промышленного производства потребительских товаров. В этом процессе поваренная соль продолжает занимать свое место и положение чрезвычайно важного и незаменимого продукта пищевой промышленности. Поваренная соль использовалась для придания приятного вкуса блюдам, которые готовились в качестве приправы к пище, ценилась с древних времен и производилась и готовилась для употребления в пищу различными способами.

ОБСУЖДЕНИЕ (DISCUSSION / MUHOKAMA).

Согласно археологическим исследованиям, самые ранние человеческие общины специализировались на производстве или приготовлении соли для потребления со времен неолита. В частности, жители поселения Провадия-Солницата, расположенного на Черноморском побережье Болгарии, в середине VI тысячелетия до н. э. открыли способ извлечения содержащейся в нем соли путем кипячения и испарения воды соленого озера в домашних условиях. А в V тысячелетии до нашей эры с целью увеличения количества добываемой соли вблизи поселения были построены многочисленные специальные куполообразные печи-хумданы (для обжига гончарных изделий). Согласно анализу и расчетам, сделанным на основе полученных результатов, в этих хумданах готовили в среднем 4-5 тонн пригодного к употреблению солевого продукта (1; с.47).

По мере развития хозяйства открывались новые способы производства или

приготовления поваренной соли, эти методы развивались на промышленном уровне. Производство поваренной соли занимало важное место в хозяйственной жизни некоторых древних общин, а в XX веке приобрело особое значение как своеобразное звено пищевой промышленности в экономике некоторых республик Советского государства, в том числе Узбекистана. Организация деятельности новых промышленных предприятий в Сурхандарьинской области на юге Узбекистана в 70-80-е годы XX века и на этой основе важное значение в обеспечении подъема различных отраслей народного хозяйства имело Постановление № 94 секретариата Центрального Исполнительного комитета Коммунистической партии Узбекистана от 11 мая 1979 года “О развитии производительных сил в Байсунском районе”.

Во исполнение настоящего постановления распоряжением исполнительного комитета Сурхандарьинского областного совета народных депутатов от 11 июня 1980 г. № 461р (2) намечено осуществление необходимых мероприятий по увеличению мощностей по производству каменной соли для промышленных предприятий, коммунально-бытовых организаций и животноводческих хозяйств республики.

Прежде всего, с 1 июня 1980 года на базе соляного месторождения, расположенного на территории Шерабадского района, было создано самостоятельное хозяйственное предприятие “Ходжайкон”, специализирующееся на промышленной добыче каменной соли. В целях обеспечения краткосрочной реализации вопросов, связанных с созданием предприятия и налаживанием производства соли, ответственным организациям были даны соответствующие поручения. В том числе:

- внесение производственных планов предприятия за счет увеличения ассигнований на мощность соляного рудника Ходжайкон в годовые планы по

производству региональной промышленной продукции для внутреннего потребления в областное плановое управление;

- обеспечить областное государственное управление снабжения в месячный срок строительными материалами, металлопрокатом и оборудованием, необходимыми для пуска предприятия в эксплуатацию в 1-м полугодии 1980 года за счет средств Фонда развития отечественной промышленности;

- добыча (взрывание) соли на предприятии до 1 августа 1980 года областному управлению автомобильных дорог, обеспечения строительства асфальтированной дороги до основной горной местности;

- объединениям “Сурханводохранилище” и “Сурхансовхозводохранилище” изучить расположение пластов земли на территории, где расположена соляная шахта, мобилизовав механизмы и транспортные средства, которые понадобятся к 10 июня;

- протянуть электросеть к предприятию “Сурхонэлектросеть” к специальной части Соляного рудника и железнодорожной станции Болдырь, которые будут построены в июне для приема соляной продукции с соляного рудника Ходжайкон, установить электрическую подстанцию в этих районах;

- обеспечить областному производственно-техническому управлению связи установление телефонной связи до 15 августа соляного рудникового предприятия и от него до железнодорожной станции Болдырь;

- Выделение областному объединению комитета “Сельхозтехника” 2 водонапорных башен объемом 15-25 м³ и 8 резервуаров для нефтепродуктов объемом 3, 5, 10, 25 м³ для солеваренного предприятия до 15 июня;

- быстрая доставка сборных железобетонных ограждений объемом 100 м³ на Кумкурганский железобетонный завод в местное промышленное управление

для предприятия;

- предоставить объединению “Пастбищно-мелиоративный ПМК” до 25 июля установку сети питьевой воды протяженностью 5,3 км и соответствующую проектно-сметную документацию в областное управление местной промышленности;

- обеспечить транспортировку соляной продукции, добытой из соляного рудника, на железнодорожную станцию Болдырь на автотранспорте в организацию “Облавтотрест”, организовать специальную автостоянку, обслуживающую этот маршрут, в поселке Акташ до 1 марта 1981 года;

- в подразделение ОКС облисполкома в срочном порядке заказать институту Узгииги проведение топографических исследований с целью составления Генерального плана первой очереди жилого поселка соляного рудника Ходжайкон;

- Управление торговли совместно с исполнительным комитетом Шерабадского района до 1 июля организовать общественное питание и торговое обслуживание работников, занятых строительством предприятия и добычей соли;

- Гагаринскому райисполкому поручено до 15 июня выделить земельный участок площадью 1 га на территории железнодорожной станции Болдырь для Ходжайконского соляного рудника с целью строительства жилых и других хозяйственных построек, а также базы приема соляной продукции.

Для промышленной организации добычи соли на Ходжайконском соляном месторождении, которое требует больших средств в целях обеспечения полноценной работы предприятия следует отметить, что ассоциации, действующей в регионе, наряду с организациями, различными министерствам и ведомствам республики были даны соответствующие задания и инструкции.

В частности, на основании распоряжения Совета Министров

Узбекской ССР от 29 мая 1980 года № 394-Р Министерством финансов и Министерством местной промышленности был создан необходимый административно-управленческий состав для налаживания деятельности Ходжайконского соляного рудника (2). Министерству автомобильных дорог было поручено разработать и утвердить соответствующую проектно-сметную документацию, связанную со строительством в 1980 году автомобильной дороги от железнодорожной станции Болдырь до ближайшего села Акташ к Ходжайконскому соляному руднику, а также осуществить этот проект в 1981 году.

В то же время Комитету Давлан план, Сурхандарьинскому областному исполнительному комитету в 1981-1982 годах было поручено провести изыскания для строительства жилого поселка вблизи соляного рудника Ходжайкон, провести проектно-планировочные работы и распределить расходы, связанные со строительством поселка. Создание поселения было поручено Министерству сельского строительства.

Как свидетельствуют документы, соляной рудник “Ходжайкон” в Шерабаде начал свою деятельность как самостоятельное хозяйственное предприятие со 2 июня 1980 года. С начала 1980-х годов на территории Ходжайконского соляного месторождения начата промышленная добыча и переработка каменной соли и технической соли для предприятий производственной, коммунальной сферы и животноводческих хозяйств (3).

С целью налаживания добычи соли, в результате принятых мер, в первые два месяца 1980 года на предприятии по добыче соли “Ходжайкон”, было добыто 10 тысяч тонн соли и этот показатель был выполнен на 110 процентов по сравнению с планом добычи продукта (3). За первые два месяца 1981 г. с месторождения было добыто 1,6 тыс. тонн соли, что на 147% превысило план добычи продукции (4). В свою очередь, в 1-м полугодии 1981 года

этот показатель составил 6,5 тысячи тонн при добыче соли, что составляет 103 процента по сравнению с планом добычи продукта (5).

В связи с возросшим значением поваренной соли для поддержания здоровья человека Решением заседания исполнительного комитета Совета народных депутатов Сурхандарьинской области № 405/13 от 8 июля 1981 года Ходжайконская соляная шахта была включена в число продуктов народного потребления во 2-м полугодии 1981 года, в связи с этим дополнительно к годовому плану запланировано довести добычу соли до 3 тыс. тонн (6).

Налаживание промышленной добычи соли в Шерабадском районе связано с началом нового этапа развития промышленных предприятий в Сурхандарьинской области, а также с появлением нового населенного пункта на базе Ходжайконского соляного месторождения, запуском новых сетей автомобильных и железных дорог,

созданием необходимой инфраструктуры для работников, осуществляющих деятельность на промышленном предприятии, и их семей, что явилось значительным толчком для развития важнейших отраслей хозяйства.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ (CONCLUSION / XULOSA). В настоящее время налаживание деятельности соляного рудника “Ходжайкон” также сыграло важную роль в экономическом развитии области, подъеме уровня жизни жителей многих деревень, расположенных в непосредственной близости от горнодобывающей территории, которые на протяжении сотен лет жили на основе традиционных хозяйств – земледелия и животноводства. Таким образом первые проведенные научные анализы поставили на повестку дня необходимость полноценного и последовательного исследования истории деятельности соляного рудника промышленного предприятия “Ходжайкон” как отдельного объекта исследования.

ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА (REFERENCES / ADABIYOT VA MANBALAR RO‘YXATI):

1. Курлански М. Всеобщая история соли / Salt: a World History / Марк Курлански / Переводчики: Н. Жукова, М. Суханова. — М.: КоЛибри, 2007. — 520 с.
2. Сурхандарьинский государственный архив, Фонд № 45, опис-1, дело 2387. — с. 9.
3. Сурхандарьинский государственный архив, Фонд № 45, опис-1, дело 2393. — с. 9.
4. Сурхандарьинский государственный архив, Фонд № 45, опис-1, дело 2394. — с. 20.
5. Сурхандарьинский государственный архив, Фонд № 45, опис-1, дело 2395. — с. 33.
6. Сурхандарьинский государственный архив, Фонд № 45, опис-1, дело 2395. — с. 43-44.

INTERACTION AND OPPOSITE INFLUENCE OF ANCIENT ORIENTAL CIVILIZATION AND OKS CIVILIZATION

Sharifov Ehronbek Erkin oglu

Scientist of the Educational Methodological Department of

Termez State University

e-mail: ehronbek@tersu.uz

<https://orcid.org/0009-0003-1409-6496>

UDK:94.05

Annotation: This article examines the interaction and conflicting influences between the Ancient Near Eastern and the Oxus (Central Asian) civilizations, primarily through the lens of the lapis lazuli trade route. The Badakhshan lapis lazuli deposits served as the key source material that fueled ancient cultural and commercial ties, attested by its extensive presence in Mesopotamian cities like Ur and Uruk during the Bronze Age. The paper analyzes various scholarly views (Herman, Shchetenko, Masson, Mavlonov, Casanova) on the routes, referred to as the "Lapis Lazuli Road." Furthermore, it highlights archaeological evidence, specifically from the Shortughai settlement, which demonstrates a complex dynamic: not only peaceful trade but also conflict between the incoming Harappan (Ancient Indian) civilization representatives and the indigenous Bactrian (Sopalli, Dashtli) cultures for control over the valuable mineral resources.

Keywords: Lapis Lazuli, Ancient Near East, Oxus Civilization, Bactria, Lapis Lazuli Route, Trade Relations, Bronze Age, Shortughai.

Аннотация: В данной статье рассматривается взаимодействие и противоречивые влияния между цивилизациями Древнего Ближнего Востока и Окса (Центральной Азии), в первую очередь через призму лазуритового торгового пути. Бадахшанские месторождения лазурита служили ключевым источником, подпитывавшим древние культурные и торговые связи, о чем свидетельствует его широкое присутствие в таких городах Месопотамии, как Ур и Урук, в эпоху бронзы. В статье анализируются различные научные

взгляды (Герман, Щетенко, Массон, Мавлонов, Казанова) на эти пути, именуемые «лазуритовым путём». Кроме того, рассматриваются археологические свидетельства, в частности, из поселения Шортугай, которые демонстрируют сложную динамику: не только мирную торговлю, но и конфликт между представителями пришедшей хараппской (древнеиндийской) цивилизации и коренными бактрийскими (сопалли, даштли) культурами за контроль над ценными минеральными ресурсами.

Ключевые слова: лазурит, Древний Ближний Восток, цивилизация Окса, Бактрия, лазуритовый путь, торговые отношения, бронзовый век, Шортугай.

Annotatsiya: Ushbu maqola Qadimgi Sharq va O'rta Osiyo (Oks) sivilizatsiyalari o'rtaosidagi o'zaro aloqa va ta'sir masalasini, asosan, lazurit savdo yo'li orqali o'rganadi. Lazuritning asosiy koni Badaxshonda joylashgan bo'lib, uning Mesopotamiya shaharlariga, jumladan, Ur va Urukka tarqalishi bronza davridagi qadimiy madaniy va savdo aloqalarining asosiy manbai hisoblanadi. Maqolada lazuritning tarqalish yo'llari (quruqlik, suv yo'llari), xususan, "Lazurit yo'li" haqida turli olimlarning (G. Herman, A.Ya. Shchetenko, V.M. Masson, O'.M. Mavlonov, M. Kasanova) qarashlari tahlil qilinadi. Shuningdek, Shor'to'g'ay yodgorligi misolida Harappa (Hind) sivilizatsiyasi vakillari va mahalliy Baqtriya (Sopalli, Dashtli) madaniyatlarining lazurit konlari ustidan nazorat uchun kurashi yoritilgan.

Kalit so'zlar: Lazurit, Qadimgi Sharq, O'rta Osiyo, Baqtriya, Lazurit yo'li, Savdo aloqalari, Bronza davri, Shor'to'g'ay.

INTRODUCTION (ВВЕДЕНИЕ / KIRISH). Roads are a means of connecting the cultural and economic ties of peoples and establishing regular traffic between any two destinations. To study the history of roads is to study the history of cultural ties between peoples.

Ancient written sources also contain information about the mines of Central Asia, their location and distribution. According to Persian sources, lazurite and serdol were transported from Bactria and Sogdia to Old Asia. The ancient Greek historian Ctesias reports on the existence of gold and silver deposits in Bactria.

Diodorus's works on geography and history show that the Bactrian lodges were an important source of market and interstate relations in the ancient Near East. He wrote down the details of the battle that the Assyrian ruler Nin had against Bactria. According to the report, Nin besieged the city of Bactria for a long time and the city was captured by Semiramis. The play tells the story of how the Bactrians were defeated as a result of deceit and betrayal.

DISCUSSION (ОБСУЖДЕНИЕ / MUHOKAMA). Given the long distances between Assyria and Bactria, scholars have agreed that these events should be removed from the pages of history as false information. In this regard, I.M. Dyakonov clarified that Diador's account remained valid after the Assyrian spies wrote a letter to his king: I asked to send power. "94 In addition to written data, copper, lead, and lazurite deposits and their distribution geography are also major sources in the study of roads and their networks and routes. Lazurite culture and its distribution are the main sources in the study of the history of cultural relations between the ancient East and Central Asia. The Lazurite deposit was discovered by Central Asians during the Eneolithic period. We can say this with confidence because jewelry made of lazurite was found in the Eneolithic cultural strata of the Oltintepa monument in the territory of southern Turkmenistan. Lazurite has been the most popular mineral since the

Early Bronze Age, as all the monuments of ancient Eastern culture, especially the tombs of the rulers, have been decorated with jewels and seals. Lazurite has long been known by various names, including lyaps, lyaps-lazurite, lazurite, la'l, badakhshan la'li, lojuvard, lazavard. Of course, there are many reasons for the existence of so-called mines. Firstly, they differed in their different colors, secondly, in their hardness and brittleness, and thirdly, in the influence of different languages, the name of the mine increased. For example, lojuvard means "azul" in Arabic. Fourth, in ancient times, people's lack of knowledge and knowledge about minerals, and their inability to distinguish between minerals, also led to the proliferation of mineral names. Abu Rayhan Beruni, one of the medieval scholars of Central Asia, gave detailed information about lazurite, ie its chemical composition, its occurrence in nature, its location, and methods of mining. Lazurite has long been known for its precious, soft texture, which is one of the minerals that can be used to create sky-blue, unique and beautiful works of art. It is no coincidence that the oldest cultural ties and trade routes in human history are named after this mine. Of course, we are talking about the Lazurite route connecting ancient Bactria, India and Mesopotamia[1].

According to archeostratigraphic studies, lazurite spread to the cities of the Ancient East, including Ur or Uruk, from the time of the first dynasties and became one of the most common minerals during the second and third dynasties[3:651-658]. Of course, the rare finds in the tomb of the ruler of the city of Ur are also examples of this idea. If we look at the history of the cities of Mesopotamia, we can see that this mineral has been going on continuously until the crisis of the first civilizations.

Lazurite is native to Bactria, in mountainous Badakhshan. Badakhshan lazurite has been known and popular since ancient times. The issue of Bactria's cultural ties with the cultural centers of the Ancient East has attracted the attention of scholars not only in Central Asia but also in Europe since the 19th century. The reason for this interest is

clear, of course, that the main habitat of the Lazurite was in the remote and mountainous Badakhshan. The spread of Lazurite to the cities of Mesopotamia was largely due to the Iranians and the ancient Indians. According to their historical geographical location, archeological sources indicate that they were actively involved in the Lazurite trade as intermediaries. This means that a branch of the road connecting Bactria with the ancient states of Old Asia, such as Sumer and Elam, passed through Iran.

Researchers acknowledge that lazurite spread to Mesopotamia by land, water, and water. The waterway may have been developed after the Harpas discovered the sea route, before which the main trade route was by land.

According to G. Herman in the 60s of the XX century, the Badakhshan ruby deposit was unique in the Eastern world and the ruby was spread through the Great Khorasan Road. The distribution of the Badakhshan ruby is one of the oldest trade routes in science and is known by various names.

The author of a major study on the cultural ties between the peoples of India and Central Asia, A.Ya. Shchetenko also admits that Central Asian ores spread to the cities of the Ancient East in two ways. The waterway passed from Lothal to the cities between the two rivers, and the land route passed through South Balochistan. A.Ya. Shchetenko imagines the "Way of La'l" as follows: Kopetdag - Kohi Bobo Mountain - Herat - Kabul - Khaybar Pass - Harappa.

V.M. Masson proposed the Oltintepa-Mojenjo Daro route. These studies show that cultural and trade ties between the peoples of Central Asia and the ancient East date back to the Early Bronze Age. Over the past decades, researchers have studied the relationship between Central Asia, Iran, and the Middle East.

On the subject of the ancient ways of Central Asia, O.M. Mavlonov has research. He divided the Bronze Age roads into local, regional, and trans-regional roads. Inland roads Gorno-Badakhshan - Sarazm; Mountainous Badakhshan - Zamonbobo culture;

Mountainous Badakhshan - Southern Turkmenistan routes, external, trans-regional routes Mohenjo-Daro - Harappa - Mundigak - Namazgoh - Murgab oasis; Mohenjo-Daro - Xarappa - Shortoqay - Southern Tajikistan - Sarazm; Mohenjo-Daro - Xarappa - Shortoqay - Surkhan oasis - Amudarya - lower Zarafshan - Khorezm - Uralorti - Siberia; There are such routes as Mohenjo-Daro - Xarappa - Shortoqay - Surkhan oasis - Kashkadarya oasis - Zarafshan oasis - Kyzylkum deposits - Central Kazakhstan deposits - Uralorti - Siberia. The author draws the routes of these roads based on the geography of the monuments. It is not based on intercultural archeological artifacts from the Bronze Age, or even the geography of the distribution of the most famous Lazurite ore[9:87].

According to M. Kasanova, the lazurite stones found in the monuments of ancient Eastern civilization were chemically analyzed. As a result, the chemical composition of the Lazurite rock found at the Shahri Sokhta monument was known to be of three types.

According to Ms. Kasanova, lazurite ore was brought to Shahri Sohta from at least three places: Chagai in Pakistan, the Pamirs in Tajikistan and Badakhshan in Afghanistan. This information serves to provide a scientifically based solution to the Lazurite route, which played an important role in the cultural and economic development of the peoples of the Ancient East, and is a key factor in determining the exact direction of the ancient Lazurite route.

More recently, researchers have been able to determine the connections between Bronze Age cultures using cross-cultural chlorite stone materials. To date, such artifacts have been found in 30 monuments from Mesopotamia to India, as well as in almost all Bronze Age monuments in Iran, Afghanistan, and Central Asia. It is characterized by the proximity of the shapes of the vessels and the images represented in them. There has been much debate in science about the origin and distribution of chlorite-like vessels, which are similar in form and imagery. The Shurtoqai monument, formed as a result of the migration of the Indian civilization, played a key role in

the formation of historical and cultural ties between the two historical lands, regardless of whether the purpose of the population was Lazurite or to explore new lands.

The zoning of archeological monuments in recent years shows that the mud road from the Shortoqay monument in the Upper Amudarya basin (Panj oasis) to southern Tajikistan (Makoni Mor, Karimberdi), Southern Uzbekistan (Sopollitepa, Jarqo'ton, Tillabulak), Southern Turkmenistan, and To'laqoqan (Tashkent). It passed through Balochistan (Mergar, Quetta) to India. It is also acknowledged that the representatives of the ancient Indian civilization crossed the high mountain passes of the Hindu Kush to reach the Panj oasis. As we have already mentioned, the researchers used the Avesta and Rigveda data to study the history of the first relations between Central Asia and Ancient India. Archaeological excavations at monuments such as Harappa and Kalibangan have been the main source.

The main source is an archeological artifact found in the monuments - lojuvard. The main landmarks are Tepai Hisar in northern Iran and Shahri Sokhta in Seistan, Iran. Italian archaeologists have conducted an unimaginable study of the Tepai Gissar monument, which, when laboratory analysis of the topsoil, found that a large percentage of the soil was made up of lazurite powder.

Archaeologists continued to study the dust on the surface of the rocks, and found that stone tools were also used to process lazurite[15:56].

When comparing lazurite jewelry found in Mesopotamian and Iranian monuments, ready-made jewelry made from this ore was rare in Iranian monuments. In particular, 45 types of lazurite jewelry are known in the Ur monument, while only 3 types have been identified in Iranian monuments. It can be concluded from the data that Iranian miners supplied these stones as "semi-finished" raw materials to the cities of the Ancient East, while Mesopotamian miners refined and commercialized Lazurite mines. The city of Sohta is naturally convenient due to its geographical location and is located on a

highway. Traders from eastern Iran, southern Turkmenistan, and Afghanistan to Balochistan were forced to cross directly. The Italian professor M. Tosi calls this area the "Turan Basin". Determining the nature of the relations of the peoples of Central Asia with the world of the Ancient East serves to study historical processes. In this regard, we refer to the written and archeological sources left by the representatives of the "first civilization". B.C Written sources on Mesopotamia's relations with its eastern neighbors at the end of the third millennium have survived. These sources are intricate inscriptions on ceramic tablets from the time of the first dynasties. They are about the economy, the heroism of the mythological rulers, the heroic military campaigns of the Lugals, the details of the battle and the victories, and the return of the victorious rulers with wealth. Sources do not contain information on Central Asian lazurite, Iranian chlorites, and serdol, which have been identified by archeological excavations. On the other hand, as a result of archeological excavations, there are reports of textiles and food products that are not found in the soil. Evaluating this, researchers say that the Mesopotamian masters took these precious minerals from second or third hand. There is no written information about the most common archeological sites and the artisans who made various jewelry from these mines. Sources say that the rulers of Mesopotamia fought wars with Elam, Anshan, Marhashi, and Tukrish. Based on these data, it can be said that the relations between the countries of the Ancient East were in the nature of trade, migration and sometimes war. According to the American orientalist and archaeologist K. Lamberg-Karlovsky, avv. In the third millennium, trade was the most characteristic means of communication between peoples, with private entrepreneurs playing a key role and demand being the main tool in the relationship. According to another American scholar, F. Coll, free market relations between the Sumerians and Iran played a decisive role[21:56].

Some scholars, including D. Potss, take a different view of Mesopotamia and the

relationship between neighboring peoples. He considers K. Lamberg-Karlovsky and F. Koll to have misjudged historical processes. According to him, Mesopotamia was in a constant state of war with neighboring nations, mainly due to the domination and control of its mines. D. Potts defined this conflict for the mines as the main relationship between the Eastern states. He completely rejects the idea of peaceful trade relations and trade. He believes that the existence of a long-distance peaceful trade route before the Achaemenid Empire, the "Royal Way", is far from the truth. D. Potts's view is understandable, indeed it is difficult to understand the mechanism of free trade in an era when communities are involved in primitiveness. To solve this problem, let's look at the sources in this direction, based on the material resources of Central Asia, which is rich in minerals. Badakhshan lazurite is the bluest, most valuable mineral. B. Lione In the 3rd millennium BC, a unique culture was formed in Eastern Bactria, especially in the Tulikan oasis, under the influence of Balochistan. Thus, as a result of the growing demand for lazurite in the cities of the ancient East, the territory of Badakhshan was first occupied by the Baluchistanis. Bactria's B.C. We do not have enough information about the indigenous people of the third millennium. The inhabitants of the Sopolli and Dashtli cultures, who became the natives of Bactria, lived in this area B.C for thousands of years. It appeared at the end of the third millennium. As mentioned, A.-P. As a result of Frankfort's research, the Shurtoqay monument was discovered by the Harappans. avv. It was found to have been founded in 2200-2000 B.C. This means that the oasis is being "occupied" for the second time by the ancient Orientals, more precisely by the representatives of the ancient Indian civilization. According to the cultural strata of the Shurtoqay monument. At the beginning of the second millennium, the inhabitants of the Sopolli and Dashtli cultures not only conquered Bactria, but also liberated it from the inhabitants of the culture of the Ancient East, from the miners. This was observed on

the basis of the stratigraphy of the Shurtoqay monument, according to which life was restored after the Shurtoqay monument was abandoned by the ruins. As we have seen, this restoration was not carried out by the Kharapaks, but by the local inhabitants of Bactria, namely the Sopolli and Dashtli cultures. This period is B.C. Covers the years 2000-1700. This information confirms the struggle of the local Bactrians and the Harappans for the mine, and that the Bactrians had the upper hand in this struggle. This stratigraphic data shows that the struggle for mining with the peoples of the Ancient East did not take place peacefully.

CONCLUSION (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / XULOSA). This research confirms the complex and bidirectional nature of the relationship between the Ancient Near East (primarily Mesopotamia) and the Oxus (Central Asian) Civilization during the Bronze Age.

Firstly, the Lapis Lazuli Trade Route served as the most vital and enduring cultural and economic conduit between these civilizations. The widespread presence of Badakhshan lapis lazuli in major centers of Mesopotamia and the Ancient Indus Valley clearly indicates that long-distance trade was operational and played a crucial role in the economic sustenance of the people of this era.

Secondly, the analyzed textual and archaeological data confirm that these interactions were not limited to peaceful commerce. Written records of military campaigns and, crucially, stratigraphic evidence from the Shortughai site, suggest an opposing influence and struggle between the representatives of the incoming Harappan Civilization and the indigenous Bactrian cultures (Sopalli, Dashtli) for control over the valuable mineral resources. The eventual reoccupation of these areas by the local inhabitants, effectively liberating the territory from foreign cultural influence driven by mining interests, reflects the region's capacity for self-defense and assertion of independence.

REFERENCES
(ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА /
ADABIYOT VA MANBALAR RO‘YXATI):

1. Кирчо Л.Б. В.М. Массон и Ленинградская / Санкт-Петербургская школа изучения древностей Центральной Азии // Древности Восточной Европы, Центральной Азии и Южной Сибири в контексте связей и взаимодействий в евразийском культурном пространстве (новые данные и концепции). Материалы Международной конференции. 18-22-ноября 2019 г. Санкт-Петербург. – Санкт-Петербург, 2019. – С.7-9.
2. Beruniy Abu Rayhon. Kitob al-Jamohir fi-Ma’rifat al-Javohir. – Toshkent, 2017.– B. 70-74.
3. Shaydullayeva G.Sh. Baqtriya lazuritining Mesopotamiya shaharlariga tarqalishi haqida yozma va arxeologik manbalar // O‘tmishga nazar. Tadqiqot.uz. 2020-yil. Maxsus son. 4 qism. – B. 651-658.
4. Дьяконов И.М. Люди города Ура. – М., 1990. – С. 54.
5. Layard L. Monuments of Nineveh. – London, 1851. – P. 87.
6. Чайлд Г. Древнейший Восток в свете новых раскопок. – М., 1956. – 383 с.
7. Массон В.М. Протогородская цивилизация юга Средней Азии // СА. 1967. – С. 165.
8. Tosi M., Pirerno M. Lithic technology behind the ancient lapis lazuli trade // Expedition.1973. V.16. – P. 15-23.
9. Nermann G. Lapis Lazuli the Early Phase of Trade. – Iraq, v.30, 1968. – R. 87.
10. «La’l yo’li», «Xuroson yo’li», «Badaxshon yo’li» kabi.
11. Щетенко А.Я. О торговых путях эпохи бронзы по материалам Туркменистано-Хараппских параллелей. КСИА. – Вып. 122. – М., 1970. – С. 98.; Щетенко А.Я. Обмен и торговля доисторического Индостана. КСИА – №138. – М., 1974. – С. 88.; Щетенко Ф.Я. Новые серийное издание по проблематике древнеиндийской цивилизации // Археологические вести. №4. РАН. ИИМК, 1995.; Щетенко Ф.Я. Первобытный Индостан. – Ленинград, “Наука”, 1979.
12. Массон В.М. Средняя Азия и Древний Восток. – М.-Л.,1962. – 474 с.
13. Массон В.М. Средняя Азия и Древний Восток. – М.-Л.,1962. – 474 с.; Сарианиди В.И. О великом лазуритовом пути на древнем Востоке // КСИА. – Вып. 114. – М., 1968. – С. 67.
14. Mavlonov O‘.M. Markaziy Osiyoning qadimgi yo‘llari: shakllanishi va rivojlanish bosqichlari. – Toshkent, 2008. – 432 bet.
15. Delmas A.B., Casanova M. The Lapis Lazuli Sources in the Ancient East. – South Asian Archaeology 1987. P 1. Rome, 1990. – R. 56
16. Bronza va ilk temir davri yodgorliklarining geografiyasi va kartografiyasi. Toshkent, 2019. 52-54 betlar.
17. Frankfort H. The Art and Architecture of the Ancient Orient. – L., 1977. – P. 39-40.
18. Frankfort H. The Art and Architecture of the Ancient Orient. – L., 1977. – P. 40; Woolley L. The Development of Sumerian Art. – N.Y. 1935. – P.96; Piggott S. Prehistoric India. – L., 1950. – P.119, Lamberg-Karlovsky. Third Millenium Models of Exchange and Models of Production // Ancient Civilizations and Trade. – Albuquerque, 1975. – P. 358.
19. Ширинов Т.Ш. Связи Средней Азии и Индийского субконтинента во II тыс. до н.э. / Этюды нашей истории. Ташкент, 2011. - С.190-195.
20. Tosi M., Pirerno M. Lithic technology behind the ancient lapis lazuli ... – P.15-17.
21. Potts D.T. Tepe Yahya and the End of the 4th Millennium on the Iranian Plateau – Le Plateau Iranien et l’Asie Centrale des origins a ia conquete islamique. – Paris,1977. – R. 56.
22. Tosi M, Pirerno M. Lithik technology behind the ancient lapis lazuli trade // Expedition.1973. V.16. P.15-23.

23. Carter E, Stolper M.W. Elam. Surveys of Political History and Archaeology. – London, 1984, – p.VII.
24. Ratnager Sh. Encounters. The Westerly Trade of Harappa Civilization. – Oxford, 1981. –R.154
25. Ratnager Sh. Encounters. The Westerly Trade of Harappa Civilization ... –R.155.
26. Международные отношения. – М., 1998. – С.17-18.
27. Lamberg-Karlovsky. Third Millenium Models of Exchange and Models of Production. Ancient Civilizations and Trade. – Albuquerque, 1975. –p.365.
28. Kohl Ph. The «World –Economy» of West Asia in the Third Millennium B.C. // South Asian Archaeology 1977. – Napoli, 1979. – R. 47.
29. Potts D.T. Tepe Yahya and the End of the 4th Millennium on the Iranian Plateau – Le Plateau Iranien et l'Asie Centrale des origines à la conquête islamique. – Paris, 1977. – R. 53.
30. Lyonnet B. Ceramique et peuplement du chalcolitique à la conquête arabe. (Prospections archeologiques en Bactriane orientale (1974-1978). Soes La direction de Jean-Claude Gardin. V.2). - Paris, 1997. – R.117.
31. Francfort H.-P. Tradition harappéenne et innovation bactrienne à Shortughai // L'archéologie de la Bactriane ancienne. Actes du colloque franco-soviétique de Dushanbe / Ed. J.-C. Gardin (ed.). Paris: CNRS, 1985b. P. 95–104; Francfort H.-P. A propos de l'urbanisation du site de Shortughai (Afghanistan). Une approche archéologique des transformations de l'économie de production // Bulletin du Centre Genevois d'Anthropologie. 1988. T. 1. P. 15–34.
32. Francfort H.P. Fouilles de Shortughai. Recherches sur L'Asie Central protohistoriques. V.I.II. – Paris: Boccard, 1989.
33. Francfort H.P. Fouilles de Shortughai. Recherches sur L'Asie Central protohistoriques. V.I ... – R. 78-83.

ЎЗБЕКИСТОНДА ЭРКИН ИҚТИСОДИЙ ЗОНАЛАР МАВЗУСИНИ ТАДҚИҚ ЭТИШНИНГ ТАРИХШУНОСЛИГИ МАСАЛАЛАРИ

Шохрух Саидмуродов

*Жиззах вилояти педагогик маҳорат маркази
“Методик хизмат кўрсатиш” бўлими ижтимоий
фанлар методисти
<https://orcid.org/0009-0006-8153-0220>
UDK: 94(575.1)*

Аннотация: мақолада Ўзбекистонда эркин иқтисодий зоналар мавзусини тадқиқ этишнинг тарихшунослиги масалалари иқтисодий, ижтимоий ва тарихий йўналишдаги адабиётлар таҳлили асосида баён қилинган. Унда эркин иқтисодий зоналар тушунчасининг моҳияти, ўзига хослиги, мазкур ҳудудларнинг иқтисодий аҳамияти, уларнинг маҳаллий ва хорижий иқтисодчи ва тарихчи олимлар томонидан ўрганилиши, жумладан, илмий мақолалар, дарслик ва қўлланмаларда Ўзбекистонда эркин иқтисодий ва саноат зоналари фаолияти масалаларининг тадқиқи ёритилган.

Калит сўзлар: Ўзбекистон, эркин иқтисодий зона, тарихшунослик, иқтисодий, молиявий, солиқ, ҳудуд, инвестиция, ишлаб чиқариш, имтиёз, маҳсулот, хом ашё, тадқиқот.

Аннотация: в статье изложены вопросы историографии изучения темы свободно экономических зон в Узбекистане на основе анализа литератур экономического, социального и исторического характера. В нем освещаются сущность и специфика понятия свободно экономических зон, экономическое значение данных территорий, их изучение отечественными и зарубежными экономистами и историками. В том числе в нем описаны изучение деятельности свободно экономических и промышленных зон в Узбекистане на основе научных статей, учебников и учебных пособий.

Ключевые слова: Узбекистан, свободная экономическая зона, историография, экономический, финансовый, налоговый, территория, инвестиции, производство, льгота, продукт,

сырьё, исследование.

Abstract: the article presents the historiography issues of studying the topic of free economic zones in Uzbekistan based on the analysis of literature of an economic, social and historical nature. It highlights the essence and specificity of the concept of free economic zones, the economic significance of these territories, their study by domestic and foreign economists and historians. In particular, it describes the study of the activities of free economic and industrial zones in Uzbekistan based on scientific articles, textbooks and teaching aids.

Keywords: Uzbekistan, free economic zone, historiography, economic, financial, tax, territory, investment, production, benefit, product, raw materials, research.

КИРИШ (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). Ҳар қандай мамлакатнинг барқарор ривожланишини таъминлашда эркин иқтисодий зона (ҳудуд) лар муҳим рол ўйнайди. Бундай зоналарда ташкил этилган иқтисодиёт тармоқлари мамлакат аҳолисининг саноат, қишлоқ хўжалиги, озиқ-овқат ва бошқа турдаги маҳсулотларга бўлган эҳтиёжни таъминлашда, қайта ишлаш саноати тармоқларини ҳамда хомашёга бўлган эҳтиёжини қондиришда муҳим аҳамиятга эга. Мақолага доир асосий масалалар таҳлилига ўтишдан олдин Эркин иқтисодий ҳудуд ва Эркин иқтисодий зона тушунчаларига таъриф бериш ўринли. Аммо расмий норматив-ҳуқуқий ҳужжатларда Эркин иқтисодий ҳудуд тушунчаси учрамайди. Бироқ айрим иқтисодчи олимлар ва мутахассислар ўз асар ва мақолаларида бир қатор ўринларда

Эркин иқтисодий зона тушунчасининг моҳиятини таҳлил қилар эканлар, Эркин иқтисодий ҳудуд тушунчасига ҳам айрим таърифларни бериб ўтганлар. Масалан, Р. Хожиматов ўз мақоласида Эркин иқтисодий ҳудуд тушунчасига қуйидаги таърифни беради:

Эркин иқтисодий ҳудуд — бу “Эркин иқтисодий ҳудуд: хориж капитали иштирокидаги фаолиятни рағбатлантирувчи, имтиёзли валюта-молиявий ва анчайин қулай солиқ режимларига эга бўлган ҳудуддир” [1. 2017-yil, 2-bet.].

АДАБИЁТЛАР ТАҲЛИЛИ ВА МЕТОДЛАРИ (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОДОЛОГИЯ / METHODS). Эркин иқтисодий ва саноат зоналари фаолияти, уларнинг ўзига хос хусусиятлари, самараси ва яратиб берилган солиқ имтиёзлари, ишлаб чиқариш, тадбиркорлик, савдо, транспорт логистика хизматларини ривожлантириш ва хорижий инвестицияларни жалб қилиш масалалари ҳар доим тадқиқотчиларни ўзига жалб қилиб келган. Шу маънода тарихшунослик нуқтаи назаридан мавзуга оид адабиётларни икки гуруҳга бўлиб ўрганиш мақсадга мувофиқ:

Биринчи гуруҳга маҳаллий тадқиқотчиларнинг илмий ишлари;

Иккинчи гуруҳга хорижлик тадқиқотчиларнинг илмий тадқиқотларини киритиш мумкин. Диссертация тарихшунослиги бўйича тарихий нуқтаи назардан алоҳида тадқиқот амалга оширилмаган. Аммо маҳаллий тарихчи олимлар томонидан тарихий мавзуда яратилган адабиётларда, жумладан, илмий мақолалар, дарслик ва қўлланмаларда Ўзбекистонда эркин иқтисодий ва саноат зоналари фаолияти масалалари қисман баён қилинган. Бу борада Р. Абдуллаев, Ш. Рахматуллаев, М. Рахимов, Э. Нуриддинов, Ш. Зиёмов, Ф. Рашидова, Н. Обломуродов, Қ. Усмонов, М. Содиқова, Ф. Толипов, А. Аминова каби муаллифларнинг илмий ишларини қайд этиш мумкин.

МУҲОКАМА (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). Масаланинг

тарихшунослиги бўйича айрим олимларнинг қайд этишларича, эркин иқтисодий ҳудуд ёки эркин иқтисодий зона (қискартирилган ЭИЗ) аслида бир тушунчалар бўлиб, давлатнинг бошқа ҳудудларига нисбатан алоҳида ҳуқуқий мақомга эга махсус ажратилган ҳудуддир. Кўпинча, алоҳида мақом миллий ёки хорижий тадбиркорлар учун имтиёзли солиқ ёки божхона имтиёзларида ифодаланади. Бундай зоналарни ташкил этишдан асосий мақсад давлат, алоҳида олинган бундай ҳудудларни, қолаверса соҳалар ёки тармоқларни ижтимоий-иқтисодий ривожлантиришга эътибор қаратишни мақсад қилади [2. 2013.- 560].

Тадқиқотчи Рашидов М.К. ўзининг “Эркин иқтисодий ҳудудларнинг мазмун-моҳияти ва ҳудудлар ривожланишига таъсири” номли мақоласида Эркин иқтисодий ҳудуд — бу мамлакат ривожланишининг иқтисодий, ижтимоий, демографик мезонлари ва эҳтиёжлари билан белгиланган, махсус мақсадли йўналтирилган чегараланган бир қисмидир. Бундай ҳудуд давлатнинг турли хил бошқарув поғоналари ва ҳокимият органлари томонидан, чет эл инвесторларига эркин иқтисодий ҳудудлар турига мувофиқ тарзда тақдим этиладиган иқтисодий имтиёзларнинг муайян тўплами билан тавсифланади. Эркин иқтисодий ҳудуд махсус ташкил этиладиган ёки олдиндан мавжуд республика ёки минтақавий тузилмалар тизимида фаолият юритади, дея таъриф беради [3. № 3, 2012. 50-bet]

Иқтисодий таҳлилчи Алишер Таксановнинг фикрича Эркин иқтисодий ҳудудлар фақат депрессив — иқтисодий аҳволи ночор ҳудудларда ташкил қилинади. Яъни иқтисоди ривожланмаган ҳудудларда узоқ йиллар, 50-100-йилга эмас, балки қисқа муддатда иқтисодни кўтариш мақсадида барпо этилади. Иқтисодни кўтариш учун махсус шароитлар яратилади. Жумладан солиқлар камайтирилади ва бошқа имтиёзлар берилади. Албатта бундай шароитлар минтақанинг бошқа жойларидагидан фарқ

қилади. Бу капитал ва хориж сармояларини жалб қилиш ва минтақа учун сезиларли даромад келтириш мақсадида қилинади[4 https://www.bbc.com/uzbek/uzbekistan/2013/01/130124_cy_uzbekistan_economics].

Эркин иқтисодий ҳудуд ёки Эркин иқтисодий зоналарни ташкил этишдан асосий мақсад:

- товар ишлаб чиқариш ва хизматлар кўрсатиш учун тўғридан-тўғри хорижий капитал ёки инвестицияларни ҳамда илғор хорижий технологияларни жалб қилиш;

- янги иш ўринларини шакллантириш ва малакали кадрларни иқтисодиётга жалб қилиш;

- мамлакатнинг экспорт салоҳиятини шакллантириш ва кўтариш;

- импорт маҳсулотлари ишлаб чиқаришни кўпайтириш;

- ишлаб чиқаришни ташкил этиш ва унинг бошқарувини ташкил этиш;

- хорижий инвесторларни жалб этиш;

- савдо-тижорат учун шарт шароитлар яратиш;

- божхона тўловларини минималлаштириш ёки қисқартириш;

- зарур инфратузилмалар яратиш;

- арзон ва қулай ишчи кучи ва меҳнат ресурсларидан фойдаланиш;

- бюрократик ва маъмурий тўсиқларни бартараф этиш [6. 2013. С.39—55— 560] дан иборат.

Ўзбекистонда мазкур мавзу бугунги кунгача асосан иқтисодий йўналишда ўрганилган бўлиб, хусусан мазкур зоналарда тадбиркорлик, савдо ва ташқи иқтисодий алоқаларни йўлга қўйиш, хорижий инвестицияларни кенг жорий этиш ва ривожлантиришда эркин иқтисодий ҳудудларнинг ўрни ва аҳамияти М.К.Рашидов С.С.Мирзалиева, М.А.Раимжонова ва А.А.Остонақулов, Раҳматов Б, Бақоев Ҳ, С. Бозоров. М. Жўрақулов, Ш. Мақсудов каби тадқиқотчи ва олимлар томонидан баён қилиб берилган. Улар иқтисодий зоналар борасида тадқиқотлар олиб борар эканлар эркин иқтисодий зоналар бу, маҳаллий ҳамда хорижий тадбиркорлар фаолият юритиши учун махсус имтиёзларга эга, бир

қанча иқтисодий фаолият турлари билан шуғулланувчи, маълум чегараланган зона, дея таъриф берадилар.

Бозор муносабатларини ташкил этиш, кўп тармоқли иқтисодиётни шакллантириш, хусусийлаштириш ва давлат тасарруфидан чиқариш, бозорнинг институтсионал асослари муаммоларига тааллуқли масалалар бир қатор етакчи иқтисодчилар И.Якубов ва И.Расулов, М.Мухаммедов, А. Умаров ларнинг ишларида очиб берилган. Улар Ўзбекистоннинг Навоий, Бухоро, Самарқанд каби шаҳар ва вилоятларида ҳам 2007-2016 йилларда бир қатор эркин иқтисодий зоналар ташкил этилгани, улар рақобатбардош товарлар ишлаб чиқариш, ички бозор ва экспорт эҳтиёжларини таъминлашда муҳим аҳамиятга эга бўлганлигини қайд этадилар. Бу эса мазкур эркин иқтисодий ва саноат зоналари фаолияти маълум тарихий босқичларга эга бўлганлигини англатади.

Муаллифлар мазкур зоналарда солиқ имтиёзларининг молиявий ва иқтисодий асослари ҳамда аҳамияти масалаларига илмий-назарий жиҳатдан, ўз ўрнида ҳар бир эркин иқтисодий зонанинг хусусиятларини ўз тадқиқотлари ва мавзулари доирасида таҳлил этадилар. Мазкур олимлар таърифича, эркин иқтисодий зона тушунчасига шундай таъриф бериладики, унда маълум географик зонада ташкил этилган давлатнинг иқтисодий жараёнларга аралашуви камайтирилган, миллий иқтисодиёт ва ишлаб чиқаришга ижобий таъсир кўрсатувчи, маълум солиқ ва бошқа имтиёзларга эга зона тушунилади.

Иқтисодчи олим Ж. И.Каримқулов эркин иқтисодий зонани мамлакатдаги иқтисодиёт соҳаларини ва тармоқларни муттасил ривожлантиришга йўналтирилган, ички ва ташқи инвестицияларни жалб қилган ҳолда, ўзига хос имтиёзлар ўрнатилган, шунингдек, улардан барча иқтисодиёт соҳаларини модернизатсия ва диверсификатсиялашга йўналтирилган ҳамда замонавий технологияларни барча ишлаб чиқариш

хамда тижоратга жорий қилиш мақсадида фаолият юритувчи зона, дея қайд этади [7. June 2022. ISSN: 2181-1016].

У ўз ишларида бугунги кунда Навоий эркин иқтисодий зонаси хусусида сўз юритиб, ютуқлар билан бирга, камчиликлар ва муаммоларни ҳам келтириб ўтади. Яъни, мазкур ЭИЗ ўз имкониятларидан тўла фойдаланмаётганлиги сабабли бошқа эркин иқтисодий зоналарга нисбатан олдинроқ ташкил этилишига қарамасдан жалб этилган инвестициялар миқдори мутаносиб эмаслигини, фаолият олиб бораётган корхоналар тайёр маҳсулот ишлаб чиқариш учун кўп миқдорда турли хилдаги хомашёларни импорт қилиш ҳисобига амалга ошириб келаётганлигини, ушбу корхоналар ўз фаолияти давомида маҳаллий хомашёлардан фойдаланиш имкониятини кўпайтирса, маҳаллий тадбиркорлик фаолияти янада кенгайиб, эркин иқтисодий зона миллий иқтисодиётга улуши ортиб бораётганлигини таъкидлайди.

Иккинчи гуруҳ тадқиқотларига хорижий олимларнинг илмий изланишларини қайд этиш мумкин. Бу борада МДХ давлатлари олимларидан, белоруссиялик В.Приходко, Ҳ.Воловикелар ўз ишларини эълон қилганлар [8. 2016.-99 с.]. Олимлар иқтисодий зоналарни ривожлантириш учун қулай шарт-шароитларни таъминлаш, ички ва хорижий сармояларни жалб этиш, савдо-иқтисодий ҳамкорликни ривожлантириш, халқаро савдо алмашинувини кенгайтириш, бошқарувнинг илғор тажрибаларини жорий этиш, халқ истеъмоли товарлари ишлаб чиқариш ва хизматлар кўрсатишни кенгайтиришга урғу берадилар. Жумладан, россиялик иқтисодчилардан Т.Р Данко, Ю. Королёв, Р.И Зименков, А.С Козловалар ўз илмий изланишларида эркин иқтисодий зоналар муаммоларига эътибор қаратиб, улар ушбу масалани комплекс ва локал тарзда таҳлил этадилар. Ўз тадқиқот объектлари дорирасида солиқ имтиёзлари масалаларига ҳам эътибор қаратадилар.

Улар Эркин иқтисодий зоналар муайян иқтисодий ва ижтимоий мақсадлар,

эркинликнинг асосий хусусиятлари ва ҳаракатлантирувчи кучларидан иборат зона эканлигига эътибор қаратадилар. Масалан Ю. Королёв иқтисодий зоналарни макро ва микроиқтисодий турларга бўлиб, эркин иқтисодий зоналар босқичма-босқич ривожланиб боради, иқтисодий даражадан сиёсий даражагача кўтарилганлигини, умуман олганда, уларнинг макроиқтисодий мақсадлари кўпинча ҳар хил бўлишини савдога асосланган ЭИЗлардан кенг қамровли эркин иқтисодиётгача бўлган мақсадлар ўз аксини топишини уқдиради [9. 2009. – № 5.].

Масалан, Р.И Зименков эса ЭИЗ лар савдо, экспорт, иш ўринлари яратиш, валюта ишлаб чиқариш, инвестициялар, кадрлар тайёрлашни амалга ошириш, шунингдек, хорижий капитални жалб этиш технология ривожланишига хизмат қилишини таъкидлайди. Эркин иқтисодий зоналарнинг мақсади иқтисодиётнинг минтақавий интеграллацияси, таркибий ислохотларни амалга ошириш учун зарур бўлган минтақавий ривожланиш, минтақавий иқтисодий ҳамкорлик ва интеграцияни амалга ошириш манбаидир, дея уқдиради [10. 2005.-С. 75.].

Умуман, мутахассисларнинг ҳисоб-китобларига кўра, 2022-йилгача ўтган даврга нисбатан эркин иқтисодий зоналардаги саноат маҳсулот кўрсаткичи 4,13-мартага кўпайган. Инвестиция қайтимининг умумий индекси (интенсив омил) ўртача 24,4 фоизга камайган. Инвестиция ҳажмининг умумий индекси (экстенсив омил) ўртача 5,5-мартага кўпайганлиги кузатилган. Яъни эркин иқтисодий зоналар саноат маҳсулот ҳажмининг умумий индекси биринчи омил ҳисобига ўртача 24,4 фоизга камайган, иккинчи омил ҳисобига 5,5-мартага ошган. Бу эса вилоятлар эркин иқтисодий зоналарида самарали инвестицион сиёсат юритиш борасида камчиликлар мавжудлигидан далолат беради. Инвестиция ҳажмининг умумлашган ҳолда бундай сезиларли кўпайиши “Ангрен” ва “Жиззах” эркин иқтисодий зоналари капитал қўйилмаларнинг юқори даражаси ҳисобига эришилган [11. Т.

2021. Aprel-iyun].

ХУЛОСА (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Хулоса қилиб айтганда, олимлар томонидан эркин иқтисодий ҳудудлар масаласи асосан иқтисодий йўналишда тадқиқ этилган бўлиб, олимлар ўз ишларида ЭИЗ ларга мамлакат ривожланишининг иқтисодий, ижтимоий, демографик жихатига кўпроқ эътибор берган ҳолда, уларнинг фаолияти ҳақида сўз юритганлар. Олимларнинг аксарияти ўз илмий ишларида махсус мақсадли ва чегараланган алоҳида иқтисодий зоналарни кенг қамровли йўналишда тадқиқ этганлар. Уларнинг ишларида бундай ҳудудлар давлатнинг турли хил бошқарув

поғоналари ва ҳокимият органлари томонидан, чет эл инвесторларига эркин иқтисодий ҳудудлар турига мувофиқ тарзда тақдим этилган иқтисодий имтиёزلарнинг муайян тўплами эканлиги тавсифланади. Эркин иқтисодий ҳудуд махсус ташкил этилган ёки олдиндан мавжуд республика ёки минтақавий тузилмалар тизимида фаолият юритадиган жой эканлиги уқтирилган. Умуман, мавжуд илмий адабиётлар таҳлили мазкур масала тарихий нуқтаи назардан ҳали тадқиқ этилмаганлигини кўрсатди. Шу боис, ушбу масалани мазкур йўналишда ўрганиш муҳим аҳамият касб этади.

АДАБИЁТ ВА МАНБАЛАР РЎЙХАТИ (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES):

1. Хожиматов R. Erkin iqtisodiy hududlarning investitsion kapital oqimini ta'minlashdagi o'rni. // "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 6, noyabr-dekabr, 2017-yil, 2-bet.
2. Баронов В.И., Костюнина Г.М. Свободные экономические и офшорные зоны.— Магистр: ИНФРА-М. — М., 2013. — 560 с. — ISBN 978-5-16-006667-7.
3. Rashidov K. Erkin iqtisodiy hududlarning mazmun-mohiyati va hududlar rivojlanishiga ta'siri // Iqtisod va moliya / Ekonomika i finansi. № 3, 2012. 50-bet.
4. https://www.bbc.com/uzbek/uzbekistan/2013/01/130124_cy_uzbekistan_economics
5. Баронов В.И., Костюнина Г.М. Свободные экономические и офшорные зоны. — Магистр: ИНФРА-М. — М., 2013. — С. 39—55. — 560 с. — ISBN 978-5-16-006667-7.
6. Karimqulov J. Mamlakatga investitsiyalarni faol jalb qilishda erkin iqtisodiy zonalar omilidan foydalanish ("Navoiy" EIZ misolida). // Scientific Journal of «International Finance & Accounting». Issue 3, June 2022. ISSN: 2181-1016.
7. Приходько С.В., Воловик Н.П. Особые экономические зоны. — Москва, 2007. - 268 с. Воловик Н. Международная практика создания специальных экономических зон. — Москва, 2016. - 99 с.
8. Королев Ю.А. Развитие особых экономических зон в Российской Федерации как инструмента повышения инновационного потенциала: противоречия, тенденции и перспективы // Экономические науки. — 2009. — № 5.
9. Зименков Р.И. Свободные экономические зоны. — М.: Юнити, 2005. — С. 75.
10. Rashidov M. Mintaqalarda erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini takomillashtirish dolzarbligi. // Iqtisodiyot: tahlillar va prognozlar. T., 2021. Aprel-iyun.

SOPOLLITEPA VA ILK O'ZBEK DAVLATCHILIGINING ILDIZLARI

Quvvatova Shahnoza

Termiz arxeologiya muzeyi yetakchi mutaxassisi<https://orcid.org/0009-0007-5938-600X>

UDK: 94(575.1)

Annotatsiya: Ushbu ilmiy ishda qadimgi O'zbekiston hududida joylashgan Sopollitepa yodgorligining tarixiy-arxeologik ahamiyati va u yerda topilgan sopol vazalar orqali ilk dehqonchilik jamiyatlarining madaniy hayoti yoritilgan. Tadqiqot davomida Sopollitepadagi sopol buyumlarining shakli, bezagi, tayyorlanish uslubi hamda ularning xo'jalik va marosimiy maqsadlarda qo'llanilishi tahlil qilingan.

Tayanch so'zlar: Sopollitepa madaniyati, Sopollitepa, dashtli mudofaa, Baqtriyadagi labirint tizimi, me'morchilik, kulolchilik buyumlari, sopol idishlar, qimmatbaho buyumlar, Sopolli, Jarqo'ton, Molali va Ko'zali.

Аннотация: Данная научная работа освещает историческое и археологическое значение памятника Сополлитепа, расположенного в древнем Узбекистане, и культурную жизнь ранних земледельческих обществ посредством найденных здесь керамических ваз. В ходе исследования были проанализированы форма, декор, способы изготовления керамических изделий из Сополлитепа, а также их использование в хозяйственных и церемониальных целях.

Ключевые слова: культура Сополлитепа, Сополлитепа, степная оборона, лабиринтная система в Бактрии, архитектура, керамические артефакты, керамические сосуды, ценности, Сополли, Джаркутон, Молали и Козали.

Abstract: This scientific work sheds light on the historical and archaeological significance of the Sopollitepa monument located in ancient Uzbekistan and the cultural life of early farming societies through the ceramic vases found there. During the study, the shape, decoration, manufacturing methods of ceramic objects from Sopollitepa, and their

use for economic and ceremonial purposes were analyzed.

Keywords: Sopollitepa culture, Sopollitepa, steppe defense, labyrinth system in Bactria, architecture, pottery artifacts, ceramic vessels, valuables, Sopolli, Jarquton, Molali and Kozali.

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). O'zbekiston hududi qadimdan turli sivilizatsiyalar rivoj topgan markazlardan biri hisoblanadi. Bu yerda neolit davridan to ilk o'rta asrlargacha bo'lgan turli davrlarga oid arxeologik yodgorliklar topilgan bo'lib, ular o'zida o'sha davr aholisi hayoti, madaniyati va xo'jalik faoliyati haqida muhim ma'lumotlarni mujassam etgan.

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). Har bir O'zbekiston fuqarosini mamlakatimiz hududida ilk shaharlar qachon paydo bo'lgan yoki ilk davlatchilik qachon shakllangan, shu masalalar bilan chambarchas bog'liq bo'lgan sinflar-siyosiy guruhlar qachon tug'ilgan, degan savollar qiziqтира ajabmas.

Bu savolga bir jumla bilan-Baqtriya zaminida,-deb javob bersak xato bo'lmas. Lekin, yechimi og'ir bo'lgan bu masalalar qay yo'sinda yoki qaysi davrda sodir bo'lganligi tarixiy uzoq jarayon bo'lib, ashyoviy dalillar asosida o'z yechimini topadi. O'zbekiston fuqarosini har doim bir savol o'ylantiradi: mamlakatimiz hududida ilk shaharlar va davlatchilik qachon shakllangan? Bu savolga qisqa qilib "Baqtriya zaminida" deb javob berish mumkin. Ammo bu jarayonlar murakkab va uzoq tarixiy davrlarni qamrab olgani bois, ularni faqat arxeologik ashyoviy dalillar asosida tushunish mumkin[13].

Bronza davri (miloddan avvalgi III ming yillik o'rtalaridan miloddan avvalgi I ming yillik boshlariga qadar) O'rta Osiyoning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotida muhim

bosqich bo'lgan[18].

Aynan shu davrga oid Sopolli madaniyati O'zbekiston janubida shakllangan bo'lib, u nafaqat me'morchilik, balki kulolchilik, metalsozlik, tosh ishlovchilik kabi barcha moddiy madaniyat sohalarida simmetriklik va geometriyaga asoslangan yondashuvni o'zida mujassam etadi[22].

Sopollitepa — Surxondaryo viloyatining Muzrabot tumanidagi qadimgi yodgorlik bo'lib, 1968 yilda L.I. Albaum tomonidan topilgan va akademik Ahmadali Asqarov rahbarligida keng miqyosda o'rganilgan[5].

Yodgorlik taxminan 3 gektar maydonni egallaydi, uning markaziy qismi mudofaa devorlari bilan o'rab olingan[7].

Qal'a ichida 150 dan ortiq turar joy majmualari aniqlangan. Har bir mahalla 15-20 oilaviy uydan iborat bo'lib, qal'a ichki ko'chalar orqali markaziy ochiq maydon bilan bog'langan[8].

Bu yerda muhandislik fikri va ijtimoiy-iqtisodiy tizim bir-biriga uyg'un holda rivojlanganini ko'rish mumkin. Sopollitepa bilan bir qatorda Jarqo'ton yodgorligi ham Sopolli madaniyatining muhim vakili bo'lib, qadimiy O'zbekiston hududida ilk shaharlar va davlatlashuv bosqichining asosiy dalillaridan biri sanaladi[16].

Jarqo'tonda topilgan ibodatxona va boshqa diniy inshootlar bu yerda Zardushtiylikka qadar olovga sig'inish va xauma ichimligini ilohiylashtirish urf bo'lganini ko'rsatadi[11].

Sopollitepadan topilgan sopol buyumlar uzoq yillik amaliyot, estetik qarashlar va texnologik yutuqlar mahsuli bo'lib, bu yodgorlikdan 158 ta qabr topilgan, ularning barchasi yaxshi saqlangan[2]. Lahadli dafn usuli, ayvoncha va jasadxona tizimi bugungi dafn marosimlariga juda yaqin bo'lib, qadimgi diniy e'tiqodlar haqida muhim ma'lumot beradi[1].

Sopollitepada o'tkazilgan arxeologik qazishmalar natijasida aniqlanishicha, uning markaziy qismi murabba (82x82 m) shaklida qurilgan qal'adan iborat bo'lgan[4].

Qal'a atrofi uch qatorli mudofaa tizimi orqali himoyalangan bo'lib, bu tizim aslida ichki va tashqi yo'laksimon qopqonlardan

iborat murakkab mudofaa mexanizmini tashkil qilgan[14].

Tashqi mudofaa chizig'ida 8 ta, ichki qismda esa markaziy va burchaklarga joylashtirilgan 8 ta yo'laksimon qopqonlar mavjud bo'lgan[3].

Qal'aga 8 ta darvoza ko'zda tutilgan bo'lsa-da, ulardan faqat janubiy tomonidagisi haqiqiy bo'lib, qolganlari harbiy xavf vaqtida qopqon sifatida xizmat qilgan[24].

Qal'a ichki hududida joylashgan uy-joy majmualari 8 ta mahallaga bo'lingan, markaziy qism esa ochiq maydon shaklida ajratilgan[10].

Qazishmalar natijasida 150 dan ortiq turar-joy majmualari aniqlangan bo'lib, har bir mahalla hududida taxminan 15-20 ta oilaviy uy joylashgan[19].

Sopollitepada topilgan sopol buyumlar ikki qavatli xumdonda pishirilgan, jarangsiz, naqshsiz va nafis bo'lib, mutanosiblik va shaklga katta e'tibor qaratilgan[15].

Asosiy buyumlar qatoriga uzun oyoqli vazalar, konussimon kosalar, nimkosalar, qadahlar, xumchalar, ko'zalar, xumlar va boshqa idishlar kiradi[20].

Bu yerda 158 ta qabr o'rganilgan bo'lib, ularning aksariyati to'liq saqlangan[17].

Lahadlar erkaklar uchun o'ng, ayollar uchun chap tomon bilan g'ujanak holda joylashtirilgan. Murda bayramona kiyimda, harbiy yoki mehnat qurollari bilan birga dafn etilgan. Bu marosimlar sopollitepaliklar narigi dunyoga ishonishganini ko'rsatadi[9].

Bronza davrida Sopolli, Jarqo'ton, Molali va Ko'zali bosqichlarida turli xil vaza shakllari rivojlangan[12].

Sopolli bosqichi sopollarining 95% dan ortig'ini baland oyoqli vazalar tashkil qilgan bo'lib, ular ochiq va yopiq rezervuarga ega ikki variantda mavjud[23].

Jarqo'ton bosqichi davomida esa konussimon, gofrirovka qilingan, sayoz rezervuarli vazalar keng tarqalgan. Ularning hajmi, dizayni, shakli va tayyorlanish texnikasi xilma-xil bo'lib, Sopolli bosqichi an'analarining davomchisi sifatida namoyon bo'ladi[6].

Ko'zali bosqichidagi vazalar esa yuqori texnik uslubda, baluster shaklida, relefli

bezaklar bilan, ayrim hollarda angob qatlami bilan yasalgan[21].



XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Sopollitepa yodgorligi O'zbekiston janubidagi qadimgi madaniyatlarning o'ziga xos namunasi bo'lib, bronza davri jamiyatining taraqqiyot darajasi, xo'jalik faoliyati, diniy e'tiqodlari va san'at

darajasi haqida muhim arxeologik dalillarni taqdim etadi. Yodgorlikdagi qazilma ishlari natijasida topilgan sopol buyumlar, hayvon suyaklari, me'moriy qoldiqlar hamda diniy timsollar o'sha davr aholisi yashash tarzining har tomonlama rivojlanganligini ko'rsatadi. Sopollitepa nafaqat moddiy madaniyatni, balki ma'naviy hayotni ham o'rganishda muhim manba hisoblanadi. Bu yodgorlik orqali O'zbekiston hududida miloddan avvalgi III–II ming yilliklarda mavjud bo'lgan madaniy qatlamlar, aholining diniy qarashlari, mehnat qurollari, kulolchilik an'analari va ijtimoiy tuzum haqidagi tasavvurlar sezilarli darajada boyidi. Mazkur yodgorlikning o'rganilishi nafaqat O'zbekiston, balki butun Markaziy Osiyo tarixining ilk bosqichlarini yoritishda katta ilmiy ahamiyat kasb etadi. Sopollitepa misolida qadimiy sivilizatsiyalar taraqqiyoti, ularning ekologik sharoitlar bilan bog'liqligi va madaniyatlararo aloqalari chuqur tahlil etilishi mumkin. Shunday qilib, Sopollitepa – bu bizni uzoq o'tmish bilan bog'laydigan, hali ham ko'plab sirlarni o'zida saqlab kelayotgan noyob tarixiy obidadir.

ADABIYOT VA MANBALAR RO'YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES):

1. Гулямов Я. Г. Древний Хорезм. Москва: Наука, 1957.
2. Tolstov S. P. O'rta Osiyoda sug'oriladigan dehqonchilik tarixidan. Moskva: Nauka, 1962.
3. Masson R. M. Bronza asri O'rta Osiyoda. Leningrad, 1964.
4. Pugachenkova G. A. Qadimgi O'zbekiston arxitekturasini. Toshkent, 1971.
5. Албаум Л. И. Древний Сапалли. Москва: Наука, 1973.
6. Koshelenko G. A. O'rta Osiyo madaniy aloqalari. Moskva, 1976.
7. Asqarov A. A. Yozma manbalar va arxeologik tadqiqotlar asosida O'zbekiston tarixidan lavhalar. Toshkent: Fan, 1977.
8. Berdiyev O. I. Yangi topilmalar asosida ilk jamiyatda ijtimoiy tabaqalanish masalalari. Toshkent: Fan, 1980.
9. Ranov V. A. O'rta Osiyoda diniy qarashlar evolyutsiyasi. Dushanbe, 1980.
10. Rtveladze E. V. O'rta Osiyo shaharsozlik san'ati. Toshkent, 1985.
11. Asqarov A. A. Jarqo'ton — ilk shahar. Toshkent: Fan, 1989.
12. Asqarov A. A. Bronza davrida O'zbekiston. Toshkent, 1991.
13. Asqarov A. A. Qadimgi O'zbekiston madaniyati. Toshkent: Fan nashriyoti, 1992.
14. Xo'jayev T. S. "Sopollitepa madaniyati". Arxeologiya jurnali, №3, 1994.
15. Dovudov S. A. Kulolchilik san'ati va arxeologiya. Samarqand, 1998.
16. Кабанов В. С. Древние города Бактрии. Душанбе: Ирфон, 1999.
17. Mirzayev M. M. "Qadimgi qabrlardan topilgan ashyoviy dalillar". Tarix va madaniyat, №4, 1999.
18. Berdimuradov A. A. Bronza davri O'zbekiston hududida. Samarqand: Sharq, 2000.

19. Islomov J. “Sopollitepa yodgorligi va undagi madaniy qatlamlar”. Tarixiy meros, 2002.
20. Karimov T. M. “Qadimgi davrlarda sopol buyumlar texnologiyasi”. Arxeologiya xabarlari, №2, 2005.
21. Xasanov Q. “Ko‘zali bosqichi va uning tipologiyasi”. Arxeologik izlanishlar, 2007.
22. Turg‘unov A. “Sopollitepa va O‘zbekiston janubining ilk shaharlari”. O‘zbekiston tarixi jurnali, №1, 2011.
23. Jarqo‘ton qazilmalari materiallari, FAN nashriyoti, 1984.

OKS SIVILIZATSIYASI YODGORLIKLARI GEOGRAFIYASI

Jalilov Doston Muhiddin o'g'li

*Termiz davlat universiteti O'zbekiston tarixi va manbashunoslik
kafedrası tayanch doktoranti**e-mail: djalilov367@gmail.com**<https://orcid.org/0009-0006-6292-5684>**UDK: 94(575.1)*

Аннотация: В данной статье рассматривается расположение памятников цивилизации Окса бронзового века древнего Востока в разрезе современных государств и описывается характер их размещения.

Ключевые слова: Цивилизация Окса, Копетдаг, дельта Мургаба, Амударья, Бактрия, Сурхандарья, Кызылсу, Пяндж, Вахш, искусственное орошение.

Annotatsiya: Mazkur maqolada bronza davri qadimgi sharq namunasidagi Oks sivilizatsiyasi yodgorliklarining joylashuvi zamonaviy davlatlar kesimida joylashtirib chiqilgan hamda ularning joylashuv xarakteri tavsiflangan.

Kalit so'zlar: Oks sivilizatsiyasi, Kapetdog', Murg'ob deltasi, Amudaryo, Baqtriya, Surxondaryo, Qizilsuv, Panj, Vaxsh, sun'iy sug'orish.

Abstract: This article presents the geographical distribution of monuments belonging to the Oxus civilization, an ancient Eastern Bronze Age culture, within the context of modern states. It also describes the characteristics of their locations.

Key words: Oxus civilization, Kopet Dag, Murghab delta, Amu Darya, Bactria, Surkhandarya, Kyzylsu, Panj, Vakhsh, artificial irrigation.

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). Maqolada Turonning Qadimgi Sharq namunasidagi yirik madaniy hodisasi – Oks sivilizatsiyasining shakllanishi va hududiy kengayish jarayonlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda ushbu jarayonlarning ijtimoiy, iqtisodiy hamda migratsion omillari alohida ilmiy nuqtayi nazardan ko'rib chiqilib, ularning o'zaro uyg'unligi ilmiy asosda yoritilgan. Shuningdek, Oks sivilizatsiyasiga

mansub yodgorliklarning Baqtriya va Marg'iyona dehqonchilik mintaqalaridagi joylashuvi hamda ularning madaniy-tarixiy ahamiyati arxeologik materiallar asosida tahlil etiladi. Natijada, mazkur sivilizatsiya qadimgi jamiyat taraqqiyotida ijtimoiy munosabatlar, iqtisodiy tizim va aholining ko'chish jarayonlari bilan uzviy bog'liq bo'lgan tarixiy hodisa sifatida baholangan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLARI (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОДОЛОГИЯ / METHODS). Oks sivilizatsiyasi yodgorliklarining tarixiy geografik masalalari A.A.Asqarov, V.I.Sarianidi, I.T.Kruglikova, A.S.Sagdullayev, Sh.B.Shaydullayev, Ye.Ye.Kuzmina, N.M.Vinogradova, B.A.Litvinskiy, G.A.Kosholenko, I.S.Masimov, G.N.Lisitsina, F.Kol, N.Boroffka ilmiy tadqiqotlarida mavjud.

Oks sivilizatsiyasining Marg'iyona yodgorliklari ilk bor 1904-yilda Karnegi instituti ekspeditsiyasi tomonidan Kapetdog' atrofida aniqlangan. Keyingi Oks sivilizatsiyasini yodgorliklari II jahon urushidan keyin, 1946-yilda M.Ye. Masson tomonidan tashkil etilgan Janubiy Turkmaniston arxeologik kompleks ekspeditsiyasi (IOTAKЭ) tomonidan amalga oshirilgan. 1962-yilda Qoraqum ekspeditsiyasi Janubiy Turkmanistonda, 1972-yilda Rossiya Fanlar akademiyasining Arxeologiya institutining kichik otryadi Murg'ob daryosining qadimgi deltasida, 1977-yilda I.N. Xlopin boshchiligidagi Sumbar arxeologik ekspeditsiyasi, 1994-yildan hozirgi vaqtgacha Turkman-Fransuz arxeologik missiyasi (MAFTUR) tomonidan arxeologik yodgorliklar aniqlangan.

Oks sivilizatsiyasining Janubiy Baqtriya qismida 1969-1973-yillarda V.I.Sarianidi va

I.T.Kuriglikova tomonidan Janubiy Baqtriya sovet-afg'on arxeologik ekspeditsiyasi natijasida Oks sivilizatsiyasiga tegishli yodgorliklar aniqlangan.

Shimoliy Baqtriya O'zbekiston qismida XX asrning 60-yillari oxiridan A.Asqarov rahbarligidagi arxeologik ekspeditsiya Oks sivilizatsiyasiga oid ilk yodgorliklarni aniqlagan. 1994-2003-yillarda O'zbekiston Fanlar akademiyasi Arxeologiya instituti hamda Germaniya arxeologiya instituti (DAI) hamkorligida Surxon vohasida yodgorliklar aniqlangan. Janubiy Tojikiston qismida esa 1974-yildan Janubiy Tojikiston ekspeditsiyasi tarkibida B.A. Litvinskiy, A.M. Mandelshtam, L.T. Pyankova, N.M. Vinogradova va boshqa tadqiqotchilar tomonidan aniqlangan.

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). Oks sivilizatsiyasining tarxiy geografiyasi Turonning janubiy qismidagi Pomir – Hisor – Hindikush tog' tizmalaridan oqib tushadigan Murg'ob daryosi deltasi, Atrek, Tajan, Surxondaryo, Sherobod daryo, Ulanbuloqsoy, Panj, Vaxsh, Yaxshuv, Tairsuv, daryo bo'ylarida va unga yaqin joylarda Oks sivilizatsiyasi yodgorliklari joylashgan. Miloddan avvalgi 3000-2500-yillar oralig'ida Kapetdog' etaklarida shakllanish bosqichini boshdan kechirishi hamda migratsiya natijasida Marg'iyona va Baqtriya joylashgan daryolar atrofi va deltalari bo'ylab Nomozgoh V davrining oxirida tarqalganligi haqidagi nazariya fanda isbotlangan[2; 25; 26; 46; 36; 32; 31; 40; 34; 35; 33]. Bugungi kunda Oks sivilizatsiyasiga tegishli mustahkam mudofaa inshootlari bilan o'ralgan taxminan 300 ta aholi punkti aniqlangan bo'lib[41; 42; 38], ular g'arbdan Kaspiy dengizi, shimoldan Qoraqum dashti va cho'li, janub va janubi-g'arbdan Eron yassi tog'ligi, janubi-sharqdan esa Hind shaharlari bilan chegaralangan hududda joylashgan[38]. Yodgorliklar tahlili zamonaviy Respublikalar kesimida tahlil qilish o'rnlidir.

Turkmaniston Respublikalaridagi V.I.Sarianidi arxeologik tadqiqotlariga ko'ra, miloddan avvalgi III ming yillik oxirlari – miloddan avvalgi II ming yillikning boshlariga kelib Janubiy Turkmanistonning Murg'ob daryosi deltasida Keleli, Ajikui, Auchin, Taip,

Gonur, Togolok, Adam-Basan, Tohirboy kabi dehqonchilik o'lkalarida ilk shahar madaniyatiga ega bo'lgan, hunarmandchilikning deyarli barcha sohalarini rivojlangan madaniyat sohiblari tomonidan, ekspansion migratsiya natijasida egallangan. Bu dehqonchilik vohalarida bir vaqtning o'zida Keleli dehqonchilik vohasida 13 ta, Ajikui dehqonchilik vohasida 7 ta, Auchin dehqonchilik vohasida 14 ta, Taip dehqonchilik vohasida 8 ta, Gonur dehqonchilik vohasida 15 ta, Togolok dehqonchilik vohasida 30 dan oshiq, Adam-Basan dehqonchilik vohasida 10 ta, Tohirboy dehqonchilik vohasida 12 ta bronza davri yodgorligi, jami quyi Murg'ob daryosi bo'yida 100 dan ortiq bronza davri yodgorliklari joylashgan. Tadqiqotchilar tomonidan bu yodgorliklarning xronologik davrlari aniqlangan[8; 15]. Turkmaniston hududidagi yodgorliklarning asosiy suv ta'minot manbai Kopetdog' irmoqlari bo'lgan bo'lsa, keyingi migratsiya natijasida Hindikush tog'laridan boshlanadigan Murg'ob daryosi deltasi va janubi-sharqiy yo'nalishda Tajan daryosi asosiy suv manbai bo'lib xizmat qilgan. Miloddan avvalgi III ming yillik boshlarida Tajan daryosi suv manbaining kamayishi natijasida shimoli-g'arbda Geoksyur vohasi amalda suvsiz bo'lib qolishiga va undagi hayot to'xtashiga olib keldi[10]. Turkmaniston janubi-sharqidagi Tajan daryosining suv ta'minoti dehqonchilik dunyosining bu qismida miloddan avvalgi III-II ming yilliklarda janubi-sharqiy asosiy suv arteriyasi oqimining o'zgarishi bilan aholi punktlarida keskin siljishga bog'liq. Xapuz-depedagi arxeologik qazishmalar uning Geoksyur vohasining tegishli so'nggi yodgorliklari bilan xronologik va madaniy-tarixiy davomiyligini ko'rsatadi[28].

Migratsiyaning ikkinchi navbatdagi qismi Janubiy Baqtriya tomon yo'nalgan. Kopetdog' tog'oldi shahar markazlari aholisi dastlab Marg'iyonaning Murg'ob vohasiga ko'chib o'tgan. Aholi sonining ortishi natijasida, Murg'ob vohasida shakllangan Nomozgoh VI madaniyati sohiblarining navbatdagi migratsion to'lqini Janubiy Baqtriya vohalariga yo'nalib, u yerda Qadimgi Sharq

madaniyati namunasi bo'lgan Dashli madaniyatiga asos solgan. Bu xulosa artefaktlar, me'morchilik va dafn marosimlaridagi o'xshashliklarga asoslanadi[30; 39; 16]. Sh.Shaydullayev fikriga ko'ra Qadimgi Baqtriya madaniyati yodgorliklari o'n bitta dehqonchilik vohasida joylashgan[23]. V.I.Sarianidi qarashlari bo'yicha Janubiy Baqtriyada ilk sivilizatsiya vakillarining Davlatobod, Farruxobod, Dashli va Nichkin singari to'rtta sug'orilish rayoni – daryolar bo'yida joylashganligini qayd etgan[27]. Davlatobod dehqonchilik vohasida 4 ta, Dashli dehqonchilik vohasida 40 dan ortiq bronza davri yodgorliklari joylashganligi qayd etilgan. V.I. Sarianidi Davlatobod va Auchin vohalari hududlarida bronza davri yodgorliklarining butun guruhini o'rgangan[9]. Hududda amalga oshirilgan dastlabki arxeologik tadqiqotlar olingan xulosalarga ko'ra V.I. Sarianidi Davlatobod vohasi yodgorliklari dastlabki o'zlashtirilgan hududligi va Sharqiy Xurosondan ko'chib kelgan qadimgi dehqonchilik qabilalarining manzilgohlari ekanligini ifodalalashini eslatib o'tgan. Bu qabilalar madaniyatining navbatdagi rivojlanishi hududi Auchin vohasida kuzatilgan hamda bu yerda bronza davrining o'ndan ortiq yodgorliklari aniqlangan[9].

Keyingi migratsion to'lqin Shimoliy Baqtriyaning O'zbekiston Respublikasi hududiga to'ri keladi. Nomozgoh VI majmuasining janubiy O'zbekistondagi mahalliy shakli – Sopolli madaniyati deb ataladi. Arxeologik adabiyotlarda Sopolli madaniyati joylashgan hudud Shimoliy Baqtriya deb nomlanadi. Sopolli madaniyati Janubiy O'zbekistonning bronza davri yodgorliklarini o'z ichiga oladi va bir necha dehqonchilik vohalariga bo'linadi. A.A.Asqarov[1], E.V.Rtveladze[21], A.S.Sagdullayev[22], Sh.B.Shaydullayev[29]lar Ulanbuloqsoy, Sherobod va Xo'jaipaksoy dehqonchilik vohalari va Pashqurt vodiysiga bo'lib[7], o'zlarining qarashlarini bayon etgan. Dehqonchilik vohalari hududda Ko'hitang-Boysun tog' yonbag'irlarida allyuvial-proallyuvial tekisliklarda joylashgan[23].

Sopolli madaniyatiga tegishli Sopollitepa, Kultepa, Kichkinatepa, Jarqo'ton, Ko'zali, Bo'ston, Tillabuloq, Arabuloq va boshqa yodgorliklar asosan Ulanbuloqsoy va Sherobod dehqonchilik vohasi va Pashqurt vodiysida[5; 6], Mo'lali bosqichi yodgorliklari esa Xo'jaipaksoy dehqonchilik vohasida joylashgan[7]. Shimoliy Baqtriyadagi Sopollitepa manzilgohidan olingan radiouglerod sanalari ushbu yodgorlik Marg'iyonadagi eng qadimgi aholi manzilgohlaridan keyin emas, balki ularga zamondosh bo'lganini ko'rsatadi[45].

Sopolli, Jarqo'ton, Tillabuloq, Arabuloq kabi yodgorliklar deyarli bir vaqtda paydo bo'lgan va evolyutsion tarixiy taraqqiyot natijasida Molali va Bo'ston yodgorliklari shakllangan[23].

Keyingi ko'chish Dashli va Sopolli madaniyati sohiblari Janubiy Tojikiston hududiga ko'chib o'tishgan. Arxeologik va tarixiy adabiyotlarda Shimoliy Baqtriya hududiy jihatdan ikki qismga Janubiy O'zbekiston va Janubiy-g'arbiy Tojikiston qismlariga bo'lingan. Baqtriyaning Tojikiston qismida Panj daryosining o'ng irmoqlari vodiylari, ularga qo'shiluvchi daryolar hamda Amudaryo va unga parallel cho'zilgan past tog' tizmalari bilan kesib o'tilib, janubga tomon tog' tizmalari so'nishi va daryo vodiylarining maksimal kengayishi natijasida iqlimi yuqori o'rtacha yillik harorat va kam yog'ingarchilik bilan tavsiflanadi. Sun'iy sug'orishsiz qishloq xo'jaligi yuritishning imkoni bo'lmagan ushbu mintaqa navbatdagi migratsion hudud sifatida Vaxsh va Kofirnihon daryolari *bo'ylari ajralib*, eneolit va bronza davridanoq bu hududda Hindikushdan — Amudaryo — Panj yo'nalishi bo'ylab yerlarni *ziroatchi va chorvadorlar tomonidan* bosqichma bosqich o'zlashtirish jarayonlari kuzatilgan. J.K. Garden va B.Lionne bu yerda miloddan avvalgi IV–II mingyilliklarga tegishli 26 ta manzilgoh aniqlashgan[14; 12; 18; 20; 47; 19; 37].

Bronza davri yodgorliklari tadqiqotchilar tomonidan Kofirnihon, Vaxsh, Panj, Qizilsuv dehqonchilik vohalariga bo'linganligi qayd etilgan[23]. Dehqonchilik vohalarida Sopolli-Dashli vakillarining manzilgohlari bilan birga

chorvachilik bilan shug'ullanuvchi aholi manzilgohlari joylashgan. Shu kabi majmualar Beshkent[14] va Vaxsh[11; 18] madaniyatlariga birlashgan. Kofirnigonning quyi oqimidagi Ilk Tulhor qabristoni qabristonlarining bir qismi Beshkent madaniyatiga mansub bo'lsa[20], Vaxsh madaniyati Vaxsh va Qizilsuvning quyi oqimidagi yodgorliklari tegishlidir[19; 20]. Vaxsh madaniyatining yangi qabristonlari Kofirnixon daryosining o'rta oqimining chap qirg'og'ida[20], Vaxshning o'ng qirg'og'ida, uning Panjga quyilishi yaqinida[18; 20], Qizilsuv vodiysida[20], Yassu havzasi[18; 20], Panj va Qizilsuv oraliqlaridagi[12; 20] hududlarda aniqlangan.

B.A. Litvinskiy fikriga ko'ra Vaxsh madaniyatining kelib chiqishini Janubiy Turkmanistondan ko'chib kelgan dehqonlar desa[12], L.T. Pyankova uning fikrini inkor etib genetik jihatdan Shimoliy Afg'oniston va dasht aholisining ta'sirini e'tirof etgan[43; 12].

L.T. Pyankova, V.I. Sarianidi, A.A. Asqarovlar fikricha Vaxsh va Beshkent madaniyatlarining bir vaqtning o'zida vujudga

kelishining sababi dasht chorvadorlari ta'sirida Dashli va Sopolli madaniyati vakillarining chorvachilikka o'tishi va Tojikistonga ko'chishi bilan bog'laydilar[18; 44; 24; 2; 4].

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Bronza davri Oks sivilizatsiyasi yodgorliklarining keng hududda joylashuvi bir necha sabablar bilan bog'liq edi. *Birinchidan*, Qadimgi Sharq dunyosi bilan bevosita aloqada bo'lgan aholi uchun dehqonchilik birlamchi yashab qolish manbai edi;

Ikkinchidan, dehqonchilik qilish uchun birlamchi manba daryolar yaqinidagi unumdor tuproq edi. Shuning uchun ham asosiy yodgorliklar daryolar yaqinida joylashgan.

Uchinchidan, Qadimgi Sharq dunyosi bilan aloqada qimmatbaho lapis lazuritining o'rni beqiyos edi, bu toshlar Badaxshondan qazib olingan. Qimmatbaho mineral toshlarni Oks sivilizatsiyasi aholisi yaxshi bilishgan.

To'rtinchidan, jamiyat hayotida dehqonchilik bilan birga chorvachilikning ham o'rni bo'lganligi ko'plab mayda chorva mollarining suyaklari orqali isbotlangan.

ADABIYOT VA MANBALAR RO'YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES):

1. Аскарлов А. Древнеземледельческая культура эпохи бронзы юга Узбекистана. – Т., 1977. – С.7-12.
2. Аскарлов А.А. Древнеземледельческая культура на юге Узбекистана. АН УзССР, Ин-т археологии. – Ташкент: Фан, 1977. – 231 с.
3. Аскарлов А.А. Древнеземледельческая культура эпохи бронзы юга Узбекистана. – Ташкент: Фан, 1977. – С. 115.
4. Аскарлов А.А. К датировке культуры Заманбаба // Культура и искусство Древнего Хорезма. – М.: Наука, 1981. – С. 108-109.
5. Аскарлов А.А. Сапаллитепа. – Ташкент: Фан, 1973. – 172 с;
6. Аскарлов А.А., Абдуллаев Б.И. Джаркутан. – Ташкент: Фан Узбекской ССР, 1983. – С. 5.
7. Каримова Д. Шимолий Бактрия аҳолисининг дафн маросимлари ва диний эътиқодлари (Бронза даври моддий маданият ёдгорликлари мисолида): Фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси. – Тошкент, 2017. – Б. 20.
8. Кошеленко Г.А., Губаев А.Г., Гаилов В.А., Вадер А.Н. Мервский оазис: динамика систем расселения и ирригация // ВДИ. — М.: 1994, №4. – С. 78-90. Карты 1-4.
9. Кругликова И.Т., Сарианиди В. И. Пять лет работы Советско-Афганской археологической экспедиции. – В сб.: Древняя Бактрия. Материалы Советско-Афганской экспедиции 1954-1973 гг. М., 1976. – С. 561.
10. Лисицына Г.Н. Основные черты палеогеографии Геоксюрского оазиса // КСИА АН СССР. – 1963. – Вып. 93. – С. 72.

11. **Литвинский Б.А.** Таджикистан и Индия (примеры древних связей и контактов) // Индия в древности / отв. ред. Г.М. Бонгард-Левин. – М.: Наука, 1964. – С. 158.
12. *Литвинский Б.А., Соловьев В.С.* Стоянка степной бронзы в Южном Таджикистане // УСА. I. Д., 1972. Вып. 1. – С. 41-47.
13. Мандельштам А.М. Памятники эпохи бронзы в южном Таджикистане // МИА. 1968. № 145. – С. 135.
14. **Мандельштам А.М.** Памятники эпохи бронзы в Южном Таджикистане // Труды Таджикской археологической экспедиции ИА АН СССР и Ин-та истории им. А. Дониша АН ТаджССР. – Т. VI. – (Материалы и исследования по археологии СССР. №145). – Л.: Наука, 1968. – 182 с.
15. Масимов И.С. К вопросу об освоении низовий Мургаба древнеземледельческими племенами // Известия Академии наук Туркменской ССР. – 1979. – № 2. – С. 73.
16. Массон В.М. Упадок цивилизации бронзового века и передвижения племён // История цивилизаций Центральной Азии / под ред. А.Х. Дани, В.М. Массона. – Париж: ЮНЕСКО, 1992. – Т. I. – С. 345.
17. Пьянкова Л.Т. Древние скотоводы Южного Таджикистана (По материалам могильника эпохи бронзы "Тигровая Балка") / Отв. ред. Б.А. Литвинский; АН ТаджССР, Ин-т истории им. А. Дониша. — Душанбе: Дониш, 1989. – С. 99-100.
18. Пьянкова Л.Т. Древние скотоводы Южного Таджикистана (По материалам могильника эпохи бронзы "Тигровая Балка") / Отв. ред. Б.А. Литвинский; АН ТаджССР, Ин-т истории им. А. Дониша. — Душанбе: Дониш, 1989. – С. 89-92.
19. Пьянкова Л.Т. К вопросу о семейных и общественных отношениях в эпоху поздней бронзы (по материалам могильников Вахшской культуры) // МКТ. Вып. 4. – Душанбе, 1987. – С. 43-70.
20. Пьянкова Л.Т. Степные компоненты в комплексах бронзового века Юго-Западного Таджикистана // Stratum plus. Археология и культурная антропология. – 1999. – № 2. – С. 287.
21. Ртвеладзе Э.В. К характеристике памятников Сурхандарьинской области ахеменидского времени // СА. – М., 1975. – №2. С. 263-266.
22. Сагдуллаев А.С. Древнеземледельческие поселения предгорий Байсунтау // История и археология Средней Азии. – Т., 1978. – С. 14.
23. Сагдуллаев А.С., Абдуллаев Ё.И., Матякубов Х.Х., Шайдуллаев А.Ш., Тоғаев Ж.Э. Бронза ва илк темир даври ёдгорликларининг географияси ва картографияси: ўқув қўлланма / масъул муҳаррир А. С. Сагдуллаев. – Тошкент: TURON-IQBOL, 2019. – Б. 41.
24. Сарианиди В.И. Древние земледельцы Афганистана. М: Наука, 1977. – С. 147.
25. Сарианиди В.И. Древние земледельцы Афганистана. М: Наука, 1977. – 172 с.
26. Сарианиди В.И. Древности страны Маргуш / Отв. ред. А.А. Росляков. Ашхабад, 1990. – 316 с.
27. Сарианиди В.И. Исследования памятников Дашлинского оазиса // Древняя Бактрия. Материалы 1969-1973 гг. — М.: Наука, 1976. – С. 21-86.
28. Сарианиди В.И. Хапуз-депе как памятник эпохи бронзы // КСИА. – 1964. №. 98. – С. 60-65.
29. Шайдуллаев Ш. Северная Бактрия в эпоху раннего железного века. Цивилизация Турана – Мавераннахр. – Т., 2000. – С. 9-15.
30. Boroffka N., Cierny J., Lutz J., Parzinger H., Pernicka E., Weisgerber G. Bronze Age Tin from Central Asia: Preliminary Notes // Ancient Interactions: East and West in Eurasia / Ed. by K. Boyle, C. Renfrew, M. Levine. – Cambridge: McDonald Institute for Archaeological Research, 2002. – P. 138.

31. Francfort H.-P. Central Asian Petroglyphs: between Indo-Iranian and Shamanistic Interpretations // The Archaeology of Rock-Art / Под ред. С. Chippindale и P.S.C. Таçon. – Cambridge: Cambridge University Press, 1998. – P. 302–318.
32. Francfort H.-P. The Central Asian Dimension of the Symbolic System in Bactria and Margiana // Antiquity. – 1994. – T. 68, № 259. – P. 406–418.
33. Francfort, H.-P. (avec contributions de C. Boisset, L. Buchet, J. Desse, J.-C. Echallier, A. Kermorvant, G. Willcox). Fouilles de Shortughai. Recherches sur l'Asie centrale protohistorique. 2 vol. (Mémoires de la Mission Archéologique Française en Asie Centrale, t. II). Paris: Éditions Recherche sur les Civilisations, 1989. – 339 p.
34. Francfort, H.-P. 1984. "Commentaires." In Central Asia: Palaeolithic Beginnings to the Iron Age, edited by Ph.L. Kohl. – P. 249–265. Paris: Éditions Recherches sur les Civilisations. (Synthèse, vol. 14).
35. Francfort, H.-P. 1984. "The Early Periods of Shortughai (Harappan) and the Western Bactrian Culture of Dashly." In South Asian Archaeology 1981, edited by B. Allchin. – P. 170–175. Cambridge: Cambridge University Press.
36. Fussman G., Kellens J., Francfort H.-P., Tremblay X. Āryas, Aryens et Iraniens en Asie centrale. – Paris: Collège de France, Institut de civilisation indienne, 2005. – 258 p.
37. Gardin J.-C., Lyonnet B. La prospection archéologique de la Basriane orientale (1974-1978): premiers résultats // Mesopotamia. 1978-1979, XIIIIV. – P. 99-154.
38. Gromov A., Barjamovic G. Archaeological supplement A to Damgaard et al. 2018: Archaeology of the Caucasus, Anatolia, Central and South Asia 4000–1500 BCE / K. Kristiansen, B. Hemphill, G. Barjamovic et al. – Zendo, 2018. – P. 8.
39. Hiebert F.T. Origins of the Bronze Age Civilization in Central Asia. – Cambridge (MA): Peabody Museum of Archaeology and Ethnology, 1994. – 200 p.
40. Hiebert F.T., Lamberg-Karlovsky C.C. Central Asia and the Indo-Iranian Borderlands // Iran. – 1992. – Vol. 30. – P. 1–15.
41. Kohl P.L. The making of Bronze Age Eurasia. – Cambridge: Cambridge University Press, 2007. – P. 5.
42. Parpola A. The Roots of Hinduism: The Early Aryans and the Indus Civilization. – Oxford: Oxford University Press, 2015. – P. 8.
43. P'yankova L. *Jungbronzzeitliche Gräberfelder im Vachš-Tal, Süd-Tadžikistan*. – München: C.H. Beck, 1986. – S. 10.
44. P'yankova L. Central Asia in the Bronze Age: sedentary and nomadic cultures // Antiquity. – 1994. – Vol. 68, Issue 259. – P. 368-369.
45. Salvatori S. Cultural Variability in the Bronze Age Oxus Civilization and its Relations with the Surrounding Regions of Central Asia and Iran // The Bronze Age and Early Iron Age in the Margiana Lowlands: Facts and Methodological Proposals for a Redefinition of the Research Strategies / eds. S. Salvatori, M. Tosi, B. Cerasetti. – Oxford: Archaeopress, 2008. – P. 75–98.
46. Sarianidi V.I. Myths of Ancient Bactria and Margiana on its Seals and Amulets. M. – 335 p.
47. Vinogradova N. Die spatbronzezeitliche Siedlung Tasguzor in Sudtadzikistan // AMIT. Band 31, — Berlin, 1999. – P. 33-46.

IKKINCHI JAHON URUSHIDAN KEYINGI YILLARDA O'ZBEKISTON XALQ XO'JALIGINING TIKLANISHI VA RIVOJLANISHINING TARIXIY TAHLILI

Xomidov Abror Xushniyozovich

*Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti tarix fakulteti
tarixshunoslik va manbashunoslik kafedrası o'qituvchisi*

xomidovabrol@gmail.com

<https://orcid.org/0009-0008-3020-101X>

UDK: 94(575.1)

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqola Ikkinchi jahon urushidan keyingi yillarda O'zbekiston xalq xo'jaligining tiklanishi va rivojlanishidagi xususiyatlarni tahlil qilishga bag'ishlangan. Unda markaziy boshqaruv tizimi va ma'muriy-buyruqbozlik usullarining respublika iqtisodiyotiga, xususan, paxtachilik sohasiga ta'siri chuqur o'rganiladi. Tadqiqotning maqsadi – bu davrdagi iqtisodiy siyosatning O'zbekiston uchun ijobiy va salbiy oqibatlarini, shu jumladan, sanoat va qishloq xo'jaligidagi bir tomonlama rivojlanishni, ekologik muammolar va aholining moddiy ahvoriga ta'sirini ilmiy jihatdan asoslashdan iborat.

Kalit so'zlar: «Ikkinchi jahon urushi», «Sobiq Ittifoq», «sovuq urush», «rivojlangan sotsializm», «SSSR xalq xo'jaligi», «Paxta monopoliyasi», «Toshqishloqmash», «Mirzacho'l», «Markaziy Farg'ona», «Qarshi va Surxon-Sherobod».

Аннотация: Данная научная статья посвящена анализу особенностей восстановления и развития народного хозяйства Узбекистана в годы после Второй мировой войны. В ней глубоко изучено влияние централизованной системы управления и административно-командных методов на экономику республики, в частности, на хлопковый сектор. Цель исследования – научно обосновать положительные и отрицательные последствия экономической политики этого периода для Узбекистана, включая одностороннее развитие промышленности и сельского хозяйства, экологические проблемы и влияние на материальное положение населения.

Ключевые слова: «Вторая мировая война», «Бывший Союз», «Холодная

война», «развитой социализм», «народное хозяйство СССР», «Хлопковая монополия», «Ташкишлокмаш», «Мирзачуль», «Центральная Фергана», «Карши и Сурхон-Шерабад».

Abstract: This scientific article is devoted to the analysis of the features of the restoration and development of the national economy of Uzbekistan in the years after World War II. It deeply studies the impact of the central management system and administrative-command methods on the economy of the republic, in particular, on the cotton sector. The purpose of the study is to scientifically substantiate the positive and negative consequences of the economic policy of this period for Uzbekistan, including the one-sided development of industry and agriculture, environmental problems and the impact on the material condition of the population.

Keywords: "World War II", "Former Union", "Cold War", "developed socialism", "USSR national economy", "Cotton monopoly", "Tashqishloqmash", "Mirzacho'l", "Central Fergana", "Karshi and Surkhon-Sherobod".

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). Urushdan keyingi yillarda O'zbekiston xalq xo'jaligining tinch qurilishga o'tishi murakkab xalqaro vaziyatda kechdi. Urush davrida umumiy dushman – fashizmga qarshi kurash antifashist davlatlar va xalqlarni birlashtirgan bo'lsa, urush tugagandan so'ng bu ittifoqdagi davlatlar orasida ajralish yuz berdi va "sovuq urush" munosabatlari boshlandi. Urushdan keyin fashizm ustidan qozonilgan g'alabaga katta hissa qo'shgan O'zbekiston xalqi oldida harbiylashgan xalq xo'jaligini tinch qurilish

yo'liga solish, uni urushdan oldingi darajaga yetkazish va rivojlantirish kabi murakkab vazifalar turardi.

Vayron bo'lgan iqtisodiyotni tiklash va rivojlantirishda G'arb davlatlari bilan hamkorlik qilish zarur bo'lsa-da, haddan tashqari mafkuralashgan sovet tizimi respublikalarni xorijiy mamlakatlardan "temir qo'rg'on" bilan ajratib, mamlakatni ortiqcha qiyinchiliklar va qurbonlarga mahkum etdi. Sobiq Ittifoq boshqa mamlakatlardagi ilg'or tajribalardan va chet el sarmoyalardan foydalanishni istamadi. Bu siyosat yakka qolib, xalqning boshiga ortiqcha kulfat keltirdi. Urushdan keyingi yillarda O'zbekiston o'z xalqining arzon kuchi va boy xomashyo manbalaridan cheksiz foydalanishga asoslangan, kompartiya chizib bergan besh yillik rejalarni bajarishga kirishdi. Markaz manfaatiga bo'ysundirilgan respublika iqtisodiyotini urushdan oldingi darajaga yetkazish va rivojlantirishga qaratilgan vazifani bajarishda o'zbek xalqining mehnatsevar, sabr-toqatli va tinchliksevarlik fazilatlaridan foydalanildi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLARI (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОДОЛОГИЯ / METHODS). Ushbu tadqiqot mavzusi O'zbekistonda Ikkinchi jahon urushidan keyingi davrdagi xalq xo'jaligi, ayniqsa, qishloq xo'jaligi va sanoat sohalarining rivojlanishini tahlil qilishga qaratilgan bo'lib, mavzuga oid keng ko'lamli adabiyotlar o'rganib chiqildi. Sovet davridagi iqtisodiyotning o'ziga xos xususiyatlari, xususan, qattiq markazlashgan boshqaruv tizimi va ma'muriy-buyruqbozlik usullari rus hamda o'zbek tarixshunosligida turli yondashuvlar bilan yoritilgan.

"Sovet O'zbekistoni iqtisodiy tarixi (1917–1965-yillar)" asari [1] paxtachilikning respublika iqtisodiyotidagi ustuvor rolini va unga bo'lgan katta sarmoyalarni ko'rsatib beradi. Ushbu manba ko'rilayotgan davr uchun muhim statistika ma'lumotlarini taqdim etadi. Xususan, urushdan keyingi davrda respublikaning iqtisodiy siyosati Moskva manfaatlariga bo'ysundirilgani va O'zbekiston xomashyo bazasi sifatida ko'rilgani ushbu manbada ham aks etgan.

Inomjon Usmonxo'jayevning "Paxta ishi: tarixi va oqibatlari" nomli kitobi [7] mustabid tizimning O'zbekiston iqtisodiyotiga, xususan, paxta sohasiga ta'sirini yuqori lavozimda ishlagan shaxs nuqtai nazaridan yoritadi. Ushbu manba partiya apparatining qat'iy nazoratini va markaziy rejalar sababli mahalliy tashabbuslarning bo'g'ib qo'yilganini tasdiqlaydi. "Yosh leninchi" gazetasining 1991-yilgi sonlaridagi [3] materiallar ham bu holatni to'ldiradi.

"O'zbekiston SSR xalq xo'jaligi 60 yilda" [4] va "O'zbekiston SSR xalq xo'jaligi 1987-yilda" [5] kabi statistik to'plamlar traktorlar, paxta terish mashinalari, kapital qo'yilmalar va mineral o'g'itlarning soni haqida aniq raqamlarni keltirib, paxtachilikni rivojlantirishga qaratilgan ulkan moliyaviy va texnik resurslarni miqdoriy jihatdan asoslaydi. Bu manbalar paxta ekini maydonlarining kengayishi va hosildorlikning pasayishini tasdiqlovchi muhim dalillardir.

MUHOJAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). Iqtisodiyot oldiga qo'yilgan eng muhim vazifalar belgilab olindi. Bunga ko'ra, sanoatni rivojlantirish ishlari respublika iqtisodiyotining yetakchi sohasi – **paxtachilikni rivojlantirishga** qaratildi. Urushning g'alaba bilan yakunlanishi kelajakka katta umid uyg'otdi va bor kuch-g'ayratni faqat tinch hayotni tiklashga, iqtisodiyotni tinch hayotga moslashtirishga, urush oqibatlarini bartaraf etishga yo'naltirish imkonini berdi. Vazifa nihoyatda og'ir edi, chunki uni urushdan keyingi g'oyatda og'ir ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy sharoitda hal etish lozim edi. Respublika tinch hayotga moslashayotgan sanoat uchun, aholini oziq-ovqat va xalq iste'moli mollari bilan ta'minlash uchun yoqilg'i, elektr quvvati va xomashyoga katta ehtiyoj sezardi. Shuningdek, malakali ishchilar va muhandis-texnik kadrlar yetishmas edi. Buning ustiga, O'zbekiston Rossiya, Ukraina va Belorussiyaning urushda vayron bo'lgan xalq xo'jaligini tiklashda ham yordam berishi kerak edi. Shu bois, birinchi navbatda respublikaning umumiy ahvolini, tabiiy iqlim sharoitini, milliy an'analarini va xalq manfaatlarini hisobga

olgan holda aniq dastur belgilab olish talab qilinardi.

Lekin buning iloji yo‘q edi, chunki mustabid tuzum hukmron bo‘lgan mamlakatda (O‘zbekiston uning tarkibiy qismi edi) **imperiya-mustamlakachilik rejimi** va qattiq markazlashgan boshqaruv tizimi hukmron edi. U respublikaning huquqsiz ahvolini yanada mustahkamlab, uning ijtimoiy rivojlanishini to‘la-to‘kis metropoliya manfaatlariga bog‘lab qo‘ydi. Urush yillarida hukmron partiyaning siyosiy mavqeyi yanada oshdi. U haqiqatda davlat ustida mutlaq hukmron organga aylanib, mamlakat hayotining barcha sohalarida, shu jumladan, iqtisodiy sohada ham o‘zining ma‘muriy-buyruqbozlik taqsimlash siyosatini o‘tkaza boshladi. Sovet imperiyasining respublikalari sotsialistik xalq xo‘jaligi tizimining yagona tuguniga qattiq bog‘lab qo‘yilgan edi. Shular qatorida O‘zbekiston ham o‘z hududidan ancha uzoqda, uning imkoniyatlari va milliy manfaatlarini mutlaqo hisobga olmagan holda ishlab chiqilgan ijtimoiy va iqtisodiy dasturlar iskanjasiga olingan edi.

1946-yil 18-mart kuni SSSR Oliy Kengashi tomonidan «SSSR xalq xo‘jaligini tiklash va yanada rivojlantirishning 1946-1950-yillarga mo‘ljallangan rejasi haqida qonun» qabul qilindi. Rejada vayron bo‘lgan xo‘jalikni tiklash, sanoat va qishloq xo‘jalik mahsulotlari ishlab chiqarishni urushdan oldingi darajaga yetkazish va yanada oshirishga erishish vazifasi ilgari surildi. O‘zbekiston rahbariyati Markaz tomonidan real imkoniyatlardan kelib chiqmagan, texnika vositalari va moliyaviy resurslar tanqisligiga qaramay, oshirib belgilangan ko‘rsatkichlarni e‘tirof etishga majbur bo‘ldi va respublikada amalga oshiriladigan tadbirlarni belgilab chiqdi. Shu sohani rivojlantirish uchun **3 million 900 ming so‘m** mablag‘ ajratildi. Bu vazifalar respublika Oliy Kengashining 1946-yil avgustida tasdiqlangan «O‘zbekiston SSR xalq xo‘jaligini tiklash va rivojlantirishning 1946-1950-yillarga mo‘ljallangan 5 yillik rejalari to‘g‘risidagi qonun»da o‘z ifodasini topgan. Rejada respublikada sanoat mahsulotlarini 52 foizga ko‘paytirish ko‘zda tutilgan edi. Paxtachilikni, xususan, paxta yig‘im-terimini

kompleks mexanizatsiyalashni tugallash kabi noreal vazifalar qo‘yilgan edi. O‘zini hamma narsalarni qilishga qodir deb hisoblovchi partiya apparati kabinetlarida o‘tirib belgilangan bu ko‘rsatkichlarga erishib bo‘lmashligi ko‘rinib turardi, amalda ham shunday bo‘ldi, rejalar bajarilmay qoldi.

Urushdan keyingi xalq xo‘jaligi qurilishining o‘ziga xos xususiyati uzoq muddatli rejalashtirishni besh yillik reja bilan birga olib borishdan iborat edi. Bu bolshevizmning sotsialistik qurilish va sotsializmning tabiati to‘g‘risidagi aqidaparastlik konsepsiyasiga, uning kommunizmga sakrashdan iborat xayoliy g‘oyasiga asoslangan edi. Mustabid davlat iqtisodiy siyosatining yaqin 15 yilga mo‘ljallangan asosiy yo‘nalishi, masalan, (urushdan oldingi darajaga nisbatan) sanoat ishlab chiqarishni uch barobarga oshirishni, oziq-ovqat va xomashyo resurslarining mo‘l-ko‘lligini ta‘minlashni nazarda tutgan edi. Bu noilmiy loyihada yana ilgarigidek O‘zbekistonga SSSR paxta mustaqilligining granti sifatida asosiy o‘rin ajratildi. Mustamlakachi siyosat, rahbariyatning tafakkuriga ko‘ra, O‘zbekiston iqtisodiyotini tubdan qayta qurish va uni aholi ehtiyojlari uchun mahsulotlar ishlab chiqarishga qayta yo‘naltirish uchun birinchi navbatda sanoat ishlab chiqarishini, asosan, qishloq xo‘jalik yo‘nalishidagi ishlab chiqarishni rivojlantirishga qaratilgan bo‘lishi, bunda respublikaning davlatning asosiy paxta bazasi sifatidagi an‘anaviy o‘rni haqidagi qaror hisobga olinishi zarur edi. Sanoatni tinch hayotga moslab qayta qurish katta qiyinchiliklar bilan bog‘liq edi. U xalqning hisobsiz moddiy va jismoniy xarajatlarini talab qilardi. Urush tugagan vaqtga kelib O‘zbekistonda ham mustabid tizim mustahkam o‘rnashgan va yanada shijoat bilan amal qilayotgan edi [1, 230-240]. Natijada, shu yillardan boshlab u jamiyatni yangi kuch bilan rivojlantirish jarayonlarini izdan chiqara boshlagan, susayish mexanizmi yanada avj olayotgan edi.

Qattiq markazlashgan boshqaruv tizimi, yuqoridan rahbarlik qilishning ma‘muriy-buyruqbozlik usullari eng samarali iqtisodiy

omillardan keng foydalanish imkonini bermas edi. Shuning uchun ham O'zbekistonning besh yillik rejalarini tuzib chiqish vaqtida xo'jalik hisobi, o'zini-o'zi mablag' bilan ta'minlash, ijara prinsiplari, xo'jalik faoliyatida tashabbus va ijodkorlik jihatlarini ta'minlaydigan, ijobiy natijalar beradigan boshqa shakllari harakatga keltirilmagan va hisobga olinmagan edi. Shu bilan birga, iqtisodiyotda mutanosiblik buzilgan, katta moddiy vositalar, omilkor malakali kadrlar va hokazolar yetarli bo'lmagan bir sharoitda odatdagidek yana sovet imperiya tizimi manfaatlarini ko'zlab O'zbekiston oldiga amalga oshirib bo'lmaydigan vazifalar, jumladan, qisqa muddatlarda paxtachilikni rivojlantirishni nazarda tutardi [2, 236]. Respublika sanoatini, xalq xo'jaligining boshqa tarmoqlarini rivojlantirish paxtachilik manfaatlariga bevosita bog'liq qilib qo'yildi va u paxta uchun kurashning tarkibiy qismiga aylantirildi. Bunday sharoitda paxtachilik va irrigatsiya qurilishi uchun mashinalar, shu jumladan, kultivatorlar, o'g'itlagichlar, chigit ekish seyalkalari, ko'rak terish mashinalari, ekskavatorlar va boshqalarni ishlab chiqaradigan mashinasozlik zavodlarini qayta qurish va yangi zavodlarni yaratish yuzasidan katta ishlarni amalga oshirishni ko'zda tutardi. "Toshqishloqmash" zavodiga paxtaga birlamchi ishlov berish va paxta terish mashinalarini ishlab chiqarish, "Toshto'qimachilikmash" zavodiga tarash mashinalarini ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish topshirildi. Respublika sanoatini, xalq xo'jaligining boshqa tarmoqlarini tubdan qayta qurish to'la ma'noda amalga oshmadi.

Urush tugagandan keyin ko'p o'tmay (1946-yil fevral) markaziy siyosiy rahbariyat maxsus qaror qabul qilib, unda O'zbekistonda 1946-1953 yillarda paxtachilikni tiklash va yanada yuksaltirish sohasidagi rejalar va tadbirlarni belgilab berdi. Markazning bu hujjati, O'zbekiston xalqlari manfaatlarini aslo hisobga olmagan va majburiy xususiyatga ega bo'lgan qaror edi. Yuqoridan yuborilgan qarorlar odatda O'zbekistonda muhokama qilib o'tirilmasdi, balki amaldagi dasturiy hujjat sifatida uning bajarilishiga doir tadbirlar ishlab chiqilib, harakatga yo'llanma berilardi.

Respublika qishloq xo'jaligini qayta qurishdagi asosiy mezon paxta ekiladigan maydonlarni izchillik bilan kengaytirib borish va umumiy ekin ekiladigan maydonlarda uning salmog'ini oshirishdan iborat edi. Mahalliy hokimiyat organlari zimmasiga sug'oriladigan yerlarda don ekinlari ekishni qisqartirish va bu ekinlarni boshqa yerlarga ko'chirish, chigit va beda ekiladigan yerlardan 218 ming gektarini bo'shatish choralari ko'rish vazifasi yuklangan edi. Paxta ekish reja – topshiriqlari yuqoridan majburiy tartibda belgilanardi va respublika viloyatlariga yuborilardi. Masalan, 1946-yil uchun Toshkent viloyatiga 86 ming gektar, Farg'ona viloyati uchun 108 ming gektar, butun respublika bo'yicha esa 779 ming gektar yerga chigit ekish haqidagi topshiriqlar Markazdan kelgan edi. Paxta ekiladigan maydonlarning to'xtovsiz oshirib borilishi respublikada chorvachilikning rivojlantirishga va oziq-ovqat mahsulotlari yetishtirishga to'g'anoq bo'ldi. Bu esa O'zbekiston aholisining, birinchi navbatda, qishloq aholisining moddiy ahvoriga salbiy ta'sir qildi. Markazning respublika qishloq xo'jaligiga ana shunday bir tomonlama va volyuntaristik yondashuvi jamoat xo'jaligining har jihatdan ko'p tarmoqli bo'lib, rivojlanishiga to'sqinlik qildi. Unga faqat mustamlakachilik xususiyatini bag'ishladi.

Yana paxtachilikni sun'iy ravishda jadal yuksaltirish mustabid tuzumning O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishdagi ustuvor yo'li bo'lib, uning bir tomonlama rivojlanishini mustahkamladi. Markazning ulkan rejalarida O'zbekistonga faqat xomashyo yetkazib beruvchi chekka bir o'lka sifatida qaralar edi. Xuddi shu narsa O'zbekiston iqtisodiyotining asliga bir tomonlama rivojlanishiga olib keldi. Bunda xomashyoni qayta ishlash korxonalari juda oz bo'lib, bu narsa ijtimoiy dasturlarni amalga oshirishga xalaqit berardi. 1945-yil oxiriga kelib O'zbekistonning mashinasozlik sanoati qishloq xo'jaligi va irrigatsiya ehtiyojlari uchun mashina va uskunalar ishlab chiqarishga o'tkazildi. 1946-1991-yillar mobaynida kommunistik partiya va sovetlar hukumati paxtachilikni rivojlantirishga qaratilgan o'nlab qarorlar qabul qildi, uni rivojlantirish bilan bog'liq rejalar Moskvada

Davlat reja qo'mitasida ishlab chiqilar va u xalq xo'jaligini rivojlantirish direktiv hujjatlariga asos qilib olinar edi. Bu rejalarni O'zbekistonning qo'g'irchoq va hech qanday huquqqa ega bo'lmagan hukumati hamda partiya tashkiloti so'zsiz bajarishga majbur edi.

O'zbekiston kommunistik partiyasining sobiq birinchi kotibi Inomjon Usmonxo'jayevning bu xususda quyidagi iqrori g'oyatda o'rinlidir: "Lekin o'sha vaqtda davr boshqa edi. O'ylagan narsangni amalga oshira olmasding. Hamma narsa Gosplanda hal bo'lar edi. Jumhuriyatda o'tadigan Oliy Kengash sessiyalari shunchaki nomiga o'tar edi. Chunki hamma narsa oldindan hal qilib qo'yilardi. Hamma respublika rahbarlari topshiriqni bajarishga majbur edi. Misol uchun paxta plani masalasini olaylik. Planni Moskva belgilardi" [3]. Markaziy hukumat O'zbekistonda paxtachilikni rivojlantirish maqsadlarini ko'zlab juda katta hajmdagi mablag'larni sarfladi va paxtachilikning moddiy-texnika bazasini mustahkamladi. Buni shu faktdan ham bilsa bo'ladiki, agar 1940-yilda O'zbekiston paxta dalalarida 23 ming traktor ishlagan bo'lsa, 1965-yilda 89,9 ming, 1970-yilda 121,3 ming, 1975-yilda 145,2 ming, 1980-yilda 157,3 ming va 1985-yilda 188,9 ming traktor ishladi. Paxta terish mashinalarining soni 1960-yilda 8,3 ming, 1970-yilda 26,1 ming, 1980-yilda 36,6 ming va 1985-yilda esa 39,6 mingtaga yetdi [4, 15].

Sovetlar hukumati O'zbekistonda suv xo'jaligi qurilishi, irrigatsiya-melioratsiya ishlarini yaxshilash maqsadlari uchun juda katta hajmdagi kapital mablag'larni sarfladi. Buni quyidagi aniq raqamlar ko'rsatib turibdi. Agar respublikada 1924-1940-yillardagi suv xo'jaligi qurilishi uchun (16 yil mobaynida) 264 million so'm kapital mablag' sarflangan bo'lsa, 1961-1975-yillarda (o'n besh yil) 7 milliard 87 million so'm va 1976-1985-yillarda esa (ya'ni 10 yilda) bu sohada sarflangan kapital mablag' 10 milliard 243 million so'mga teng bo'ldi [5, 86]. Ya'ni keyingi o'n yil mobaynida suv xo'jaligi qurilishiga sarflangan kapital mablag' 1924-1940-yillar o'z ichiga olgan 16 yildagi kapital mablag' hajmidan salkam 39 baravar ko'p

bo'ldi. Bu hisobga irrigatsiya va melioratsiya ishlari uchun qilingan sarf-xarajatlar kirmaydi. Faqat 1971-1985-yillarda melioratsiya tadbirlari uchun davlat 19 milliard 881 million so'm mablag' ajratdi. Natijada O'zbekistonda Amudaryo va Sirdaryo havzasi suvlari hisobidan 20 dan ortiq suv omborlari, o'nlab kanallar barpo etildi. Agar 1946-yilda O'zbekiston xaritasida faqat bitta Kattaqo'rg'on suv ombori bo'lgan bo'lsa, keyingi yillarda O'rta To'qay, Janubiy Surxon, Uchqizil, Chimqo'rg'on, Quyimozor, Kosonsoy, Tuyabo'g'iz, Tuyamo'yin, Chorvoq, Ohangaron kabi suv omborlari paydo bo'ldi.

Sovetlar hukumati nima bo'lsa ham ko'proq paxta olishni bosh maqsad qilib qo'ydi. Ana shu niyatda O'zbekiston qishloq xo'jaligiga yetkazib berilgan mineral o'g'itlar yildan yilga oshirildi. Agar 1951-yilda O'zbekiston qishloq xo'jaligi 0,9 million tonna mineral o'g'it olgan bo'lsa, 1980-yilda uning miqdori 5 million tonnadan oshib ketdi. Respublika Davlat agrosanoat qo'mitasi ma'lumotlariga qaraganda, 1981-1985-yillarda har gektar paxta maydoniga 241 kg azot, 120 kg fosfor va 51,6 kg kaliy (100 foiz ozuqa modda hisobida) ishlatilib, yilda jami 412,6 kg mineral o'g'it tashlangan. Bu Umumittifoq ko'rsatkichidan 3,5 va AQShdan 4,5 baravar yuqori demakdir. Sarhisobsiz ishlatilgan va turgan-bitgani zahri qotil bu mineral o'g'itlar ona yerimiz tuprog'ining tabiiy holatini buzib, zarar keltirishdan tashqari, atrof-muhitga ta'sir o'tkazib, ekologik vaziyatni halokat yoqasiga keltirib qo'ydi. Shu bois besh yillik rejalarida respublikada paxta yetishtirish miqdori muttasil oshib boraverdi. O'zbekiston 1946-1950-yillarda davlatga 7 million 729 ming tonna paxta bergan bo'lsa, 1951-1955-yillarda bu ko'rsatkich 12 million 270 ming tonnani tashkil etdi. 1981-1985-yillarda esa qo'li qadoq zahmatkash O'zbekiston mehnatkashlari yetkazib bergan paxta 28 million 617,6 ming tonnaga yetdi. Bu raqamlar shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda paxta tayyorlash 1946-1950-yillarga nisbatan 1951-1955-yillarda bir yarim, 1981-1985-yillarda qariyb to'rt baravarga yaqin ortgan. Har bir narsaning ham o'z o'lchovi chegarasi bor,

albatta. Paxta yetishtirishning O'zbekistonda bu darajada katta sur'atlar bilan o'sishi nimaning hisobidan bo'ldi degan qonuniy savol tug'ilishi turgan gap. Balki bu o'sish ko'p miqdorda ishlab chiqarilgan zaharli mineral o'g'itlarning qishloq xo'jaligida ishlatilishi natijasida yuz bergandir. Mutaxassislarning hisob-kitoblari va bergan ma'lumotlariga qaraganda paxtachilikda mineral kimyoviy moddalarning beradigan foydasi 40-45 foizdan oshmas ekan. Aksincha, mineral o'g'itlarning paxta ekiladigan maydonlarda haddan tashqari ko'p ishlatilishi yerlarning tabiiy holatini o'zgartirib hosildorlikka halokatli ta'sir ko'rsatdi. Ikkinchidan esa, xo'jaliklarning iqtisodiyotiga juda katta moddiy zarar keltirdi. Chunki, 1989-yilgi narxlar bo'yicha ammiak selitrining 1 tonnasi 70 so'm, ammofosning 1 tonnasi 96 so'm 50 tiyin, kotoran gerbitsidning 1 tonnasi 12 ming so'mni tashkil etgan. Raqamlar shundan dalolat beradiki, 1960-1980-yillarda gektar boshiga paxtadan olinadigan hosil ko'payishi o'rniga kamayib ketdi. Jumladan, agar 1966-1970-yillarda har gektar yerdan o'rtacha 25,1 sentner, 1970-yilda esa 26,3 sentner hosil olingan bo'lsa, 1986-1987-yillarda bu ko'rsatkich 23,7 sentnerga va 1987-yilda esa 23,1 sentnerga tushib qolgan.

Biz aytmoqchimizki, paxta tayyorlash yalpi miqdorining yildan yilga oshib borishi asosan paxta ekiladigan maydonlarning kengayishi hisobidan amalga oshirilgan. Paxta ekiladigan maydonlarning yil sayin kengayib borganligini quyidagi raqamlar ochiq-oydin ko'rsatadi. Agar 1940-yilda 923,5 ming gektar yerga chigit qadalgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 1960-yilda 1386,6 ming, 1970-yilda 1709,2 ming, 1980-yilda 1877,7 ming va 1987-yilda esa 2107,7 ming gektarga teng bo'ldi. Demak, paxta ekiladigan maydonlar 1987-yilda 1 million 184,2 ming gektarga yoki ikki barobardan ham ziyodroq ko'paydi. Paxta ekin maydonlari hatto aholi tomorqalarigacha kirib bordi, eshik va derazalar atroflarigacha g'o'za ekiladigan bo'ldi. Paxta ekiladigan maydonlarning kengayishi qaysi yerlar hisobidan amalga oshdi?

- **Birinchidan,** Mirzacho'l, Markaziy Farg'ona, Qarshi va Surxon-Sherobod

cho'llarining o'zlashtirilishi hisobidan amalga oshirildi.

- **Ikkinchidan,** qadim-qadimdan o'zining shirin-shakar anorlari, o'riklari, anjiru olmalari, uzumlari-yu, nashvatilari, mazasi tilni yoradigan qovunlari-yu, tarvuzlari bilan jahonga mashhur bo'lgan behisob bog'rog'larimizni quritib paxtazorlarga aylantirish orqali bo'ldi.

- **Uchinchidan,** 30-40-yillarda 0,15 gektardan qishloq aholisidan ajratib berilgan tomorqa yer uchastkalarining 1980-yillarga kelib 0,012 va hatto 0,06 gektarga qisqarishi hisobidan amalga oshirildi.

O'zbekiston xalq xo'jaligini rivojlantirish uchun mablag'larning katta qismi paxtachilikka ajratildi va uning bilan bog'liq bo'lgan tarmoqlarga sarflandi. Respublika traktor parki ancha ko'paydi, kolxozlarga texnik xizmat ko'rsatuvchi MTSlar soni 245 taga yetdi, ulardagi traktorlar soni 1950-yilda 29,5 mingtani, paxta terish mashinalari soni 3617 tani tashkil etdi [6, 230]. Respublika qishloq xo'jaligining yuk avtomobillari parki 1950-yilda 7934 ta yuk avtomobillari va avtotsisternalarni tashkil etdi. 1949-yil 4-fevral kuni paxtaga davlat tayyorlov bahosini oshirish haqida hukumat qarori e'lon qilindi. Ilgari 1 tonna paxta xomashyosiga 1047 so'm to'langan bo'lsa, 1949-yildan boshlab 2200 so'mga ko'tarildi, ya'ni 1 tonna paxta xomashyosi 3 tonna bug'doyga tenglashtirildi. Paxtakorlar mehnati juda ham past baholanib qolaverdi, 1 tonna paxta yetishtirish uchun 1 tonna bug'doy yetishtirishga nisbatan 10-15 marta ko'p mehnat sarflash talab qilinardi [7, 236]. 1949-yil avgustida bo'lgan O'zbekiston Kompartiyasi MQning VI plenumi qarorlari asosida kolxozlar yiriklashtirildi. O'zbekiston SSRdagi 1777 ta mayda kolxoz o'rniga 1950-yil avgustida 752 ta yirik kolxoz vujudga keldi.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Urushdan keyingi yillarda O'zbekiston xalq xo'jaligining tiklanishi va yangi bosqichga o'tishi murakkab xalqaro vaziyatda kechdi. Qishloq xo'jaligi va sanoat ishlab chiqarish sohalarini yanada rivojlantirish uchun markaz tomonidan bir qancha rejalar va dasturlar ishlab chiqildi. Texnika va texnologiyalarni ishga tushirish,

bo'sh yerlarni o'zlashtirish uchun yangi | Natijada yangi zavod va fabrikalar ishga
kanallar ochishga alohida e'tibor qaratildi. | tushirildi.

ADABIYOT VA MANBALAR RO'YXATI
(ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА /
REFERENCES):

1. Экономическая история советского Узбекистана (1917-1965 гг.). — Т.: 1966.
2. "Ёш ленинчи" gazetasi, 1991-yil, 12, 13, 15-noyabr sonlari.
3. Народное хозяйство Узбекской ССР за 60 лет. Юбилейный статистический сборник. — Т.: Узбекистан, 1984.
4. Народное хозяйство Узбекистан ССР в 1987 г. Статистический ежегодник. — Т.: Узбекистан, 1989.
5. Karimov I.A. O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li. — Т.: O'zbekiston, 1992.
6. Safarov S. Mustaqillik davri O'zbekiston iqtisodiyoti. — Т.: Sharq, 2000.
7. Usmonxo'jayev I. Paxta ishi: tarixi va oqibatlari. — Т.: Fan, 1995.
8. www.ziyouz.com.
9. www.arxiv.uz

O‘ZBEKISTON VA MALAYZIYA DAVLATLARI O‘RTASIDAGI HAMKORLIKNING HUQUQIY ASOSLARINI YO‘LGA QO‘YILISH TARIXI

Axatov Ilhomjon Nimatillayevch

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti mustaqil izlanuvchisi

e-mail: ilhom.ahatov85@gmail.com

<https://orcid.org/my-orcid?orcid=0009-0007-1152-6285>

UDK: 94(575.1)

Annotatsiya. Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasi bilan Malayziya o‘rtasidagi hamkorlikning shakllanishi va huquqiy asoslari tarixiy va siyosiy jarayonlar kontekstida tahlil etilgan. Ikki davlat o‘rtasidagi diplomatik munosabatlarning bosqichma-bosqich rivojlanishi, yuqori darajadagi siyosiy uchrashuvlar, elchixonalar ochilishi, parlamentlararo do‘stlik guruhlarini tuzilishi va hukumatlararo bitimlar mazmuni yoritib berilgan. Xususan, siyosiy, iqtisodiy va madaniy-gumanitar sohalaridagi hamkorlikni mustahkamlashga qaratilgan rasmiy tashriflar, qo‘shma bayonotlar va strategik dasturlar asosida yaratilgan huquqiy poydevor batafsil o‘rganiladi. Maqola zamonaviy xalqaro munosabatlar fonida O‘zbekiston–Malayziya aloqalarining istiqbolli yo‘nalishlarini ham ko‘rsatib beradi.

Kalit so‘zlar: O‘zbekiston, Malayziya, huquqiy asoslar, xalqaro munosabatlar, diplomatik aloqalar, siyosiy hamkorlik, madaniy-gumanitar soha, strategik dasturlar.

Аннотация. В данной статье проанализирована история становления и укрепления правовых основ сотрудничества между Республикой Узбекистан и Малайзией в контексте политических и дипломатических процессов. Раскрыты этапы развития двусторонних отношений, роль высокоуровневых визитов, открытие посольств, создание межпарламентских групп дружбы и содержание межправительственных соглашений. Особое внимание уделено укреплению сотрудничества в политической, экономической и культурно-гуманитарной сферах на основе официальных визитов, совместных заявлений и стратегических программ. Статья также освещает

перспективные направления узбекско-малайзийского взаимодействия в современных международных реалиях.

Ключевые слова: Узбекистан, Малайзия, правовые основы, международные отношения, дипломатические связи, политическое сотрудничество, культурно-гуманитарная сфера, стратегические программы.

Abstract. This article examines the historical and political processes underlying the formation and development of the legal framework for cooperation between the Republic of Uzbekistan and Malaysia. It highlights the key stages of diplomatic relations, including high-level political visits, the opening of embassies, the establishment of inter-parliamentary friendship groups, and the content of bilateral agreements. Particular attention is paid to the consolidation of political, economic, and cultural-humanitarian collaboration through official visits, joint statements, and strategic initiatives. The study also identifies the promising directions of Uzbekistan–Malaysia relations in the context of contemporary international affairs.

Keywords: Uzbekistan, Malaysia, legal framework, international relations, diplomatic cooperation, political partnership, cultural-humanitarian sector, strategic programs.

KIRISH (VVEDENIYE / INTRODUCTION). Bugungi globalashuv jarayonida davlatlar o‘rtasidagi o‘zaro manfaatli va barqaror munosabatlarni shakllantirishda ularning mustahkam huquqiy asoslarga tayanuvchi hamkorlik siyosati alohida ahamiyat kasb etmoqda. Jahon siyosiy maydonida mustaqil va suveren subyekt sifatida faoliyat yuritayotgan har bir davlat o‘z tashqi siyosatining asosiy yo‘nalishlaridan biri

sifatida diplomatik aloqalarni yo'lga qo'yish, iqtisodiy, siyosiy, madaniy va ilmiy-texnikaviy hamkorlikni rivojlantirishni ko'zda tutadi. Ayniqsa, huquqiy jihatdan puxta poydevorga ega bo'lgan xalqaro munosabatlar ikki tomonlama aloqalarni izchil va barqaror rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi.

O'zbekiston Respublikasining 1991-yilda mustaqillikka erishishi bilan mamlakatning tashqi siyosatida sifat jihatidan yangi bosqich boshlandi. U milliy manfaatlariga mos keluvchi, ochiq va pragmatik yondashuvga asoslangan holda, xalqaro hamjamiyat bilan faol va teng huquqli aloqalarni yo'lga qo'yishni nazarda tutdi. Bu borada, Janubi-Sharqiy Osiyo mintaqasidagi iqtisodiy jihatdan taraqqiy etgan, siyosiy barqaror va islomiy qadriyatlarga asoslangan davlatlardan biri bo'lmish Malayziya bilan diplomatik va iqtisodiy aloqalarni o'rnatish strategik ahamiyat kasb etdi.

1992-yilda O'zbekiston va Malayziya o'rtasida diplomatik munosabatlar o'rnatilishi ikki davlat o'rtasida huquqiy asosga ega bo'lgan hamkorlik yo'nalishlarini belgilab berdi. Shundan boshlab, ikki tomonlama aloqalar bosqichma-bosqich rivojlanib, turli sohalarda – siyosat, savdo-iqtisodiyot, ta'lim, fan va texnologiyalar, sog'liqni saqlash, transport, turizm, madaniyat va ekologiya sohalarida imzolangan bitimlar asosida mustahkamlandi. Ayniqsa, ikki mamlakat rahbarlarining oliy darajadagi uchrashuvlari, hukumatlararo kelishuvlar, vazirlik va idoralar o'rtasidagi anglashuv memorandumlari huquqiy poydevorning shakllanishi va kengayishiga xizmat qildi.

Bugungi kunda O'zbekiston va Malayziya o'rtasidagi hamkorlik nafaqat ikki tomonlama doirada, balki xalqaro tashkilotlar, xususan BMT, Islom hamkorlik tashkiloti, ASEAN va boshqa mintaqaviy tuzilmalar doirasida ham faollashib bormoqda. Bunda o'zaro ishonch, hurmat, tenglik va manfaatdorlik tamoyillari asosida qurilgan munosabatlar ikki davlatni o'zaro yaqinlashtiribgina qolmay, balki ularni xalqaro miqyosdagi barqaror taraqqiyot yo'lida hamkorlikda harakat qilishga undamoqda.

MUHOAKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). O'zbekiston Respublikasi va Malayziya davlati o'rtasidagi o'zaro hamkorlikning huquqiy poydevorini yaratish va uni izchil mustahkamlab borish jarayonida rasmiy tashriflar, ikki tomonlama uchrashuvlar hamda imzolangan xalqaro bitimlar hal qiluvchi ahamiyat kasb etdi. Ushbu hamkorlikning shakllanishi ilk bosqichlaridanoq strategik yondashuv asosida olib borilib, tomonlar o'rtasidagi do'stona va teng huquqli munosabatlarni chuqurlashtirishga xizmat qilgan.

Malayziya davlati O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligini 1992-yil 1-yanvarda tan olgan eng dastlabki davlatlardan biri bo'ldi. Bu esa ikki davlat o'rtasidagi munosabatlarning asosini belgilagan ilk siyosiy qadamlardan biri sifatida tarixda muhurlandi [8:43]. Mazkur qarordan so'ng oradan bir oy o'tib, ya'ni 1992-yil 21-fevral kuni O'zbekiston va Malayziya o'rtasida rasmiy diplomatik aloqalar o'rnatildi. Bu diplomatik rishtalar o'z navbatida siyosiy, iqtisodiy, ilmiy va madaniy sohalarida hamkorlik imkoniyatlarini kengaytirish uchun mustahkam zamin yaratdi.

Diplomatik aloqalar institutsional darajada rivojlanib borar ekan, 1993-yil iyun oyida Toshkent shahrida Malayziya elchixonasi, 1999-yil dekabr oyida esa Kuala-Lumpurda O'zbekiston elchixonasi tashkil etildi. Bu ikki elchixona ham ikki mamlakat o'rtasidagi siyosiy va iqtisodiy hamkorlikni muvofiqlashtirish, amaliy loyihalarni amalga oshirish hamda madaniy aloqalarni kengaytirish borasida faoliyat yuritdi. Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, bugungi kunga qadar tomonlar o'rtasida jami 47 ta hukumatlararo hujjatlar imzolangan bo'lib, ular turli sohalardagi hamkorlikni huquqiy jihatdan tartibga soluvchi asosiy vositalar hisoblanadi [13].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1992-yil iyun oyida Janubi-Sharqiy Osiyo davlatlariga qilgan rasmiy tashrifi doirasida Malayziyaga ham safar uyushtirilgan bo'lib, bu tashrif ikki davlat munosabatlari tarixida burilish nuqtasi bo'ldi. Aynan shu tashrif davomida ikki muhim hujjat – "O'zbekiston

Respublikasi hukumati bilan Malayziya hukumati o'rtasida iqtisodiy va texnikaviy hamkorlik to'g'risida Bitim" hamda "O'zbekiston Respublikasi hukumati bilan Malayziya hukumati o'rtasida madaniy va ilmiy hamkorlik to'g'risida Bitim" imzolandi. Ushbu hujjatlar nafaqat o'zaro aloqalarni institutlashtirishga xizmat qildi, balki ularning sohalar bo'yicha ixtisoslashuvini belgilab berdi [8:43].

Mazkur kelishuvlar orqali O'zbekiston tashqi siyosatining tamoyillari – o'zaro hurmat, manfaatlar tengligi, suverenitetga rioya qilish, tinchlikparvarlik va o'zaro foydali hamkorlik – amaliyotda o'z ifodasini topdi. Malayziya bilan o'rnatilgan aloqalarda ayniqsa xalqaro maydondagi qarashlar uyg'unligi, regional va global muammolarga bir xil yondashuvlar ikki davlat o'rtasida yaqin strategik hamkorlik uchun asos yaratdi [2:4].

Keyingi yillarda O'zbekistonning xalqaro maydondagi faolligi ortib borishi bilan birga, huquqiy hujjatlar bazasining takomillashuvi va sohalar bo'yicha chuqurlashtirilgan aloqalar tizimi shakllandi. 1993-yilda Malayziya Bosh vaziri Mahathir Muhammadning O'zbekistonga amalga oshirgan rasmiy tashrifi ikki tomonlama aloqalarni mustahkamlashda muhim bosqich bo'ldi. Mazkur tashrif doirasida "O'zbekiston–Malayziya qo'shma kommyunikesi" imzolandi [6:32] va bu hujjat asosida hamkorlikning ustuvor yo'nalishlari belgilab olindi. Shuningdek, ushbu tashrif davomida energetika sohasiga oid uchta muhim kelishuv imzolandi [9:101]. Bu hujjatlar neft konlarini o'rganish, ularni ishlab chiqarish jarayoniga tayyorlash hamda xomashyoni qayta ishlashga yo'naltirilgan korxonalarni barpo etish bilan bog'liq masalalarni qamrab oldi.

2000-yil may oyida Toshkent shahrida O'zbekiston–Malayziya qo'shma qo'mitasining birinchi yig'ilishi bo'lib o'tdi. Bu yig'ilish ikki tomonlama hamkorlikni sektorlar bo'yicha muvofiqlashtirish, iqtisodiy munosabatlarni institutsional darajada mustahkamlash hamda investitsiyaviy loyihalarni muhokama qilish imkonini berdi [10:83]. 2003-yilda esa Malayziya qiroli Tuan Ku Sayyid Sirajuddin Jamallullaylning

O'zbekistonga amalga oshirgan tashrifi hamkorlik munosabatlariga yangi sur'at bag'ishladi [13]. O'zbekiston va Malayziya o'rtasidagi huquqiy asoslangan hamkorlik zahirida strategik manfaatlar uyg'unligi, ikki tomonlama siyosiy irodaning kuchliligi va pragmatik tashqi siyosatning izchil yondashuvi mujassam. Mazkur asoslar keyingi bosqichlarda iqtisodiy, madaniy, ilmiy va texnikaviy yo'nalishlarda amalga oshirilgan ko'plab dastur va loyihalarning muvaffaqiyatli amalga oshirilishini ta'minlab berdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil oktyabr oyida Malayziyaga amalga oshirgan navbatdagi oliy darajadagi davlat tashrifi ikki davlat o'rtasidagi huquqiy asoslangan hamkorlikning yangi bosqichini boshlab berdi. Tashrif doirasida tomonlar o'rtasida bir qator muhim hujjatlar, xususan, "O'zbekiston Respublikasi hukumati va Malayziya hukumati o'rtasida havo qatnovi to'g'risida hukumatlararo kelishuv", "Savdo bo'yicha hamkorlik qo'mitasini tashkil etish to'g'risida hukumatlararo o'zaro anglashuv memorandumi", shuningdek, turizm, mineral resurslardan foydalanish, xavfsizlik masalalari va terrorizmga qarshi kurash sohalarida hamkorlikni ko'zda tutuvchi kelishuvlar imzolandi [1]. Bu esa ikki tomonlama munosabatlarning ko'lamini kengaytirishga xizmat qildi.

2008-yilda Malayziya Bosh vaziri Ahmad Badavining O'zbekistonga rasmiy tashrifi ikki davlat o'rtasidagi munosabatlarning huquqiy asoslari muayyan yo'nalish va tarmoqlarda yanada aniqlashtirilganidan dalolat berdi. Tashrif doirasida oliy ta'lim, ilmiy-texnologik hamkorlik, neft-gaz sohasida kadrlar tayyorlash, shuningdek, "Surxon" investitsion blokida geologik-qidiruv ishlari olib borish bo'yicha qator memorandumlar va bitimlar imzolandi. Jumladan, "Oliy ta'lim sohasida, ilmiy va texnologik hamkorlik to'g'risida Anglashuv memorandumi", "O'zbekneftgaz" Milliy xolding kompaniyasi bilan "Petronas Carigali" kompaniyasi o'rtasida kadrlar tayyorlash bo'yicha hamkorlik memorandumi, hamda "O'zbekneftgaz" va "Petronas Carigali Overseas" o'rtasida geologik-qidiruv ishlari bo'yicha kelishuv kuchga kirganligi haqidagi

bayonnoma imzolandi [12].

Ikki davlat o'rtasidagi siyosiy va parlamentlararo aloqalar ham izchil rivojlanib bordi. 2006–2009-yillar davomida O'zbekiston va Malayziya parlamentlari o'rtasida o'zaro tashriflar amalga oshirildi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi spikeri Dilorom Toshmuhamedovaning Malayziyaga tashrifi hamda 2013-yilda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Raisi Ilg'izar Sabirovning Malayziyaga safari, Malayziya Parlamenti Senati Raisi Tan Sri Abu Zahar Ujang taklifiga binoan amalga oshirildi. Ushbu tashrif davomida O'zbekiston delegatsiyasi rahbari Malayziya Parlamenti Vakillar palatasi spikeri Pandikar Mulia bilan uchrashuv o'tkazdi. O'sha yilning oktyabr oyida esa Tan Sri Abu Zahar Ujang O'zbekistonga javob tashrifini amalga oshirdi [13].

2014-yil 5–7-may kunlari Malayziya Bosh vaziri o'rinbosari, Ta'lim vaziri Muhyiddin bin Haji Muhammad Yassin O'zbekistonga rasmiy tashrif bilan keldi [4]. Bu tashrif ham ikki tomonlama aloqalarning jadallashuvi va sohalar bo'yicha ixtisoslashgan hamkorlik yo'nalishlarining shakllanishida muhim o'rin tutdi. Jumladan, tashqi siyosiy faoliyatni muvofiqlashtiruvchi vazirliklar o'rtasidagi siyosiy maslahatlashuvlar hamkorlikning institutsional rivojiga kuchli turtki berdi.

2017-yildan boshlab O'zbekiston–Malayziya munosabatlari sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarildi. Jumladan, O'zbekiston 2017-yil 8-dekabr kuni BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida qabul qilingan “Mo'tadillik” rezolyutsiyasi bo'yicha Malayziyaning tashabbusini qo'llab-quvvatladi. Xuddi shu sessiyada O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan “Ma'rifat va diniy bag'rikenglik” nomli maxsus BMT rezolyutsiyasi va “Yoshlar huquqlari to'g'risida”gi xalqaro konvensiya loyihalari ham Malayziya delegatsiyasi tomonidan faol qo'llab-quvvatlandi [11].

2019-yil 12-sentyabr kuni Toshkent shahrida O'zbekiston Respublikasi va Malayziya Tashqi ishlar vazirliklari o'rtasida siyosiy maslahatlashuvlarning to'rtinchi

raundi bo'lib o'tdi [14]. Ushbu uchrashuvda ikki tomonlama kelishuvlarning bajarilish holati tahlil qilindi, hamkorlikning sustlashgan yo'nalishlari yuzasidan muhokamalar olib borildi va yangi tashabbuslar ilgari surildi. Shuningdek, ikki tomonlama huquqiy asoslarni mustahkamlovchi qo'shimcha choralalar belgilandi.

Umuman olganda, 2005–2019-yillar mobaynida O'zbekiston va Malayziya o'rtasidagi munosabatlar izchil huquqiy asoslar bilan boyitildi. Tomonlar siyosiy, iqtisodiy, energetika, ta'lim, xavfsizlik, parlament diplomatiyasi va xalqaro tashkilotlardagi o'zaro qo'llab-quvvatlash yo'nalishlarida sermazmun va o'zaro manfaatli hamkorlikni yo'lga qo'ygan.

O'zaro hamkorlik nuqtai nazaridan O'zbekiston–Malayziya munosabatlari 2020-yilda o'zaro manfaatli, ishonchli va do'stona asosda jadal sur'atlarda rivojlanishda davom etdi. Malayziyada yuzaga kelgan pandemik holat va joriy etilgan cheklov choralari mavjud bo'lishiga qaramay, O'zbekistonning Kuala-Lumpurda elchixonasi ikki va ko'p tomonlama hamkorlikni kengaytirish, ikki davlat rahbarlari darajasida erishilgan kelishuvlarning ijrosini ta'minlash, shuningdek, hukumatlararo va idoralararo darajadagi bitimlarni amaliyotga tatbiq etishga qaratilgan faoliyatni davom ettirdi [5].

2023-yil 1-dekabr kuni BMTning iqlim o'zgarishi bo'yicha Dubay shahrida o'tkazilgan konferensiyasi doirasida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Malayziya Podshohi Sultan Abdulloh Riyoatuddin Al-Mustafa Billoh Shoh bilan uchrashdi [7]. Bu oliy darajadagi muloqot ikki tomonlama munosabatlarning sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarilishiga turtki bo'ldi.

2024-yil 17-may kuni esa O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning taklifiga binoan Malayziya Bosh vaziri Anvar Ibrohim rasmiy tashrif bilan mamlakatimizga keldi. Mazkur tashrif O'zbekiston va Malayziya o'rtasidagi aloqalarni yangi bosqichga olib chiqishda muhim voqea bo'ldi [3]. Muzokaralar chog'ida davlatlararo hamkorlik, siyosiy, iqtisodiy hamda madaniy-gumanitar

yo'nalishlarda aloqalarni yanada mustahkamlash bo'yicha chora-tadbirlar muhokama qilindi.

Shuningdek, O'zbekistonning "O'zbekiston-2030" strategik dasturi hamda Malayziyaning "Madaniy Malayziya" dasturi o'zaro yaqin maqsad va vazifalarni ko'zda tutishi ta'kidlandi. Ishonchli, ochiq va do'stona ruhda kechgan muzokaralar yakunida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Malayziya Bosh vaziri ko'p qirrali hamkorlikni chuqurlashtirishga oid Qo'shma bayonotni imzoladilar [3].

O'zbekiston va Malayziya davlatlari o'rtasida tashkil etilgan siyosiy muloqotlar ikki tomonlama aloqalarning siyosiy, iqtisodiy, shuningdek, madaniy-gumanitar sohalarini rivojlantirish, xalqaro masalalarda tomonlarning pozitsiyasini yaqinlashtirishda muhim o'rin tutdi. Ilmiy izlanishlar natijasi shuni ko'rsatadiki, ikki davlat o'rtasidagi hamkorlikning huquqiy asoslari, asosan, vazirliklar va idoralar darajasida imzolangan bitim va kelishuvlardan iborat bo'lib, ular aynan siyosiy muloqotlar doirasida shakllangan.

Zamonaviy xalqaro munosabatlardagi keskin o'zgarishlar, iqtisodiy integratsiya jarayonlarining chuqurlashuvi va barqaror taraqqiyotga bo'lgan ehtiyoj davlatlar o'rtasida siyosiy, savdo-iqtisodiy hamda investitsiyaviy hamkorlikni jadallik bilan rivojlantirayotgani kuzatilmoqda. Biroq bu aloqalar faqat iqtisodiy manfaatlarga asoslanib qolmasdan, xalqaro hamjamiyatdagi yaqinlik, xalqlar o'rtasidagi do'stlik rishtalarini mustahkamlash

bilan ham chambarchas bog'liq. Shu sababli madaniy-gumanitar hamkorlikni rivojlantirish, ayniqsa, fan va ta'limdagi integratsiyani chuqurlashtirish, serdaromad soha bo'lgan turizmni kengaytirish kabi yo'nalishlarda ham huquqiy asoslarni yaratish va mustahkamlash dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Yuqoridagi tahlillar asosida xulosa qilish mumkinki, O'zbekiston va Malayziya davlatlari o'rtasidagi hamkorlik izchil rivojlanib, huquqiy asoslar bilan mustahkamlangan holda turli yo'nalishlarda chuqurlashmoqda. Oliy darajadagi tashriflar, hukumatlararo bitimlar va idoralararo memorandumlar ushbu hamkorlikning huquqiy poydevorini shakllantirdi. Xususan, savdo-iqtisodiy, ta'lim, fan, energetika, turizm, transport, diniy bag'rikenglik va islomiy moliyaviy tizim sohalarida tuzilgan kelishuvlar ikki davlat strategik sheriklik darajasiga ko'tarilayotganini ko'rsatmoqda.

Ayniqsa, so'nggi yillarda O'zbekiston tashqi siyosatining faollashuvi fonida Malayziya bilan munosabatlar yangicha mazmun bilan boyib, nafaqat ikki tomonlama, balki xalqaro tashkilotlar doirasidagi muloqotlarda ham o'z ifodasini topmoqda. Kelgusida hamkorlikning huquqiy asoslarini mustahkamlash, mavjud bitimlarni to'laqonli amalga oshirish va yangi sohalarida hamkorlik yo'llarini aniqlash ikki tomon uchun ham manfaatlidir. Bu esa O'zbekiston-Malayziya munosabatlarini yanada barqaror va sermahsul rivojlantirishga xizmat qiladi.

ADABIYOT VA MANBALAR RO'YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES):

1. Деловой партнер. – 2005. № 40. – С. 2.
2. Джураева, Г. М. Внешняя политика стран АСЕАН в условиях глобализации (на примере Малайзии, Сингапура и Индонезии). Дисс. ... канд. полит. наук. – Тошкент, 2011. – 203 б.
3. Жонибеков, З., Аввалбоев, И. Ўзбекистон – Малайзия: муносабатларни янада мустаҳкамлаш кўп қиррали ҳамкорликни амалий мазмун билан бойитишга хизмат қилади. // Янги Ўзбекистон. 2024-йил 18-май.
4. Умарова, И. Ҳамкорлик истиқболлари муҳокама қилинди. // Халқ сўзи. 2014-йил 8-май.

5. Усмонов, Р. Ўзбекистон - Малайзия ҳамкорлиги жадал суръатларда давом этади. // Янги Ўзбекистон. 2021-йил 12-январь. – Б. 3.
6. Сўпиев, Қ. Малайзия. – Тошкент: Шарқ, 2013. – Б. 32.
7. Ўзбекистон – Малайзия: олис манзилларни боғлаган дўстлик, ўзаро манфаатли ҳамкорлик. // Янги Ўзбекистон. 2024-йил 17-май.
8. Ўзбекистон Миллий архиви. Фонд М-37, рўйхат 1, йиғма жилд 450. – 43-варақ.
9. Ўзбекистон Миллий архиви. Фонд М-2, рўйхат 1, йиғма жилд 124. – 101-варақ.
10. Ўзбекистон Миллий архиви. Фонд М-2, рўйхат 1, йиғма жилд 5578. – 83-варақ.
11. Ўзбекистон Миллий ахборот агентлиги. Ўзбекистон ва Малайзия: вақт синовидан ўтган ишончли шериклар. – URL: http://uza.uz/uz/society/zbekiston-va-malayziya-va-t-sinovidan-tgan-ishonchli-sherikl-14-09-2018?sphrase_id=5538702
12. Ўзбекистон Миллий ахборот агентлиги. Ўзбекистон ва Малайзия муносабатлари. – URL: <http://uza.uz/ru/politics/4528/>
13. Ўзбекистоннинг Малайзиядаги элчихонаси. Bilateral Relations. – URL: https://uzbekembassy.com.my/en/bilateral_relations/
14. O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi. Xorijiy davlatlar bilan aloqalar. – URL: mfa.uz/uz/press/news/2019/09/20935/

IKKINCHI JAHON URUSHDAN KEYINGI DAVRIDA SURXONDARYO VILOYATIDA UY-JOY, KOMMUNAL XIZMATLAR VA IJTIMOY TA'MINOT TIZIMI TAHLILI

Chorshanbiyev Mashrab

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti o'qituvchisi

<https://orcid.org/0009-0002-1503-9996>

UDK: 94(575.1)

Annotatsiya: Ushbu ilmiy tahliliy maqola O'zbekiston SSRning urushdan keyingi davrida (1946–1990 yillar) ijtimoiy siyosatning asosiy yo'nalishlari, xususan, Surxondaryo viloyati aholisini uy-joy, kommunal xizmatlar va ijtimoiy ta'minot bilan ta'minlash borasidagi harakatlarni yoritadi. Tadqiqotda uy-joy qurilishiga ajratilgan mablag'larning keskin oshishi ijobiy holat sifatida qayd etilgan bo'lsa-da, ajratilgan mablag'larning korxonalar tomonidan o'zlashtirilmasligi va aholi jon boshiga uy-joy ta'minoti me'yoring qondirilmaganligi kabi jiddiy muammolar tanqidiy tahlil qilingan. Bundan tashqari, qurilgan beton uylarning mahalliy iqlimga mos emasligi va milliy an'analarning inobatga olinmaganligi tufayli yuzaga kelgan noqulayliklar yoritilgan.

Kalit So'zlar: Surxondaryo viloyati, uy-joy qurilishi, Termiz shahri, kommunal xizmatlar, ijtimoiy ta'minot, turmush darajasi, mablag'larni o'zlashtirish.

Аннотация: В данной научно-аналитической статье рассматриваются основные направления социальной политики Узбекской ССР в послевоенный период (1946–1990 гг.), в частности, обеспечение населения Сурхандарьинской области жильем, коммунальными услугами и социальным обеспечением. Хотя в исследовании отмечается резкое увеличение средств, выделяемых на жилищное строительство, как позитивный момент, критически анализируются такие серьезные проблемы, как неосвоение предприятиями выделенных средств и невыполнение норматива обеспеченности жильем на душу населения. Кроме того, отмечаются неудобства, связанные с непригодностью построенных бетонных домов к местному климату и неучетом

национальных традиций.

Ключевые слова: Сурхандарьинская область, жилищное строительство, город Термез, коммунальное обслуживание, социальное обеспечение, уровень жизни, распределение средств.

Abstract: This scientific analytical article covers the main directions of social policy in the post-war period of the Uzbek SSR (1946–1990), in particular, efforts to provide the population of Surkhandarya region with housing, communal services and social security. Although the study notes a sharp increase in funds allocated for housing construction as a positive development, serious problems such as the failure to absorb the allocated funds by enterprises and the failure to meet the standard of housing provision per capita are critically analyzed. In addition, the inconveniences caused by the unsuitability of the constructed concrete houses to the local climate and the failure to take into account national traditions are highlighted.

Keywords: Surkhandarya region, housing construction, Termez city, communal services, social security, standard of living, appropriation of funds.

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). Ushbu tadqiqot O'zbekiston SSRning urushdan keyingi davridagi (1946–1990 yillar) ijtimoiy-iqtisodiy siyosatini, xususan Surxondaryo viloyati misolida, uy-joy, kommunal xizmatlar va aholining turmush darajasi kabi asosiy ijtimoiy ta'minot tizimlarini tahlil qilishga bag'ishlangan. Ikkinchi jahon urushidan keyingi yillarda butun Ittifoq miqyosida, shu jumladan O'zbekistonda ham, vayronagarchiliklarni bartaraf etish va o'sib borayotgan aholini ta'minlash, shuningdek,

jamiyatda sotsialistik ideallarga muvofiq farovonlik muhitini yaratish ustuvor vazifa qilib belgilandi. Shu nuqtai nazardan, 1946 yil 30 avgustdagi O'zbekiston SSR Oliy Sovetining VIII sessiyasida uy-joy muammosini hal etishga katta miqdorda mablag' ajratilishi bu siyosatning boshlanishi bo'ldi.

Tadqiqotning dolzarbligi shundaki, bu davrda Surxondaryo viloyatida jadal qurilish ishlari amalga oshirilib, Termiz kabi shaharlarda uy-joy fondlari bir necha barobar oshdi. Biroq, markaziy rejalashtirishning quyi bo'g'irlarda mablag'larni o'zlashtirishdagi muammolar, uy-joyning jon boshiga to'g'ri keladigan miqdorining pastligi hamda qurilish sifati va mahalliy iqlimga moslikdagi jiddiy kamchiliklar ijtimoiy tanqidlarga sabab bo'lgan. Shuningdek, maishiy xizmat ko'rsatish sohasining kengayishi, narxlarning pasaytirilishi va ijtimoiy fondlar hisobidan to'lovlar miqdorining o'sishi orqali aholi turmush darajasini yaxshilashga qilingan urinishlar ham e'tibordan chetda qolmagan.

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). 1946-yil 30-avgustda bo'lib o'tgan O'zbekiston SSR Oliy Sovetining VIII sessiyasida aholini uy-joy bilan ta'minlashga alohida e'tibor berildi. Uy-joy muammosini hal qilish uchun katta miqdorda mablag' ajratildi, uy-joy qurish uchun korxonalarda alohida jamg'armalar tashkil etildi.

O'zbekiston hukumati uy-joy qurish uchun 1946-yilga nisbatan 1947-yilda 1,5 barobar ko'p mablag' ajratdi [9]. 1948-yilda esa urushgacha bo'lgan uch besh yillikdagi mablag'ga nisbatan uy-joy qurilishi uchun 3 marta ko'p mablag' ajratildi [20]. Bu davrda Surxondaryo viloyatining bosh shahri bo'lgan Termizda ham anchagina bunyodkorlik ishlari amalga oshirildi. 1949-yilda shaharda uy-joy fondlari 1937-yildagiga nisbatan 2 marta ko'paydi [1:164]. Shu davrda viloyatning Sho'rchi, Sherobod, Jarqo'rg'on tumanlarining markazlarida ham ancha keng ko'lamli qurilish ishlari amalga oshirildi. Jumladan, 1947–51-yillarda shahar va shahar tipidagi posyolkalardagi uy-joy fondi qariyb uch barobar oshdi [16].

Bu davrda davlat korxonalari bilan bir

qatorda kooperativ tashkilotlar ham uy-joy qurilishida ishtirok etdi. 1947-yilda Surxondaryo paxta tozalash tresti uy-joy qurilishi uchun 265 ming so'm kapital mablag' ajratdi. Ushbu mablag'lar hisobiga Surxondaryo paxta tozalash zavodi xodimlar uchun 116 kv. metrli 2 ta uy qurishni rejalashtirdi. Biroq ajratilgan mablag'ning katta qismi o'zlashtirilmadi [11]. Bunday holatni Denov paxta tozalash zavodi misolida ham ko'rish mumkin. Masalan, 1948-yilda Denov paxta tozalash zavodiga uy-joy qurilishi uchun 214 ming so'm mablag' ajratildi, shuning bor-yo'g'i 47 ming so'mi o'zlashtirildi, xolos [13].

Yildan-yilga aholi sonining o'sib borishi bilan birga odamlarning uy-joyga bo'lgan ehtiyoji ham ortib bordi. 1957-yilda KPSS Markaziy Qo'mitasi va SSSR Ministrlar Soveti "SSSRda uy-joy qurilishini rivojlantirish to'g'risidagi" qarorni qabul qildi. 1956–1985-yillar oralig'ida esa Ittifoq miqyosida 3 milliard kv. metrdan ziyod bo'lgan 66 millionga yaqin uy-joylar qurildi [4].

Urushdan keyingi dastlabki besh yillik mobaynida respublikada 1771 ming kvadrat metr uy-joy davlat va kooperativ tashkilotlari tomonidan 887 ming kvadrat metr uy-joy qurildi [6]. Lekin shu davrda shahar aholisining uy-joyga bo'lgan talabi to'liq qondirilgan emas edi. Respublikada jon boshiga me'yordagi 9 kvadrat metr o'rniga 4 kvadrat metrdan uy-joy to'g'ri kelardi [10]. 1951-yilda Termiz shahrida yakka tartibda qurilgan uylarning soni 70 tadan ko'proqni tashkil etdi. 2170 kvadrat metr uy-joy binolari esa to'liq ta'mirdan chiqarildi [15].

1957-yilda O'zbekiston Ministrlar Sovetining qaroriga ko'ra Termiz shahrida 165-qurilish tresti tashkil etildi. Natijada trest shu yilning o'zida 5224 ming so'mlik qurilish-montaj ishlarini amalga oshirdi. 1958-yilda Termiz shahrida 10 ming kvadrat metrqa yaqin turar-joy binolari barpo etildi [12].

Agar Termizda 1960-yilda 24 ta uy-joy qurilib foydalanishga topshirilgan bo'lsa, 1961-yilda 6275 kvadrat metr turar-joy binosi ishga tushirilib, 21 oilaga uy-joy uchun order berildi [18]. Termiz shahrida 1951–1961-yillar oralig'ida 93,2 ming kvadrat metr uy-joy

binolari qurildi [1:116]. Bu davrda shahar aholisining demografiyasi ham ancha o'sdi. Yangi yerlarning o'zlashtirilishi tufayli Respublikada yangi 21 ta shahar vujudga keldi. Jumladan, Janubiy viloyatlardagi Gagarin, Muborak, Tallimarjon kabi shaharlar asosan migratsiya tufayli vujudga kelgan edi [3].

Tadqiq etilayotgan davrda shaharlarni obodonlashtirish, gaz va toza ichimlik suvi bilan ta'minlash borasida ham anchagina ishlar bajarildi. 1959-yildan boshlab Termiz shahri gazlashtirila boshlandi. O'sha yilning oxirigacha shahardagi 60 ta xonadonga gaz plitasi o'rnatilgan bo'lsa, 1962-yilning boshiga qadar bu ko'rsatkich 2500 tadan oshdi [19].

1962-yilda Termiz shahri aholisini toza ichimlik suvi bilan ta'minlash maqsadida 500 ming so'm pul ajratilib, shaharda 19 kilometr uzunlikdagi suv quvuri yotqizildi [1:167]. Tadqiq etilayotgan davrda shahar aholisining soni ham yil sayin o'sib bordi. Bunga aholi demografiyasining yil sayin o'sib borishi bilan bir qatorda shaharlarda ishlab chiqarish hamda maishiy va madaniy inshootlarning to'planishi tufayli aholi migratsiyasining shaharga intilishi bilan bog'liq tarzda kechdi. Bu davrda O'zbekiston shaharlar soni tez o'sib borayotgan respublikalar qatoriga kirdi. Faqatgina 1970-yildan 1985-yilgacha bo'lgan davrda respublika xaritasida 80 ta yangi shahar vujudga keldi [8]. Ana shu davrda bunyod etilgan shaharlarning uchdan ikki qismi respublika yer osti boyliklarini ishga solish va yangi yerlarni o'zlashtirish tufayli vujudga keldi.

Yangi vujudga kelgan shaharlarning aksariyatida yevropalik millat vakillari kelib joylashdi. Bu davrda industrial sohada mahalliy millat vakillarining kamligi eng avvalo mahalliy aholi orasida ishchilarning kam sonliligi, ularning professional bilim darajasining pastligining asosiy sababi ijtimoiy infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmaganligi bilan izohlanadi. Natijada shahar aholisi orasida yevropalik aholi ko'plab to'plana bordi.

1966-yilda Surxondaryo viloyatida shahar aholisi uchun 38 ming kvadrat metr uy-joy qurilgan bo'lsa, 1986-yilga kelib bu ko'rsatkich ikki barobar oshdi [14]. Lekin bu

ko'rsatkichlar ham hali yetarli darajada emas edi. Shaharlarda kvartira olish uchun navbatda turgan oilalar soni ko'pchilikni tashkil etardi. 1989-yilda Termiz shahrida 80 dan ortiq oila kvartira olish uchun navbatda turardi [17].

Shahar joylarda qurilgan ko'p qavatli uylarning aksariyati beton uylar bo'lib, bu mintaqaning tabiiy iqlim sharoitiga umuman mos emas edi. Qolaversa, ko'p qavatli uylarni bunyod etishda mahalliy millat vakillarining milliy an'analari, oila a'zolarining soni bilan bog'liq xususiyatlar umuman inobatga olinmasdan qurilganligi, uy-joylarda qo'shimcha xonalar, omborxona va boshqa xo'jalik xonalarining bo'lmasligi, markaziy isitish tizimining yaxshi yo'lga qo'yilmaganligi, suv ta'minotidagi uzilishlar, xonalar sathining torligi, yetarli darajada qulayliklar bilan jihozlanmaganligi kabi holatlar jiddiy noqulayliklar va aholining haqli e'tirozlarini keltirib chiqarardi.

Janubiy shaharlarning issiq iqlim sharoitida obodonchilik, ko'kalamzorlashtirish va aholini ichimlik suvi bilan ta'minlash muhim ahamiyatga ega edi. Biroq bu sohada anchagina ishlar qilingan bo'lsada, ko'plab muammolar ham yig'ilib qoldi. Bu muammolar avvalo shaharlarning qurilishida yagona me'moriy yechimning qaror topmaganligi, uy-joy qurilishining sifatsiz tarzda bajarilishi, ko'kalamzorlashtirish va obodonchilik ishlariga yetarli mablag' ajratmaslik, ijtimoiy infratuzilmaning yaxshi yo'lga qo'yilmaganligi, aholini toza ichimlik suvi bilan ta'minlanishining yaxshi yo'lga qo'yilmaganligi bilan bog'liq masalalarda ko'zga tashlandi.

Chunonchi, 1960-yilda Termiz shahrida 24 ta uy-joy qurilib topshirilgan bo'lsa, 1961-yilda 6275 kvadrat metr turar-joy binosi ishga tushirilib, 21 oilaga order berildi [1:166]. Aholining ijtimoiy hayotida maishiy xizmat ko'rsatish tizimi ham muhim o'rin tutadi.

Tadqiq etilayotgan davrda janubiy viloyatlar aholisiga maishiy xizmat ko'rsatish tizimining qator tarmoqlari yo'lga qo'yilib, ularning turmush ehtiyojlarini qondirishda anchagina ishlar amalga oshirildi. Ayniqsa, shahar aholiga xizmat ko'rsatuvchi maishiy xizmat sohalari soni yil sayin ortib bordi.

Tadqiq etilayotgan davrda aholiga maishiy xizmat ko'rsatish ko'lamini besh baravardan ortiq o'sdi. Surxondaryo viloyatida xalq xo'jaligida band bo'lgan aholining orasida shahar aholining ulushi esa quyidagicha edi: 1959-yil – 39,6%; 1970-yil – 41,3%; 1979-yil – 41,5%; 1989-yil – 39,4%. Shahar aholisining maishiy turmush sharoitini yaxshilashida kundalik ehtiyoj mollarining narxlarining pasaytirilishi ham muhim o'rin tutdi. 1947-yildan boshlab kundalik ehtiyoj mollarining narxlari pasaytirila boshladi. 1947-yildan 1950-yilgacha bo'lgan davrda oziq-ovqat mahsulotlarining narxi 3 marta kamaytirildi. 1950-yilning 1-martidagi holatga ko'ra, un va non mahsulotlari 21–30 foizga, yorma 12–20 foizga, go'sht va kolbasa mahsulotlari 24–35 foizga, baliq va baliq mahsulotlari 10–35 foizga, mol yog'i 30 foizga, sut va sut mahsulotlari 10–35 foizga pasaytirildi [5].

Shuning bilan bir qatorda ishchi va xizmatchilarni ijtimoiy himoya qilish borasida ham chora-tadbirlar amalga oshirildi. Ittifoq hukumati 1965-yildan boshlab xo'jalikni boshqarishni ma'lum darajada isloh qilishga urinib ko'rdi. O'tkazilgan islohotlar natijasida xo'jalik va korxonalarda, qurilish tashkilotlarida, maishiy xizmat ko'rsatish muassasalarida hosil qilingan daromadning bir qismidan maxsus jamg'armalarni shakllantirish va ularning mablag'larini ishlab chiqarishni rivojlantirishga, ijtimoiy-madaniy ehtiyojlarga, mehnatkashlarni moddiy rag'batlantirishga sarflash imkoniyati vujudga keldi. Ushbu islohotlarning samarasi sifatida O'zbekiston aholisining ham moddiy va maishiy farovonligi biroz bo'lsada yaxshilandi. Bundan tashqari qishloq xo'jaligidagi jiddiy siljishlar, sanoatning ma'lum darajada rivojlanishi, mehnat unumdorligining o'sishi, moddiy ishlab

chiqarishda band bo'lgan aholining ko'payishi ham ishchi xizmatchilar moddiy ahvolidagi yaxshilanishiga, ularning yillik daromadining o'sishiga olib kelgan omillardan biri bo'ldi.

Jumladan, 1980-yilda Surxondaryo viloyatida ishchi-xizmatchilarga o'rtacha 134,7 rubl oylik ish haqi to'langan bo'lsa, 1990-yilga kelib bu 209,2 rublni tashkil etdi. Lekin shunga qaramasdan, shaharlarda ahvol qishloqqa nisbatan anchagina yaxshi edi. Gap shundaki, bu borada hukumat, turli vazirliklar va idoralar tomonidan tadqiq etilayotgan davrning keyingi 20–25 yili mobaynida juda ko'plab qarorlar qabul qilindi va amaliy ishlar bajarildi.

1970–1980-yillarda barcha aholiga taalluqli choralardan biri sifatida ijtimoiy jamg'armalar hisobidan to'lovlar va nafaqalar ham o'sib bordi. Masalan, turli to'lovlar va nafaqalar har bir kishi boshiga quyidagicha miqdorni tashkil etdi:

- 1970-yilda: 191 rubl;
- 1975-yilda: 258 rubl;
- 1980-yilda: 310 rubl;
- 1985-yilda: 357 rubl;
- 1990-yilda: 446 rubl.

Iste'mol ijtimoiy fondlari tufayli bepul ta'lim olish, tibbiy yordamdan foydalanish, nafaqalar, pensiyalar, mehnat ta'tillari davrida dam olish uylariga yo'llanmalar berish kabi ta'minotlar yo'lga qo'yildi.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Xulosa qilib aytganda, Sovet davrining ushbu bosqichidagi ijtimoiy siyosat miqdoriy o'sishga erishgan bo'lsa-da, sifat, izchillik va mahalliy ehtiyojlarga moslashish borasida sezilarli kamchiliklarga ega bo'lgan. Bu omillar viloyat aholisining turmush sharoitini yaxshilashdagi harakatlar samaradorligini pasaytirgan.

ADABIYOT VA MANBALAR RO'YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES):

1. Azimov M. Termiz tarixi. – Qarshi: "Nasaf", 2001. – 16, 116, 164, 166, 167-b.
2. Berdiyev H. va boshq. Surxondaryo tarixidan lavhalar. – Toshkent: "Nur" ijodiy ishlab chiqarish birlashmasi, 1991. – 26-b.
3. Bobojonova D. O'zbekistonda demografik jarayonlar va ularning xususiyati. – Toshkent: "Fan", 1995. – 70-b.

4. Minulskiy K.I. va boshq. KPSSning sotsial siyosati. – Toshkent: "O'zbekiston", 1987. – 272-b.
5. Народное хозяйство СССР. – Москва, 1958. – 771 с.
6. Народное хозяйство Узбекской ССР в 1965 году. Статистический ежегодник. – Ташкент, 1966. – 278 с.
7. Народное хозяйство Узбекской ССР в 1985 году. Статистический ежегодник. – Ташкент, 1986. – 39, 40, 198–200 с.
8. Народное хозяйство Узбекской ССР в 1987 году. Статистический ежегодник. – Ташкент, 1988. – 203 с.
9. O'zbekiston Milliy arxivi, 737-fond, 3-ro'yxat, 90-ish, 180-varaq.
10. O'zbekiston Milliy arxivi, 868-fond, 12-ro'yxat, 16-ish, 28-varaq.
11. O'zbekiston Milliy arxivi, 2099-fond, 4-ro'yxat, 170-ish, 56-varaq.
12. Surxondaryo viloyati davlat arxivi, 70-fond, 1-ro'yxat, 52-ish, 18-varaq.
13. Surxondaryo viloyati davlat arxivi, 70-fond, 1-ro'yxat, 126-ish, 29–30-varaqlar.
14. Surxondaryo viloyati davlat arxivi, 70-fond, 1-ro'yxat, 132-hujjat, 26–30-varaqlar.
15. Surxondaryo viloyati davlat arxivi, 70-fond, 1-ro'yxat, 136-ish, 13-varaq.
16. Surxondaryo viloyati davlat arxivi, 70-fond, 1-ro'yxat, 137-ish, 55–56-varaqlar.
17. Surxondaryo viloyati davlat arxivi, 70-fond, 1-ro'yxat, 127-ish, 82-varaq.
18. Lenin bayrog'i gazetasi. 1961-yil 18-dekabr.
19. Lenin bayrog'i gazetasi. 1962-yil 11-fevral, 26-son.
20. Правда Востока. 1948-yil 28-may.

XIX АСР ОХИРИ – XX АСР БОШЛАРИДА ЖАНУБИЙ ЎЗБЕКИСТОН АҲОЛИСИ МОДДИЙ МАДАНИЯТИГА ОИД МАНБАЛАР ТАҲЛИЛИ

Ҳамраев Жалолиддин Амиркул ўғли

Сурхондарё вилояти Жарқўрғон тумани 16-сонли мактаби

тарих фани ўқитувчиси

<https://orcid.org/0009-0008-7030-5903>

UDK: 94(575.1)

Аннотация: Мазкур мақола XIX аср охири – XX аср бошларига оид подшо Россияси даври манбаларида Жанубий Ўзбекистон аҳолиснинг моддий маданияти қандай ёритилганини манбашунослик жиҳатидан таҳлил қилишга бағишланган. Ўша давр материаллари (жумладан, 594 жилдли "Туркистон тўплами", Н.А. Маев, А.Д. Гребенкин асарлари) минтақанинг географик, иқтисодий ва стратегик аҳамияти туфайли рус ҳукуматининг махсус ҳисоботлари сифатида яратилган. Тадқиқот шуни кўрсатадики, гарчи бу асарлар асосан сиёсий ва ҳарбий манфаатларга хизмат қилган бўлса-да, улар Жанубий Ўзбекистон аҳолиснинг моддий маданиятига оид ноёб этнографик маълумотларни сақлаб қолган. Жумладан, ҳунармандчилик (кўнчилик, кулолчилик), тўқимачилик (олача, шойи каби матолар), озиқ-овқат (палов, ширинликлар) ва уй-жой (Шеробод беги қўрғони) ҳақидаги фактик маълумотлар аниқланди.

Калит сўзлар: моддий маданият, Жанубий Ўзбекистон, XIX аср охири – XX аср бошлари, манбашунослик, Туркистон тўплами, этнография, Подшо Россияси, олача матоси.

Аннотация: Статья посвящена источниковедческому анализу освещения материальной культуры населения Южного Узбекистана в источниках царской России конца XIX – начала XX веков. Материалы этого периода (включая 594-томный «Туркестанский сборник», труды Н.А. Маева, А.Д. Гребенкина) создавались в виде специальных отчетов российского правительства в связи с географическим, экономическим и стратегическим значением региона. Исследование

показывает, что, хотя эти труды служили преимущественно политическим и военным интересам, они сохранили уникальную этнографическую информацию о материальной культуре населения Южного Узбекистана. В частности, были выявлены фактические сведения о ремёслах (кожевенное дело, гончарное дело), текстильном производстве (ткани из страуса, шёлк), продуктах питания (плов, сладости) и жилищном хозяйстве (курган Шерабад-бека).

Ключевые слова: материальная культура, Южный Узбекистан, конец XIX – начало XX веков, источниковедение, Туркестанский сборник, этнография, царская Россия, клетчатая ткань.

Abstract: This article is devoted to a source-based analysis of how the material culture of the population of Southern Uzbekistan was covered in the sources of the Tsarist Russia of the late 19th and early 20th centuries. The materials of that period (including the 594-volume "Turkestan Collection", works by N.A. Maev, A.D. Grebenkin) were created as special reports of the Russian government due to the geographical, economic and strategic importance of the region. The study shows that, although these works served mainly political and military interests, they preserved unique ethnographic information about the material culture of the population of Southern Uzbekistan. In particular, factual information was identified about crafts (leatherwork, pottery), textiles (fabrics such as ostrich, silk), food (pilaf, sweets) and housing (the Sherabad Beg mound).

Keywords: material culture, Southern Uzbekistan, late 19th - early 20th centuries,

source studies, Turkestan collection, ethnography, Tsarist Russia, plaid fabric.

КИРИШ (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). Бухоро амирлиги XIX аср охири – XX аср бошлари Ўрта Осиё учун туб ўзгаришлар даври бўлди, хусусан, минтақанинг Россия империяси таркибига киритилиши натижасида сиёсий, иқтисодий ва маданий ҳаётда янги жараёнлар бошланди. Географик, иқтисодий ва стратегик жиҳатдан муҳим бўлган бу ўлка, рус буржуазияси ва ҳукуматининг диққатини тортди, бу эса босқинчилик сиёсатиға шарт-шароит яратди. Ушбу даврда рус ҳукумати минтақани ўз манфаатлари йўлида ўрганиш мақсадида илмий экспедицияларни амалга оширди.

Ушбу даврга оид илмий манбалар ва материаллар Жанубий Ўзбекистон аҳолисининг моддий маданиятини этнологик жиҳатдан тадқиқ этиш учун ноёб асос бўлиб хизмат қилади. Аммо, мавжуд асарлар асосан подшо Россиясининг сиёсий, иқтисодий ва ҳарбий манфаатларига хизмат қилган ҳисоботлар бўлганлиги сабабли, уларда моддий маданият кенг кўламда тадқиқ этилмаган.

Мазкур мақоланинг мақсади XIX аср охири – XX аср бошларига оид рус тилидаги илмий манбалар ва материалларни манбашунослик жиҳатдан таҳлил қилиш ҳамда уларда Жанубий Ўзбекистон аҳолисининг моддий маданиятига оид мавжуд этнографик маълумотларни аниқлаш ва тизимлаштиришдан иборат.

Тадқиқот XIX аср охиридан 1917 йилги инқилобгача бўлган даврда Россия империясининг ҳарбий, маъмурий ва илмий доира вакиллари томонидан ёзилган рус тилидаги манбаларни ўрганишга асосланади.

АДАБИЁТЛАР ТАҲЛИЛИ ВА МЕТОДЛАРИ (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОДОЛОГИЯ / METHODS). Қўлланилган асосий усуллар:

- Контекстуал таҳлил: Манбаларнинг яратилишидаги сиёсий-ҳарбий контекстни

(империянинг мақсадлари) ва уларнинг илмий характерини баҳолаш.

- Этнологик контент-таҳлил: Матнлардаги моддий маданият элементлари (кийим, ҳунармандчилик, озиқ-овқат) тўғрисидаги барча ахборотни ажратиб олиш ва тизимлаштириш.

- Қиёсий манбашунослик: Турли муаллифларнинг маълумотларини (масалан, олача матоси ёки палов турлари ҳақидаги ёзувларни) таққослаш.

Асосий манбалар: "Туркистон тўплами" (594 жилд), "Русский Туркестан" тўпламлари, шунингдек, Н.А.Маев, А.Д.Гребенкин, Д.Н.Логофет, Н.А.Фридрих каби муаллифларнинг ҳисобот ва очерклари. Ўрганилган асарларнинг аксарияти, ҳарбийлар, сайёҳлар ва давлат амалдорлари томонидан тўпланган махсус ҳисоботлар сифатида, подшо Россиясининг минтақадаги сиёсий, иқтисодий ва ҳарбий манфаатларига хизмат қилган. Кириш қисмида қайд этилган "босқинчилик сиёсатиға ўтган Россия ҳукуматининг талончилик ниятлари" бу маълумотларни йиғишнинг бош мотиватори бўлган.

МУҲОКАМА (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). Тадқиқот натижалари XIX аср охири – XX аср бошларидаги манбаларнинг Жанубий Ўзбекистон аҳолиси моддий маданиятига оид тарқок, аммо қимматли маълумотларни ўз ичига олганлигини тасдиқлади. Бу манбаларнинг талқини, уларнинг яратилишидаги сиёсий контекстни ҳисобга олган ҳолда, мураккаб жараёндир.

Россия империяси ўзининг таъсир доирасини кенгайтириш билан бирга, Ўрта Осиё халқларининг бой тарихи, маданияти (этнографияси) ва моддий қадриятлари (археологияси) ни ўрганишга катта эътибор қаратган. Ушбу кенг қамровли тадқиқотлар натижаси сифатида 594 жилдни ўз ичига олган улкан библиографик манба – "Туркистон тўплами" вужудга келди. Бу мажмуа минтақага оид барча илмий ишларни тизимлаштиришга хизмат қилган. Бундан ташқари, Россия ҳукуматининг кўмаги билан илмий доиралар ташкил

этилган. Буларга машхур шарқшунос В. В. Бартолд бошчилигидаги Туркистон археология хаваскорлар тўгараги, империял тадқиқотларни минтақага олиб кирган "Император рус география жамияти"нинг Туркистон бўлими, илмий мулоқот маркази бўлган "Император шарқшунослари жамияти"нинг Тошкент бўлими ҳамда Ўрта Осиё илмий жамияти киради. Ушбу институтларнинг фаолияти "Туркистон альбоми" [1] каби ноёб визуал ҳужжатнинг яратилишига олиб келган. Албом фақат матнли маълумотларга чекланмасдан, Туркистон минтақасидаги ҳаётнинг барча жабҳаларини – унинг қадимий ёдгорликларини, аҳолисининг ташқи кўринишини (антропология), турмуш тарзини (этнография) ва санъатини бой тасвирий материаллар орқали ҳужжатлаштиришни мақсад қилган. Тўпلامда келтирилган махсус тадқиқотлар ўлкашунослик учун жуда қадри: Масалан, И. О. Краузеннинг ёғ ва шароб (вино) ишлаб чиқариш технологиялари ҳақидаги мақоласи [2] қишлоқ хўжалигидаги ишлаб чиқариш турларини, Парамоновнинг чармдан маҳсулот тайёрлаш (кўнчилик) ва мис эритиш (дегреслик) [3] бўйича ишлари эса ҳунармандчиликнинг муҳим тармоқларини акс эттиради. А. Кушакевич ўз иши [4] орқали кулолчилик каби анъанавий ҳунар соҳасининг ривожланишига оид маълумотларни тақдим этган. Ниҳоят, А. Д. Гребенкин [5] томонидан ўтказилган чуқур этнографик таҳлил Зарарфшон дарёси воҳасида яшаган ўзбек қабилаларининг лингвистик (шевалар), антропологик (жисмоний хусусиятлар), иқтисодий (хўжалик фаолияти) ва ижтимоий (турмуш тарзи) хусусиятларини батафсил ёритиб берган.

"Русский Туркестан" номли тўплам 1872 йили Москвада ўтказилган Бутунроссия политехника кўргазмасига мўлжаллаб нашр қилинган. Кўргазманинг Туркистон бўлими каталогида Марказий Осиё халқларига оид кўплаб экспонатлар: либослар, ҳунармандчилик маҳсулотлари, гиламлар, кумуш безаклар, қурол-аслаҳалар ва бошқа маиший буюмлар

намоиш этилган; бу эса томошабинларда катта қизиқиш уйғотган.

Н. А. Маев, Н. Н. Покотило, С. Васильев, М. Галкин, А. Л. Кун, М. И. Бродовский, И. Краузе, В. П. Наливкин, М. В. Грулев, И. И. Гейер, А. Губаревич-Радобилский, А. Шишов, Д. Н. Логофет, Н. А. Фридрих, Н. Н. Харузин, Мирзо Салимбек, А. Г. Ананьевларнинг [6] ишлари Жанубий Ўзбекистон аҳолисининг моддий маданиятига оид муҳим илмий манбалар ҳисобланади. Ушбу муаллифлар томонидан XIX аср охиридан 1917 йилги Октябрь инқилобигача бўлган даврда Бухоро амирлиги аҳолисининг кундалик турмуш тарзи, савдо-сотиқ муносабатлари, хўжалик фаолияти ва ўлканинг географик ўрнига доир фактик маълумотлар тўпланган.

Н. Н. Харузин ўз тадқиқотида уй-жойлари ривожланиши тарихига доир маълумотлар асосида кўчманчи ва яримкўчманчи чорвадор туркий халқларнинг ҳаётини ўрганган. Гарчи бу мақола ўша давр учун муайян даражада муҳим бўлган бўлсада, унинг назарий хулосалари бугунги кунда эскирган [7].

Ўрта Осиёда яшаган халқлар қадимдан бир-бирлари билан яқин иқтисодий ва маданий алоқада бўлганлар. XIX асрнинг охири – XX асрнинг бошларида Туркистон ва Бухоро амирлигида маҳаллий аҳоли ўз кийим-кечакларини бўз, олача, қалами, карбос, парпаша, шойи, атлас каби матолардан тайёрлашган. Бу даврда кенг тарқалган матолардан олача ҳисобланган. Бу матодан эркаклар ва аёллар учун кундалик кийимлар тикилган. Олача ўз номи билан ола, яъни йўл-йўл мато бўлиб, унинг йўллари майда, тор бўлган. Қирғизларда унинг ҳаво ранг, қизил рангдаги тури бўлган. Зарафшон водийсида эса, А. Д. Гребенкиннинг келтиришича, яшил йўл-йўлли олача машхур ҳисобланган [8]. XX аср бошида олача тўлиқ ипакдан тайёрланадиган бўлди. Олачадан эркаклар учун тўн тикилган [9].

Бухоро амирлигида ўзбекларнинг анъанавий кийимлари ва мато турлари ҳамда заргарлик буюмлари ҳақида Д. Н.

Логофет, А. П. Хорошхин асарларида ҳам баъзи маълумотлар бор [10].

Минтақада XIX асрнинг 80–90-йилларидан бошлаб, тўқимачилик саноатида капиталистик муносабатларнинг пайдо бўла бошлаганлиги, йирик тўқимачилик корхоналарининг кўпайиб бориши сабабли маҳаллий тўқимачилик дастгоҳлари касодга учраганлиги ҳақидаги маълумотлар ўша давр муаллифларининг асарларида ҳам акс этган.

“Туркестанские ведомости” газетасининг бош муҳаррири бўлиб ишлаган Н. А. Маев 1875 ва 1878 йилларда ўтказилган Ҳисор экспедициясида қатнашган. Унинг “Бухоро хонлиги очерклари”да Сурхон воҳасида яшовчи ўзбеклар ва Шеробод, Шаҳрисабз, Қарши, Китоб, Ғузор, Бойсун, Термиз шаҳарларининг географик жойлашуви, аҳолининг ҳўжалик турларига оид маълумотлар мавжуд [11]. Муаллифнинг таъкидлашича: “Шеробод беги кўрғони уч қатор мудофаа деворлари билан ўралган. Бекнинг уйи қалъанинг марказида бўлиб, ўзига хос кичкина мудофаа истехкомидир. Амалдаги бек баланд тепалик устида меҳмонхона биносини қурган бўлиб, у ердан бутун шаҳарнинг қиёфаси кўриниб туради”. Ушбу муаллиф томонидан Ҳисор, Шеробод, Бойсун бекликлари аҳолисининг турмуш тарзига оид тадқиқотида озик-овқатлар тўғрисида ҳам баён этган [12]. А. Шишов XX аср бошларида тожик халқининг таомлари ва ичимликларини ўрганган бўлса [13], Н. А. Фридрих эса Бухоро амирлиги аҳолисининг меҳмондўстлиги, миллий таомларидан палов ва унинг турлари, турли хил ширинликлар ва қандолатчилик маҳсулотларининг тайёрлаш усулларини батафсил баён этган. Ушбу асарлар Жанубий Ўзбекистон аҳолисининг анъанавий таомларини қиёсий ўрганишда муҳимдир [14].

И. И. Гейер томонидан Қарши, Шеробод бекликлари аҳолисининг қишлоқ ҳўжалиги экинлари, етиштирилган мева ва сабзавотлар ҳамда улардан тайёрланадиган озик-овқатлар, ошхона идишлари ҳақида

баён этилган [15]. Шунингдек, ҳарбий муҳандис А. Г. Ананьев рисоласида Сурхон воҳасини суғориш тизими, яъни Термизда Паттакесар қишлоғига сув келтириш, ҳарбийлар учун шароитни таъминлаш, озик-овқат масаласини ҳал этиш ва рус фуқароларини кўчириш масалалари ёритилган [16].

Иккинчи гуруҳ адабиётларига оид маълумотлар подшо Россияси даврини қамраб олади. Юқорида келтирилган манбаларни ўрганиб, шундай хулосага келиш мумкин, уларнинг умумий хусусияти шундаки, барчаси асосан подшо Россиясининг ташқи сиёсати таъсирида ёзилган махсус ҳисоботлар бўлиб, империянинг сиёсий, иқтисодий ва ҳарбий манфаатларига хизмат қилган. Улар орасида Туркистон ўлкаси аҳолиси моддий маданиятини кенг кўламда тадқиқ этувчи махсус ишлар мавжуд эмас.

Умуман олганда, юқоридаги асарлар, ҳарбийлар, сайёҳлар, давлат амалдорлари томонидан жамланган бўлиб, илмий таҳлил услубларига эга бўлмаган, асосан аҳолининг турмуш тарзи, бошқарув тизими, иқтисодий ҳаёти ва сиёсий жараёнлари ҳамда урф-одатлари тўғрисидаги шахсий кузатишлари асосидаги маълумотларни келтирган.

ХУЛОСА (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Хулоса қилиб айтганда, мақола XIX аср охири – XX аср бошларига оид подшо Россияси манбаларида Жанубий Ўзбекистон аҳолисининг моддий маданияти қандай ёритилганини манбашунослик нуктаи назаридан таҳлил қилди.

Тадқиқот натижалари шуни кўрсатдики, “Туркистон тўплами” ва Н.А. Маев каби тадқиқотчиларнинг асарлари, гарчи асосан Россия империясининг сиёсий ва ҳарбий манфаатларига хизмат қилган махсус ҳисоботлар бўлса-да, улар минтақа этнологияси учун ноёб фактик маълумотларни сақлаб қолган. Аниқланган маълумотлар ҳунармандчилик (кулолчилик), тўқимачилик (олача матоси) ва анъанавий таомлар (палов) каби соҳаларни қамраб олиб, капиталистик

муносабатлар таъсирида маҳаллий ишлаб чиқаришда юз берган инқирозни ҳам қисман акс эттиради. Асосий хулоса шуки, бу асарлар илмий таҳлил услубларига эга бўлмаса-да, Жанубий Ўзбекистон

аҳолисининг моддий маданиятини этнологик жиҳатдан қиёсий ўрганиш учун муҳим дастлабки асос бўлиб хизмат қилади.

АДАБИЁТ ВА МАНБАЛАР РЎЙХАТИ (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES):

1. Ўзбекистон Республикаси: энциклопедия. Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2006. – Б. 162.
2. Краузе И. О. Туземные и русские маслобойные заводы в Ташкенте // Туркестанский сборник. Вып. 2. – СПб., 1872. – С. 203–205. Ўша муаллиф. Заметка о винокуренном производстве в Ташкенте // Туркестанский сборник. Вып. 2. – СПб., 1872. – С. 197–202.
3. Парамонова И. А. О кожевенном производстве в Туркестанском крае // Русский Туркестан. Вып. 2. – М., 1872. – С. 218–225. Ўша муаллиф. Чугунно-литейно производство // Русский Туркестан. Вып. 2. – М., 1872. – С. 225–227.
4. Кушакевич А. А. О гончарном производстве в Ходжентском уезде // Русский Туркестан. Вып. 2. – М., 1872. – С. 194–197.
5. Гребенкин А. Д. Узбеки // Русский Туркестан. Вып. 2. – М., 1872. – С. 51–110.
6. Маев Н. А. Очерки Бухарского ханства. Ежегодник. – СПб., 1879. Вып. V. – 382 с. Покотило Н. Н. Отчёт о поездке в пределы Центральной и Восточной Бухары в 1886 г. – Ташкент, 1888. – 168 с. Покотило Н. Н. Путешествие в Центральную и Восточную Бухару 1886 году // Записки Русского географического общества. – СПб., 1889. – С. 480–502. Васильев С. Статистические материалы для описания Бухары. Бекство Ширабадское и часть Байсунского // СМА. – СПб., 1894. Вып. LVII. – С. 399–402. Галкин М. Военно-статистический очерк средней и южной частей Сурханской долины // СМА. – СПб., 1894. Вып. LVII. – С. 380–381. Бродовский М. И. Техническое производство в Туркестанском крае. – СПб., 1875. – 40 с. Кун А. Л. Очерк Шахрисабзского бекства // ЗРГО. Т. VI. – СПб., 1880. – С. 219–220. Краузе И. О винограде и винодели в Туркестанском крае // Туркестанские сборник. – СПб., 1873. Краузе И. О косметических средствах туземцев Туркестанского края // Материалы для статистики Туркестанского края. Вып. 2. – СПб., 1873. Наливкин В. П., Наливкина М. Очерки быта женщины оседлого туземного населения Ферганы. – Қозон: 1886. – 245 с. Грулев М. В. Аму-Дарья. – Ташкент, 1900. – 92 с. Гейер И. И. Путеводитель по Туркестану. – Ташкент, 1901. Губаревич-Радобилский А. Экономический очерк Бухары и Туниса. – СПб., 1905. – 201 с. Шишов А. Пища и напитки // Таджики. – Т., 1910. Фридрих Н. А. Бухара. Этнографический очерк. – СПб., 1910. Харузин Н. Н. История развития жилища у кочевых и полукочевых тюркских и монгольских народностей России. – М.: “А. А. Левенсонъ”, 1896. – 128 с. Мирза Салимбек. Тарих-и Салими. – Ташкент: Академия, 2009. – 330 с. Ананьев А. Г. Орошение Шерабадской долины водами реки Сурхана. – Ташкент, 1911. – 56 с.
7. Харузин Н. Н. История развития жилища.... – С. 1–54.
8. Гребенкин А. Д. Ремесленная деятельность таджиков Зеравшанского округа. Ежегодник. – СПб., 1873. Вып. II. – С. 512.
9. Ўзбекистон Марказий Архив (Ўз МА). Жамғарма-596, 1-ёзув, 3-иш, 40-варақ.
10. Логофет Д. Н. Бухарское ханство под русским протекторатом. – СПб., 1911. Т. 1. – С. 270–273, 275–276. Хорошхин А. П. Сборник статей, касающихся до Туркестанского края. – СПб., 1876.
11. Маев Н. А. Очерки Бухарского ханства. Ежегодник. – СПб., 1879. Вып. V. – 382 с.

12. Маев Н. А. Бухоро хонлиги очерклари. – Т.: “Fan va texnologiya”, 2012. – Б. 83. Ўша муаллиф. Очерки Гиссарского края // Материалы для статистики Туркестанского края. Вып. V. – СПб., 1883.
13. Шишов А. Пища и напитки // Таджики. – Т., 1910. – С. 118–127.
14. Фридрих Н. А. Бухара: Этнографический очерк. – СПб., 1910. – 79 с.
15. Гейер И. И. Путеводитель по Туркестану. – Ташкент, 1901. – С. 125–133.
16. Ананьев А. Г. Шеробод воҳаси ерларини Сурхон суви ёрдамда суғориш лойиҳаси. – Т.: “Шарқ”, 2002. – 32 б.

MUSTAQILLIK YILLARIDA SURXONDARYO VILOYATIDA DINIY TASHKILOTLAR FAOLIYATI: RIVOJLANISH, BAG'RIKENGLIK VA MA'RIFAT

Xalilov Akbar Xalilovich

Surxondaryo viloyati ichki ishlar boshqarmasi xodimi

<https://orcid.org/0009-0006-8840-9663>

UDK: 94(575.1)

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston mustaqillikka erishganidan keyingi davrda Surxondaryo viloyatida diniy tashkilotlar faoliyatining rivojlanishi, huquqiy asoslar, diniy bag'rikenglik siyosati, tarixiy obidalarni qayta tiklash va diniy-ma'rifiy muassasalar faoliyati keng yoritiladi. Maqola Surxondaryoda diniy siyosatning amaliy natijalari, kadrlar tayyorlash, diniy xilma-xillik va ijtimoiy-ma'naviy barqarorlik masalalariga bag'ishlangan.

Kalit so'zlar: Surxondaryo, diniy tashkilotlar, vijdon erkinligi, Imom Termizi, masjidlar, pravoslav cherkovi, diniy ma'rifat, madaniy meros, bag'rikenglik, restavratsiya, diniy ta'lim.

Аннотация: В статье представлен комплексный обзор развития религиозных организаций Сурхандарьинской области после обретения Узбекистаном независимости, правовых основ, политики религиозной толерантности, реставрации исторических памятников, деятельности религиозных и образовательных учреждений. Статья посвящена практическим результатам религиозной политики в Сурхандарьинской области, подготовке кадров, религиозному многообразию и социально-духовной стабильности.

Ключевые слова: Сурхандарья, религиозные организации, свобода совести, Имам Термизи, мечети, Православная церковь, религиозное просвещение, культурное наследие, толерантность, реставрация, религиозное образование.

Abstract: This article provides a comprehensive overview of the development of religious organizations in Surkhandarya region after Uzbekistan gained independence, legal frameworks, religious tolerance policy, restoration of historical monuments, and

activities of religious and educational institutions. The article is devoted to the practical results of religious policy in Surkhandarya, personnel training, religious diversity, and socio-spiritual stability.

Keywords: Surkhandarya, religious organizations, freedom of conscience, Imam Termizi, mosques, Orthodox Church, religious enlightenment, cultural heritage, tolerance, restoration, religious education.

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION).

O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng diniy sohada chuqur islohotlar boshlandi. Avvalgi tuzum davrida cheklangan va nazorat ostida bo'lgan e'tiqod erkinligi, diniy tashkilotlar faoliyati va ma'naviy merosga munosabat tubdan o'zgardi. Diniy qadriyatlar milliy o'zlikning ajralmas qismi sifatida e'tirof etildi hamda davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Ayniqsa, mustaqillikning ilk yillarida qabul qilingan "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi Qonun diniy hayotning huquqiy asoslarini yaratdi va mamlakat bo'ylab diniy tashkilotlar faoliyatini tiklash uchun keng yo'l ochdi. Surxondaryo viloyati ushbu jarayonlarning yorqin namunasidir. Tarixan islom sivilizatsiyasining muhim markazlaridan biri bo'lgan bu hududda diniy tiklanish bilan birga bag'rikenglik an'analari ham yangi mazmun kasb etdi.

Masjidlar, ziyoratgohlar, qadimiy madrasalar, cherkovlar va diniy-ma'rifiy markazlar faoliyatining jonlanishi xalqning ruhiy-ma'naviy hayotiga bevosita ta'sir ko'rsatdi. Termiz shahridagi Aleksandr Nevskiy pravoslav ibodatxonasining qayta tiklanishi, yangi masjidlarning qurilishi, mavjud diniy obidalarni restavratsiya qilish bo'yicha davlat dasturlarining amalga oshirilishi diniy bag'rikenglik siyosatining

amaliy ko‘rinishidir. Shuningdek, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi va “Imom Termiziy” o‘rta maxsus islom ta’lim muassasasining tashkil etilishi diniy-ma’naviy sohadagi yuksalishni ta’minlagan omillar sirasiga kiradi.

Surxondaryo viloyatida diniy tashkilotlar faoliyatining tiklanishi nafaqat e’tiqod erkinligi ta’minlanishi, balki tarixiy merosni tiklash, diniy kadrlar tayyorlash, ma’rifat va ma’naviyatni rivojlantirish, ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlash kabi yo‘nalishlar bilan uzviy bog‘liqdir. Ushbu maqolada mustaqillik yillarida Surxondaryo viloyatida diniy tashkilotlarning rivojlanish jarayonlari, ularning huquqiy asoslari, miqyosi va amaliy natijalari ilmiy tahlil qilinadi. Shuningdek, diniy-ma’rifiy siyosatning hududdagi jamiyat hayoti va madaniy merosni asrashdagi o‘rni yoritiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLARI (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОДОЛОГИЯ / METHODS). Ushbu tadqiqotda tarixiy-qiyosiy tahlil, statistik yondashuv va manbashunoslik usullaridan kompleks tarzda foydalanildi.

Tadqiqotning manbashunoslik asosini quyidagi arxiv hujjatlari tashkil etdi:

O‘zbekiston Musulmonlari idorasining Surxondaryo viloyati vakilligi joriy arxividagi 1991–1993-yillar va 2016–2023-yillar hisobot materiallari;

Surxondaryo viloyati davlat arxivi (1091-fond, 1-ro‘yxat, 1444-ish; 2628-ish);

Surxondaryo viloyati hokimligi huzuridagi Din ishlari bo‘yicha qo‘mita vakilligi hujjatlari;

Madaniy meros agentligining viloyat boshqarmasi hisoboti (2022-yil, Termiz shahri).

Shuningdek, kontent tahlil usuli orqali Prezident qarorlari, vazirlar mahkamasi farmoyishlari, ta’lim va madaniy merosga oid hujjatlar o‘rganildi. Termizdagi Aleksandr Nevskiy pravoslav ibodatxonasining rekonstruksiya jarayonlari, Imom Termiziy Xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi faoliyati, Denovdagi “Said Otaliq” madrasasi kabi obyektlar misolida amaliy misollar tahlil qilindi.

MUHOAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). O‘zbekiston mustaqillikka erishganining ilk yillaridanoq mamlakatda dinga bo‘lgan munosabat tubdan o‘zgardi. Diniy soha o‘zbek xalqining madaniy va ma’naviy merosining uzviy qismi sifatida e’tirof etilib, uning huquqiy davlat va rivojlanayotgan fuqarolik jamiyatidagi o‘rni aniq belgilandi. Natijada, diniy va vijdon erkinligini kafolatlovchi mustahkam qonunchilik asoslari yaratildi hamda soha huquqiy himoya ostiga olindi.

Diniy tashkilotlar sonining keskin ko‘payishiga 1991-yil 14-iyun kuni qabul qilingan “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida”gi Qonun sabab bo‘ldi. Mazkur hujjat davlatning vijdon erkinligi va dinga oid siyosatini birinchi bor aniq belgilab bergan qonuniy asos edi. Misol tariqasida Surxondaryo viloyatidagi vaziyatni ko‘rish mumkin: 1991-yilda 11 ta islom diniy tashkiloti faoliyat yuritgan bo‘lsa, ikki yil o‘tib, 1993-yilda ularga qo‘shimcha ravishda 1 ta pravoslav cherkovi ham ish boshlagan [1].

1998-yil holatiga ko‘ra, Surxondaryo viloyatida 78 ta islomiy diniy tashkilot hamda 1 ta rus pravoslav cherkovi faoliyat ko‘rsatgan. Jumladan, viloyatning Termiz shahridagi Aleksandr Nevskiy pravoslav ibodatxonasi 1990-yilda o‘z faoliyatini qaytadan boshlagan. Ushbu cherkov tarixiga nazar tashlasak, 1910-yilgacha u 9-Turkiston miltiq polkiga qarashli bo‘lib, Avliya Aleksey nomi bilan yuritilgan. 1910-yilda uning nomi Aleksandr Nevskiy sharafiga o‘zgartirilgan. Sovet hokimiyati o‘rnatilgach, 1927-yildan so‘ng ibodatxona yopilib, uning qo‘ng‘iroq minorasi tez orada buzib tashlangan. Cherkovga tegishli barcha ikonalar va mulklar boshqa ibodatxonalarga tarqatib yuborilgan. Keyinchalik, binoda qurol ombori, harbiy gospital, 1960-yillarda esa sport zali joylashgan [2].

1998-yil 14-avgustda ibodatxona “Kazanskaya ikona Bojiei materi” nomi ostida Surxondaryo viloyati Adliya boshqarmasidan qayta ro‘yxatdan o‘tdi. 2000-yillarning boshlarida qurbongoh ustidagi gumbaz tiklanib, tom qismi yangilandi. Hozirda bu ibodatxonada ta’mirlash-tiklash (restavratsiya) ishlari davom etmoqda [3].

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 27-dekabrda "Termiz shahrining 2500 yilligini nishonlashga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish to'g'risida"gi qarori qabul qilindi. Ushbu qarorga binoan Hakim at-Termiziy maqbara majmuasining ganchkorlik bezaklariga 18,04 mln so'm, Kokildor ota xonaqosiga 54,06 mln so'm, Qirqqiz qal'asiga 59,42 mln so'm, Sulton Saodat majmuasiga 139,58 mln so'm va Aleksandr Nevskiy ibodatxonasiga 24,38 mln so'm mablag' ajratilib, ta'mirlash-tiklash ishlari amalga oshirildi [4].



O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001-yil 2-fevraldagi 57-F-sonli farmoyishi ijrosi doirasida 2001–2002-yillarda tarixiy va madaniy yodgorliklarni ta'mirlash uchun 270 million so'm mablag' Madaniyat ishlari vazirligi tomonidan moliyalashtirilgan [5]. Jumladan, 2004-yilda Shayx Attor Valiy, 2005-yilda Haydarqul hoji bobo maqbarasi, 2006-yilda esa Sulton Sanjar Moziy maqbaralari sharqona va zamonaviy usullarda qayta qurildi. Shayx Attor Valiy va

Sulton Sanjar Moziy ziyoratgohlaridan tushadigan mablag'lar hisob-kitobini nazorat qilish uchun maxsus mutavallilar birlashtirildi.

2006-yilda Uzun tumanida "Oltin meros" jamg'armasiga qarashli Oq Ostona bobo maqbarasida zamonaviy tahoratxona qurildi va obodonlashtirish ishlari amalga oshirildi. Muzrabot tumanida joylashgan Muzrabot ota va Cho'ponota ziyoratgohlari ham 2006-yilda obodonlashtirilib, ushbu shayxlar qabrlari ustiga maqbara va gumbazlar o'rnatildi. Qiziriq tumanidagi Takiya ota va Chilgaz ota ziyoratgohlarida ham ta'mirlash ishlari olib borildi [6].



2016-yildan 2023-yilgacha bo'lgan davrda Surxondaryo viloyatida 35 ta yangi masjid ochildi. Natijada, masjidlar soni 98 tadan 133 taga yetdi [7]. Shuningdek, viloyatda diniy xilma-xillik kengayib, Denov shahridagi "Pokrova Bojiej materi" ibodatxonasi 2022-yil 8-noyabrda Adliya boshqarmasidan ro'yxatdan o'tib, o'z faoliyatini boshladi. Yangi masjidlar Surxondaryoning deyarli barcha tumanlarida qurilgan.

2022-yilda Surxondaryo viloyatida faoliyat yuritgan 129 ta jome masjidning 126 tasiga imom-xatiblar tayinlangan bo'lib, 3 ta jome

masjidda bu lavozim bo'sh (vakant) qolgan edi. Tayinlangan 126 nafar imom-xatibning 39 nafari oliy ma'lumotga ega bo'lsa, 83 nafari o'rta maxsus ma'lumotli, 4 nafari esa O'zbekiston Musulmonlari Idorasi (O'MI) guvohnomasi asosida faoliyat yuritgan. Masjidlarda 86 nafar imom noib faoliyat ko'rsatgan bo'lib, ulardan 14 nafari oliy, 70 nafari o'rta maxsus ma'lumotli va 2 nafari O'MI guvohnomasiga ega bo'lgan [8].

Davlat rahbarining 2019-yil 17–18-oktyabr kunlari Surxondaryo viloyatiga tashrifi davomida bergan topshiriqlari ijrosi doirasida Termiz shahrida “Imom Termiziy” o'rta maxsus islom ta'lim muassasasi tashkil etildi. Ta'lim muassasasi O'zbekiston Musulmonlari Idorasi tasarrufidagi diniy ta'lim maskani bo'lib, o'rta maxsus diniy ma'lumotli islomshunos, shariat va hadis ilmlari mutaxassislari, imom-xatiblar tayyorlaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 14-fevraldagi “Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-2774-sonli qarori asosida tashkil etilgan ushbu Markazda 40 ga yaqin xodim faoliyat yuritadi. Markazning asosiy maqsadi — Islom dini taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shgan buyuk alloma Abu Iso Termiziy (Imom Termiziy) va termiziy allomalarning bebaho merosini ilmiy asosda chuqur o'rganish, xalqaro jamoatchilik o'rtasida keng targ'ib qilish, milliy-diniy qadriyatlarni asrab-avaylash va rivojlantirish hamda shu asosda yosh avlodni ezgu g'oyalar ruhida tarbiyalashdir.



Markazning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- islom dini, Qur'oni karim va hadis ilmining asl mohiyatini, hadisshunoslik maktabining ilmiy-ma'naviy asoslarini, Imom Termiziy hamda boshqa mutafakkirlar merosini har tomonlama chuqur o'rganish va keng targ'ib etish;

- yuksak insoniy g'oyalar va muqaddas qadriyatlarni ifoda etgan manbalarni tizimli tadqiq etish, ulardan diniy ta'lim, ma'naviy-axloqiy tarbiya ishlarida foydalanish maqsadida zarur darsliklar, o'quv qo'llanmalar, ilmiy-amaliy tavsiyalar va ommabop nashrlar tayyorlash;

- mafkuraviy xurujlar avj olayotgan bugungi kunda ajdodlarning ma'naviy merosini chuqur o'rganish, ulardagi ezgu g'oya va ta'limotlarni keng xalq ommasiga yetkazish va shu asosda yoshlarda sog'lom dunyoqarashni kuchaytirish;

- Imom Termiziy va boshqa buyuk allomalarning boy merosini o'rganish va targ'ib etish maqsadida xorijiy ilmiy markazlar va xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni rivojlantirish, xalqaro konferensiyalar, simpoziumlar, ko'rgazmalar, ilmiy ma'ruzalar, seminar-treninglar, tanlovlar va boshqa madaniy-ma'rifiy tadbirlar tashkil etish;

- O'zbekiston va xorijiy davlatlardagi kutubxonalar hamda qo'lyozma fondlarida saqlanayotgan termiziy allomalar va mutafakkirlarning qo'lyozma va toshbosma asarlar nusxalarini, ular haqidagi kitoblarni to'plash va ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish;
- ma'naviy merosni o'rganishda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va ilm-fan yutuqlaridan keng foydalanishga doir ilmiy ishlanma va tavsiyalar ishlab chiqish.

Markaz tomonidan xalqaro va mahalliy ilmiy jurnallar, konferensiyalar to'plamlari hamda ommaviy nashrlarda 200 dan ziyod ilmiy-ommabop maqolalar chop etilgan. 2017–2022-yillar davomida markaz ilmiy xodimlari tomonidan Termiziy va boshqa allomalarning merosiga oid 58 ta ilmiy va ommabop kitoblar, risolalar, darsliklar, sharhlar va tahqiqlar nashr qilingan. Bundan tashqari, 13 ta qo'lyozma, tahqiq va o'quv qo'llanma nashr uchun tayyorlangan.

O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasi bilan hamkorlikda “Buyuk termiziylar”,

“Jaholatga qarshi ma’rifat” va boshqa ruknlar ostida 100 dan ortiq ko’rsatuv, videorolik va radioeshittirishlar tayyorlangan. Shuningdek, markaz ilmiy xodimlari “Ekstremistik va terroristik tashkilotlarning g’arazli niyatlari va muqaddas islom dinining asl mazmun-mohiyati” va “Jaholatga qarshi ma’rifat” shiorlari ostida Surxondaryo viloyatidagi oliy ta’lim muassasalari va o’quv yurtlarida 200 dan ortiq ma’naviy-ma’rifiy uchrashuv, suhbat va targ’ibot tadbirlarini o’tkazgan.

O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 9-apreldagi PQ-4667-sonli qarori hamda Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 14-apreldagi 222-sonli qarori ijrosini ta’minlash maqsadida Denov tumanida joylashgan “Said Otaliq” madrasasida ta’mirlash-tiklash ishlari uchun respublika byudjetidan 1 milliard so’m mablag’ ajratildi. Ta’mirlash ishlari yakunlandi va mablag’ to’liq obyektga yo’naltirildi. Shuningdek, viloyat adliya boshqarmasi tomonidan 2020-yil 22-may kuni

294-sonli buyruq asosida Denov tumanidagi “Xoja Alouddin Attor” jamg’armasi tashkil etilib, guvohnoma berildi. Hozirda me’moriy obidani ta’mirlash bo’yicha toposyomka tayyorlanib, loyiha ishlari olib borilgan va obyekt homiylik asosida ta’mirlangan. Madaniy meros obyektlaridan foydalanish va ularni ijaraga berish bo’yicha 2021-yilda 1 ta obyekt — “Said Otaliq” madrasasi ijaraga topshirilgan [9].

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Umuman olganda, mustaqillikdan keyingi davr Surxondaryoda diniy hayotning qayta tiklanishi, infratuzilma va ta’lim rivoji, ziyorat turizmi hamda madaniy yodgorliklarning asrab-avaylanishi bilan xarakterlanadi. Bu esa mamlakatda diniy sohani qadriyatlar, qonuniylik va ma’rifat tamoyillari asosida rivojlantirish siyosatining hududiy miqyosda ham izchil amalga oshirilayotganidan dalolat beradi.

ADABIYOT VA MANBALAR RO’YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES):

1. O’zbekiston Musulmonlari idorasining Surxondaryo viloyati vakilligining joriy arxivi. Vakillikning 1991-1993-yillar hisobot materiallari.
2. Юсупова М.А. Православные церкви Термеза. // К истории христианства в Средней Азии (XIX-XX вв.)-Ташкент, 1998.- 145 б.
3. Surxondaryo viloyati hokimligi joriy arxivi. Din ishlari bo’yicha qo’mitaning viloyat vakili ma’lumoti.
4. Surxondaryo viloyati davlat arxivi. 1091-fond, 1-ro’yxat, 1444-ish, 13-53-varaqlar.
5. Surxondaryo viloyati davlat arxivi. 1091-fond, 1-ro’yxat, 1444-ish, 15-varaq.
6. Surxondaryo viloyati davlat arxivi. 1091-fond, 1-ro’yxat, 2628-ish, 32-34-varaqlar
7. O’zbekiston Musulmonlari idorasining Surxondaryo viloyati vakilligining joriy arxivi. Vakillikning 2016-2023-yillar hisobot materiallari.
8. O’zbekiston Musulmonlari Idorasi joriy arxivi. Ta’lim bo’limining 2022-yil hisobot materialli.
9. Madaniy meros agentligi viloyat boshqarmasi hisoboti. Termiz shahri, 2022-yil iyun.

ETNOGRAFIYA

ЭТНОГРАФИЯ ИЛМИГА ВА ЭТНОМУЗЕЙШУНОСЛИККА
БАХШИДА УМР

Очил Бўриев

Қарши давлат университети профессори<https://orcid.org/0009-0001-3431-1515>

UDK: 94(575.1)

Аннотация: Ушбу мақолада Ўрта Осиё, жумладан, ўзбек ва тожик халқлари этнографиясини ўрганишга муносиб ҳисса қўшган таниқли рус элшунос олимаси ва музейшуноси Н. А. Кисляковнинг ҳаёти ва илмий фаолияти ёритилиб, энг йирик асарларининг мазмун-моҳияти тавсифлаб берилган.

Калит сўзлар: Ўрта Осиё, Олд Осиё, этнография, музейшунослик, Санкт-Петербург (Ленинград), Душанбе, Эрон, Вахио-боло, Гарм, Тавилдара, Қоратегин, оила-никоҳ масалалари, Антропология ва этнография музейи, ўзбеклар, тожиклар.

Аннотация: В статье освещается жизнь и научная деятельность известного российского этнографа и музееведа Н. А. Кислякова, внесшего значительный вклад в изучение этнографии народов Средней Азии, в том числе узбекского и таджикского народов, раскрывается содержание и суть его наиболее значимых трудов.

Ключевые слова: Средняя Азия, Передняя Азия, этнография, музееведение, Санкт-Петербург (Ленинград), Душанбе, Иран, Вахио-боло, Гарм, Тавильдара, Каратегин, семейно-брачные вопросы, Музей антропологии и этнографии, узбеки, таджики.

Abstract: This article covers the life and scientific work of N. A. Kislyakov, a famous Russian ethnographer and museologist who made a significant contribution to the study of the ethnography of the peoples of Central Asia, including the Uzbek and Tajik peoples, and describes the content and essence of his most significant works.

Keywords: Central Asia, Near East, ethnography, museology, St. Petersburg

(Leningrad), Dushanbe, Iran, Vakhio-bolo, Garm, Tavildara, Karategin, family-marriage issues, Museum of Anthropology and Ethnography, Uzbeks, Tajiks.

КИРИШ (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). Жаҳон этнография фани тарихида Ўрта Осиё халқлари, хусусан, ўзбек ва тожик халқларининг маданияти, урф-одатлари ҳамда ижтимоий тузумларини чуқур ўрганишга улкан ҳисса қўшган кўплаб етук олимлар бор. Шундай забардаст сиймолардан бири таниқли рус элшунос олими ва этномузейшуноси Николай Андреевич Кисляков (1901–1973) ҳисобланади. Унинг илмий мероси Марказий Осиёнинг этник таркиби ва турмуш тарзини тадқиқ этишда нафақат тарихий аҳамиятга эга, балки бугунги кунда ҳам долзарб манба бўлиб хизмат қилмоқда.

Н. А. Кисляковнинг илмий фаолияти оддий ўқитувчиликдан то йирик илмий муассасалар раҳбарлигигача бўлган сермахсул даврни камраб олади. Унинг ҳаётининг катта қисми бевосита Тожикистоннинг тоғли худудларида олиб борилган экспедициялар, маданий-маърифий ишлар ва Санкт-Петербург (Ленинград) ҳамда Душанбедаги илмий изланишлар билан боғлиқ. Олимнинг диққат марказида асосан оила-никоҳ муносабатлари, патриархал-феодал тузум қолдиқлари ва қадимги диний эътиқодлар масалалари турган.

Мазкур мақоланинг асосий мақсади — Николай Андреевич Кисляковнинг ҳаёти ва илмий-ташқилотчилик фаолиятини кенг ёритиш, унинг Ўрта Осиё, айниқса, тожиклар ва қашқадарёлик ўзбеклар

этнографиясига бағишланган энг муҳим асарларининг мазмун-моҳиятини таҳлил қилиб беришдан иборат.

МУҲОКАМА (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). Ўзбеклар, асосан тожик халқи этнографияси долзарб муаммолари билан жиддий шуғулланиб, элшунослик фанига муносиб ҳисса қўшган сиймолардан бири таниқли рус элшунос олими ва этномузейшуноси Николай Андреевич Кисляков ҳисобланади (1901–1973). Олимнинг илмий асарларида Ўрта Осиё халқлари, асосан тожиклар, ўзбеклар, жумладан Қашқадарё воҳаси этнографиясига оид ҳам муҳим маълумотлар мавжуд.

Николай Андреевич Кисляков таниқли рус этнографи ва музейшуноси, Яқин ва Ўрта Шарқ, Марказий Осиё халқлари маданияти тарихчисидир. У 1901-йили 11-декабрда Санкт-Петербургда дворян оиласида туғилган. 1922–1925 йилларда Қизил Армия сафида хизмат қилган, саводхонлик мактабида ўқитувчи бўлиб ишлаган. 1932 йилда Ленинград Тарих ва тилшунослик институтининг география факультети этнография бўлимини тамомлаган. Устозлари В. Г. Богораз-Тан, И. И. Зарубин, Д. К. Зеленин, И. Н. Винников, Е. П. Кагаровлар бўлишган.

1930 йилда И. И. Зарубин ва И. Н. Винниковлар билан бирга Тожикистоннинг тоғли туманларида узоқ муддат амалиёт ўташ учун жўнаб кетишган. У ерда нафақат ўқитувчилик фаолияти билан шуғулланган, балки Ғарм ва Тавилдарада вилоят халқ таълими бўлимларига раҳбарлик қилиш, мактаб ташкил этиб, уларнинг биноларини қуриш, жиҳозлаш, маҳаллий ўқитувчиларни қайта тайёрлаш каби кўплаб долзарб вазифаларни бажаришган эди.

Ўша йиллар хўжаликнинг ярим табиий шакллари ва ибтидоий ҳаёт сақланган тоғли Тожикистонда Совет ҳокимиятини мустаҳкамлаш йиллари эди. Ва шундай оғир шароитда Николай Андреевичнинг тожикларнинг кенг оммасини саводхонлик билан таништириш, шаҳар марказларидан олисда жойлашган бу ҳудудда замонавий маданиятнинг пойдеворини қўйиш

соҳасидаги эзгу ишлари чинакам маънавий жасорат эди.

1933–1941 йилларда Н. А. Кисляков собиқ Иттифок Фанлар академиясининг Этнография институти илмий ходими бўлиб ишлаган. 1941–1943 йилларда Душанбедаги СССР Фанлар академияси Тожикистон филиали музейининг директори этиб тайинланган ва Душанбе педагогика институтида ҳам дарс берган. 1943–1945 йилларда СССРнинг Эрондаги элчихонаси ходими, 1945 йилдан – СССР Фанлар академиясининг Антропология ва этнография бўлими катта илмий ходими сифатида фаолият кўрсатган. 1946 йилдан 1950 йилгача СССР Фанлар академиясининг Ленинграддаги Антропология ва этнография музейини бошқарган, 1951–1953 ва 1957–1961 йилларда Тожикистон ССР Фанлар академияси Тарих, археология ва этнография институтининг катта илмий ходими, 1948–1973 йилларда СССР Фанлар академияси Этнография институти Ленинград бўлимининг Ўрта Осиё ва Қозоғистон сектори мудир сифатида фаолият кўрсатган.

Н. А. Кисляков тадқиқотларининг илмий йўналиши – Марказий ва Ғарбий Осиё халқларининг оила-никоҳ ва патриархал-феодал муносабатларини ўрганиш, шунингдек, бу ҳудудлар аҳолиси этник таркиби, маданияти ва турмушини, жумладан, қадимги диний эътиқод ва урф-одатларни тадқиқ этиш соҳасига қаратилган эди. У 140 тадан ортиқ илмий ишлар муаллифи. Эрон ёзувчиси Содик Ҳидоятнинг форсчадан «Найрангистон» асарини рус тилига таржима қилган (1958).

Шунингдек, Н. А. Кисляков, Марказий Осиё халқлари этнографияси билан бирга этномузейшунослик билан ҳам жиддий шуғулланган. У "Следы первобытного коммунизма у горных таджиков Вахио-боло" мавзусида номзодлик (1935), "Семья и брак у таджиков (по материалам конца XIX – начала XX в.)" мавзусида докторлик диссертациясини ёқлаган (1952). XXV Шарқшунослар халқаро конгрессида (1960), VII, IX Халқаро антрополог ва

этнографлар конгрессида (1964, 1973) қатнашган. Олим 1973 йилда Ленинградда вафот этган.

Хуллас, олимнинг юқори Қашқадарё тожиклари этнографиясига оид салмоқли мақоласида ва "XIX аср охири XX аср бошларида Бухоро хонлиги қишлоқлари ўтрок аҳолиси патриархал-феодал муносабатлари" номли йирик монографиясида Қашқадарё воҳаси аҳолиси тарихи ва этнографияси ҳақида энг муҳим маълумотлар мавжуд.

ОЛИМНИНГ ЭНГ АСОСИЙ ИЛМИЙ АСАРЛАРИ:

10. Следы первобытного коммунизма у горных таджиков Вахио-боло. Труды Института антропологии, этнографии и археологии АН СССР, т. X., Этнографическая серия, № 2, М. – Л., 1936. – 160 с.

11. Отдел Передней и Средней Азии. – ИЭ АН СССР (Соавт. Э. Г. Гиафферберг) – СЭ, 1948, № 1. – С. 207–211.

12. Очерки по истории Каратегина. К истории Таджикистана. Душанбе Ленинград, 1941 (11 изд. – Душанбе, 1954). – 224 с.

13. Население Передней Азии и его происхождение // Народы Передней Азии. – М., 1957. С. 19–50.

14. Население Передней Азии и его происхождение. Народы Передней Азии (серия «Народы мира. Этнографические очерки»), – М., 1957.

15. Хазары. – Там же. С. 107–124.

16. Жемшиды. – Там же. С. 124–133.

17. Кафиры. – Там же. С. 133–148.

18. Таджики. – Там же. С. 149–154.

19. Кашкайцы. – Там же. С. 276–283.

20. Семья и брак у таджиков (По материалам конца XIX – начала XX в.). – М. – Л., 1959. – 271 с. (ТИЭ, Науч. сб. т. 44., 1959).

21. Некоторые материалы по этнографии таджиков верховий Кашкадарьи. Труды АН Тадж. ССР., – Т. 120 (Сборник памяти М. С. Андреева), 1960.

22. Патриархально - феодальные отношения среди оседлого сельского населения Бухарского ханства в конце XIX – начала XX в. – ТИЭ, т. 74. 1962.

23. Таджики (соавт.) // Народы Средней Азии и Казахстана. – М., 1962. Т. 1; С. 528–637.

24. Сайробские таджики. – «Сов. этнография»; – 1965, № 2.

25. Проблемы семьи и брак в работе советского этнографов (По материалам Средней Азии и Казахстана). – СЭ, 1967. № 1. С. 92–104.

26. Очерки по истории семьи и брака у народов Средней Азии и Казахстана. – Л., 1969. – 240 с.

27. Наследование и раздел имущества у народов Средней Азии и Казахстана (XIX – начало XX в.). – Л., 1977. – 134 с.

ОЛИМ ҲАҚИДА АДАБИЁТЛАР:

1. Давидов А. С., Н. А. Кисляков – ИАН ТаджССР, ООН, Душанбе, 1974. № 2. С. 88–90.

2. Оранский И. М. Памяти Николая Андреевича Кислякова. (1901–1973). “Народы Азии и Африки”. 1974. № 3. С. 245–246.

3. Н. А. Кисляков – СЭ, – М., 1974. № 3. С. 186–188.

4. Библиографические очерки о деятелях общественных наук Узбекистана. Сост. Б. В. Лунин. т. 2. – Т.: Фан, 1977. – С. 387–390.

5. Николай Андреевич Кисляков // Изв. АН Тадж ССР, Отд. обществ. наук. 1974, № 2.

6. Этнография в Таджикистане. Памяти Н. А. Кислякова. – Душанбе, 1989, – 209 с.

7. Решетов А. М., Кисляков В. Н. Крупный советский этнограф и музеевед Н. А. Кисляков (К 100-летию со дня рождения) // Этнографическое обозрение, М., 2002, № 5. – С. 108–120.

8. Бакиев Р. У. Вклад Н. А. Кислякова в изучение истории и этнографии Таджикистана. Дисс... канд. ист. наук. – Душанбе, 2020.

ХУЛОСА (ЗАКЛЮЧЕНИЕ /

CONCLUSION). Хулоса қилиб айтганда, Николай Андреевич Кисляковнинг илмий фаолияти ўзбек ва тожик халқларининг этник тарихини, маданиятини ва анъаналарини ўрганишда муҳим таянч нуқта бўлиб қолаверади. Унинг тадқиқотлари бугунги кун этнографлари, тарихчилари ва музейшунослари учун қимматли методологик асос ва бой манба сифатида хизмат қилиб, минтақа халқлари ўртасидаги маданий алоқалар ва тарихий муштаракликни англашга хизмат қилади.

O'ZBEKLARDA SUVDAN FOYDALANISH VA UNDAGI BOSHQARUV TIZIMI TARIXIDAN (XIX ASR OXIRI — XX ASR IKKINCHI YARMI)

Raxmonov Faxriddin Shoymardonovich

Qarshi davlat universiteti professori, tarix fanlari doktori (DSc)

<https://orcid.org/0009-0008-1009-4540>

UDK: 94(575.1)

Annotatsiya: Ushbu maqolada XIX asr oxiri — XX asr ikkinchi yarmida o'zbeklarda suvdan foydalanishning an'anaviy usullari va undagi boshqaruv tizimi tarixi mavjud manbalar va tarixiy adabiyotlar materiallari asosida yoritib berilgan.

Tayanch so'zlar: Suv, mirob, sepma, dempa, nov, obondo, obron, arbob, poykor, juybon, varkbon, bondibon.

Аннотация: В статье на основе имеющихся источников и исторической литературы описывается история традиционных методов водопользования и систем управления водными ресурсами у узбеков в конце XIX – второй половине XX вв.

Ключевые слова: Вода, мироб, сепма, демпа, нов, обондоз, оброн, арбоб, пойкор, джуйбон, варкбон, бандибон.

Annotation: The article, based on available sources and historical literature, describes the history of traditional methods of water use and water resource management systems among the Uzbeks in the late XIX th – second half of the XX th centuries.

Keywords: Water, mirob, sepma, dempa, new, obondo, obron, arbob, poikor, juibon, warkbon, bandibon.

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). Xalqimizning qadimgi yuksak madaniyati ko'p jihatidan uning sug'orma dehqonchilik va irrigatsiya sohasidagi faoliyati hamda erishgan ajoyib yutuqlari bilan chambarchas bog'liqdir. Qadimgi suv inshootlari ota — bobolarimiz yaratgan yuksak madaniyatning irrigatsiya sohasidagi ajoyib namunasi bo'lib, ko'p asrlik tariximiz sahifalarini yanada bezaydi.

Sug'orish texnikasi taraqqiyoti tarixida oqar suv sathi dehqonchilik maydonidan past

bo'lgan joylarda suvni yuqoriga chiqarish masalasi hamma vaqt muhim ahamiyat kasb etgan. Bunday hayotiy muammoni yechish yo'lida shubhasiz amaliy izlanishlar natijasida turli xil suv ko'targich gidravlik moslamalar ham kashf etilgan. Masalan: Xorazmda balandroq yerlarni sug'orishda to yaqin kunlargacha foydalanib kelingan "sepma", "depma" va "nova" kabi usullari mana shunday qadimiy suv ko'targichlarning oddiygina turlaridan hisoblanadi.

Bunday usullar vositasida ariq bo'yida kavlangan hovuzchalardagi suv gardishli kurak va novalar bilan birmuncha balandroqqa chiqarilib, kichik — kichik dehqonchilik maydonchalarigina sug'orilgan xolos. Bunday usul bilan yer sug'orishda doimo bir kishi band bo'lib, uning sug'orish samarasi nihoyatda past darajada bo'lgan [1:22.]. Xorazmning kekxa miroblarining hisobiga ko'ra sepma usuli bilan kun bo'yi o'rtacha hisobda chorak tanob ya'ni 0,05 ga maydonni sug'orish mumkin bo'lgan.

МУНОКАМА (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). XIX asr oxiri XX asr boshlaridan Amudaryo etaklarida joylashgan yerlar 70 mingga yaqin chaqirlar yordamida sug'orilgan. S.K. Kondrashev ma'lumotiga kura har bir chig'ir g'ildiragi 1 soat davomida 268 marta aylanib, shu vaqt davomida 20 ming litrcha suvni yuqoriga ko'tarib bergan [2:32-34.]. Sug'orish mavsumida har bir chig'ir o'rtacha hisobda uch desyatinagacha yer maydoniga suv yetkazib bera olgan.

Fikrimizcha qadimgi yirik sug'orish tarmoqlari bunyod etilib, daryo vodiylari, ayniqsa adoqlarida katta-katta yer maydonlariga suv chiqarilib o'zlashtirilishi oqibatida, shubhasiz dehqonchilik yerlarining meliorativ holati yomonlashgan. Ekin dalalarining meliorativ holatini talab darajada

tutib turish shubhasiz irrigatsiya texnikasi taraqqiyotida yerlarni chig'irlar bilan sug'orishga o'tishga olib kelgan.

Y.G'ulomov Xorazmda chig'ir va charxpalaklarning paydo bo'lish tarixini xo'jalikda yormatosh — yorg'uchoqlardan qo'l tegirmoniga, keyinchalik undan aylanma harakatga asoslangan haroslarga o'tish davri bilan bog'laydi [1:34.]. Xorazmda chig'irlar bilan sug'orish V-VI asrlarga kelib chiqqanini va bunda qadimiy klassik irrigatsiyaning vatani bo'lgan Misr chig'irlaridan o'rnak olinganini faraz qiladi.

Darhaqiqat Xorazm chig'irlari o'z tuzilishi bilan Misr "soqiyasi" hamda Hindiston va Eron "charx" lariga juda o'xshagan. O'rta asrlarda har bir dehqonchilik vohalarida suv xo'jaligi bo'yicha bosh mirob boshliq o'ziga xos "jamoat ishlari mahkamasi" mavjud edi [3:44.]. Bunday mahkama yirik sug'orish tarmoqlari bosh olgan gildrouzellarning boshliqlari "Panjabegi", to'g'onlar o'rnatuvchi "varkbon" yoki "bondibon"lar; Shoxariqlarning miroblari "juybon"lar, daryoning yuqori oqimidan suvini uning quyi qismi tomon tashlovchilar "obandoz", "obron", "manquvat"lar, qishloq ariqlarining miroblari "arbob" va "poykor" va boshqalardan iborat bo'lgan.

Tarixiy ma'lumotlarga ko'ra o'rta asrlarda Buxoro tumanlarida sug'orish ishlarida viloyat qozilari boshchilik qilgan. Narshaxiyning yozishicha: 828 yilda Said Ibn Xalaf al-Balxiy ismli qonunshunos Buxoro qozisi qilib tayinlangach, yaxshi qonun va qoidalar o'rnatadi [4:42.]. Jumladan, kuchlilar zaif kishilarga zulm o'tkazmasligi uchun Shoxrud kanaliga to'g'onlar qurdirib, Buxoro suvini adolat va insof yuzasidan taqsim qilishni tavsiya etadi. Magistrat kanallarining miroblari Samarqand vohasida "ariq oqsoqol" deb yuritilgan.

XIX asr oxiri XX asr boshida birgina shu vohada suv xo'jaligini 28 ariq "oqsoqoli", 66 bandibon va 410 shox ariq miroblari "juybon"lar boshqargan. Hukumat va dehqon jamoalari vakillaridan tashkil topgan suv xo'jaligining bunday ixcham va tadbirkor mahalliy ma'muriyati yirik sug'orish tarmoqlarining bosh to'g'onlarini tiklash, suv o'pirib ketgan

sohillar bo'ylab dambalar o'rnatish, sug'orish tarmoqlarini loyqadan tozalash va suvni navbat bilan taqsimlash, ortiqcha suv va zahoblarni zahkashlar orqali partovlarga chiqarib yuborish kabi sug'orish va melioratsiya ishlarini tashkil etishda va ularni amalga oshirishda boshchilik qilgan [5:20.].

Ariq oqsoqoli, mirob yoki to'g'onni bir tomondan shu nom bilan ataluv chining lavozimi bo'lsa, ikkinchi tomondan, bu uning bilimi va tajribasi uchun berilgan unvon ham edi. Mirob ma'lum bir ariqdagi suvni haydab kelish va uni suvdan foydalanuvchilarga bo'lib berish, tashkiliy ishlar (ariq qazish, ariq tozalash, inshoot qurish va ta'mirlash) dehqonlarga yaqindan yordam berish, ularni shu ishlarga tashkil qilish ishlari bilan shug'ullangan [6.].

Mirobning xizmat vazifasi uning maxsus amaliy bilim va tajribalardan tashqari shariat-odat qonun-qoidalaridan xabardor, odamlarning boshini qovushtirib ishlatish kulidan keladigan ish boshi ham bo'lishi kerak bo'lgan. Ariq oqsoqoli odatda bir nechta qishloq yerlariga suv beradigan yirik kanal (ariq) boshida turgan, uning kul ostida bir nechta miroblar o'z ariqlarida ish boshchilik qilganlar.

Ariq oqsoqollari lavozimiga eng ob ruli va ish bilarmoni tanlab olingan va saylangan. "To'g'onchi" lik, ya'ni "to'g'on qurish bilan mashg'ul bo'lishlik" alohida ahamiyat kasb etgan. Ular qo'lbola moslamalar "sepoya", "chorpoya", "qora bo'ya" kabi moslama yordami dan manbadan suv olish ishlarida bevosita rahbarlik qilganlar.

Xizmat haqlari uchun bosh miroblar davlat xazinasidan ish haqi sifatida "maosh daxyak" olar edi. Shoxariqlarning miroblari o'z haqlarini dehqonlardan yig'ib olar edi. U har yilgi hosildan mahsulot hisobidan to'lanadigan yig'im bo'lib, qishloq aholisi uni "mirobona" deb yuritilar edi.

Mirobona har bir dehqon xo'jaligidagi xirmon ko'targanda bir yoki ikki g'alvir (taxminan 8-16 kg) hajmda bo'lgan. Shunisi qizikki, har yili miroblar boshchiligida tashkil etiladigan hasharlar o'z mavsumida va qat'iy tartibda o'tkazilar edi. Feodal mulkchiligi sharoitida sug'orish ishlarini og'ir

mashaqqatidan tashqari, suvdan foydalanuvchi oddiy dehqon “qo‘sh puli”, “labaki puli”, “mirobona”, “boki puli” va “qon puli” kabi mirobchilik va hashar bilan bog‘liq bo‘lgan bir necha xil yig‘ma va jarimalarni to‘lashga majbur bo‘lgan [5:27.]. Qo‘sh puli har qo‘sh yerdan ikki tangadan, labaki puli to‘rt tangadan yig‘ib olingan. Sug‘orish tarmoqlarini loyqadan tozalash yoki suv inshootlarini tuzatish vaqtiga hasharga chiqmaganlardan “boqiy puli” jarimasi undirib olingan. U hasharda bo‘lmagan har kuni uchun ikki tanga hisobida olingan.

Magistral kanallarining bosh to‘g‘onini tiklash vaqtida jonlik so‘yib qon chiqarish uchun hasharchilardan “qon puli” yig‘ilgan. Bulardan tashqari, arboblari, poykorlar va juybonlarning xizmati uchun hatto Buxoro va Xivaning dehqon aholisi natura shaklida “juycha puli”, “chig‘ir puli”, “arbobona” kabi yig‘imlarni to‘lashga majbur bo‘lgan [5:28.]. Shunday qilib, dehqonchilik vohalarida sug‘orish ishlarini boshqaruvchi anchagina murakkab suv xo‘jaligi mavjud bo‘lib, uning tarixi shubhasiz qishloq aholisining asrlar davomida suv uchun olib borgan sermashaqqat mehnatining tarixi bilan chambarchas bog‘liqdir.

Daryo suvidan uzoqda joylashgan tog‘ oldi va cho‘lga chegaradosh tumanlarda ijodkor irrigatorlar qishki kor va bahorgi yomg‘ir suvlarini to‘plash uchun sardobalar, buloq suvlari uchun qulfakli Hovuzlar, sel suvlari uchun injenerlik asosida qurilgan suv omborlari — bandlar va yer osti suvlaridan foydalanish uchun korizlar barpo etib, sug‘orish texnikasi taraqqiyotiga o‘zining salmoqli hissasini qo‘shdi. Sug‘orish inshootlarini qurishda qadimgi irrigatorlar oqimning dinamik va bosim kuchlarini hisobga olgan xolda murakkab texnikaviy masalalarni aniq injenerlik hisobi asosida ijodkorona yechishga harakat qildi. Hali sement ixtiro etilmagan o‘rta asrlardayoq binokor irrigatorlar suv va namlikka chidamli maxsus gidravlik qurilish qorishmalarini kashf etib, suv inshootlari va bino poydevorlarini qurishda va kanalizatsiya quvurlarini yotqizishda ulardan keng foydalandi.

Shubhasiz, bu boy xalq tajribasini o‘rganish

O‘zbekistonning sug‘orish tarixi va irrigatsiya texnikasining taraqqiyot tarixi yoritib beradi. Shu bilan birga u jumhuriyatimizda irrigatsiya va melioratsiya ishlarini tubdan yaxshilashga kirishilgan hozirgi vaqtda xalq xo‘jaligi uchun muhim ahamiyatga ega. Masalan, tog‘ daralaridan oqib chiqadigan katta — kichik soylarning bahorgi sel suvlarining kichik — kichik suv omborlariga to‘plab, minglab gektar ekin maydonlarini, xususan tomorqa yerlar va bog‘larni hamda yaylovlarni sug‘orish mumkin. Qadimgi binokor ustalar kashf etgan qurilish qorishmalari hamda yuqori sifatli pishiq g‘isht tayyorlash uslublaridan me‘morchilikda, xususan tarixiy obidalarni ta‘mir etishda ishlatiladigan mahalliy qurilish materiallarini ishlab chiqarishda foydalanish mumkin. Bunday pishiq g‘isht va binokorlik qorishmalari bilan ta‘mir etilgan har 50 bir me‘moriy obidaning shubhasiz asli qiyofasi qayta tiklanibgina qolmay, balki uning umri ham ancha uzayishi mumkin.

XIX asr oxiri – XX asrning ikkinchi yarmi va undan keyinroq ham dehqonchilikda yetishtirilgan ekinlarning ustuvor joylanishi quyidagicha bo‘lgan: birinchi o‘rinda don ekinlari, ikkinchi o‘rinda bog‘dorchilik va uzumchilik uchinchi o‘rinda sabzavot va poliz, to‘rtinchi o‘rinda chorvaga kerakli bo‘lgan beda va boshqa ekinlar, beshinchi o‘rinda paxta ekini bo‘lgan [6:37.]. O‘sha davrda ham yerga mulk sifatida egalik qilish ekin turini tanlash va ekish va shu bilan barcha suvdan foydalanish muammolari hal qilishda asosiy omil hisoblangan. Avval boshida barcha o‘zlashtirilgan, shu jumladan, sug‘oriladigan yerlar ham jamoa mulki bo‘lib, ularga qabila yoki urug‘lar egalik qilganlar. Bora — bora ana shu jamoa mulklari chegarasida yerga egalikning yangi ko‘rinishlari yerga shaxsiy mulk sifatida egalik qilishning formalari yuzaga kelgan.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Bunday gidrotexnika inshootlari xalqimizning asrlar davomida sug‘orish sohasida to‘plagan juda boy intellektual tajribasi asosida bunyodga kelgan. Ularning aksariyati o‘lkamizning vodiy, tog‘oldi, tog‘lik va dashtlik yerlari tabiiy sharoitiga juda mos va o‘ziga xos

inshootlardir. Ayniqsa ularning tuzilishi va qurilishi yechimlarida har bir joyning relyefi, suv resurslarining koeffitsiyenti va undagi o'zgarishlar hisobga olingan, inshoot oqimning dinamik va bosim kuchlariga qarshi barqarorligini ta'minlash choralari kuzda

tutilgan. Shuning uchun ham asriy amaliyotlar asosida qad ko'targan bunday qadimgi suv inshootlaridan sug'orma dehqonchilikda hamda aholining ichimlik suv ta'minotida uzoq vaqt unumli foydalanilgan.

**ADABIYOT VA MANBALAR RO'YXATI
(ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА /
REFERENCES):**

1. Гуломов, Я. Ф. Хоразмнинг суғорилиш тарихи. Қадимги замонлардан ҳозиргача. — Т., 1959.
2. Кондрашев, С. К. Орошаемое хозяйство и водопользование Хивинского оазиса. — М., 1916.
3. Алексеевский, Е. Е. Орошение и осушение в странах мира. — М., 1974.
4. Абу Бакр Муҳаммад ибн Жаъфар ан-Наршахий. Бухоро тарихи. — Т., 2024.
5. Муҳаммаджонов, А. Ўзбекистоннинг қадимги гидротехника иншоотлари. — Т., 1997.
6. Дала ёзувлари. Муборак тумани, Қарлик, Касби тумани, Майманок қишлоқлари, 2024 йил.
7. Кодиров, А. Ўзбекистон ирригацияси тарихидан лавҳалар. — Т., 2001.

MUSTAQILLIK YILLARIDA SURXON VOHASI AHOLISI XO'JALIGIDAGI O'ZGARISHLAR (DEHQONCHILIK MISOLIDA)

Eshkurbonov Sirojiddin Bozorovich

*Termiz iqtisodiyot va servis universiteti dotsenti,
tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).*

sirojiddin_eshkurbonov@tues.uz

<https://orcid.org/0009-0002-5557-9227>

UDK: 94(575.1)

Annotatsiya: Ushbu maqolada mustaqillikning dastlabki yillarida o'zbek xalqi an'anaviy dehqonchilik xo'jaligining bozor iqtisodiyoti sharoitiga moslashish jarayoni Surxon vohasi misolida ko'rib chiqildi. Xususan, mustaqillikkacha yerga egalik shaklining ahvoli, salbiy oqibatlar, mustaqillikdan keyin yangicha ijtimoiy iqtisodiy jarayonlar ta'sirida bozor iqtisodiyotiga mos sohadagi o'zgarishlar o'rganildi. Mamlakatimiz qishloq xo'jaligida xo'jalik yuritishning istiqbolli uch shakli, ya'ni qishloq xo'jaligi shirkatlari, fermer xo'jaliklar va dehqon xo'jaliklar vujudga kelishining Surxon vohasi dehqonlari ijtimoiy va xo'jalik turmushiga ta'siri tahlil qilindi.

Kalit so'zlar: Dehqonchilik, islohot, bozor munosabatlari, mulkdor, tomorqa, shirkat, fermer, an'analar, zamonaviylik, daromad, moslashish.

Аннотация: В статье рассматривается процесс адаптации традиционного узбекского земледельческого хозяйства к условиям рыночной экономики в первые годы независимости на примере Сурханского оазиса. В частности, изучено состояние формы собственности на землю до обретения независимости, ее негативные последствия, изменения в сфере, соответствующие рыночной экономике, под влиянием новых социально-экономических процессов после обретения независимости. Проанализировано влияние трех перспективных форм хозяйствования в сельском хозяйстве нашей страны: сельскохозяйственных товариществ, фермерских и крестьянских хозяйств на социальную и экономическую жизнь земледельцев Сурханского оазиса.

Ключевые слова: Земледелие, реформа, рыночные отношения, собственник, приусадебный участок, ширкат, фермер, традиции, современность, прибыль, приспособление.

Annotation: This article examines the process of adapting the traditional Uzbek farming system to the conditions of a market economy in the early years of independence using the example of the Surkhan oasis. In particular, the state of land ownership before independence, its negative consequences, and changes in the sphere of a market economy under the influence of new socio-economic processes after independence were studied. The impact of the emergence of three promising forms of farming in our country, namely agricultural cooperatives, farmsteads, and peasant farms, on the social and economic life of the peasants of the Surkhan oasis was analyzed.

Key words: Farming, reform, market relations, landlord, company, farmer, traditions, modernity, income, adaptation.

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). XX asrning 90 yillarida sobiq Sovet ittifoqidan ajralib chiqqan xalqlarning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayotida o'zgarishlar yuz berdi. Jahondagi boshqa xalqlar bilan etnomadaniy aloqalarning jadallashuvi natijasida an'anaviy madaniyatlari zamonaviylashib bordi. Shuning uchun ham keyingi yillarda o'zbek xalqining an'anaviy dehqonchilik xo'jaligini o'rganish dolzarb masala hisoblanadi. Dehqonchilik qishloq xo'jaligining asosiy tarmoqlaridan biri bo'lib, aholini oziq-ovqat, sanoatni xom-ashyo, chorvachilikni esa yem-xashak bilan

ta'minlaydi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLARI (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОДОЛОГИЯ / METHODS).

Mustaqillik yillarida o'zbek xalqining xo'jalik madaniy an'analari, uning rivojlanishi, mintaqaviy xususiyatlariga bag'ishlangan bir qancha tadqiqotlar mavjudki, ularda dehqonchilik xo'jaligi haqida ma'lumotlar keltiriladi. Xususan, S.N.Tursunov, E.O.Qobilov, U.S.Abdullayev, A.A.Ashirov, O.Bo'riyev, F.SH.Raxmonov, N.N.Tursunov, A.R.Qayumov, A.E.Qurbonov, Z.S.Isoqov, M.SH.Usmonov, I.Umarov va Y.A.Turdimuradovlarning tadqiqot ishlari shular jumlasidandir. "O'zbekistonning-etnografik qo'riqxonasi" nomini olgan Boysun hududini etnografik, arxeologik va folklorshunoslik yo'nalishlari asosida o'rganish uchun har yili o'tkazib kelinayotgan "Boysun bahori" xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi va 2002-2005 yillarda YUNESKO hamkorligida o'tkazilgan ekspeditsiya materiallarida S.N.Tursunov, E.A.Qobilov, H.Kichkilov, O.Bo'riyev, A.A.Ashirov, F.Rahmonov, A.Qayumov, N.Tursunov hamda A.E.Qurbonov ilmiy maqolalarida vohaning xo'jalik masalalariga oid materiallar ham mavjud.

Maqolani yozishda tarixiy-tahlil, qiyosiy-tahlil, dala ma'lumotlarini to'plash, intervyu va anketa so'rovnomalari kabi ilmiy tadqiqot metodlaridan foydalanildi.

МУНОКАМА (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). Surxon vohasining tabiati, iqlimi, tuprog'i, suv, sharoitlarining mavjudligi qadimdan bu yerda dehqonchilik bilan shug'ullanishga juda qulay bo'lgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning ta'kidlaganidek: "Surxon vohasi azal-azaldan unumdor tuprog'i, ishning ko'zini biladigan, bir yilda ikki-uch martalab hosil oladigan mirishkor dehqonlari bilan shuhrat qozonib keladi. Yurtimiz bozorlariga qishin-yozin ertani karam va sabzavotlarni, barra ko'katlarni, poliz, meva-yu uzumni, sitrus mevalarni yetkazib beradigan ham Surxondaryoning zahmatkash fermer va dehqonlaridir"[1, 280].

Mamlakatimizda ilk sug'orma dehqonchilik

arxeolog olimlarning aniqlashicha miloddan avvalgi II ming yillik boshida qadimgi Baqtriyada, ya'ni Surxon vohasida shakllangan [2, 9-16; 3, 8-32]. Hudud issiq va quruq iqlimli mintaqaga kiradi. Bu sun'iy sug'orishda paxta va subtropik ekinlar yetishtirishga mos [4, 117]. XIX asrning oxiri va XX asrning boshlarida O'rta Osiyo xalqlarida yerga egalikning meros qilib qoldirish shakli mavjud bo'lgan. Dehqonchilikda qimmatbaho ekinlarni ekishning kirib kelishi meros asosida yerga egalik qilishning yanada kuchayishiga va dehqonchilik rivojlanishiga o'z ta'sirini ko'rsatdi [5, 274]. Sobiq Sovet tuzumi davrida dehqonni yerdan, o'z mehnatining natijasidan mahrum qilish juda katta salbiy oqibatlariga olib keldi. Mulkdorlik, yerga egalik hissiyoti kamayib, umumiy manfaat yo'lida ishlovchi dehqon vujudga kelgan edi. Qariyb yetmish yil davom etgan bu sharoitda "...dehqonning ham, mehnatkashning ham xo'jayin sifatlarini birlashtirgan noyob qobiliyati tamoman yo'qotildi..." va oqibatda u "...pirovard natijalardan ko'ra oyma-oy olib boradigan maoshidan ko'proq manfaat ko'radigan yollanma ishchiga aylantirildi"[6, 23-24].

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng dehqonchilik xo'jaligi rivojlanishida yangi davr boshlanib, bozor iqtisodiyoti talablari uchun dehqonchilik an'analari moslashtirish juda muhim edi.

Sovet ittifoqidan ajralib chiqqan yangi mustaqil davlatlar sotsialistik rejalashtirishga asoslanib markazlashtirilgan iqtisodiyotni bozor iqtisodiyotiga aylantirishda o'zlariga mos modellarni tanlab oldilar. "Mulkchilik masalasini hal qilish bozorni vujudga keltirishga qaratilgan butun tadbirlar tizimining tamal toshi bo'lib xizmat qiladi", – deb ta'kidlagan edi O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I. A. Karimov [7, 43]. Barcha ishlab chiqarish vositalarini davlat tasarrufidan chiqarmasdan, xususiylashtirmasdan, yerni o'z egasiga bermasdan va turli mulkchilik shakllaridagi tovar ishlab chiqaruvchilarga keng sharoit yaratmasdan bozor iqtisodiyotiga o'tib bo'lmasligi aniq o'z isbotini topa boshladi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida

“O‘zbekiston iqtisodiyotining negizini xilma xil shakllardagi mulk tashkil etadi” [8, 18] deb yozilgan. Bu qabul qilingan “Mulkchilik to‘g‘risida”gi qonunda ham belgilab berilgan [9, 30].

O‘zbekistonda dastlabki yillarda mulkdorlar sinfini shakllantirishga keng yo‘l ochib berila boshlandi. Bu paytda dehqonlarga ham tomorqa uchun yerning mulk sifatida berilishi ayni zarurat edi. Masalan 1989 yilda respublika qishloqlarida 240 ming oilaning yeri yo‘q bo‘lib, 1,8 milliondan ko‘proq hovli esa uy-joy qurilishi va qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish uchun kengaytirishga muhtoj edi. “Respublikada haydaladigan yerlarning atigi 5 foizi shaxsiy yordamchi xo‘jaliklarga berilgan, ular qishloq xo‘jaligi yalpi mahsulotining to‘rtidan bir qismini ishlab chiqarishmoqda. Yetishtirilayotgan sabzavot, poliz ekinlari, go‘shning yarmidan ko‘prog‘i va sutning uchdan ikki qismi ular hissasiga to‘g‘ri keladi. Ko‘rinib turibdiki, respublika mustaqilligi arafasida qishloq aholisining turmush darajasi nihoyatda achinarli holatda edi”[10, 57]. Shuning uchun, ilk yillardan tomorqa uchun yerni xususiy mulk sifatida berish ishlari boshlab yuborildi.

1990 yil may oyida O‘zbekiston SSR Prezidentining “Jumhuriyat aholisining shaxsiy yordamchi xo‘jaliklaridagi mol va parrandalarni yem-xashak bilan ta‘minlash hamda ularda chorvachilik mahsulotlari yetishtirishni ko‘paytirish to‘g‘risida”gi farmoni qabul qilingandan keyin o‘sha paytga qadar yer uchastkasi va molga ega bo‘lmagan ko‘pgina qishloq oilalari yer bilan ta‘minlandi va chorva mollari sotib oldi. Surxon vohasida ham mazkur farmon asosida 1990 yili 4900 oilaga tomorqalar uchun 7100 gektardan iborat bo‘lgan yer uchastkalari ajratildi [11, 103]. Lekin shunga qaramasdan vohada deyarli 14260 oila tomorqaga ehtiyojmand bo‘lgan [12].

O‘zbekistonning qishloq xo‘jaligidagi islohotlarida eng muhim natijasi shaxsiy tomorqa xo‘jaliklarini kengaytirish, ya‘ni sug‘oriladigan yerlarni shaxsiy xo‘jaliklarga va bog‘-dala hovli uchastkalariga ajratib berish yo‘li bilan aholini amalda yer bilan ta‘minlash

bo‘ldi.

O‘zbekiston SSR Prezidenti I.A. Karimovning 1991 yil 21 yanvarda paxta maydonlaridan 108.5 ming gektar sug‘oriladigan yerlarni aholiga shaxsiy tomorqa uchun ajratib berishni haqidagi qarori qabul qilindi. Ushbu qaror asosida 1991 yilning 12 mayiga qadar Surxondaryo viloyatida 111849 oilaga 13233 gektar yer tomorqa sifatida ajratib berildi [13, 68]. Bunday tadbirlar qishloq aholisining turmush sharoitini ma‘lum darajada yaxshilanishiga va aholining shaxsiy tomorqa xo‘jaliklaridan oladigan daromadlarining o‘shishiga sabab bo‘ldi. 1991 yil oxiriga kelib, shaxsiy tomorqa xo‘jaliklarda foydalaniladigan maydonlar respublika bo‘yicha qariyb 500 ming gektarga yetdi. Shaxsiy tomorqa egalariga yordam berish, ularning manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan Respublika shaxsiy yordamchi xo‘jaliklar uyushmasi tashkil etildi.

1992-1995 yillar davomida Surxon vohasida yana 22 ming gektar yer shaxsiy tomorqalar uchun ajratilib, yersiz va kam yerli bo‘lgan dehqonlarga berildi. Bu shaxsiy tomorqa uchun berilgan yerlarning katta qismi yosh oilalarga shaxsiy xo‘jalikni shakllantirish uchun ajratildi. Vohadagi sobiq Sovet tuzumi sovxozlarning 8 ming gektar yeri shaxsiy tomorqalar sifatida dehqonlarga ajratildi [14, 72]. Ushbu yerlarning shaxsiy tomorqalar uchun berilishi dehqonlarning yerga munosabatini ijobiy tomonga o‘zgartirdi. Yer uchastkalari olgan oilalar kartoshka, sabzavot, meva, chorvachilik mahsulotlariga bo‘lgan o‘z ehtiyojlarini qondirishi bilan birga, ularni dehqon bozorlarida sotib, aholini oziq-ovqat bilan ta‘minlashga o‘z hissalarini qo‘shdi. Odamlarga qo‘shimcha sug‘oriladigan yerlarni berilishi chinakam ahamiyat kasb etdi. Yer olgan kishi daromad ola boshladi, o‘zini xo‘jayin deb, erkin va mustaqil his qildi [7, 65-56]. Shundan so‘ng, Surxon vohasi aholisining ijtimoiy va maishiy turmushida ham bir qadar o‘zgarishlar yuz berdi. Bu o‘zgarishlar avvalo yildan yilga voha dehqonlari turmush darajasini yaxshilanib borishida ko‘zga tashlandi.

Qishloq xo‘jaligida xo‘jalik yuritishning uch shakli: qishloq xo‘jaligi kooperativlari

(shirkatlari), fermer xo'jaliklar va dehqon xo'jaliklar tanlab olinib, "Qishloq xo'jaligi kooperativlari(shirkatlari) to'g'risida"gi, "Fermer xo'jaliklar to'g'risida"gi, "Dehqon xo'jaliklari to'g'risida"gi qonunlar qabul qilindi. Bugungi kunda xo'jalik yuritishning shu shakllarini va mulkka egalikni qonun bilan mustahkamlab qo'ydi. Ushbu qonunlarni hayotga joriy qilish mexanizmi ishlab chiqildi. Endilikda xo'jalik yuritishning shakli, mintaqalar sharoitiga, aholining zichligi va asosiy ekinlarning turiga qarab tanlash imkoniyati yaratildi. Jumladan, katta yerlarda paxta, g'alla yetishtirishda, aholi zich joylashgan va yer resurslari chegaralangan hududlarda qishloq xo'jaligi shirkatlari tashkil qilinishi maqsadga muvofiq deb topildi.

Avvalo shuni ta'kidlash joizki, har uchala xo'jalik yuritish turida ham asosiy ishlab chiqarish vositasi bo'lgan yer xususiy mulk bo'la olmaydi. O'zbekiston Respublikasining "Yer kodeksi"da yer davlat mulki ekanligi belgilab qo'yilgan [15, 19].

"Qishloq xo'jaligi shirkatlari to'g'risidagi qonunga ko'ra, shirkat xo'jaligining mustaqil balansida aks ettirilgan asosiy jamg'armalar, boshqa boyliklar shu shirkatning mulkidir. Shirkat a'zosi shirkatning pay mulkiga jamoa asosida egalik qiladi, lekin yetishtirgan mahsulotiga to'laonli egalik qila olmaydi. Chunki u mahsulotni shartnoma asosida faqat o'z xo'jaligiga sotishi shart.

Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar qishloq xo'jaligi shirkat xo'jaligiga belgilangan maqsadda tovar qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini yuritish uchun doimiy egalik qilishga beriladi [16, 91-93].

"Fermer xo'jaliklari to'g'risida"gi qonun mustaqil fermer xo'jaliklarining rivojlanishi uchun katta imkoniyat yaratdi. Ushbu qonunga ko'ra yer fermer xo'jaligiga ellik yilgacha berilgan, lekin o'ttiz yildan kam bo'lmagan muddatga ijaraga berilgan. Demak, fermer xo'jaligi yerga ijara asosida egalik qiladi. Fermer xo'jaliklarining maqomi o'ziga uzoq muddatli ijaraga berilgan yer tomorqalaridan foydalangan holda tovar qishloq xo'jaligi mahsuloti ishlab chiqarish bilan shug'ullanuvchi fermer xo'jaligi a'zolarining birgalikdagi faoliyatiga asoslangan, yuridik

shaxs huquqiga ega bo'lgan mustaqil xo'jalik yurituvchi subyekt qilib belgilandi.

Fermer xo'jaligining o'ziga qarashli bo'lgan mulk huquqini davlat himoyalaydi. Fermer xo'jaligi egasi shirkat xo'jaligi a'zosidan farqli tarzda yetishtirgan mahsulotiga ham egalik qiladi va uni xohlagan joyda sota oladi. Fermer xo'jaliklarida mulkka egalik qilish, undan foydalanishi va uni tasarruf etish xo'jalik a'zolari tomonidan o'zaro kelishuv asosida amalga oshiriladi [17, 169-170].

Xo'jalik yuritishning shakllaridan biri bo'lgan dehqon xo'jaliklariga yangi imtiyozlar belgilab berildi. Chunki dehqon xo'jaligining asosiy maqsadi, manfaati, ahamiyati shundan iboratki, dehqon xo'jaligi o'z mahsulotini bozorga olib chiqib, yoki o'z oilasini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlab ham davlatga va jamiyatga juda katta foyda keltiradi.

Dehqon xo'jaliklarida yerga ushbu qonunga asosan meros qilib qoldirish huquqi bilan umrbod foydalanish asosida egalik qilinishi belgilandi. Dastlab, qonun asosida dehqon xo'jaliklarining yerga egalik qilishi mumkin bo'lgan yer maydonlari cheklangan bo'lib, uning yuqori chegarasi sug'oriladigan yerlarda 0,35 gektargacha va sug'orilmaydigan yerlarda 0,50 gektargacha o'lchamda, sahro va cho'l mintaqasida esa 1 gektargacha qilib belgilangan edi.

O'ziga qarashli uy joylar, qishloq xo'jaligi ekinzorlari va ko'chatzorlari, dov-daraxtlar, mahsuldor chorva mollari, parrandalar, qishloq xo'jalik texnikasi, asbob uskunalar, transport vositalari. intellektual mulk obyektlari, shuningdek boshqa mol-mulklar, yetishtirilgan mahsulot, olingan daromad (foyda) qonunda cheklanmagan boshqa mulklar dehqon xo'jaligining mulki bo'lishi mumkin. Dehqon xo'jaligining o'z mol mulkiga bo'lgan mulk huquqini davlat himoyalaydi [18, 182-187].

Yer chinakam xo'jayiniga tegib qishloqda fermer, dehqon sektori amalda shakllandi. Natijada, 1995 yilda Surxon vohasida fermer xo'jaliklari 49,0 ming tonna paxta, 33,7 ming tonna boshqoli don, 0,04 ming tonna sholi, 5,4 ming tonna sabzavot, 0,3 ming tonna kartoshka, 3,2 ming tonna poliz, 3,1 ming

tonna ho‘l meva, 2,1 ming tonna uzum, 2,80 ming dona tuxum tayyorladi [19, 1-3].

Dehqon fermerlar tomonidan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish yildan-yilga ko‘payib, 1998 yilda 42949 tonna g‘alla, 2142 tonna makkajo‘xori, 8456 tonna uzum, 9494 tonna sabzavot, 4264 tonna boshqoq don, 289 tonna kartoshka, 6398 tonna poliz mahsulotlari, 1155 tonna go‘sht mahsulotlari ishlab chiqarilib davlatga sotildi [20, 1-13].

2019 yilda bu ko‘rsatkichlar keskin darajada o‘sganligini ko‘rishimiz mumkin. Bunga asosiy sabab qilib yuqorida ta’kidlaganimizdek, yerning o‘z egalari ga mulk sifatida berilishidir. Xususan, 2019 yilda ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining umumiy hajmda dehqonchilik mahsulotlarining ulushi 56,0 foizni tashkil etdi. Xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha tahlillar qishloq xo‘jaligi mahsulotlar umumiy hajmining 74,2 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga, 24,1 foizi fermer xo‘jaliklariga va 1,7 foizi qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri keladi. Hosil yig‘imi 2019 yilda barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 528230 tonna don va dukkakli don ekinlari (116,0 foiz), 191112 tonna kartoshka (92,7 foiz), 525719 tonna sabzavot (97,6 foiz), 55643 tonna poliz (108,0 foiz), 74881 tonna meva (97,7 foiz) va

10876 tonna uzum (104,4 foiz) yetishtirildi. Barcha hududlarda dehqonchilik mahsulotlari ishlab chiqarishning o‘sishi asosan dehqon va fermer xo‘jaliklari hisobiga bo‘lib, don ekinlari ishlab chiqarish umumiy hajmda ularning ulushi 95,7 foizni, kartoshka 99,7 foizni, sabzavot va poliz 99,1 foizni, mevalar va uzum ishlab chiqarish 98,1 foizni tashkil etdi [21, 25-26].

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, mustaqillik yillarida O‘zbekistonda dehqonchilik faoliyatini rivojlantirish maqsadida keng ko‘lamdagi ishlar amalga oshirildi. Dehqonning ijtimoiy mavqeyi sezilarli darajada oshdi. Dehqonchilik faoliyatining huquqiy asoslari yaratildi. Lekin, yerga egalikning totalitar tuzumidan qolgan shakli vohada uzoq vaqtgacha o‘zining salbiy ta’sirini o‘tkazib keldi. Bozor iqtisodiyotiga mos yangicha fikrlaydigan dehqonning vujudga kelishi uchun uzoq vaqt kerak edi. Bu albatta, sohadagi islohotlar natijasida amalga oshirila bordi. Dehqonchilik xo‘jaligining rivojlanishi va taraqqiy etishi uchun muhim siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va ma’naviy zamin yaratildi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida dehqonchilikdagi zamonaviylashuv tadbirkorlik ko‘rinishida namoyon bo‘ldi.

ADABIYOT VA MANBALAR RO‘YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES):

1. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажакимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамыз. — Тошкент: “Ўзбекистон”, 2017.- 491 б.
2. Аскарлов А.А. Абдуллаев Б.Н. Джаркутан. —Ташкент: Фан, 1983. —120 с.
3. Аскарлов А. Энг қадимги шаҳар. — Т., 2001. —24 б.
4. Қобулов Э. Сурхон воҳаси хўжалиги. Монография. — Тошкент: Академнашр, 2012. —408 б.
5. Занятие и быт народов Средней Азии (Среднеазиатский этнографический сборник, III).-Л: Наука, 1971.-282 с.
6. Петренко И. Я., Чужинов П. И. Экономика сельскохозяйственного производства. - Алма-Ата: Кайнар, 1992, -560 с.
7. Каримов И.А. Ўзбекистон иқтисодий ислохатларнинг чуқурлаштириш йўлида. — Тошкент, 1995.
8. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. — Т.: Ўзбекистон, 2019.
9. “Деҳқон ва фермер хўжаликлари фаолиятини ташкил этиш тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг қарори. 1998 йил, 22 апрел. Солиқ тўловчининг журнали, М 6 1998.

10. Каримов И. Ўзбекистон мустақилликка эришиш оstonасида. – Тошкент: “Ўзбекистон”. 2011. – 440 б.
11. Бердиев Ҳ. ва бошқалар Сурхондарё тарихидан лавҳалар – Тошкент: “Нур”. 1991.
12. Ленин байроғи. 1990 йил 26 декабрь
13. Бердиев Ҳ. Биринчи одам вилояти – Тошкент: “Нур”. 1991.
14. Раҳимов Б.С. “Ўзбекистоннинг мустақиллик йилларида ижтимоий-иқтисодий ва маданий ҳаёти (Сурхондарё вилояти мисолида 1991-2005 й.й.)”. Термиз, 2008. Тарих фан. номзоди дарж. Дисс. 189 б.
15. Ўзбекистон Республикасининг “Ер кодекси”. Ўзбекистон қишлоқ хўжалигида ислохотларни чуқурлаштиришга оид қонун, ҳукумат қарорлари ва меъёрий ҳужжатлар тўплами. Тошкент, “Ўқитувчи” 1998.
16. Қишлоқ хўжалиги кооперативи (ширкат хўжалиги) тўғрисидаги Ўзбекистон Республикасининг қонуни. Ўзбекистон қишлоқ хўжалигида ислохотларни чуқурлаштиришга оид қонун, ҳукумат қарорлари ва меъёрий ҳужжатлар тўплами. Тошкент, “Ўқитувчи” 1998.
17. Фермер хўжаликлари тўғрисидаги Ўзбекистон Республикасининг қонуни. Ўзбекистон қишлоқ хўжалигида ислохотларни чуқурлаштиришга оид қонун, ҳукумат қарорлари ва меъёрий ҳужжатлар тўплами. Тошкент, “Ўқитувчи” 1998, Б.163, 169-170.
18. Деҳқон хўжаликлари тўғрисидаги Ўзбекистон Республикасининг қонуни. Ўзбекистон қишлоқ хўжалигида ислохотларни чуқурлаштиришга оид қонун, ҳукумат қарорлари ва меъёрий ҳужжатлар тўплами. Тошкент, “Ўқитувчи” 1998, Б.182,187.
19. Сурхондарё вилоят ҳокимлиги. Иқтисодиёт ва статистика бош бошқармаси.биринчи китоб, -Термиз. 1996.
20. Сурхондарё вилоят ҳокимлиги. Иқтисодиёт ва статистика бош бошқармаси.биринчи китоб, -Термиз. 1999.
21. Ўзбекистон Республикаси давлат статистика қўмитаси, Сурхондарё вилояти статистика бошқармаси. Сурхондарё вилоятининг статистик ахборотномаси 2019 йил январь-июн ойлари якунлари бўйича. Термиз–2019, -134 б.

JIZZAX VOHASI YUZ (JUZ)LARINING DONLI TAOMLARIDA AN'ANAVIYLIK VA TRANSFORMATSION JARAYONLAR

Dulanov Otabek Yuldashevich

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Tarix va falsafa kafedrası dotsenti, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

otabekdulanov56@gmail.com

<https://orcid.org/0009-0008-1141-7475>

UDK: 39:316.334.52(091)(575.151)

Annotatsiya: Ushbu maqolada Jizzax vohasi aholisining an'anaviy taomlari etnografik jihatdan tahlil qilingan. Inson salomatligi va aqliy kamolotida muhim o'rin tutadigan taomlar xalq madaniyatining ajralmas qismi sifatida o'rganiladi. Tadqiqotda dehqonchilik va chorvadorlik madaniyatiga mansub etnik guruhlarning oziq-ovqat mahsulotlaridan foydalanishdagi farqlari, nonning turli xillari va uni tayyorlash usullari, shuningdek, taomlar bilan bog'liq marosim va urf-odatlar yoritilgan. Maqola dala yozuvlari va ilmiy adabiyotlar tahlili asosida yozilgan bo'lib, o'zbek xalqining boy moddiy madaniyatiga oid qimmatli ma'lumotlarni taqdim etadi.

Kalit so'zlar: Jizzax vohasi, an'anaviy taomlar, o'zbeklar, etnografiya, non turlari, "ko'pirtirma non", "keldirma non", "ko'mma non", "patir", qatlama, do'rmon, yuz, qatag'on, Sangzor.

Аннотация: В статье анализируется традиционная кухня жителей Джизакского оазиса с этнографической точки зрения. Пища, играющая важную роль в здоровье и психическом развитии человека, изучается как неотъемлемая часть народной культуры. В исследовании рассматриваются различия в использовании продуктов питания этносами, относящимися к земледельческим и скотоводческим культурам, виды хлеба и способы его приготовления, а также ритуалы и обычаи, связанные с едой. Статья основана на полевых заметках и анализе научной литературы и содержит ценную информацию о богатой материальной культуре узбекского народа.

Ключевые слова: Джизакский оазис,

традиционная кухня, узбеки, этнография, виды хлеба, «купиртирма нон», «келдирма нон», «кумма нон», «патир», калтама, дуърмон, юз, катагъон, сангзор.

Abstract: This article analyzes the traditional cuisine of the inhabitants of the Jizzakh oasis from an ethnographic perspective. Food, which plays an important role in human health and mental development, is studied as an integral part of folk culture. The study covers the differences in the use of food products by ethnic groups belonging to the farming and pastoralist cultures, the types of bread and its preparation methods, as well as rituals and customs associated with food. The article is based on field notes and an analysis of scientific literature and provides valuable information about the rich material culture of the Uzbek people.

Keywords: Jizzakh oasis, traditional cuisine, Uzbeks, ethnography, types of bread, "küpirtirma non", "keldirma non", "kümma non", "patir", kaltama, du'rmon, yuz, qatag'on, Sangzor.

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). Har bir xalq jamiyat taraqqiyotining ijtimoiy-iqtisodiy hamda madaniy rivojlanish jarayonida turli-tuman taomlarni yaratgan. Shubhasiz, har qanday etnos an'anaviy taomlari ham ushbu xalq turmush tarzi, avvalo xo'jalik mashg'ulotlari, milliy va diniy qarashlari asosida, mahalliy tabiiy shart-sharoitga bog'liq holda o'zgarib, rivojlanib boradi. Qolaversa, moddiy madaniyatning muhim komponentlaridan biri bo'lgan xalq an'anaviy taomlari, ularning tayyorlanish usullari, hatto taomlar bilan bog'liq an'ana va marosimlar ushbu xalq xo'jaligining yo'nalishi va etnos turmush

tarziga bog'liq holda shakllanib borgan. U yoki bu etnik jamoaning xo'jaligi hayotida, turmush tarzidagi har qanday o'zgarish uning an'anaviy taomlarida ham o'z aksini topgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLARI (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОДОЛОГИЯ / METHODS). Ilmiy adabiyotlarda o'zbek xalqi an'anaviy taomlari va ularning o'ziga xos xususiyatlari hamda taomlardagi etnik va inoetnik komponentlar masalasi ma'lum darajada yoritilgan[1:37]. Jizzax vohasi hududidagi etnik jamoalarning milliy taomlarini o'zaro qiyosiy o'rganishdan ayon bo'ladiki, o'rganilayotgan davrda xalq taomlarida an'anaviy etnik jihatlar yorqin namoyon bo'lgan. Shu bilan birga vohada an'anaviy dehqonchilik va chorvachilik xo'jalik madaniy tipiga mansub aholi taomlarida ko'plab inoetnik xususiyatlar hamda umumintaqaviy jihatlarni kuzatish mumkin edi.

MUHOAKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). XIX asrning oxiri – XX asrning birinchi yarmida vohada dehqonchilik bilan mashg'ul bo'lgan o'zbek chig'atoylar va tojiklar taomlarida asosan donli hamda sabzavotli taomlar keng o'rin olgan bo'lsa, chorvachilik bilan shug'ullangan do'rmonlar, yuzlar, qatag'onlar esa qatiq-sut, yog' va go'shtni ko'proq iste'mol qilishgan[2:271].

O'rganilayotgan vohada don va donli mahsulotlardan taom tayyorlash muhim ahamiyat kasb etgan. Yarim o'troq chorvador aholi un va yormalarni yorg'uchoqlarda tortgan bo'lsalar, o'troq aholi esa suv hamda hayvon kuchi bilan harakatga keltiriladigan tegirmonlarda tortganlar[3]. Bug'doy tog'li hududlarda lalmi usulda yetishtirilgan bo'lsa, daryo bo'ylarida va unga tutash hududlarda sug'orma usulda yetishtirilgan. Sangzor, Ko'loiy va Guralash daryosining yoqalarida donli ekinlardan ko'proq sholi yetishtirilgan[4].

Dehqonchilik mahsulotlaridan taomlar tayyorlash keng rivojlangan bo'lib, tadqiq etilayotgan davrda o'simliklardan tayyorlanadigan taomlar xilma-xilligi bilan o'ziga xos o'ringa ega bo'lgan. Chunonchi, XX asrning boshlarida vohada arpa un, jo'xori un, bug'doy un, makkajo'xori unlaridan turli

xildagi taomlar hamda nonlar tayyorlangan.

Markaziy Osiyoning boshqa xalqlari qatori Jizzax vohasida ham XIX asrning oxiri – XX asrning birinchi yarmida nonning ko'pgina turlari mavjud bo'lib, «obi non» «jizzali non», «sutli non», «patir non» «qozon patir», «yog'li non», «lochira non» kabi turlari mashhur bo'lgan. Shuningdek, vohada o'rganilayotgan davrda jo'xori unidan «zog'ora non», arpa unidan «arpa non», tariq unidan «tariq non», «tariq zog'ora», hamda kambag'al oilalar esa qurg'oqchilik kelgan yillarda kepakdan «kepak non» iste'mol qilishgan.

Vohada tandirlarning «yer tandir» hamda «devor tandir» singari turlari o'rnatilishiga qarab bir-biridan farqlangan. Masalan, «yer tandir»lar turk, qarluq, qatag'on, barlos kabi etnik guruhlarda bo'lsa, «devor tandir»lar esa o'troq aholi bo'lgan chig'atoy, xo'jalarda uchraydi. Non yopishda tandir yaxshi qizdirilib, yenglik kiyib, rapida yordamida yopiladi. Azaliy turmush tarzi chorvachilik bo'lgan yuz, do'rmon va qo'ng'irotlarning non pishirishda «tova toshlar»dan foydalanganliklari kuzatiladi.

Non pishirishda xamirturush (achitqi)dan xamirning tobiga kelishida foydalanib, vohada yuzlar, do'rmonlar, qo'ng'irotlar «ko'pirtirma non», qatag'onlar, turklar, o'shorilar, ketarilar «keldirma non», Zomin, Baxmal hamda Forish tumanlari tojiklarida esa «noni rasida» deb ataganlar[5].

Vohada non va nonning asosiy masallig'idan biri bo'lgan xamirturush bilan bog'liq o'ziga xos qator irimlar bo'lgan. Masalan, qishloqda bir kishi vafot etgan kun xamir qilingan xonadon qishloqda o'lim yana davom etmasin deb, irim qilib suprasiga xamirturush qoldirmagan. Shuningdek, shanba kuni xamirturush so'rab kelgan kishiga berilmagan. Ikki «chillali xonadon» bir-biriga chillasi tushadi deb xamirturush bermagan.

Jizzali non ham obi non singari vohada keng tarqalgan bo'lib, obi nondan farqi shundaki, xamir qorilayotganda jizza aralashtirilib qorilgan va obi non singari pishirilgan.

O'zbek-chig'atoylarda sutli non qilishda suv o'rnida sut ishlatilgan. Bu xildagi nonlarni uzoq safarga chiqqan kishilarga atayin ko'proq pishirib berilgan. Chunki quyoshda qotirilgan

sutli non suvda tez yumshagan hamda o'ziga xos tarzda mazali bo'lgan.

Patir non xamirga ishlov berish, unga qo'shiladigan masalliqalar hamda pishirish usuliga qarab sariyog'li patir, jizzali patir, qaymoqli patir, piyozli patir, sho'rva patir, chalma patir kabi xillarga bo'linadi[6]. Patir non yupqaligi hamda xamirturushsiz (ko'pchimagan)ligi bilan ajralib turadi. Shuningdek, patir nonlar yuzi to'liq nonpar bilan urib chiqiladi. Patir nonlar to'y-hashamlar va mehmonlar uchun maxsus pishirilgan[7].

Vohaning chorvador aholisi hisoblangan yuz, do'rmon va qo'ng'irotlarda dasht va tog'larda mol boqib yurgan kezlarda tandir qurishning imkoni bo'lmaydi, shu boisdan non turlaridan «ko'mma non» ham iste'mol qilganlar. Ko'mma non ham patir non kabi xamirturush qo'shilmasdan tayyorlanadi. Lekin uni roslashda biroz uzunchoqroq va qalinroq holga keltiriladi. Ko'mma nonni voha tojiklari «noni ko'moch» deb ataganlar. O'zbek qipchoqlarida ham ko'mma non ko'plab iste'mol qilingan.

O'z navbatida shuni ham aytib o'tish joizki non, kulcha va patirlardan tashqari qatlamlar ham tayyorlangan. Qatlama to'y va mehmon dasturxoni uchun qadimdan tayyorlanib kelingan bo'lib, uni tayyorlashda xamir sut yoki suvda qorilib zuvala qilinadi. So'ngra xamir o'qlov yordamida yupqa qilib yoyiladi. Yoymaning yuziga yog' (sariyog', eritilgan qo'y yog'i yoki qaymoq) surtib biroz vaqt o'rab qo'yiladi. So'ngra qatlama xamirini non kattaligida yasab, yog'da pishiriladi. Vohaning Forish, Baxmal, G'allaorol hamda Zomin tumanlaridagi qo'ng'iroq, yuz urug'larida, qolaversa, deyarli barcha hududlarda fotiha to'yida kuyov tomoni 30 tadan 60 tagacha qatlama pishirib yuborgan[8]. Baxmal tumanida yashovchi o'zbeklarda kelin nikoh to'yi va boshqa to'ylar qatlamasiz o'tkazilmagan. Shuningdek, to'ydin 3 kun oldin to'y qatlamasini pishirish uchun

«qatlama pishdi» marosimi o'tkazilgan. Qatlama pishirish uchun to'y egasining yaqin qarindosh-urug' hamda qo'ni-qo'shnilari taklif etilganlar.

Tadqiq etilayotgan davrda yupqa ham bug'doy unidan tayyorlangan. Elshunos olimlardan K.Shoniyozovni ta'kidlashicha, bu taom Markaziy Osiyoning boshqa hududlarida ham tanovul qilingan[9:100]. Xususan, Yuqori Zarafshon tojiklari yupqani «tunuk» deb nomlashgan[10:147-148].

Yupqa uchun tayyorlangan xamir shaftoli kattaligida bo'lakchalarga bo'linib, bo'lakcha xamirlarga un sepib, xamir yupqa qilib yoyiladi. Pishirishdan oldin yupqalardan un qoqib tashlanadi. Qozon ichki devorlari ozgina yog'lanib, qizdiriladi. Avval birinchi yupqaning ikki tomoni yopiladi, keyin uning ustiga ikkinchi yupqa qo'yiladi va qozonning qizigan yuzasiga ag'dariladi. So'ngra birinchi yupqaning ustiga uchinchisi qo'yiladi. Ikkinchi yupqa pishgandan keyin uchinchisi ham ag'darib qo'yiladi. Shu asosda dasta shaklda to'rtinchi, beshinchi, oltinchi hamda boshqa yupqalar pishiriladi. Mintaqada yupqani tayyorlashda yog'larning ishlatilish xiliga qarab qaymoqli yupqa, sariyog'li yupqa, shirali yupqa, piyozli yupqa kabi turlari mavjuddir[11].

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Xulosa qilib aytganda, Jizzax vohasi aholisining taomlari nafaqat turli-tuman ratsionga boyligi va rang-barangligi balki o'ziga xos etnik va lokal xususiyatlari bilan ajralib turgan. Vohada milliy taomlarni tayyorlash hamda taomlar uchun zarur bo'lgan mahsulotlarni yetishtirish bo'yicha katta amaliy tajriba to'planib, taomlar bilan bog'liq qarashlar va marosimlar ham asrlar osha o'zbek xalqining moddiy va madaniy madaniyati takomillashishiga munosib hissa qo'shib kelgan. O'z navbatida vohaga xos bo'lgan go'shtli, sutli taomlar etnohududiy jihatlari bilan ajralib turgan.

ADABIYOT VA MANBALAR RO'YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES):

1. Mahmudov K. O'zbek taomlari. –Toshkent, 1960. –B. 37.

2. Шаниязов К.Ш. К этнической истории узбекского народа. – Ташкент, 1974. – С. 271.
3. Dala yozuvlari. Zomin tumani, Achchi qishlog'i. 2024-yil.
4. Dala yozuvlari. Zomin tumani, Yettikechuv qishlog'i. 2023-yil.
5. Dala yozuvlari. 2023–2025-yillar. Zomin, Baxmal, Forish tumanlari.
6. Dala yozuvlari. Forish tumani, Garasha QFY, Koriz mahallasi. 2024-yil.
7. Dala yozuvlari. Forish tumani, Oytamg'ali qishlog'i. 2024-yil.
8. Dala yozuvlari. Baxmal tumani, Temirqadam qishlog'i. 2024-yil.
9. Шаниязов К.Ш. О традиционной пище узбеков // Этнографическое изучение быта и культуры узбеков. – Ташкент, 1972. – С. 100.
10. Материальная культура верховьев Зарафшана. – Душанбе, 1973. – С. 147–148.
11. Dala yozuvlari. Zomin tumani, Oqtosh qishlog'i. 2024-yil.

БАХШИЧИЛИК ХАЁТИМ МАЗМУНИГА АЙЛАНГАН: ЗУЛХУМОР БАХШИ ХАЁТИДАН ЛАВҲАЛАР

Наргиза Раҳматуллаева

Республика Маънавият ва маърифат маркази

Сурхондарё вилояти бўлими раҳбари

<https://orcid.org/0009-0002-0021-5611>

UDK: 94(575.1)

Аннотация: Мазкур мақолада Ўзбекистон халқ бахшиси Зулхумор Шерназарованинг бахшичилик санъатига бўлган чексиз муҳаббати ва бу йўлда босиб ўтган ҳаёт йўли батафсил ёритилади. Унинг болаликдаги илк таассуротлари, устоз-шогирд анъаналари, замонавий шароитда бахшичиликнинг ўрни ва аҳамияти каби жиҳатлар таҳлил қилинган. Шунингдек, мақолада дostonларни излаш, уларни ёзиб олиш ва нашрга тайёрлаш технологияси, бахшиларнинг жамиятдаги роли ва уларга давлат томонидан кўрсатилаётган эътибор ҳақида сўз боради.

Калит сўзлар: дoston, бахшичилик, халқ оғзаки ижоди, Зулхумор Шерназарова, дostonчилик мактаби.

Аннотация: В статье подробно описывается безграничная любовь народной бахши Узбекистана Зулхумор Шерназаровой к искусству бахши и жизненный путь, пройденный ею на этом пути. Анализируются её первые детские впечатления, традиции взаимоотношений мастера и ученика, роль и значение бахши в современных условиях. В статье также рассматривается технология поиска эпосов, их записи и подготовки к изданию, роль бахши в обществе и внимание, уделяемое им государством.

Ключевые слова: эпос, бахши, народное устное творчество, Зулхумор Шерназарова, школа эпической поэзии.

Abstract: This article describes in detail the boundless love of the folk bakhshi of Uzbekistan Zulhumor Shernazarova for the art of bakhshi and the life path she has taken on this path. Her first impressions in childhood, the traditions of the master-student relationship, the role and importance of bakhshi in modern conditions are analyzed.

The article also discusses the technology of searching for epics, recording them and preparing them for publication, the role of bakhshi in society and the attention paid to them by the state.

Keywords: epic, bakhshi, folk oral creativity, Zulhumor Shernazarova, school of epic poetry.

КИРИШ (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION).

Ушбу мақола Ўзбекистон халқ бахшиси Зулхумор Шерназарованинг бутун умрини бахшичилик санъатига бағишлаши ҳақида ҳикоя қилади. Мақолада айtilгандек, унинг бу санъатга бўлган муҳаббати етти ёшида, Қодир бахшининг куйлаётган дostonини эшитиб, юрагида пайдо бўлган. Бу мақола бахшичиликнинг ўзбек халқи тарихида тутган ўрни, унинг ёзма адабиётгача бўлган даврда халқ онгини шакллантиришдаги роли ва ҳозирги кунда давлат томонидан кўрсатилаётган эътиборини ёритиб беради. Шунингдек, у Зулхумор Шерназарованинг шахсий ҳаёти ва ижодий йўли, унинг устозларидан ўрганган сабоқлари, санъатни сақлаб қолиш ва уни ёш авлодга етказишдаги муҳим ролини тасвирлайди.

АДАБИЁТЛАР ТАҲЛИЛИ ВА МЕТОДЛАРИ (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОДОЛОГИЯ / METHODS).

Ушбу мақолани тайёрлашда адабий таҳлил ва илмий-тадқиқот методларидан фойдаланилди. Асосий манбалар сифатида халқ оғзаки ижодига оид бахшичилик дostonлари, шунингдек, Тоштемир Турдиевнинг “Шажара” ва “Фозил Йўлдош ўғли” номли китоблари ҳамда С.Турсунов ва Т.Пардаевнинг “Ўзбекистоннинг жанубий ҳудудларида номоддий маданий

тарихи” номли илмий асарларидан фойдаланилди.

МУҲОКАМА (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). Етти ёшида уйига Қодир бахши келган кунини ҳеч эсидан чиқармайди. Қодир бахши эрталабгача дoston куйлаб чикди. Қишлоқдошлари қатори митти қотмадан келган қорамағиз қизалоқ шу куни ухламай дoston эшитиб тонгни қарши олди. Бахши тинди, уйқусизликдан қизарган кўзларини ишқалаганича ҳар кунги юмуши бўлган бир сурув қўйни адирга юраги хапқирганча ҳайдаб кетди. Бу кун унинг тақдирини белгиланган кун сифатида муҳрланиб қолди.

Помир—Олойдан Урал тизма тоғларига қадар. Эдил дарёси бўйидан Хитойгача тарқалган, гўдакдан тортиб кекса одамгача завқ билан куйловчи халқнинг қадимий қўшиқлари ахир кимнингдир томонидан бадиҳа йўли билан куйлаб юборилмаганми?! Нонсиз уй бўлиши мумкин, аммо қўшиқ- сиз уй бўлмаган. Халқлар уруғ-уруғ, қабила-қабила бўлиб яшаган даврларда ҳам ўша уруғ, ўша қабилага оид маъракалари, байрамлари қўшиқ ва ўйинсиз, куй ва оҳангсиз ўтказмаганлар... Ҳар бир уруғнинг, ҳар бир қабиланинг ўзига хос қўшиғи, оҳанги бўлган ва уруғлар, қабилалар ўртасида қўшиқлар ва оҳанглар бўйича доимий мусоҳабалар бўлиб турган. Бу мусоҳаба асосан маълум тантанали кунларда ўтказилган. Энди бир тахминни ўртага ташлаш мумкин: эҳтимол. ана шундай мусоҳабалар — бугуннинг тили билан айтганда «конкурс»лар бахшиларнинг етишиб чиқишига замин ҳозирлагандир?[2]

Зулҳумор ўша куни мусобақа бўлганини тушунмаган бўлсада, аммо юрагини жиз этган бахшининг овози ва дўмбира ноласи бўлди. У шу куни қўйларни яйловга олиб чиққанда баланд овозда бахшидан эшитганларни хиргойи қилиб юрди. Бу камлик қилди. Нимадир етишмагандек бўлди. Кейинги кунларда яйловга қўлтиғига қистириб дostonлар олиб чиқадиغان бўлди. Мактабдан қайтишни, қўйларини яйловга ҳайдашни, дoston ўқишга, ўқиганини хиргойи қилишга

ошиқадиغان бўлди. Қишлоғига бахши боришини эшитадиغان бўлса, қанча узоқ бўлмасин яёв бўлсада топиб борадиغان бўлди. Терма эшитмаса, дoston ўқимаса ҳаётини маъносиз билди. Қодир бахшидан эшитган илк дostonи Зулҳуморни адабиётга ошно қилди.

Мактабида олтинчи синфга кўчганида ўқувчилар пахта йиғим теримига сафарбар қилинар эди. Ушбу сафарбарликдан Зулҳумор ҳам қолмади. Арз-додини кимга айтса ҳам, касал бўладими аммо пахта теримидан озод этилмаган. Теримда ўзини кўрсатди. Теримдан тушган биринчи терим пулига онасидан рухсат сўраб магнитофон ва бир қанча бахшиларнинг касетасини сотиб олди. Энди бахшиларни магнитофондан эшитадиغان бўлди. Бахшилар тили билан айтганда;

Зулҳуморнинг кўнгли чоғ бўлди,

Эшитгани бахши бўлди.

Ўзи яхши қиз эди,

Чайнагани саккиз эди,

Насияси нақд қиз эди.

Гапирганда ҳақ қиз эди

Кўнгли доим тўқ қиз эди

Ўз кунига бек қиз эди

Давраларда сўзлар эди

Баланд чўққи танлар эди

Яхшилиқни излар эди.

Йиллар ўтиб, Зулҳумор улғайиб, бахшиларга шогирд тушади. Бир эмас бир нечта бахшидан ушбу санъатнинг сир — асрорини ўрганади. Дастлаб 14 ёшидан Қодир бахшига шогирд тушади. Бир йилдан сўнг устози Қодир бахшининг вафоти Зулҳумор Шерназарова учун оғир зарба бўлди. Бир йил давомида ушбу мусибат исканжасида қолди, дoston куйламай қўйди.

Ўзбекистон Халқ бахшиси Хушбоқ Марданакулов Зулҳумор Шерназаровани ижодга қайтарди. Ўтган йиллар давомида Шоберди Болтаев, Абдуназар Поёновларга ҳам шогирд тушади. Устозларидан қирқ йил давомида бахшичиликнинг барча сир-асрорларини ўрганди. Халқ ичида Зулҳумор бахши деган номни олиш осон кечмади.

Айтиш керак, фольклор, шу жумладан

бахшичилик бу ўтмишнинг акс-садоси ва бу куннинг ҳам баланд овозидир. Демак, оғзаки адабиётда ёзма адабиёт намуналарида бўлгани каби асарнинг фазилатини, асарнинг қимматини бахшининг ғоявий позицияси белгилайди. Шунини айтиш керакки, дostonда бахшининг позицияси масаласи катта аҳамиятга эгадир. Халқ оғзаки ижоди асарларини яратган санъаткор унда ўзининг дунёқарашини, ҳаёт тажрибаларини, воқеаларнинг моҳиятини халқ нуқтаи назаридан туриб ифодалашга уринади. Натижада мазкур асарда халқ оммасининг объектив дунё ҳақидаги фикр-ўйлари ифодаланади.

Дostonларни бадиий тафаккурнинг маҳсули, дейдилар. Халқимизда «Муллали овул кўрқоқ, бахшили овул ботир» деган гап бор.. Агар бу гапни тарихий жиҳатдан олиб қараганимизда жамиятда ва умуман жамият тараққиётида бахшиларнинг катта роль ўйнаганини тасаввур қилиш қийин эмас. Бахшилар ўз дўмбираси билан халқнинг асрий қаҳрамонликларини, меҳнат зафарларини мадҳ этганлар, уларнинг тушкун руҳига мадад берганлар. Шу боисдан ҳам бахшиларимиз бахшичиликни “халқнинг маънавий дунёсини очмоғи, мардлик ва олижанобликни Ватанга бўлган муҳаббатни уйғотмоғи керак..Албатта бунинг учун эса бахшида туғма қобилият ва истеъдод муҳим[2].

Шуниси диққатга сазоворки, ҳукуматимиз томонидан томонидан бахшичиликка, дostonчиликка катта эътибор қаратилмоқда. Бахшичиликка қизиққан ёшларимиз учун Сурхондарёда бахшичилик санъати мактаби фаолият юритмоқда. Унда халқимизнинг 200 нафарга яқин фарзандлари таҳсил олишмоқда. Айни пайтда Зулхумор бахши Шерназарова Термиз шаҳридаги Бахшичилик мактабида катта ўқитувчи. Унинг ўнлаб шогирдлари Республика ва халқаро миқёсда ўтказилаётган турли танловларда фахрли ўринларни қўлга киритмоқда.

“Ҳеч эсимдан чиқмайди турмушга

чиққанидан кейин уйимизга мени кўргани биринчи бўлиб бахшилар ва олимлар келди. Қайнатамдан бахшичиликни ташламаслигимни илтимос қилди. Қайнатам эса уларга “турмуш ўртоғи нима деса шу бўлади”,-дейди. Дўстлик ордени соҳиби Зулхумор Шерназарова. Ҳаётимда яна бир қувончли кун 2021 йилда Президентимиздан Дўстлик ордени олган куним бўлди. Президентимиз “Сиздек аёллар кўп бўлса, кўплаб орден тақаман, Сурхон воҳасига менинг саломимни етказинг”,-деб айтган сўзи мени ғоятда руҳлантирди[4].

Бахшичилик ғоятда мураккаб иш, нафақат дostonни ёддан билиш, дўмбирани ижро этиш балки, ижро ҳам бахшининг юрагидан, қалбидан чиқиши керак. Чунки бахши эшитган одамнинг юраги сел бўлиши, этини , қалбини жунбушга келтириши керак. Булар бўлмаса у бахши эмас

Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 2018 йил 1 ноябрдаги “Халқаро бахшичилик санъати фестивалини ўтказиш тўғрисида”ги қарорига асосан Термиз шаҳрида I-Халқаро бахшичилик санъати фестивалининг ўтказилиши халқимизнинг асрий мероси бўлган бахшичиликка ва унинг намоёндаларига бўлган эътибор ва имкониятлар яратиш бериши билан биргаликда кўплаб умидли бахшиларни юзага чиқарди. Ушбу фестиваль Зулхумор Шерназарова фаолияти учун янги имкониятлар яратди.

Илмий-тарихий манбаларнинг гувоҳлик беришича, бахшилик жуда ҳам қадимий даврларга бориб тақалар экан. Модомики, Ўрта Осиёнинг энг қадимий давлатлари Бактрия, Сугдиёна, Хоразм, Марғиёна экан, бу жойларда туркий халқлар истиқомат қилганлиги, демакки, уларнинг жуда қадимий юксак маданияти бўлиб, бу маданиятнинг бир қисmini халқ ижодиёти ташкил этганлигини қайд этиб ўтмоқ керак. «Авесто» деган буюк китоб оғзаки равишда яратилган ва «Авесто»нинг илдизи Бактрияга келиб тақалади. («Авесто» — қадимги «упастха» сўзидан бўлиб, асосий

матн маъносини англатади). Бу китоб неча йиллар ва ҳатто асрлар мобайнида оғзаки ижодда шаклланиб юриб, сўнгра ёзма манбага айланган[3].

Халқ поэзиясининг руҳи шундан иборатки, инсон руҳиятини, унинг тафаккур доирасини, дунёқарашини, ҳаёт тарзини хоҳ элементар равишда бўлсин, хоҳ мукамал тарзда бўлсин, рўйирост ифодалаб беради. Шу билан бирга, оммани ўз орқасидан етаклай билади.

Сурхондарёда тўйлар бахшиларсиз ўтмайди. Бахшичиликни ҳаётини мазмунига айланган Тўйларда бахшилар қаторида ўтириб устозлари билан дoston айтди. Зулхумор бахши ҳам дoston айтганда даврадагилар чуқур ўйга тушади, ижрони жон қулоғи билан тинглайди. Тўй-у хашамлар Зулхумор бахшисиз ўтмайди. Бугунги кунда Зулхумор Шерназарова 10дан зиёд дostonларни ёддан билади. Шу бугунга қадар унинг “Олтин ковоқ”, “Юлдуз-Қундуз”, “Момогул Мостон” каби дostonлари нашр этилди.

ХУЛОСА (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Зулхумор Шерназарованинг ҳаёт йўли ва фидойилиги

бахшичилик санъатининг нафақат тарихий мерос, балки бугунги кунда ҳам тирик ва ривожланаётган санъат эканидан далолат беради. Унинг етти ёшида эшитган бир дostonи бутун тақдирини белгилаб берди. Устозларидан олган билим ва кўникмалари, шунингдек, бутун умр давомида кўрсатган меҳнати туфайли халқ орасида "Зулхумор бахши" номини олди ва ўзини бахшичиликнинг ҳақиқий вориси сифатида намоён этди.

Мақолада кўрсатилганидек, бахшичилик шунчаки дoston айтиш эмас, балки халқнинг руҳиятини, қаҳрамонлик ва мардлик фазилатларини жонлантиришдир. Зулхумор Шерназарова бу йўлда нафақат ижрочи, балки буюк анъаналарнинг давомчиси ва ёш авлодга устозлик қилувчи фидойи инсондир. Унинг Термиз бахшичилик мактабидаги фаолияти, шогирдларининг ютуқлари бу санъатнинг келажаги порлоқ эканини исботлайди.

Хулоса қилиб айтганда, Зулхумор Шерназарованинг ҳаёти бахшичилик санъатига бўлган чексиз муҳаббатнинг ёрқин намунаси бўлиб, бу қадимий меросни асраб-авайлаш ва келажак авлодларга етказишда муҳим аҳамият касб этади.

АДАБИЁТ ВА МАНБАЛАР РЎЙХАТИ (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES):

1. Турсунов С., Пардаев Т., Турсунов А., Тоғаева М. Ўзбекистоннинг жанубий ҳудудларида номоддий маданият тарихи - Тошкент: “Муҳаррир”, 2012.
2. Турдиев Т. "Шажара" – Тошкент: “Нур” ишлаб чиқариш бирлашмаси, 1978.
3. Турдиев Т. "Фозил Йўлдош ўғли" – Тошкент: Ғофур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1978.
4. Дала ёзуви. Зулхумор Шерназарова билан суҳбат, 2025 йил 10 май.
5. Ahmedova G.O'. O'zbekistonning janubiy hududlarida baxshichilik an'analarining etnomadaniy jarayonlarga ta'siri (XIX asrning ikkinchi yarmi- XXI asr boshlari). Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. –Termiz, 2022. – 151 b.

SURXON VOHASIDA MUQADDAS QADAMJOLARINING DINIY-MA'NAVIY HAYOTDAGI O'RNI

Jalilova O'g'iloy Abduqodir qizi

Surxondaryo viloyati Jarqo 'rg'on tumani 5-sonli

maktabi tarix fani o'qituvchisi

<https://orcid.org/0009-0002-0408-444X>

UDK: 94(575.1)

Annotatsiya: Ushbu maqolada Surxon vohasida sahobalar nomi bilan bog'liq ramziy va tarixiy ziyoratgohlarning diniy-amaliy hayotdagi o'rni tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida Angor, Sherobod, Oltinsoy, Uzun kabi tumanlarda joylashgan Sa'd ibn Abi Vaqqos, Abdurahmon ibn Avf, Xo'ja Hasan Ilg'oriy, Oq Ostona bobo kabi ziyorat maskanlarining shakllanish tarixi, ular bilan bog'liq xalq e'tiqodlari va marosimlari o'rganilgan. Ziyoratchilar tarkibi, haftalik tashriflar soni, ayollar, yoshlar, shifo izlovchilar va niyat egalari orasidagi ijtimoiy-diniy faoliyat namoyon bo'lgan. Shuningdek, mazkur qadamjolarining xalq orasida ruhiy taskin, davo, baraka va saodat timsoli sifatida tutgan o'rni ilmiy jihatdan yoritilgan. Ziyorat amaliyotlarining milliy qadriyatlar, marosim madaniyati hamda sog'lom e'tiqod shakllanishiga ta'siri tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: Surxon vohasi, ziyoratgoh, sahoba qadamjosi, diniy e'tiqod, xalq marosimlari, ramziy qabr, Abdurahmon ibn Avf, Sa'd ibn Abi Vaqqos, Oq Ostona bobo, ziyoratchilar an'anasi.

Аннотация: В данной статье анализируется роль символических и исторических мест паломничества, связанных с именами сподвижников в Сурханском оазисе, в религиозной и практической жизни. В ходе исследования была изучена история формирования таких мест паломничества, как Саад ибн Аби Ваккас, Абдурахмон ибн Ауф, Ходжа Хасан Илгори и Ак Астана Баба, расположенных в таких районах, как Ангор, Шерабад, Алтынсой и Узун, а также связанные с ними народные верования и обряды. Были выявлены состав паломников, количество еженедельных посещений, общественно-религиозная

активность среди женщин, молодежи, ищущих исцеления и имеющих намерения. Также была научно освещена роль этих мест в жизни народа как символа духовного утешения, исцеления, благословения и счастья. Проанализировано влияние паломнической практики на формирование национальных ценностей, ритуальной культуры и здоровых верований.

Ключевые слова: Сурханский оазис, место паломничества, могила сподвижников, религиозные верования, народные обряды, символическая могила, Абдуррахман ибн Ауф, Саад ибн Аби Ваккас, Ак Астана Баба, паломническая традиция.

Abstract: This article analyzes the role of symbolic and historical pilgrimage sites associated with the names of the companions in the Surkhan oasis in religious and practical life. During the research, the history of the formation of pilgrimage sites such as Sa'd ibn Abi Waqqas, Abdurahmon ibn Auf, Khoja Hasan Ilgori, and Ak Astana Baba, located in districts such as Angor, Sherabad, Altinsoy, and Uzun, as well as the folk beliefs and rituals associated with them, were studied. The composition of pilgrims, the number of weekly visits, socio-religious activity among women, youth, healing seekers, and those with intentions were revealed. The role of these places among the people as a symbol of spiritual comfort, healing, blessing, and happiness was also scientifically illuminated. The impact of pilgrimage practices on the formation of national values, ritual culture, and healthy beliefs was analyzed.

Keywords: Surkhan oasis, pilgrimage site, Companions' grave, religious beliefs, folk rituals, symbolic grave, Abdurrahman ibn Awf, Sa'd ibn Abi Waqqas, Ak Astana Baba,

pilgrim tradition.

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). O‘zbekiston hududi qadimdan turli diniy e‘tiqodlar, marosimlar va qadriyatlar shakllangan muqaddas maskanlardan biridir. Islom dini kirib kelganidan so‘ng bu hududda sahobalar, avliyolar va allomalarga nisbat berilgan qadamjolar, maqbaralar va ziyoratgohlar keng tarqaldi. Surxon vohasi ham ana shunday diniy-ma‘naviy muhitga boy hudud sifatida ajralib turadi. Bu vohada sahobalar nomi bilan bog‘liq uch xil ziyoratgohlarning mavjudligi — Sa‘d ibn Abi Vaqqos, Abdurahmon ibn Avf, Abu Hurayra va Xo‘ja Hasan Ilg‘oriy kabi islom tarixida muhim o‘rin tutgan shaxslar sha‘niga barpo etilgan maskanlar — xalq e‘tiqodining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

Mazkur ziyoratgohlarning ayrimlari haqiqiy tarixiy shaxslar qabrlari bilan bog‘liq bo‘lsa, boshqalari ramziy qadamjolar shaklida shakllangan. Ular asrlar davomida mahalliy aholi uchun nafaqat ibodat va duo maskani, balki ruhiy tasalli, shifo, baraka va niyatlar ijobat bo‘ladigan muqaddas joy sifatida e‘zozlanib kelinadi. Ayniqsa, Angor, Sherobod, Oltinsoy, Uzun kabi tumanlarda joylashgan ushbu ziyoratgohlar avloddan-avlodga o‘tib kelayotgan diniy-amaliy urf-odatlar, xalqona marosimlar va psixologik ehtiyojlarning yaqqol ifodasidir.

Bugungi kunda ham ushbu qadamjolar aholi hayotida faol diniy va madaniy markaz sifatida saqlanib qolmoqda. Ular haftalik va mavsumiy ziyoratlar, mushkulkushodlar, nazrlar, shifo izlash marosimlari, Qur‘on tilovatlari, hayit va xotira kunlariga xos diniy-amaliy tadbirlarning o‘tkazilishida muhim o‘rinni egallaydi. Bu jarayonlar Surxon vohasida diniy qadriyatlarning saqlanishi, milliy an‘analalar bilan uyg‘unligi va zamonaviy e‘tiqod tizimiga ta‘sirchanligi bilan ahamiyatlidir.

Mazkur tadqiqotning dolzarbligi Surxon vohasidagi sahobalar qadamjolarining diniy-ma‘naviy hayotdagi o‘rnini ilmiy asosda yoritish, ularning shakllanish jarayoni, funksiyasi va ijtimoiy ahamiyatini tahlil qilish

zarurati bilan belgilanadi. Shu asosda maqolada mavjud manbalar va kuzatuvlar asosida ushbu ziyoratgohlarning tarixiy ildizlari, amaliy vazifalari hamda ularning bugungi jamiyatdagi ahamiyati yoritiladi.

Surxon vohasidagi sahobalar nomiga nisbat berilgan ziyoratgohlarning shakllanishi, ularga doir rivoyatlar va ziyoratchilik amaliyoti haqida yozma va og‘zaki manbalar asosiy ilmiy tayanch sifatida xizmat qiladi. Arshavskaya, Rtveladze va Hakimovning “Средневековые памятники Сурхандарьи” (1982) asarida vohadagi tarixiy yodgorliklarning kelib chiqishi, o‘rta asrlarga oid diniy va arxeologik obyektlar haqida ma‘lumotlar bayon etilgan. Bu tadqiqot sahobalar qadamjolari bilan bevosita bog‘liq bo‘lmasa-da, hududdagi qadimiy ziyorat maskanlarining tarixiy kontekstini belgilashda muhim manba hisoblanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLARI (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОДОЛОГИЯ / METHODS). Mahalliy tadqiqotchilardan Mirza Pardayevning “Oltinsoy ziyoratgohlari” (2003) nomli to‘plami ziyorat joylarining rivoyatlar, xalq tasavvurlari va diniy marosimlar asosidagi tasvirini beradi (15–16; 23–24-betlar). Bu asarda Sa‘d ibn Abi Vaqqos, Abdurahmon ibn Avf va boshqa sahobalarga nisbat berilgan qadamjolar haqida mahalliy e‘tiqodlar yoritilgan.

2022–2024 yillarda Angor, Oltinsoy va Uzun tumanlarida olib borilgan dala yozuvlari ziyoratchilar tarkibi, tashrif vaqti, niyatlar turi, gender va yosh jihatlarini, e‘tiqodiy motivlar haqida amaliy materiallar to‘plash imkonini berdi. Aynan dala tadqiqotlari mavjud yozma manbalardagi tafsilotlarni to‘ldirish va zamonaviy holatni yoritishda asosiy ilmiy manba vazifasini bajargan.

Tadqiqot davomida mavzuni kompleks yoritish maqsadida bir nechta ilmiy-uslubiy yondashuvlar qo‘llanildi:

1. Etnografik kuzatuv — Angor (2022), Oltinsoy (2023) va Uzun (2024) tumanlaridagi sahoba qadamjolarida bevosita kuzatishlar olib borildi. Ziyoratchilar harakati, marosimlar, nazr va niyat amaliyotlari joyida o‘rganildi.

2. Og‘zaki tarix (oral history) usuli —

mahalliy oqsoqollar, ziyoratgoh mas'ullari, eshonlar va ziyoratchilar bilan suhbatlar o'tkazilib, rivoyatlar, tarixiy xotira va marosim mazmuni yozib olindi.

3. Deskriptiv (tasviriy) yondashuv – har bir ziyorat maskanining joylashuvi, tashriflar soni, diniy amaliyotlari, ziyoratchilar tarkibi va ijtimoiy funksiyasi tizimli tarzda qayd etildi.

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). Surxon vohasi – qadimiy tarixiy maskan bo'lib, Islom dini kirib kelganidan so'ng butun mintaqa bo'ylab turli diniy e'tiqodlar va amaliyotlar sinkretik tarzda uyg'unlashgan. Hududda nafaqat mahalliy allomalar va avliyolar qabrlari, balki Islom tarixining ulug' shaxslari – Payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v.)ning sahobalari sharafiga barpo etilgan ramziy qadamjolar silsilasi ham mavjud. Ushbu ziyoratgohlar mahalliy aholi uchun shunchaki tarixiy obyekt emas, balki faol diniy, madaniy va psixologik markazlar hisoblanadi. Aholi bu joylarga sahobalar ruhiga hurmat bajo keltirish, shuningdek, kundalik hayotdagi muammolarga ruhiy yengillik, shifo, baraka va niyat ijobatini topish umidida tashrif buyurishadi.

Tadqiqot doirasida Angor, Sherobod, Oltinsoy va Uzun tumanlarida joylashgan, bir nechta sahobalar – Sa'd ibn Abi Vaqqos, Abdurahmon ibn Avf, Abu Hurayra – hamda mahalliy avliyo Xo'ja Hasan Ilg'oriy (Bo'ri Xalifa Bobo) nomlari bilan bog'liq ramziy qadamjolar tizimli ravishda tahlil qilindi. Bu ziyoratgohlar o'ziga xos amaliyotlar va diniy motivlar bilan ajralib turadi.

Sa'd ibn Abi Vaqqos (r.a.) nomi bilan bog'liq uch xil ziyoratgohning mavjudligi bu ulug' sahobaga bo'lgan ehtiromning kuchliligi va e'tiqodning geografik tarqoqligini ko'rsatadi. Ushbu qadamjolar funksional jihatdan ko'proq shifo va hayotiy muammolarga yechim topishga ixtisoslashgan.

Angor tumanidagi bu maskan ming yillar davomida mavjud bo'lib keladi [4]. Ziyoratning eng xarakterli jihati – bu yerdagi chillaxonalaridir. Qadimdan qolgan bu amaliyotlar Islom dini bilan uyg'unlashib, unga yangicha ma'no bergan. Aholi farzand, baxt, kasalliklarga davo so'rab kelishadi. Ayniqsa, badanga so'gal, yara chiqqanlar

uchun bu joy muqaddas shifo manbai hisoblanadi [4]. Xalqona marosimlardan bo'lgan mushkulkushodlar o'tkazish, asosan, baxti ochilmagan qizlar tomonidan amalga oshiriladi, bu esa ziyoratning ijtimoiy-psixologik tasalli berish funksiyasini yaqqol ko'rsatadi.

Oltinsoy tumanidagi Sa'd ibn Abi Vaqqos qadamjosining amaliyoti ancha murakkab motivlarga ega [5]. Bu yerga asosan ruhiy zaifliklar, tushida qo'rqanlar, jinga chalinganlar, asab kasaliga yo'liqqanlar keladi [5]. Bu, ziyoratgohlarning zamonaviy tibbiyot yetib bormagan yoki mahalliy aholi tomonidan qabul qilinmagan muammolarni diniy-amaliy yo'l bilan hal qilishga urinish ekanligini bildiradi. Qabrdagi besh panja ramziy belgisi ziyoratchilarga niyatlarining ijobat bo'lishiga bo'lgan kuchli ishonchni singdiradi [5].

Sherobod tumanidagi ziyoratgohning tarixiy ildizlari Atoulla Eshon Mirxaybarga borib taqalsa-da, u XVI asrdan beri sahoba Sa'd ibn Abi Vaqqos qadamjosi sifatida e'tirof etilgan [1:110-112]. Bu holat xalq e'tiqodining egiluvchanligi va muqaddaslashtirish jarayonida tarixiy shaxslarni Islom tarixining ulug'vor shaxslari bilan bog'lash tendensiyasini namoyish etadi.

Oltinsoy tumanidagi Xo'jai Pok ziyoratgohining asosiy jozibasi uning shifobaxsh suvidir. Bu suv tarkibida fosfor, oltingugurt, temir, tuz va boshqa minerallar borligi aniqlangan bo'lib [3:15-16], bu holat diniy e'tiqodni tabiatning mo'jizasi bilan bog'lashga imkon beradi. Ziyoratga keluvchilar (yozda haftasiga 4000-5000 kishi) bu suvni bosh, bel og'rig'i, teri va asab kasalliklari kabi jismoniy xastaliklarga davo deb biladi [3:15-16]. Ziyoratchilarning ommaviy kelishi (o'rganilgan qadamjolar ichida eng yuqori ko'rsatkich) bu joyning viloyatlararo diniy turizm markazi sifatidagi ahamiyatini mustahkamlaydi.

Angordagi Abdurahmon ibn Avf qadamjosi esa asosan tuman miqyosida bo'lib, ziyorat motivlari ko'proq Qur'on tilovati, sadaqa berish va Hayit kunlari kabi xotira tadbirlarini o'tkazishga yo'naltirilgan [2].

Oq Ostona bobo ziyoratgohiga keluvchilarning asosiy e'tiqodiy motivi

farzand so‘rash, baxti ochilmagan qizlar va ishi yurishmagan kishilarning muvaffaqiyatga erishishi bilan bog‘liq [2]. Ayniqsa, qizlarning maqbarani supurish marosimi, diniy ibodatga kirib kelgan xalqona-maishiy amaliyot bo‘lib, bu harakat orqali o‘z taqdiridagi "kir"larni tozalash, baxt yo‘lini ochish ramziy ma‘nosini anglatadi.

Ziyoratgoh yaqinidagi chillaxonalar [2], qadimda ziyoratchilarning 40 kun davomida toat-ibodat bilan mashg‘ul bo‘lganligi haqidagi ma’lumotlar, bu maskanning shunchaki ziyorat joyi emas, balki chuqur ruhiy poklanish, o‘zlikni anglash va ma’naviy yangilanish markazi bo‘lganini ko‘rsatadi.

Oltinsoy tumanidagi Xo‘ja Hasan Ilg‘oriy sharafiga qilingan qadamjosiga (Bo‘ri Xalifa bobo) ziyoratchilarning e‘tiqodi, ayniqsa, yaralarning piri deb ishonilgan shaxsning qabr tuprog‘idan olib, yaralarga malham qilish amaliyotida namoyon bo‘ladi [3:23-24]. Bu amaliyot “tuproqdan shifo” topishga bo‘lgan ishonch, islomdan oldingi davrdan qolgan tabiatga sig‘inish elementlarining islomiy pardada yashashi hisoblanadi. Ziyoratga asosan turli yaralar, teri kasalliklari, pes va bez turish kabi xastaliklardan shifo izlab kelinadi

[2].

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Yurtimizda mavjud muqaddas ziyoratgohlar, maqbaralar, qadamjolar diniy va milliy qadriyatlardan sanaladi. Mazkur joylardagi amallar ham o‘zining milliy, diniy, psixologik hamda tarixiy ildizlariga ega. Ularni ilmiylik asosida chuqur o‘rganish yurtimiz ma’naviy hayotining yuksalishiga, xalq orasidagi ayrim salbiy odatlarga barham berilishi, shu bilan birga ijobiy xislat va urf-odatlarining shakllanishiga yordam beradi. Shuningdek, o‘sib kelayotgan yosh avlod ongida sog‘lom e‘tiqod, to‘g‘ri dunyoqarash, allomalarimiz merosiga nisbatan mehr-muhabbat his-tuyg‘ularini tarbiyalashga xizmat qiladi.

Surxon vohasi qadim-qadimdan qancha-qancha tarixiy voqealarni boshidan o‘tkazgan. Bu yurtda el orasida mashhur bo‘lgan tarixiy shaxslar, allomalar, avliyolar, sufiylar yashab o‘tishgan. Ularning qabrlari ustiga hurmatlari uchun maqbaralar, xonaqohlar qurilgan. Aziz avliyolarning mozorlarini, qabristonlarni ziyorat qilib turish Islom dinida savob ish sanaladi.

ADABIYOT VA MANBALAR RO‘YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES):

1. Аршавская З.А., Ртвеладзе Э.В., Хакимов З.А. Средневековые памятники Сурхандарьи. — Т.: Издательство литературы и искусство имени Г. Гулам, 1982. — С. 110-112.
2. Jo‘rayeva S. N. Surxondaryodagi muqaddas ziyoratgohlarning aholi diniy-ma’naviy hayotidagi o‘rni. Tarix fan. nomz. diss. – Toshkent, 2009. 182 – b.
3. Pardayev M. Oltinsoy ziyoratgohlari. Ona qishlog‘im. – Toshkent: Yozuvchi nashriyoti, 2003. – B. 15–16, 23–24.
4. Dala yozuvlari. Angor tumani, 2022-yil.
5. Dala yozuvlari. Oltinsoy tumani, 2023-yil.
6. Dala yozuvlari. Uzun tumani, 2024-yil.

SURXON VOHASI AHOLISI MA'NAVIY QARASHLARI VA XO'JALIK FAOLIYATIDA TANDIR VA O'CHOQNING ETNOGRAFIK TAHLILI

Muxammadiyev Zoxid Odinamuxammat o'g'li
Toshkent shahar Yunusobod tumani "SALES DOCTOR SOLUTIONS"
ma'suliyati cheklangan jamiyati mutaxassisi
<https://orcid.org/0009-0000-0398-5051>
 UDK: 94(575.1)

Annotatsiya: Ushbu maqola O'zbekiston xalqining, xususan, Surxon vohasi aholisining an'anaviy turmush tarzi, moddiy madaniyati va ma'naviy qarashlarida tandir hamda o'choqning tutgan muhim o'rnini etnografik jihatdan tahlil qiladi. Tadqiqotda mazkur oshxona anjomlarining nafaqat xo'jalikdagi amaliy ahamiyati, balki rizq-ro'z, fayz-baraka va poklik ramzi sifatidagi chuqur ijtimoiy-madaniy vazifasi ochib berilgan. Maqolada tandir turlari (o'choq tandir, devor tandir, yer tandir), ularni yasash texnologiyasi hamda qadimiy tovatoshda non yopish usullari qiyosiy o'rganiladi. Yangi tandir va o'choqni o'rnatish, ularga hurmat ko'rsatish, shuningdek, kelinlarni o'choq boshiga olib borish kabi animistik qarashlar bilan bog'liq bo'lgan maxsus urf-odatlar va iirim-siirimlar ilmiy adabiyotlar va dala tadqiqotlari asosida yoritilgan.

Kalit so'zlar: tandir, o'choq, rizq-ro'z ramzi, tovatosh, non yopish usullari, etnografiya, urf-odatlar, Surxon vohasi, ma'naviy qarashlar.

Аннотация: В данной статье анализируется важное место тандыра и очага в традиционном образе жизни, материальной культуре и духовных воззрениях народов Узбекистана, в частности Сурханского оазиса, с этнографической точки зрения. Исследование раскрывает не только практическое значение этой кухонной утвари в хозяйстве, но и их глубокую социокультурную функцию как символа пропитания, благословения и чистоты. В статье проводится сравнительное изучение видов тандыров (печной тандыр, настенный тандыр, земляной тандыр), технологии их изготовления и способов выпечки хлеба в старинных формах. На

основе научной литературы и полевых исследований освещаются особые обычаи и обряды, связанные с анимистическими воззрениями, такие как установка нового тандыра и очага, проявление уважения к ним, а также принятие невест к очагу.

Ключевые слова: тандыр, печь, символ пропитания, противень, способы выпечки хлеба, этнография, обычаи, Сурханский оазис, духовные воззрения.

Abstract: This article analyzes the important place of the tandoor and hearth in the traditional lifestyle, material culture and spiritual views of the people of Uzbekistan, in particular the Surkhan oasis, from an ethnographic perspective. The study reveals not only the practical importance of these kitchen utensils in the economy, but also their deep socio-cultural function as a symbol of sustenance, blessing and purity. The article comparatively studies the types of tandoors (oven tandoor, wall tandoor, earthen tandoor), the technology of their manufacture and methods of baking bread in ancient pans. Special customs and rituals associated with animistic views, such as installing a new tandoor and hearth, showing respect for them, as well as taking brides to the hearth, are covered on the basis of scientific literature and field research.

Keywords: tandoor, oven, symbol of sustenance, baking pan, methods of baking bread, ethnography, customs, Surkhan oasis, spiritual views.

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). Har bir xalqning ma'naviy qarashlari va moddiy madaniyati uning tarixiy taraqqiyoti, xo'jalik-iqtisodiy faoliyati hamda ijtimoiy qonuniyatlari bilan bevosita bog'liq bo'ladi. Moddiy

madaniyatning eng qadimiy va barqaror qismlaridan biri – bu anʼanaviy turmush tarzida muhim rol oʻynagan xoʻjalik vositalari, xususan, uy-roʻzgʻor anjomlaridir. Oʻzbek xalqining maishiy hayotida va taomlanish madaniyatida ming yillik tarixga ega boʻlgan tandir va oʻchoq alohida oʻrin tutadi. Ushbu anjomlar faqatgina non yopish yoki ovqat pishirish kabi amaliy funksiyani bajaribgina qolmay, balki chuqur ramziy, marosimiy va animistik maʼnolarni ham oʻzida mujassam etgan.

Maqolaning dolzarbligi shundaki, globallashuv va urbanizatsiya sharoitida qishloq xoʻjaligidagi anʼanaviy usullar va marosimiy amallar asta-sekin yoʻqolib bormoqda. Shu sababli, Surxon voʻhasi aholisi misolida tandir va oʻchoq bilan bogʻliq boʻlgan etnik, lokal udumlar, irim-sirimlar va qadimgi animistik qarashlarni ilmiy jihatdan tahlil qilish, ularni kelajak avlod uchun saqlab qolish nuqtai nazaridan gʻoyat muhimdir.

Tadqiqotning maqsadi Janubiy Surxon voʻhasi aholisining maʼnaviy qarashlari va xoʻjalik faoliyatida tandir hamda oʻchoqning tutgan oʻrnini etnografik jihatdan tahlil qilish, ularning moddiy funksiyadan tashqari rizq-roʻz, fayz-baraka va poklik ramzi sifatidagi ijtimoiy-madaniy vazifasini ochib berishdan iborat.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLARI (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОДОЛОГИЯ / METHODS).

Tadqiqotning nazariy asosi Oʻzbekistonning va xorijiy etnograflari, jumladan, K. Mahmudov, O. Boʻriyev, N. Tursunov, I. Jabborov, K. Shoniyozov, A. N. Jilina, M. Fayzullayeva hamda S. A. Tokarevning ilmiy ishlaridan iborat. Maqolaning asosiy gʻoyalarini isbotlashda va tandirning ramziy, marosimiy maʼnolarini ilmiy talqin qilishda ularning ishlari nazariy zamin boʻlib xizmat qildi.

Maqolada maqsadga erishish uchun quyidagi ilmiy metodlardan foydalanildi: tarixiy-etnografik metod (anjomlarning evolyutsiyasini oʻrganish), qiyosiy taqqoslash metod (non pishirish usullarini lokal jihatdan solishtirish), Dala Tadqiqotlari metodi (Surxondaryo viloyati Oltinsoy tumanida

oʻtkazilgan yozuvlar [8] orqali amaliy maʼlumotlarni toʻplash) va Sistemali Tahlil metodi (tandir-oʻchoq majmuasini oila hayotining barcha jabhalarida oʻzaro bogʻliq tizim sifatida koʻrish).

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). Har bir millatning maʼnaviy qadriyatlari va moddiy boyliklari ularning iqtisodiy faoliyati bilan uzviy bogʻliq boʻlib, bu ijtimoiy-tarixiy rivojlanishning asosiy qonuniyatidir. Maishiy hayotda koʻplab oshxona buyumlari zarur boʻladi. Oʻrganilayotgan hududlarda yangi oila qurganda kuyov tomonidagi yaqinlar (opasingillar, xola-ammalar) ishtirokida faqatgina tandir-oʻchoq oʻrnatilgan. Barcha boshqa oshxona anjomlari, jumladan, qozondan tortib dasturxongacha kelin tomonidan, yaʼni qizning ota uyidan olib kelingan. Oʻgʻil otonasidan alohida turmush qurganida ham, yangi xonadoniga ramziy maʼnoda qozon berish odati mavjud boʻlgan [1, 87-b.].

Tandir oshxona anjomlarining eng qadimiylaridan biri sanaladi. Ayniqsa, XIX asr oxiri – XX asr boshlarida qishloq hayotini tandirsiz tasavvur qilish mushkul edi. Etnologik manbalar koʻrsatishicha, bu davrda shaharlarda nonvoyxonalar mavjudligi sababli, shaharliklar nonga boʻlgan ehtiyojini ulardan qondirgan. Tandirdan asosan nonvoylar va somsapazlar foydalangan.

Tandir ibtidoiy davrda qanday yasalgan boʻlsa, bizgacha deyarli shunday yetib kelgan. Bu isitish anjomining azaldan qulay qilib ishlanganidan darak beradi. Buning uchun yerning 5–10 metr chuqurlikdagi tubidan, daraxtlarning tomiri yetib bormagan soz tuproq qazib olinib, tuya yoki qoʻy juni bilan aralashtirilib, qorilgan. Loyini yaxshilab pishitib, ogʻzi kichraytirilgan silindr shaklida qilib yasaladi va oftobda quritiladi. Bunda qizil tuproqli, saqich loy tanlanadi. Non tandirda yopilgan. Tandirni maxsus tandir yasovchi usta-kulollar yasagan, ushbu hunar turi ham otadan bolaga meros oʻtgan. Bu esa mazkur isitish anjomining azaldan ota-bobolarimiz tomonidan qulay qilib ishlanganidan darak beradi [2, 16-b.].

Tandir uch xil – oʻchoq-tandir, devor-tandir va yer-tandir koʻrinishida quriladi. Oʻchoq-

tandir kichik bo'lib, o'choq ichiga quriladi; bunga qozon osib, ovqat pishirish ham, devorlariga non yopish ham mumkin. Hozirda tandirning ushbu turi deyarli ishlatilmaydi, lekin Surxondaryo viloyati Oltinsoy tumani Chinor qishlog'i aholisi o'choq-tandirdan foydalanishi tadqiqotlar jarayonida aniqlandi [8].

Devorga taqab qurilgan tandir "gorizontal tandir" deb atalsa, yer-tandir esa "vertikal tandir" hisoblanadi. Chunki uning og'zi osmonga qaratilib, asosi yerga qo'yib quriladi, atrofiga g'isht terib suvaladi. Tutuni yaxshi tortilishi uchun ostidan havo kirib turishiga mo'ljallab, yerdan yarim g'isht kattaligida teshik ("kanák") qoldiriladi.

Qashqadaryo, Surxondaryo, shuningdek, Samarqand va Buxoro viloyatlarida yer-tandirlar hozir ham ishlatiladi. Vertikal tandirlar esa Toshkent viloyati va Farg'ona vodiysida keng tarqalgan. Tandir uchun eng yaxshi o'tin qurigan (o'rik, zardoli) mevali daraxtlarning butoqlari, uzumning zangi va g'o'zapoyadir. Bugungi kunda tandirni tabiiy gaz bilan qizdirib, non yopish usullari ham mavjud.

Umuman olganda, tandirdan foydalanish qozoq, qirg'iz, tojik, turkman, ozarbayjon, arman, gruzin, shuningdek, qo'shni xalqlardan uyg'ur, afg'on va eroniylarga ham xos. O'zbek pazandachiligida tandirdan nafaqat non va somsa yopishda, balki go'sht, jigar, baliq va qo'y go'shtini pishirish uchun ham foydalanilmoqda [2, 17-b.].

Chorvador qishloqlarda ham aholi yer-tandirlaridan foydalangan bo'lsa-da, cho'ponlar o'targa ketganda (mol haydab uzoq yaylovlarga ketganda) tovada [3, 92-b.] yoki qizitilgan toshda non pishirganlar [4, 51–52-b.]. Tovatosh olovda parchalanmaydigan qizil rangli tosh bo'lib, u sangtaroshlar tomonidan doira shaklida tayyorlangan. Tovatoshning qalinligi 2 sm, diametri 50–60 sm, og'irligi 8–12 kg bo'lgan. Nonlar tovatoshda bitttalab pishirilgan va tovatosh tagida olov bir me'yorda yonib turgan. Tovatosh nonlar qotib qolmagan va to'yimli hisoblangan.

K. Shoniyofov va A. N. Jilinalar 1930-yillarga qadar mamlakatimizning qipchoq, qarluq va laqay etnik urug'lari tovatoshda non

pishirganliklarini qayd etgan edi [5, 107, 119-b.]. Shuningdek, tovatosh non Surxondaryo viloyati Boysun tumani Sho'rob va Chilonzor, Sherobod tumani Xomkon qishloqlarida hozirgacha tayyorlanishi haqida M. Fayzullayeva ham ma'lumot beradi [6, 51-b.]. Ayin paytda esa bu ma'lumotlar o'rganilayotgan hudud taomlanish madaniyatining o'ziga xosligini ko'rsatadi.

Mintaqa aholisi nonni asosan, to'rt usulda pishirishgan: tandirda, tovada, bundan tashqari, qozonda va cho'g'da qo'yib pishirish usullari ham bo'lgan. Keyingi usulda non pishirish asosan, tog' va tog' oldi tojik qishloqlarida urf bo'lgan. Bu usulda yopilgan nonlar: noni oshyoni, noni tabagin, noni degin, noni ko'mma deb atalgan [6, 40-b.].

O'rganilayotgan hudud aholisining tandirdan foydalanishida ayni shu hududga xos etnik, lokal udumlari va irim-sirimlari bo'lgan. Yangi tandir o'rnatilayotganda beshta cho'zma qilinib, tandir pirlariga atab chiroq yoqilgan.

Yangi tandirga xonadon xo'jayini birinchi bo'lib, olov qalagan (yoqqan). Olov yoqayotganda hazorispan (isiriq) tashlansa, yangi tandirni yorilishdan saqlaydi, deb ishonilgan. Shuningdek, tandir yorilmasligi uchun unga dastlab olov yoqayotgan kishi, ya'ni, xonadon sohibi olov yoqayotganda og'zini ochmasligi kerak bo'lgan. Yopilgan nonlar yaxshi va chiroyli chiqishi uchun tandirga faqat bir kishi olov yoqqan, birdaniga ikki kishi tandirga o'tin qalamagan. Non yopib bo'lingandan keyin barakasi ketmasin deb tandir og'zi yopib qo'yilgan.

Surxon vohasida qadimdan tandir xosiyatli hisoblanib, g'usl qilmasdan (nopok holda) tandir-o'choq yoniga borish va ular bilan bog'liq anjomlarni qo'lga olish gunoh sanalgan.

Etnologik tahlillar shuni ko'rsatadiki, o'rganilayotgan mintaqa aholisi tandirga qadimdan fayz-baraka, rizq-nasiba, ozodalik va halollik ramzi sifatida qarab, farzandlariga doimo tandir-o'choqlarni ulug'lashga, qadrlashga va doimo toza saqlashga o'rgatganlar. Bu esa ularning animistik qarashlari, qolaversa, urf-odatlar va an'analari bilan bog'liq bo'lgan.

Tandir oldida doimo o'choq bo'lgan.

Tandirda non pishsa, o'choqda ovqat pishgan. Tandir haftada 1–2 marta xonadon ahli uchun xizmat qilsa, o'choq esa har kuni xizmatda bo'lgan. Shuning uchun ham aholi o'rtasida o'choqqa ko'rsatilgan “izzat-ikrom” (ya'ni, yaxshi munosabat) tandirnikidan kam bo'lmagan. Xonadonga yangi tushib kelgan kelinni kuyov hovlisidagi o'choq boshiga olib borib ta'zim qildirgan, o'choq boshida kelinga quyruq to'g'rashgan. Voha qarlularida esa yangi tushgan kelin o'choqqa moy qo'ygan. Buning zahirida “xonadonimiz rizqli-nasibli bo'lsin”, degan ezgu niyat yotgan.

Shuningdek, to'y-ma'rahaning katta o'chog'i to'g'ri kelgan yerdan qazilmay, avvalo, toza, pokiza joy tanlangan. To'y o'chog'ini “to'y-to'yga ulansin, o'choq to'y-tilab tursin”, degan niyatda shirinliklar tashlab ko'mishgan. Ilmiy adabiyotlarda keltirilishicha, qadimgi turkiy xalqlar olovni ayol sifatida tasavvur qilganlar va muqaddas ilohni “O't ona” deb ataganlar [7, 256–263-b.]. Olov-o'choqning issiqligi va yorug'ligi muqaddas kuch sifatida kelin-kuyovga ko'maklashib, ularni ins-u jinlardan poklashga yordam beradi, deb tushunganlar.

Mintaqa aholisining xo'jalik yuritishida va oilani tebratishda ham tandir-o'choqning o'rni nihoyatda muhim bo'lgan. Shuning uchun tandir-o'choq ustida doimo gugurt, tuz, qalampir, pichoq turishi lozim bo'lgan. Ular

tandir-o'choqning barakasi oilaning barakasi deb hisoblangan. Har kuni tandir oldiga borib, yaxshi niyatlar izhor etish kishini murod-maqsadiga yetkazadi, degan tasavvurlarga ega bo'lishgan. Tandir-o'choq e'zozlanganligi uchun unga tuflash, tirnoq, chiqindi va shunga o'xshash nopok narsalarni tashlash gunoh sanalgan, uy hayvonlaridan ot va eshak tezagini yoqish ham man qilingan [6, 93-b.].

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). O'tkazilgan etnografik tahlillar Surxon vohasi aholisining ma'naviy qarashlari va xo'jalik faoliyatida tandir va o'choqning rizq-ro'z, fayz-baraka va oila pokligining asosiy ramzlari sifatida e'zozlanganini tasdiqladi. Tadqiqot natijalari tandir-o'choq qurilishining ijtimoiy-marosimiy qoidalarga bo'ysunishini hamda tovatoshda non yopish kabi lokal usullar mavjudligini ko'rsatadi. Tandir-o'choq bilan bog'liq irim-sirimlarning keng tarqalgani aholining ularni oddiy anjom emas, balki muqaddas kuch manbai sifatida qabul qilganidan dalolat beradi. Xulosa qilib aytganda, tandir va o'choq Surxon vohasi aholisi uchun xalqning chuqur etnik qatlamlari, ijtimoiy qoidalari va muqaddaslikka bo'lgan munosabatini o'zida mujassam etgan asosiy madaniy qadriyat hisoblanadi.

ADABIYOT VA MANBALAR RO'YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES):

1. Бўриев О. Қозон – ризқу рўз ва қут-барақа рамзи... – Б. 87.
2. Маҳмудов К. Ўзбек тансиқ таомлари... – Б. 16, 17.
3. Турсунов Н. Жанубий Сурхон воҳаси этнографияси... – Б. 92.
4. Жабборов И. Ўзбек халқи этнографияси... – Б. 51–52.
5. Шаниязов К. Ш., Исмаилов Х. И. Этнографические материалы... – С. 107; Жилина А. Н. Современная материальная культура сельского населения Ташкентской области Узбекской ССР (Материальная культура народов Средней Азии и Казахстана). – М.: Наука, 1966. – С. 119.
6. Файзуллаева М. Сурхон воҳаси ижтимоий ҳаётида таомлар билан боғлиқ анъана ва маросимлар... – Б. 40, 51, 93.
7. Токарев С. А. Ранние формы религии. – М., 1964. – С. 256–263.
8. Dala yozuvlari. Surxondaryo viloyati Oltinsoy tumani Chinor qishlog'i. 2023-yil.

MUNDARJA

TARIX

Бекпўлат Умурқулов. Термиз давлат университети профессори, филология фанлари доктори. **Шариф Ёқубов.** Термиз давлат университети доценти, филология фанлари номзоди. *“Қуруқ қўл билан келмадим”*3

Турсунов Сайпулло Нарзуллаевич. Термиз давлат университети Жаҳон тарихи кафедраси профессори, тарих фанлари доктори. *Бухоро амирлиги даврида шимолӣ Сурхон воҳаси: тарих ва таҳлил. (XVIII – XX аср биринчи чораги)*7

Соҳибназар Каримов. Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти профессори, фалсафа фанлари доктори. *“Авесто”да жамиятнинг пайдо бўлиши ва тараққиёти масалалари*17

Худайбердиев Хурсанд Худайбердиевич. Термиз муҳандислик-технология институти Ижтимоий-гуманитар фанлар кафедраси доценти, фалсафа фанлари номзоди. *Миллий маданиятимизнинг тараққиёти давр талабидир*23

Хўшбоқов Панжи Шойманович. Тошкент давлат тиббиёт университети Термиз филиали доценти, тарих фанлари номзоди. *Жанубий Ўзбекистонда тўқимачилик хонашў базаси, ишлаб чиқариш қувватлари ва аҳоли меҳнат ресурсларининг жойлашувидаги ўрни*31

Исаев Ойбек Ахмед ўғли. Термиз давлат Педагогика институти Тарих кафедраси мудири, тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD). *XX аср бошларида Сурхондарё вилоятида кўнгил очар муассасаларининг ташкил этилиши ва раҳбар кадрлар фаолияти*41

Хидиров Холмамат Жўраевич. Термиз давлат педагогика институти, Педагогика ва ижтимоий фанлар факультети, Тарих кафедраси профессори в.б., тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD). *Чор Россияси ва Совет ҳокимияти даврида Сурхондарё вилоятида транспорт тизими: тарихий-иқтисодий таҳлил*46

Abdullayeva Nasibaxon Arabovna. Andijon davlat pedagogika instituti Ijtimoiy fanlar kafedrası professorı v.b., tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD). *Tarixiy madaniy obyektlarni didaktik funksiyalari*52

Бўриев Соатмўмин Донаевич. Андижон давлат педагогика институти Ижтимоий фанлар кафедраси доценти, тарих фанлари номзоди. *Сув ресурсларидан оқилона фойдаланиш – давр талаби*56

Алланов Қилич Аллақулович. Термиз давлат университети География кафедраси доценти, география фанлари номзоди. **Чориев Абдиқайим Қодирович.** Термиз давлат университети География кафедраси катта ўқитувчиси. *Сурхондарё вилояти ер усти сув ресурслари ва улардан самарали фойдаланиш (Тўпаланг сув омбори мисолида)*63

Rizayev Baxtiyor Nazarboyevich. Buxoro davlat universiteti Arxeologiya va Buxoro tarixi kafedrası dotsenti, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD). *Kolxozlar ishlab chiqarishida MTSlarning roli (1954–1956 yy.)*70

Абдукаюмов Асрор Раимович. Термиз давлат университети Археология кафедраси доценти, тарих фанлари номзоди. *Даврлаштиришнинг цивилизация ёндашуви шаклланиши масаласига доир*.....72

Ikromov Nozim Muzrapovich. Termiz davlat universiteti Tarix fakulteti O‘zbekiston tarixi va manbashunoslik kafedrasida dotsenti v.b., tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD). **Fayziyev Abdusamad Abduxoliq o‘g‘li.** Termiz davlat universiteti Tarix fakulteti O‘zbekiston tarixi va manbashunoslik kafedrasida o‘qituvchisi, Termiz davlat universiteti tayanch doktoranti. *Buyuk Ipak yo‘lidagi ot savdosida xalqaro tashkilotlarning roli (Choy va ot savdosi agentligi misolida)*.....77

Bokiyev Anvar Axmedovich. Termiz davlat universiteti O‘zbekiston tarixi va manbashunoslik kafedrasida dotsent v.b., tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD). *Tarix fanlari bo‘yicha ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengashlar faoliyatining infometrik va statistik tahlili*.....82

Allayev Murod. Ichki ishlar vazirligi Qashqadaryo akademik litseyi “Huquqiy va ijtimoiy-gumanitar fanlar” kafedrasida mudiri, dotsent v.b. *Qashqadaryo viloyatida madaniy meros obyektlarini asrash va ularda turizm sohasini rivojlantirish imkoniyatlari*.....90

Хамроев Шухрат Шарофович. Мактабгача таълим ташкилотлари директор ва мутахассисларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш институти “Ижтимоий фанлар” кафедраси катта ўқитувчиси. *Бозор иқтисодиётининг шаклланиши ва унинг Ўзбекистонда ривожланиши тарихи хусусида айрим мулоҳазалар*.....98

Абдукаюмова Наргиза Раимовна. Соискатель Термезского государственного университета. *О формировании промышленной добычи соли в Сурхандарьинской области*.....104

Sharifov Ehronbek Erkin oglu. Scientist of the Educational Methodological Department of Termez State University. *Interaction and Opposite Influence of Ancient Oriental Civilization and Oks Civilization*.....108

Шохрух Саидмуродов. Жиззах вилояти педагогик маҳорат маркази “Методик хизмат кўрсатиш” бўлими ижтимоий фанлар методисти. *Ўзбекистонда эркин иқтисодий зоналар мавзусини тадқиқ этишнинг тарихиунослиги масалалари*.....115

Quvvatova Shahnoza. Termiz arxeologiya muzeyi yetakchi mutaxassisi. *Sopollitepa va ilk o‘zbek davlatchiligining ildizlari*.....120

Jalilov Doston Muhiddin o‘g‘li. Termiz davlat universiteti O‘zbekiston tarixi va manbashunoslik kafedrasida tayanch doktoranti. *Oks sivilizatsiyasi yodgorliklari geografiyasi*..124

Xomidov Abror Xushniyozovich. Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti tarix fakulteti tarixshunoslik va manbashunoslik kafedrasida o‘qituvchisi. *Ikkinchi jahon urushidan keyingi yillarda O‘zbekiston xalq xo‘jaligining tiklanishi va rivojlanishining tarixiy tahlili*.....130

Axatov Ilxomjon Nimatillayevch. Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti mustaqil izlanuvchisi. *O‘zbekiston va Malayziya davlatlari o‘rtasidagi hamkorlikning huquqiy asoslarini*

yo'lga qo'yilish tarixi.....137

Chorshanbiyev Mashrab. Termiz iqtisodiyot va servis universiteti o'qituvchisi. *Ikkinchi jahon urushdan keyingi davrida Surxondaryo viloyatida uy-joy, kommunal xizmatlar va ijtimoiy ta'minot tizimi tahlili.....143*

Хамраев Жалолиддин Амиркул ўғли. Сурхондарё вилояти Жарқўрғон тумани 16-сонли мактаб Тарих фани ўқитувчиси. *XIX asr oxiri – XX asr bo'ylarida janubiy Ўзбекистон aholisi moddiy madaniyatiga oid manbalar tahlili.....148*

Xalilov Akbar Xalilovich. Surxondaryo viloyati ichki ishlar boshqarmasi xodimi. *Mustaqillik yillarida Surxondaryo viloyatida diniy tashkilotlar faoliyati: rivojlanish, bag'rikenglik va ma'rifat.....154*

ETNOGRAFIYA

Очил Бўриев. Қарши давлат университети профессори. *Этнография илмига ва этномузейшуносликка бахшида умр.....159*

Raxmonov faxriddin Shoymardonovich. Qarshi davlat universiteti professori, tarix fanlari doktori (DSc). *O'zbeklarda suvdan foydalanish va undagi boshqaruv tizimi tarixidan (XIX asr oxiri — XX asr ikkinchi yarmi).....163*

Eshkurbonov Sirojiddin Bozorovich. Termiz iqtisodiyot va servis universiteti dotsenti, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD). *Mustaqillik yillarida Surxon vohasi aholisi xo'jaligidagi o'zgarishlar (Dehqonchilik misolida).....167*

Dulanov Otabek Yuldashevich. Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Tarix va falsafa kafedrasi dotsenti, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD). *Jizzax vohasi yuz (juz)larining donli taomlarida an'anaviylik va transformatsion jarayonlar.....173*

Наргиза Раҳматуллаева. Республика Маънавият ва маърифат маркази Сурхондарё вилояти бўлими раҳбари. *Бахшичилик ҳаётим мазмунига айланган: Зулҳумор бахши ҳаётдан лавҳалар.....177*

Jalilova O'g'iloy Abduqodir qizi. Surxondaryo viloyati Jarqo'rg'on tumani 5-sonli maktabi tarix fani o'qituvchisi. *Surxon vohasida muqaddas qadamjolarining diniy-ma'naviy hayotdagi o'rni.....181*

Muxammadiyev Zoxid Odinamuxammat o'g'li. Toshkent shahar Yunusobod tumani “SALES DOCTOR SOLUTIONS” ma'suliyati cheklangan jamiyati mutaxassisi. *Surxon vohasi aholisi ma'naviy qarashlari va xo'jalik faoliyatida tandir va o'choqning etnografik tahlili.....185*

СУРХОНДАРЁ ВИЛОЯТИ ҲУДУДИЙ ИННОВАЦИЯ ФАОЛИЯТИ ВА ТЕХНОЛОГИ-
ЯЛАР ТРАНСФЕРИ МАРКАЗИ ҲАМДА СУРХОНДАРЁ ФАН ВА ТЕХНОЛОГИЯЛАР-
НИ

РИВОЖЛАНТИРИШ МАРКАЗИ ИЛМИЙ ЖУРНАЛИ

НАУЧНЫЙ ЖУРНАЛ ЦЕНТРА РЕГИОНАЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ И ТРАНС-
ФЕРА ТЕХНОЛОГИЙ СУРХАНДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ И ЦЕНТРА РАЗВИТИЯ
НАУКИ И ТЕХНОЛОГИЙ СУРХАНДАРЬИ

SURKHANDARYA REGIONAL TERRITORIAL INNOVATION ACTIVITY AND TECH-
NOLOGY TRANSFER AND SURKHANDARYO SCIENTIFIC JOURNAL OF SCIENCE AND
TECHNOLOGY DEVELOPMENT CENTER

Илм келажасимиз равнақидир

СУРХОНДАРЁ: ИЛМ ВА ТАФАККУР
SURXONDARYO: ILM VA TAFAKKUR
СУРХАНДАРЬЯ: НАУКА И МЫШЛЕНИЕ
SURKHANDARYA: SCIENCE AND
CONTEMPLATION

Илмий мақолалар журнали

N-3 2025

**«СУРХОНДАРЁ: ИЛМ ВА ТАФАККУР» ЖУРНАЛИДА ЧОП
ЭТИЛАДИГАН МАҚОЛАЛАРГА ҚЎЙИЛАДИГАН ТАЛАБЛАР**

“SURXONDARYO: ILM VA TAFAKKUR” JURNALI TAHRIRIYATIDAN

“Surxondaryo: ilm va tafakkul” jurnali yiliga 4 marta (har chorakda) nashr qilinadi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy Attestatsiya komissiyasi (OAK)ning 2021 yil 12 dekabrda № 01-06/25-04 raqamli xati asosida ro‘yxatga olingan. Jurnal “Tarix” ixtisosligi bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan. Jurnalda o‘zbek, rus va ingliz tillaridagi maqolalar nashr etiladi. Maqolalar quyidagi tartibda qabul qilinadi: maqola hajmi 6 sahifadan kam bo‘lmasligi lozim. Maqola tahririyatga Times New Roman shrifti, 14 o‘lchovda, 1,5 qator oralig‘ida, chap tomondan 3 sm, qolgan tomonlardan 2 sm qoldirilgan holatda A4 formatli standart qog‘ozda Word 2000-2023 dasturi, doc yoki docx formatida tursunovsafullo12@mail.ru elektron pochta manzili hamda +998 91 577 90 50; +998 97 695 67 55 raqamli telegram sahifalari orqali qabul qilinadi.

Maqolaga tegishli fan sohasi bo'yicha fan doktori, professor, fan nomzodi, dotsent yoki tegishli fan bo'yicha falsafa doktori (PhD) darajasiga ega bo'lgan xodimning taqrizi talab qilinadi (Ilova tariqasida maqolaga yozilgan taqrizning imzolangan nusxasi rangli holatda, skanerlangan variantda yuborilishi kerak).

Maqolani rasmiylashtirilganda, dastlab yuqori chap tomondan UO'K (UDK) qaydi, bir oraliqdan so'ng bosh harflarda maqola mavzusi, keyingi satrda muallif(lar)ning ismi, sharifi, otasining ismi, ilmiy darajasi va ilmiy unvoni, ish joyi va lavozimi to'liq, o'zbek, ingliz va rus tillarida yoziladi. Keyin o'zbek, rus va ingliz tillarida annotatsiya va kalit so'zlar keltiriladi. Matnda adabiyotlarga havola kvadrat qavslerde ko'rsatiladi. Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati amaldagi davlat standartlari asosida rasmiylashtiriladi. Maqolalar kirill va lotin alifbosida qabul qilinadi.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRINING 2024-YIL 31-YANVARDAGI 24-SON BUYRUG'IGA BINOAN maqolalar xalqaro IMRAD talablari asosida quyidagi namuna bo'yicha qabul qilinadi:

NAMUNA

MAVZU (O'ZBEK, INGLIZ, RUS TILLARIDA)

Qarshiyev Islom Maxmarahim o'g'li, ish joyi, lavozimi, ilmiy unvon (o'zbek, ingliz va rus tillarida), elektron pochta manzili, muallifning ORCID identifikatori, ya'ni identifikatsiya raqami; maqolaning DOI raqamli obyekt identifikatori (DOI.org platformasidan ro'yxatdan o'tganligini tasdiqlovchi identifikator raqami).

Annotatsiya (Abstract / Аннотация): Annotatsiya o'rtacha 200-250 so'zdan iborat bo'lishi lozim. Agar maqola o'zbek va rus tilida yozilgan bo'lsa, Annotatsiyadan keyin, albatta, ingliz tilida ABSTRACT beriladi.

Kalit so'zlar (Key words / Ключевые слова): Kalit so'zlar o'rtacha 8-12 so'zdan iborat bo'lishi lozim.

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION) Kirish, kirish, kirish, kirish, kirish, kirish, kirish, kirish, kirish, kirish, kirish, kirish, kirish,
kirish, kirish, kirish, kirish, kirish, kirish.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД / MATERIALS AND METHODS)

Materiallar va metodlar, materiallar va metodlar, materiallar va metodlar, materiallar va metodlar, materiallar va metodlar, materiallar va metodlar [1] (iqtibos)

МУНОКАМА (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION)

Muhokama va natijalar; muhokama va natijalar; muhokama va natijalar; muhokama va natijalar; muhokama va natijalar; muhokama va natijalar [2] (iqtibos)

NATIJALAR (PEZULYATY / RESULTS) Muhokama va natijalar; muhokama va natijalar; muhokama va natijalar; muhokama va natijalar; muhokama va natijalar; muhokama va natijalar [2] (iqtibos)

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION) Xulosa, xulosa, xulosa, xulosa, xulosa, xulosa, xulosa, xulosa, xulosa, xulosa, xulosa,
xulosa, xulosa, xulosa, xulosa, xulosa, xulosa, xulosa, xulosa.

ADABIYOTLAR RO'YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES)

1. G'oziyev.E.G'. Umumiy psixologiya –T.: Sharq, 2010. – B. 459.
2. Doniyorov H.T. O'zbekistonda dunyoviylik va diniylik muvozanatini ta'minlash – ijtimoiy barororlikning bosh omili sifatida. "Jamiyat va boshqaruv" jurnali. Toshkent, 2018 yil - № 2 - B. 57- 61.
3. Buranov S.M. China's geopolitical role and influence in solving the modern Afghan problem // International conference «Scientific research of the SCO countries: synergy and integration», Beijing. 2020. – P.127-132.
4. Rahmatjonova K. Hindiy va o'zbek tillaridagi kelishik shakllarida izomorfizm hodisasi // Ilm sarchashmalari. - Urganch davlat universitetining ilmiy-metodik jurnali, №1, 2019 yil. - B.38-40.
5. Pulatova M.R. Handwritten copies of «Arba'in»works // Indonesian Journal of Education Methods Development. Volume 8, November 2019. – P. 194-196. ISSN: 0738-0593 (№23, SJIF – 5.083).
6. Barduhn, S. (2014). Developing cross-cultural awareness in the monolingual classroom. Teaching English, British Council, BBC. <https://www.teachingenglish.org.uk/article/developingcross-cultural-awarenessmonolingual-classroom-0> (adabiyotlar shu tartibda yozilishi lozim)

Maqolada keltirilgan ma'lumotlarning aniqligi va to'g'riligiga mualliflar javob beradi.

Bog'lanish uchun muallifning telefon raqami, elektron pochta manzili ko'rsatilishi shart. Muallifning sifatli fotosuratining elektron shakli taqdim etilishi lozim.

Tahririyat maqolalarni tahrir qilish va qisqartirish huquqiga ega. Talab darajasida rasmiylashtirilmagan maqolalar jurnalda e'lon qilinmaydi. Maqola mualliflariga tahririyat qo'lyozmalarni qaytarish va yozma javob berish majburiyatini olmaydi. Maqolani tahrir qilish, nashrga tayyorlash va chop qilishga ketadigan xarajatlarni qoplash uchun __ ming so'm miqdorida badal puli to'lanadi.

“Surxondaryo: ilm va tafakkur” jurnalining mavjud sonlari bilan nashrning rasmiy sayti <https://surxondaryoilmtafakkur.uz> orqali tanishishingiz va yuklab olishingiz, telegram kanalga <https://t.me/surxondaryoilmtafakkur> havolasi orqali kirishingiz mumkin.

“Surxondaryo: ilm va tafakkur” jurnali bosh muharriri Tursunov Saypulla Narzullayevich.

Tel: +998 91 577 90 50; +998 97 695 67 55